4. Tarqalishi. Toshkent, Namangan va Surxondaryo viloyatlari: G‘arbiy Tiyonshon (chotqol, Qurama, Piskom) va Pomir-Oloyda (Hisor tizmasining janubiy qismi va Boysun tog‘lari) tarqalgan. Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida ham qayd etilgan. Turning tarqalish areali (EOO) – 23,842.975 km^2 va egallagan maydoni (AOO) – 52.000 km^2 ni tashkil etadi (4-rasm).



4-rasm. *Restella alberti* (Regel) Pobed. GeoCAT xaritasi.

5. O‘sish muhiti. Tog‘larning pastki va o‘rta qismidagi archazorlarda, 1200-2200 m balandlikda o‘sadi.

6. Soni. 2024-yilda Namangan viloyatining Qamchiq dovonida olib borilgan dala tadqiqotlari davomida 20 tupi qayd etildi.

7. Foydalanilishi. Foydalanilmaydi.

8. Madaniylashtirilishi. Madaniylashtirilmagan**.**

9. Muhofaza choralari. Ugom-chotqol milliy tabiat bog‘ida muhofaza qilinadi.

10.Tuzuvchilar. R.G‘ulomov, A.Batoshov

4. *Salvia margaritae* Botsch. Margarita marmaragi. Шалфей Маргариты

1. Maqomi. EN – B1a,b(i, iii, iv) + B2a,b(iii). Oloy tizmasining tog‘oldi hududlarida tarqalgan kamyob o‘simlik.


2. **Tahdidlar.** Urug‘ hosildorligining pastligi, chorva mollarini tartibsiz boqilishi, dam olish maskanlarini qurilishi tur populyatsiyasini qiqarishiga sabab bo‘lmoqda. Tur O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobining avvalgi nashrlariga 2-kamyoblik darajasi maqomi bilan kiritilgan [31].

3. Qisqacha tavsifi. Bo‘yi 50 sm ga yetadigan yarim buta. Poyalari ko‘p, asosidan shoxlangan. Barglari mayda, nashtarsimon, bandsiz. Kosacha barglarining uzunligi 18 mm,

binafsha rangli, bezchasimon tukli. Tojbarglari to‘q binafsha rangli bezchasimon tukli, uzunligi 30-40 mm. Iyunda gullab, mevasi iyul oyida yetiladi [17, 18, 19].

4. **Tarqalishi.** Tur Shoximardon va So‘x hududlarida tarqalgan (Farg‘ona viloyati). Qirg‘iziston hududida ham uchraydi. Turning tarqalish areali (EOO) – 170 km^2 va egallagan maydoni (AOO) – 28 km^2 ni tashkil etadi (5-rasm).

5. **O‘sish muhiti.** Tog‘larning o‘rta qismidagi toshli-shag‘alli ochiq yonbag‘irlarda, 1600-2200 m balandlikda o‘sadi.



5-rasm. *Salvia margaritae* Botsch. GeoCAT xaritasi.

6**. Soni.** 2024-yilda olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida Shoximardon daryo havzasida 2 ta populyatsiya qayd etildi. Tuplarning soni 50 tadan oshmaydi. Turning sinil holatdagi tuplarida o‘rtacha 50 dona guldan, 3-4 tasida yetuk urug‘lar borligi va ularning ham 1-2 tasi hasharotlar tomonidan zarar yetkazilganligi aniqlandi. Yetilgan urug‘lar asosan o‘rta yoshdagi tuplarda qayd etilgan.

7. Foydalanilishi. Dorivor o‘simlik sifatida foydalaniladi.

8. **Madaniylashtirilishi.** Madaniylashtirilmagan.

9. **Muhofaza choralari.** Alohida muhofaza choralari ishlab chiqilmagan. Maxsus chora-tadbirlar sifatida, laboratoriya sharoitida urug‘larining unuvchanligini o‘rganish va Botanika bog‘larida ekib o‘stirishni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

10.**Tuzuvchilar.** R. G‘ulomov, X.R.Xoshimov,

5. *Phlomoides kirghisorum* Adylov, Kamelin & Makhm. Qirg‘iz flomoidesi, Фломоидес Кыргызский

1. Maqomi 2. EN – B1ab(ii,iii) + 2ab(ii,iii,iv); S1. Fag‘ona vodiysini shimoli-sharqiy hududidagi kamyob subendemik o‘simlik.

2. **Tahdidlar.** chorvachilik, bog‘dorchilik, sanoat zonalari va rekreasion omillar (dam olish maskanlari, sanatoriya va boshqalar) o‘sish maydonlari uchun asosiy tahdidlar hisoblanadi**.** 2020-2025 yillarda turning qayd etilgan o‘sish maydonlarining (O‘zbekiston qismi) 90% odamlar tomonidan sanoat zonalari (sement zavodi) va agrotsenozlarga (mevali bog‘lar) aylantirilgani aniqlandi. Bundan tashqari, hasharotlar tomonidan o'simlik urug'larining zararlanishi kuzatilgan.

3. Qisqacha tavsifi. Poyasi 40-60 sm keladigan, yon ildizlari tugunaksimon ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi tik, bir yoki bir nechta, yuqori qismi odatda shoxlangan. Poya bo‘g‘inlari oddiy turklar bilan zich qoplangan. Ildiz oldi barglari 10–20 sm, cho‘zinchoq-tuxumsimon yoki teskari lansetsimon, barg plastinkasi patsimon bo‘lingan yoki qirqilgan, segmentlarini bo‘laklanishi tartibsiz, o‘tkir yoki to‘mtoq tishli Poyada joylashgan barglari patsimon bo‘lingan, kamdan-kam

hollarda butun. To‘pgullari barg qo‘ltig‘ida to‘p (6–10 ta) bo‘lib joylashgan. Gulkosacha naysimon (ba’zan qo‘ng‘iroqsimon). Gulkosacha barflari ingichka-bigizsimon. Gultoji 20–25(32) mm, oq, pushti-binafsha rang. Changchi iplari 4 ta. changdonda taroqsimon o‘simtalari bor. Urug‘chisi 1 ta, 2.0 sm. Aprel-may oyida gullaydi, mevasi may-iyun oyida etiladi.

4. Tarqalishi. Janubiy chotqol, Farg‘ona va Sharqiy Oloy (O‘zbekiston, Qirg‘iziston)ning toshloq-shag‘alli va qizil qumtoshli yon bag‘irlaridagi tuproqlarda o‘sadi. Tarqalish maydoni (EOO) – 2.996 km^2. Turning populyatsiyalari egallagan maydon (AOO) – 40 km^2. Farg‘ona vodiysi uchun endem (6-rasm).



6-rasm. *Phlomoides kirghisorum* GeoCAT xaritasi

5. O‘sish muhiti. Adir va to‘larni quyi qismidagi toshli-shag‘alli, ola jinsli yonbag‘irlarda o‘sadi (dengiz sathidan 600–1600 m balandlikda).

6. Soni. 2020-2025-yillarda olib borilgan maqsadli dala tadqiqotlari natijasida 1000-1200 tupi borligi aniqlangan. O‘zbekistonda 120 km^2 (Namangan viloyati: Iskavot, Gulshan va Arbag‘ish qishloqlari) bo‘lgan ushbu turning atigi 3 ta subpopulyatsiyasi saqlanib qolgan. Subpopulyatsiyada taxminan 400-450 individ mavjud. Reproduktiv ko‘rsatkichga ega individlar 150-200 tashkil qiladi.

7. Foydalanilishi. Ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan farmakologik va dorivor oziq-ovqat qo‘shimchalarini olish uchun to‘planadi.

8. Madaniylashtirilishi. Madaniylashtirilmagan.

9. Muhofaza choralari. Alohida muhofaza chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan.

10. Tuzuvchilar. R.K.G‘ulomov [20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 34].

XULOSALAR

Mashrutli dala tadqiqotlari va amalga oshirilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki Farg’ona vodiysida tarqalgan turlar IUCN ro’yxatiga olinmaganligi va Farg’ona vodiysi Markaziy Osiyo mintaqasidagi tabiiy qo’riqxonalardan deyarli ajiralgan holda joylashganligi aniqlandi.

Olingan natijalar “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish” amaliy tadqiqot loyihasi (AL–9224104319-sonli)da belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini 2018-yil 1034-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғуломов Р.К. Фарғона водийсида тарқалган *Phlomoides* Moench туркуми (таксономияси, географияси, экологияси ва муҳофазаси): автореф. дисс. PhD. –Тошкент: 2022. – б. 43.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
4. Moscow university virtual herbarium (https://plant.depo.msu.ru, accessed on 25 Aprel 2024)
5. Global Biodiversity Information Facility. 2024. Free and open acces to biodiversity data. Retrieved aprel 30, 2024, available from https://www.gbif.org.
6. Plants of the World Online. 2024. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Retrieved Aprel 30, 2024, available from https://www.plant softheworld online.org/
7. International Union for the Conservation of Nature. 2019. Guidelines for Using the IUCN Red List Categories and Criteria; Version 14; Prepared by the Standards and Petitions Subcommittee. Retrieved September 6, 2023, available online: https://www.iucnredlist.org/resources/redlistguidelines
1. 8. International Union for the Conservation of Nature. 2012b. IUCN Red List Categories and Criteria: Version 3.1. Second edition. Gland, Switzerland and Cambridge, UK: IUCN. Available at www.iucnredlist.org/technical-documents/ categories and criteria.
8. Bachman S, Moat J, Hill A, de la Torre J, Scott B (2011) Supporting Red List threat assessments with GeoCAT: geospatial conservation assessment tool. ZooKeys 150: 117-126. https://doi.org/10.3897/zookeys.150.2109
9. World Database on Protected Area. 2023. Retrieved Aprel 25, 2024, available from https://www.protectedplanet.net/en.
10. Бондаренко О.Н. Семейство Bignoniaceae // Флора Узбекистана. Т.5. Ташкент: АН УзССР, 1961. – С. 498-499.
11. Набиев М.М. Семейство Bignoniaceae // Определитель растений Средней Азии, т.9. Ташкент: Фан УзССР, 1987. – С. 270.
12. Сенников А.Н. (ред.) 2019. Флора Узбекистана, т. 3. Издательство «Маънавият», Ташкент. xii + 146-147 с.
13. Коровин Е.П. Иллюстрированная монография рода Ferula. Ташкент: АН УзССР, 1947. – С. 33, 43, 64.
14. Пименов М.Г. Ferula L. – Ферула, шаир // Определитель растений Средней Азии. Т. VII. Ташкент: Фан, 1983. – С. 276-313.
15. Lei Wang, Liqiang Fan, Zhenyong Zhao, Zhibin Zhang, Li Jiang, Mao chai and changyan Tian. The *Capparis spinosa* var. *herbacea* genome provides the first genomic instrument for a diversity and evolution study of the Capparaceae family *GigaScience*, 2022, 11, 1–14.
16. Камелин Р.В., Махмедов А.М. Ў систематическом положении среднеазиатских видов *Salvia* из секции *Physosphace* //Бот. журн. 1980. Т. 65. №4. – С. 580-582.
17. Победимова Е.Г. Род *Salvia* // Флора СССР. Т.21. М.-Л.: АН СССР, 1954. – С. 284-278.
18. Рахмонова А.С. и др. Хиноны *Salvia bucharica*, *S. dracocephaloides*, *S. korolkowii* // ХПС. 1980. №4. – С. 564.

19. Adylov T.A., Kamelin R.V., Makhmedov A.M. Notes on the family of Lamiaceae Novit. Syst. Pl. Vasc. 1986. T. 23. P. 110-114. (in Russian)
20. Adilov T.A., Makhmedov A.M. Phlomoides Moench. Key to plants of Central Asia. - Tashkent: Fan, 1987. - T. 9. - 99 p. (in Russian)
21. Khudoiberdiev T.Kh. Lamiaceae and vegetation cover of the Fergana Valley. Doctor of Biological Sciences // Tashkent: 1995. (2). – 4-265 p. (in Russian)
22. Lazkov G.A. 2011. Genus Phlomoides (Lamiaceae) in Kirghizia // Komorovia. V. 7. P. 1-64.
23. Lazkov G.A. Family Labiatae Juss. in flora of Kyrgyzstan. – Pocheon, Republic of Korea, 2016. – P. 176-215.
24. Ibrokhimova G.A. Anthropogenic transformation of the vegetation cover of the northern region of the Fergana Valley. Dissertation Ph.D. - Namangan, 2020.
25. Gulomov R.K., Batoshov A.R. On conservation of Phlomoides kirghisorum and Phlomoides michaelis (Lamiaceae) species // Andijan State University Scientific Bulletin "Scientific Bulletin Series: Biological Research". - Andijan, 2021. - No. 8 (60). - B. 16-28. (in Uzbek)
26. Gulomov R.K. Distribution of the genus Phlomoides Moench in the Fergana Valley (taxonomy, geography, ecology and conservation): avtorefarat Dissertation PhD. –Tashkent: 2022. – p. 43. (in Uzbek)
27. Dilshod Nuridinov, Rustam Gulomov, Bakhrom Toxtasinov (2023). Bioclimatic Modeling of Phlomoides Kirghisorum (Lamiaceae) Species Distributed in Fergana Valley. International Journal of Current Science Research and Review, 6(4), 2568-2575. https://doi.org/10.47191/ijcsrr/V6-i4-39
28. Haydarova D.R. Extraction of medicinal food additives from some species of Lamiaceae plants. Dissertation Ph.D. - Andijan. 2022.
29. Красная книга Узбекской ССР. Ч. 2. Растения. Ташкент: Фан, 1984.
30. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения. Ташкент: “Chinor ENK”, 1998.
31. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: “Chinor ENK”, 2006.
32. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: “Chinor ENK”, 2009.
33. Tojibaev KS, Karimov FI, Hoshimov HR, Gulomov R, Lazkov GA, Jang C-G, Gil H-Y, Jang J-E, Batoshov AR, Iskandarov A, Choi HJ (2023) Important plant areas (IPAs) in the Fergana Valley (Central Asia): Th Bozbu-TooUngortepa massif. Nature Conservation 51: 13–70. https://doi.org/10.3897/ natureconservation.51.94477
34. Sheraliev OK, Karimov FI, Kor L, Batoshov AR, Baasanmunkh S, Jang JE, Jung J, Gil H-Y and Choi HJ (2025) Conservation priorities in Central Asia: the Shorsuv Massif IPA and its role in the Fergana Valley’s biodiversity. Front. Conserv. Sci. 6:1629529. https://doi:10.3389/fcosc.2025.1629529

05.00.00 – Texnika fanlari

05.00.00 – Technical sciences

05.00.00 – Технические науки

УДК 621.175

ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI KONDENSATOR QURILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI (IES KONDENSATORLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH)

B. X. Yunusov, B.R. Mamadiyev
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti. Universitet Ko'chasi 2, Toshkent. O'zbekiston
E-mail: mamadiyev.bozor@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.17865341

Annotatsiyasi: Ushbu maqola issiqlik elektr stansiyalari (IES) samaradorligini bevosita belgilovchi bug' turbinasi kondensatorlarining ish faoliyatini optimallashtirish usullarini tahlil qiladi. Kondensatorning asosiy ko'rsatkichlari — vakuum darajasi va issiqlik uzatish koeffitsiyentiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar (ifloslanish, havo so'rilishi) o'rganilgan. Amaliy tavsiyalar yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari hamda o'zimizning ilmiy izlanishlarimiz asosida berilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, kompleks yondashuv orqali stansiyaning umumiy issiqlik samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Kalit so'zlar: kondensator, aralash sovitish, vakuum, FIK, issiqlik elektr stansiyasi, vakuum darajasi, energiya samaradorligi, termodinamik tizim.

METHODS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF THERMAL POWER PLANT CONDENSER UNITS (PERFORMANCE ANALYSIS OF TPP CONDENSERS)

B. X. Yunusov, B.R. Mamadiyev
Tashkent state technical University Named after Islam Karimov. 2 Universitet Street, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes methods for optimizing the performance of steam turbine condensers, which directly determine the efficiency of thermal power plants (TPP). Factors adversely affecting key condenser performance metrics—vacuum level and heat transfer coefficient (e.g., fouling, air leakage)—are investigated. Practical recommendations are provided based on the scientific research of five leading foreign scholars. Based on the analysis, it is possible to significantly increase the overall thermal efficiency of the plant through a complex approach.

Keywords: condenser, mixed cooling, vacuum, FIK, thermal power plant, vacuum level, energy efficiency, thermodynamic system.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОНДЕНСАТОРНЫХ УСТАНОВОК ТЕПЛОВЫХ ЭЛЕКТРОСТАНЦИЙ (АНАЛИЗ РАБОТЫ КОНДЕНСАТОРОВ ТЭС)

Б. Х. Юнусов, Б. Р. Мамадиев
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова. Улица Университетская, 2, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация: В данной статье анализируются методы оптимизации работы конденсаторов паровых турбин, которые напрямую определяют эффективность тепловых электростанций (ТЭС). Исследованы факторы, отрицательно влияющие на ключевые показатели конденсаторов — уровень вакуума и коэффициент теплопередачи (например, загрязнение, утечка воздуха). Практические рекомендации основаны на научных

исследованиях пяти ведущих зарубежных ученых. На основе анализа, можно значительно повысить общую тепловую эффективность станции за счет комплексного подхода.

Ключевые слова: конденсатор, смешанное охлаждение, вакуум, ФИК, тепловая электростанция, уровень вакуума, энергоэффективность, термодинамическая система.

KIRISH

Issiqlik elektr stansiyalarida kondensator qurilmasi termodinamik jarayonlarning fundamental qurilmasi bo'lib, u Rentkin tsiklining (Rankine cycle) ajralmas qismini tashkil etadi. Kondensatorning asosiy vazifasi turbinadan chiqqan ishlangan bug'ni kondensatsiyalash orqali tizimda optimal vakuum hosil qilish va suyuqlik holatiga o'tkazishdir. Bu jarayon termodinamikaning ikkinchi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi, ya'ni issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirishda muayyan issiqlik miqdori past haroratli manbaga o'tkazilishi shart. Kondensator samaradorligi an'anaviy samaradorlik formulasiga ta'sir ko'rsatadi: $\eta = 1 - (T_2/T_1)$, bu yerda T_1 - issiq manba harorati, T_2 - sovuq manba harorati. Kondensatorning samarali ishlashi T_2 ning pasayishiga olib keladi, bu esa umumiy samaradorlikni oshiradi.

Zamonaviy issiqlik elektr stansiyalarida kondensatorning ahamiyati nafaqat termodinamik jarayonlar bilan, balki iqtisodiy va ekologik omillar bilan ham belgilanadi. Kondensator samaradorligining har 1% pasayishi butun elektr stansiyaning issiqlik samaradorligini 0,3-0,5% ga kamaytiradi (Smith va boshq., 2018). Bu o'z navbatida yoqilg'i sarfining oshishiga va operatsion xarajatlarning ko'payishiga olib keladi. Global energiya talablarining o'sishi, resurslarning cheklanganligi va ekologik standartlarning qattiqlashuvi kondensator tizimlarini izchil takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Kondensatorning samarasiz ishlashining asosiy sabablari orasida ifloslanish, havo so'rilishi, sovutish suvi muammolari va qurilma dizaynidagi kamchiliklar mavjud. Ifiloslanish - bu kondensator quvurlarida minerallar, biologik o'simliklar yoki mexanik qoldiqlarning to'planishi jarayoni bo'lib, issiqlik qarshiligini oshiradi va Fure qonuniga ko'ra issiqlik o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Havo so'rilishi esa esa kondensator ichidagi kondensatlanmaydigan gazlar miqdorini oshiradi, bu esa kondensatsiya jarayonini sekinlashtiradi.

ASOSIY QISM

Kondensator samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar asosan termodinamika, issiqlik uzatish va materialshunoslikning integratsiyalashgan sohalarida olib borilmoqda. Patel va Verma (2019) o'zlarining fundamental tadqiqotlarida kondensator quvurlaridagi ifloslanishning issiqlik uzatish koeffitsientiga ta'sirini o'rganib, uning qiymati $\Delta t = Q/(k \times F)$ formulasiga bog'liq ekanligini aniqladilar, bu yerda Δt - harorat farqi, Q - issiqlik oqimi, k - umumiy issiqlik uzatish koeffitsienti, F - issiqlik almashinuv yuzasi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mexanik tozalash usullaridan foydalanish issiqlik uzatish samaradorligini 15-20% ga oshirishi mumkin, chunki bu ifloslanish qatlamining qalinligini δ kamaytiradi va issiqlik o'tkazuvchanligi λ ni oshiradi. Zhang va hamkasblari (2020) nanoqoplamalar texnologiyasini qo'llash orqali kondensator quvurlarining termofizik xususiyatlarini o'zgartirish mumkinligini isbotladilar. Ularning tadqiqotida Nusselt soni $Nu = \alpha L/\lambda$ formulasi asosida baholandi, bu yerda α - issiqlik berish koeffitsienti, L - xarakterli uzunlik, λ- issiqlik o'tkazuvchanligi. Nanoqoplamalar Nu sonini 25% ga oshirishi aniqlandi, bu esa Reynolds sonining $Re = (\rho \vartheta D)/\mu$ o'zgarishiga olib keladi, bu yerda ρ - zichlik, ϑ- tezlik, μ - dinamik qovushqoqlik.

Ivanov va Petrov (2021) gi o'zlarining innovatsion tadqiqotida sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini joriy etish orqali kondensator ish rejimini optimallashtirish imkoniyatlarini

o'rganib chiqdilar. Ular termodinamik samaradorlikni η = W/Q formula bo'yicha hisoblab, AI tizimlari yordamida yoqilg'i sarfini 1,8% ga kamaytirish mumkinligini aniqladilar. Bu esa yillik 500 MVt quvvatga ega elektr stansiyada 7500 tonna ko'mir sarfini tejashga teng keladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi, uning asosini komparativ tahlil, eksperimental tadqiqotlar natijalarini sintez qilish va matematik modellashtirish usullari tashkil etadi. Har bir texnologiyaning samaradorligi termodinamik va iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida baholandi.

Termodinamik baholash: kondensatorning issiqlik balansi tenglamasi asosida amalga oshirildi: $Q = G \times (h - h)$, bu yerda G - bug' oqimi, h_{kir} va h_{chiq} - mos ravishda kirish va chiqish entalpiyalari. Kondensator samaradorligi esa $\eta_{kon} = (t_{to'y} - t_{chiq})/(t_{to'y} - t_{kir})$ formula bo'yicha hisoblandi, bu yerda $t_{to'y}$ - to'yinganlik harorati, t_{chiq} - sovutish suvi chiqish harorati, t_{kir} - sovutish suvi kirish harorati.

Issiqlik uzatish tahlili uchun asosiy tenglama qo'llanildi: $Q = k \times F \times \Delta t_{ln}$, bu yerda Δt_{ln} - logarifmik o'rtacha harorat farqi: $\Delta t_{lg} = (\Delta t_1 - \Delta t_2)/\ln(\Delta t_1/\Delta t_2)$. Ifiloslanishning ta'siri esa ifloslanish qarshiligi (fouling resistance) $R_{if} = 1/\alpha_{ichki} + 1/\alpha_{tashqi}$ orqali hisoblandi.

ASOSIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH USULLARI

Issiqlik almashinuv yuzasini tozalashning zamonaviy usullari

Ball Cleaning System (Patel va Verma, 2019) kondensator quvurlarini doimiy ravishda tozalab turishning innovatsion usuli bo'lib, u Reynolds sonini optimal darajada saqlashga qaratilgan. Bu tizimda diametri 5-10 mm bo'lgan maxsus to'plar sovutish suvi oqimi bilan birga kondensator quvurlariga yuboriladi va ularning mexanik ta'siri ifloslanish qatlamini $\delta = \delta_0 \times \exp(-k \times t)$ qonuni bo'yicha kamaytiradi, bu yerda δ_0- boshlang'ich qalinlik, k - tozalash konstantasi, t - vaqt. Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu usul yordamida issiqlik uzatish koeffitsienti k qiymatini $k_{yan} = k_{eski} \times (1 + \alpha)$ ga oshirish mumkin, bu yerda α - tozalash samaradorligi koeffitsienti (0,15-0,20 oralig'ida).

Kimyo-fizikaviy tozalash komplekslari ifloslanishning turli turlariga qarshi integral yondashuvni taklif etadi. Zhang va boshq. (2020) tadqiqotlariga ko'ra, kimyoviy tozalash reaksiya kinetikasi bilan tavsiflanadi: $dC/dt = -kC^n$, bu yerda C - ifloslovchi kontsentratsiyasi, k - reaksiya tezlik konstantasi, n - reaksiya tartibi. Nanoqoplamalar bilan birga qo'llanilganda bu usul issiqlik uzatish samaradorligini 35% ga oshirishi mumkin, chunki u Nusselt sonini $Nu_{yan} = Nu_{eski} \times (1 + \beta)$ ga oshiradi, bu yerda β - issiqlik uzatish o'sish koeffitsienti (0,30-0,35).

Nanoqoplamalar Texnologiyasi

Zhang et al. (2020) tomonidan o'rganilgan TiO_2 asosidagi nanoqoplamalar kondensator quvurlarining sirt energiyasini o'zgartiradi va yopishqoqlik xususiyatlarini yaxshilaydi. Bu Kasius tenglamasi (Cassie-Baxter equation) bilan tavsiflanadi: $\cos\theta_c = f_s\cos\theta_s + f_v \cos\theta_v$, bu yerda θ_c - kompozit kontakt burchagi, f - sirt maydoni fraktsiyasi.

Maxwell-Eucken Modeli (Nanoqatlam samarali issiqlik o‘tkazuvchanligi): Bu model ikki fazali (asosiy material va nanozarrachalar) aralashmaning samarali issiqlik o‘tkazuvchanligini baholash uchun ishlatiladi (1-jadval): $\lambda_{eff} = \lambda_m[\frac{(\lambda_p+2\lambda_m)+2\varphi(\lambda_p-\lambda_m)}{(\lambda_p+2\lambda_m)-\varphi(\lambda_p-\lambda_m)}]$

1-jadval. Nanoqatlam samarali issiqlik o‘tkazuvchanligi tasnifi

Parametr	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Izoh
λ_{eff}	Samarali issiqlik o‘tkazuvchanlik	Wt/m*K	Nanoqatlam bilan qoplangan quvurning issiqlik uzatish qobiliyati.

λ_p	Nanozarralar issiqlik o‘tkazuvchanligi	Wt/m*K	
λ_m	Asosiy material issiqlik o‘tkazuvchanligi	Wt/m*K	
φ	Nanozarralar hajm fraktsiyasi	(o‘lchamsiz)	Nanozarralarning umumiy hajm ichidagi ulushi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kondensator samaradorligini oshirishning turli usullari termodinamik tsiklning turli parametrlariga ta'sir ko'rsatadi. Rentkin tsiklining termodinamik samaradorligi $\eta = (h_1 – h_2)/(h_1 - h_3)$ formula bilan ifodalanadi, bu yerda h_1 - turbinaga kirish entalpiyasi, h_2- turbinadan chiqish entalpiyasi, h_3 - kondensat entalpiyasi. Nanoqoplamalar yordamida kondensator samaradorligini oshirish h_3 qiymatini pasaytiradi, bu esa umumiy samaradorlikni oshiradi.

Issiqlik Uzatish Optimizatsiyasi. Kondensatorda issiqlik uzatish jarayoni $Nu = 0{,}023 \times Re^{0,8} \times Pr^{0,4}$ (Dittus-Boelter tenglamasi) bilan tavsiflanadi. AI asosida monitoring tizimlari Re sonini optimal darajada saqlaydi: $Re_{opt} = (4\times m)/(\pi\times D\times \mu)$. Bu esa issiqlik uzatish koeffitsientini k oshiradi. Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, optimal boshqaruv yordamida Nu sonini 20% ga oshirish mumkin, bu esa issiqlik uzatish tezligini proportsional ravishda oshiradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot issiqlik elektr stansiyalarida kondensator samaradorligini oshirishning zamonaviy usullarini har tomonlama tahlil qiladi. Termodinamik, iqtisodiy va ekologik jihatlarni qamrab olgan holda, quyidagi asosiy xulosalarga erishildi:Kondensator samaradorligini oshirish uchun eng samarali usullar qatoriga nanoqoplamalar texnologiyasi, AI asosida monitoring tizimlari, gibrid sovutish tizimlari va innovatsion tozalash usullari kiradi. Ushbu texnologiyalar kondensatorning issiqlik uzatish koeffitsientini 15-35% oshirish, energiya sarfini 1,5-2,5% kamaytirish va ekologik ta'sirni minimallashtirish imkonini beradi. Termodinamik tahlillar shuni ko'rsatdiki, kondensator samaradorligining har 1% oshishi butun elektr stansiyaning umumiy energiya samaradorligini 0,3-0,5% ga oshiradi. Iqtisodiy baholash natijalari esa, ushbu texnologiyalarni joriy etishning o'rtacha qaytarilish muddati 2-4 yil oralig'ida ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yangiliklar issiqlik energetikasida resurslarni tejash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith, J., Brown, A., & Wilson, R. (2018).Advanced Thermodynamic Analysis of Power Plant Condensers. Journal of Thermal Engineering, 45(3), 234-245.
2. Patel, R., & Verma, S. (2019).Multiphase Flow and Heat Transfer in Condenser Tubes. International Journal of Heat and Fluid Flow, 78, 108-119.
3. Zhang, H., et al. (2020).Nanostructured Surfaces for Enhanced Condensation Heat Transfer. Nano Energy, 75, 104-115.
4. Ivanov, S., & Petrov, D. (2021).Machine Learning Applications in Thermal Power Systems. Applied Energy, 285, 116-128.
5. Müller, F., & Schmidt, K. (2022).Sustainable Cooling Technologies for Power Generation. Renewable Energy, 189, 345-356.
6. Kim, J., & Lee, S. (2023).dvanced Materials for Heat Exchanger Applications. Materials Science and Engineering, 865, 144-155.

KESIK KONUSSIMON QUVURLI QUYOSH SUV ISITGICH KOLLEKTORINING ISSIQLIK UZATILISHI VA SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TAHLILI.

Esanaliyeva N.R.
Farg‘ona davlat texnika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.17767470

Annotatsiya: Quyosh energiyasi tobora ko‘proq energiya manbai sifatida e’tirof etilmoqda. Quyosh suv isitgichlari (QSI) energiyani qayta tiklanuvchi manbalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi texnologiyalar qatoriga kiradi. Ushbu maqolada kesikkonussimon absorberli QSI kollektorining eksperimental tadqiqot natijalari, uning foydali ish koeffitsienti (FIK) va issiqlik almashinuv samaradorligi tahlil qilinadi.Quyosh suv isitgich kollektorlarining issiqlik uzatish qobiliyati bir nechta omillarga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: issiqlik almashinuv, kesik konussimon quyosh suv isitgichi,Nusselt soni

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕПЛОПЕРЕДАЧИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ КОЛЛЕКТОРА УСЕЧЕННО-КОНУСНОГО СОЛНЕЧНОГО ВОДЯНОГО НАГРЕВАТЕЛЯ

Аннотация: Солнечная энергия все больше признается в качестве источника энергии. Солнечные водонагреватели (СВН) относятся к технологиям, позволяющим эффективно использовать возобновляемые источники энергии. В данной статье анализируются результаты экспериментального исследования коллектора СВН с усеченно-конусным абсорбером, его коэффициент полезного действия (КПД) и эффективность теплообмена. Теплоотдача коллекторов солнечных водонагревателей зависит от нескольких факторов.

Ключевые слова: теплообмен, усеченно-конусный солнечный водонагреватель, число Нуссельта.

EXPERIMENTAL ANALYSIS OF HEAT TRANSFER AND EFFICIENCY OF A FRUSTUM-SHAPED SOLAR WATER HEATER COLLECTOR

Abstract: Solar energy is increasingly recognized as an energy source. Solar water heaters (SWHs) are among the technologies that allow for the efficient use of renewable energy sources. This article analyzes the results of an experimental study of an SWH collector with a frustum-shaped absorber, its coefficient of useful action (CUA), and heat exchange efficiency. The heat transfer capability of solar water heater collectors depends on several factors.

Keywords: heat exchange, frustum-shaped solar water heater, Nusselt number.

KIRISH

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisoblangan quyosh energiyasidan issiq suv olish uchun foydalanibIssiqlik akkumulyatorli quyosh va yer osti energiyasidan foydalanib absorber orqali suvni isitish va samaradorlikka erishda qurilmaning raqobatbardoshlik tizimini ishlab chiqish uchun uning sutka davomida ishlash rejimini, issiqlik-fizikaviy parametrlarini va texnologik xarakteristikasini optimallashtirish, iqtisodiy jihatidan kriterial baholash muhim masalalardandir.

Turli sharoit va rejimlarda ishlab chiqilgan kesik konus hajm ega quvur absorberli quyosh suv isitgich kollektorida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi.Eksperimental tadqiqotlar turli

vaqtlarda va kunning quyoshli qismining turli soatlarida o‘tkazildi. Tajribalar yordamida bir nechta zaruriy parametrlar aniqlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Konusli quvurli absorberli quyosh suv isitgich kollektoridagi issiqlik uzatish (Q) Vatt/m^2 da quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = GCp(t''-t') \quad (1)$$

G - Suv sarfi kg/s da, Cp - suvning solishtirma issiqlik sig‘imi Vatt/m^2 ^{0}C da, t^2 - chiqishdagi suv harorati ^{0}C da, t^1 - kirishdagi suv harorati ^{0}C

$$\alpha_q = \frac{Q}{\sum F\Delta t} \quad (2)$$

Bu yerda Q -issiqlik miqdori Vt, F –yuza mm, Δt-o‘rtacha harorat ^{0}C.

Quyosh suv isitgich kollektorini absorber uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$L^2=h^2+(R-r)^2 \quad (3)$$

Quyosh suv isitgich kollektorini absorber sirt maydoni quyidagicha aniqlanadi:

$$S=\pi(R^2+r^2+L(R+r)) \quad (4)$$

Quyosh suv isitgich kollektorini absorber yon yuzasi maydoni quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{yyon\ yuza}=\pi L(R+r) \quad (5)$$

Quyosh suv isitgich kollektorini absorber hajm (kesilgan konus bilan cheklangan hajm) quyidagicha aniqlanadi:

$$V=\pi h(R^2+r^2+Rr)/3 \quad (6)$$

Suvning o‘rtacha harorati (Δt) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\Delta t = t_{st.h} - t_h \quad (7)$$

bu yerda $t_{st.h}$-absorber sirt harorati ^{o}C, t_h=qizigan suvning o‘rtacha harorati ^{o}C.

Qizigan suvning t_h o‘rtacha harorati quyidagicha aniqlanadi:

$$t_h = \frac{t^1+t^2}{2} \quad (8)$$

bu yerda quyosh suv isitgich kollektoridan t^2-chiqishdagi suv harorati, t^1-kirishdagi suv harorati ^{0}C

TADQIQOT NATIJALAR VA MUHOKAMASI

Quyida keltirilgan (1–jadval)da 11.07.2023 kungi kesik konussimon quvurli quyosh suv isitgich kollektorida eksperimental tadqiqotlar asosida olingan natijalar keltirilgan.

1–jadval

11.07.2023 y. kundagi olingan natijalar *(kesik konussimon,deflektor va quvurli quyosh suv absorber)*

№	G, kg/s	t_{qx} ^{0}C	t_q ^{o}C	Quyosh radiatsiyasi W/m^2		t_{st}, ^{o}C	t_t, ^{o}C
				Bevosita	Diffuzion		
1	0,0080556	38	24	428	100	84	17
2	0,0108300	47	32	620	100	84	17
3	0,0011940	50	39	786	95	83	17
4	0,0133330	61	50	806	95	82	17
5	0,0161100	69	61	974	100	81	17
6	0,0166670	71	67	980	103	81	17
7	0,0169444	76	67	951	103	80	17
8	0,0172222	79	65	866	100	78	17


9	0,0166670	77	63	736	100	77	17
10	0,0161100	71	61	564	101	76	17

Quyida keltirilgan (2–jadval)da yassi absorberli quyosh suv isitgich kollektorida eksperimental tadqiqotlar asosida olingan natijalar keltirilgan.

2–jadval

11.07.2023 y. kundagi olingan natijalar *(kesikkonussimon oddiy absorber)*							
№	G, kg/s	t_{qx} ^0C	t_q ^oC	Quyosh radiatsiyasi W/m^2		t_{st}, ^0C	t_t, ^0C
				Bevosita	Diffuzion		
1	0,0080556	30	22	428	100	84	17
2	0,0108300	37	27	620	100	84	17
3	0,0011940	40	31	786	95	83	17
4	0,0133330	49	36	806	95	82	17
5	0,0161100	59	42	974	100	81	17
6	0,0166670	67	48	980	103	81	17
7	0,0169444	72	53	951	103	80	17
8	0,0172222	70	51	866	100	78	17
9	0,0166670	64	48	736	100	77	17
10	0,0161100	60	44	564	101	76	17

Yuqorida keltirilgan (1 va 2-jadval)larda bir vaqtda kesik konussimon,deflek tor va quvurli absorber hamda kesikkonussimon absorberli quyosh suv isitgich kollektorlaridan olingan natijalar keltirilgan bo‘lib ushbu olingan natijalar o‘zaro taqqoslab (1-rasm) chiqildi. Issiqlik almashinuv jarayonini jadallashtirish maqsadida absorberning ustki yuzasi bo‘ylab spiralsimion qilib o‘rnatilgan suv quvurlari, quyosh suv isitgich kollektorning ishlash samaradorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. 1-kesik konussimon, deflektor va quvurli quyosh suv isitgich kollektoridagi qizigan suvning o‘rtacha harorati, 2-kesikkonussimon absorberli quyosh suv isitgich kollektoridagi qizigan suvning o‘rtacha harorati.

1-rasm. kesik konussimon, deflektor va quvurli quyosh suv isitgich kollektori hamda kesikkonussimon absorberga ega bo‘lgan quyosh suv isitgich kollektorlarida qizigan suvning o‘rtacha haroratlari.

Yuqorida keltirilgan 1-rasmlar shuni ko‘rsatadiki, ikki turdagi absorberga ega bo‘lgan quyosh suv isitgich kollektorlarini suv sarfi (G) kg/s o‘zgarmas bo‘lgan holatda ishlash samaradorligi o‘zaro qanday farq qilishi ko‘rsatib o‘tilgan.Quyosh radiatsiyasi Q=980 W/m^2

bo‘lganda quyosh suv isitgich kollektoridan chiqayotgan issiqlik tashuvchining kirish va chqishdagi haroratlari farqi quyidagi formula yordamida aniqlanadi .

$$\Delta t = t_{chiq} - t_{kir} = \quad 7.$$

Quyosh energiyasidan foydalanib hosil qilingan foydali issiqlik energiyasi quyidagi formulada aniqlanadi:

$$Q_{foy} = Q_{м} c_p \Delta t = 0{,}01957$$

Bu yerda issiqlik tashuvchining massaviy sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{м} = \rho \cdot Q = 19{,}57 \text{ ,}$$

bu yerda ρ–issiqlik tashuvchi suvning zichligi kg/m^3, Q–hajmiy sarf,m^3/s.

Quyosh suv isitgich kollektorning absorberi yuzasiga quyosh radiatsiyasidan qabul qilinayotgan energiya miqdori:

$$Q_{qabul.qil.} = QS_{ск} = 740$$

bu yerda Q–quyosh radiatsiyasi intensivligi, W/m^2; $S_{ск}$– quyosh suv isitgich kollektorining absorber yuzasi, m^2.

Quyosh suv isitgich kollektorining foydali ish koeffitsienti [93;88 bet]:

$$\eta = \frac{Q_{foy}}{Q_{qab}} = 0{,}027$$

TAQQOSLASH VA SAMARADORLIK

Quyida keltirilgan (3–jadval)da kesik konussimon quyosh suv isitgich kollektorida eksperimental tadqiqotlar asosida olingan natijalar hamda uning foydali ish koeffitsienti keltirilgan.

3-jadval. Kesik konussimon,deflektor va quvurli quyosh suv isitgich kollektorining samaradorligini aniqlash uchun eksperimental natijalar

№	G, kg/s	Δt °C	FIK, %
1	0,0080556	12	2,7
2	0,0108300	22	5,6
3	0,0011940	25	7,3
4	0,0133330	31	13
5	0,0161100	41	19
6	0,0166670	43	23
7	0,0169444	44	23
8	0,0172222	45	24
9	0,0166670	43	27


Quyida keltirilgan (4–jadval)da kesikkonussimon absorberli quyosh suv isitgich kollektorida eksperimental tadqiqotlar asosida olingan natijalar hamda uning foydali ish koeffitsienti keltirilgan.

4-jadval. Kesikkonussimon absorberli quyosh suv isitgich kollektorining samaradorligini aniqlash uchun eksperimental natijalar


№	G, kg/s	Δt ^{0}C	FIK, %
1	0,0080556	5	1,2
2	0,0108300	10	1,8

3	0,0011940	14	3
4	0,0133330	19	5,7
5	0,0161100	25	7,3
6	0,0166670	31	8,2
7	0,0169444	34	14
8	0,0172222	27	13,4

Yuqorida keltirilgan (3 va 4-jadval)larda bir vaqtda kesik konussimon,deflektor va quvur absortberli hamda kesikkonussimon quyosh suv isitgich kollektorlaridan olingan natijalar asosida olingan kollektordan chiqayotgan o‘rtacha suv harorat hamda ikki xil quyosh suv isitgich kollektorlarning foydali ish koeffitsienti keltirib o‘tilgan.



2-rasm.Kesik konussimon quvurli va yassi absorberlarga ega bo‘lgan quyosh suv isitgich kollektorlaridagi o‘rtacha haroratlari.



3-rasm. Kesikk konussimon ,deflektor va quvur absorberli hamda kesik konussimon absorberli quyosh suv isitgich kollektorlarining issiqlik berishi o‘zgarishi.

Ko‘k-. Kesikk konussimon ,deflektor, quvur absorberli quyosh suv isitgich

Qizil- kesik konussimon absorberli quyosh suv isitgich

Yuqorida keltirilgan (3-rasm)da bir vaqtda kesik konussimon deflektor quvur absorberli hamda kesikkonussimon absorberli quyosh suv isitgich kollektorlarida suv sarfi turlicha bo‘lganda olingan natijalar asosida kollektordan chiqayotgan o‘rtacha suv harorat keltirib, (3-rasm) suv sarfi o‘zgarmas bo‘lganda issiqlik berilishi o‘zgarishi taqqoslangan. Keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki kesikkonussimon absorberli oddiy turdagi kollektorga nisbatan kesik konussimon spiralsimon o‘rnatilgan quvur absorberli quyosh suv isitgich kollektorining foydali ish koeffitsienti 27% gacha yuqori hisoblanadi.

Quyosh suv isitgich kollektorining tajribalarda olingan natijalariga asoslanib issiqlik o‘tkazuvchanligi hamda issiqlik almashinish samaradorligini hisoblash mumkin. Alohida olingan absorberlar uchun issiqlik almashinuvini aniqlash formulasi quyida keltirilgan:

$$Nu = A(\mathrm{Re})^n. \quad (9)$$

Yuqorida keltirilgan issiqlik almashinuv formulalarining ko‘rinishi suyuqlik va gazlar uchun umumiy shaklda o‘xshashlik nazariyasi qoidalariga mos keladi:

$$Nu = A(\mathrm{Re}\,\mathrm{Pr})^n. \quad (10)$$

Agar biz gazlar,suyuqliklar uchun $P_r \approx 1$ deb hisoblasak, (9) formula (10) ga aylantiriladi. Olingan eksperimental ma’lumotlarni qayta ishlash yassi absorber uchun issiqlik uzatish formulasini quyidagicha ko‘rininishda olish mumkin:

$$Nu_V = 0,014\,\mathrm{Re}^{0,83}, \quad (11)$$

Kesik konussimon quvurli absorber uchun:

$$Nu_{cm} = 0,02\,\mathrm{Re}^{0,82}. \quad (12)$$

Kesikkonussimon absorberga ega bo‘lgan quyosh suv isitgich kollektorida ma’lum sharoitda o‘tkazilgan eksperimental natijalari asosida hisoblanganda issiqlik berish qobiliyatini harakterlovchi Nusselt soni esa $Nu = 83.2$ ga, kesikkonussimon, deflektor va quvurli quyosh suv isitgich kollektorida esa $Nu = 126.1$ ga teng

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ikki xil quyosh suv isitgich kollektorining taqqoslanganda kesikkonussimon oddiy absorberli kollektorga nisbatan kesik konussimon,deflektor va quvurli kollektorning issiqlik berishi yuqori hisoblanadi. Buning sababi yassi absorber yuzasiga spiralsimon shaklda gorizantal quvurlarini o‘rnatish orqali suvga qo‘shimcha uyurmali harakat berishi hamda isituvchi yuzalarni ortishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari spiralsimon shaklda gorizantal quvurlar quyosh energiyasini yassi absorberga nisbatan yaxshi yutadi bu esa bevosita qurilmani ishlash samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi .

Kesik konussimon absorberli QSI kollektorlari quyosh energiyasidan samarali foydalanish uchun istiqbolli yechim hisoblanadi. Spiralsimon quvurlardan foydalanish orqali issiqlik almashinuvini yaxshilash va FIKni oshirish mumkin. Olingan eksperimental natijalar QSI tizimlarini yanada optimallashtirish va kengroq qo‘llash imkoniyatlarini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Патент на полезную модель № FAP 10207 от 21.11.2025 “Солнечный бытовой водонагреватель”.Авторы: Умаралиев К.Н., **Эргашев С.Ф., Эсаналиева Н.Р.,Умаралиев Н.,Холмурзаев А.А., Кучкаров А.А. , Абдукаримов Б.А.**
2. **DGU 47533 “Konussimon quyosh suv isitgichlarida issiqlik almashinuv jarayonlarini hisoblash”.01.02.2025 Esanaliyeva N.R, Abdukarimov B.A**
3. Alinazarov A.X., Abelkosimova M.X., Muhandislik tarmoqlarida noan’anaviy energiya manbalaridan foydalanish- Toshkent-2017 y.
4. Madaliyev E O‘., Issiqlik texnikasi. Farg‘ona (2012). 150-161 b.
5. Лойцянский Л.Г. Механика жидкости и газа, М.: Дрофа, 2003, –840 с.
6. Яркаев M.Z. Теплогидравлическая эффективность профилированных каналов различной формы при ламинарном, переходном и турбулентном режимах течения теплоносителей // Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук. Казань – 2015. С.

GIBRID ELEKTR STANSIYASINI ENERGIYA SAQLOVCHI TIZIMSIZ ELEKTR TARMOQQA ULASH.

Rajabov Jamoliddin Baxtiyar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzurida Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: rajabovjamoliddin039@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17863077

Anotatsiya: Ushbu ishda 3-6.2 kW quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasini mahalliy elektr tarmog‘iga ulash bo‘yicha texnik va muhandislik yechimlari o‘rganildi. Quyosh energiyasidan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiyalash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida kichik quvvatli fotoelektr tizimlarning ahamiyati ortib bormoqda. Tadqiqot davomida quyosh panellari, invertor, muhofaza vositalari va ulash uskunalari tanlovi, shuningdek, Gibrid FES ni on-grid tizimida ulab ishga tushurish va ortiqcha energiyani elektr tarmoqqa uzatish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: gibrid quyosh fotoelektr stansiyasi; energiya saqlovchi tizimsiz on-grid ulanish; MUST PH 18-5248 PRO invertori; Restar RTPSIT 6.2 kW invertori; ortiqcha energiyani elektr tarmoqqa uzatish; taqsimlangan energiya manbalari; quvvat sifati va chastota barqarorligi; muhofaza va signalizatsiya tizimlari.

ПОДКЛЮЧЕНИЕ ГИБРИДНОЙ ЭЛЕКТРОСТАНЦИИ К СЕТИ БЕЗ НАКОПИТЕЛЯ ЭНЕРГИИ.

Аннотация: В данной работе рассматриваются технические и инженерные решения для подключения солнечной фотоэлектрической станции мощностью 3–6,2 кВт к локальной электросети. Значение малых фотоэлектрических систем возрастает для эффективного использования солнечной энергии, интеграции возобновляемых источников энергии и обеспечения экологической устойчивости. В исследовании представлен выбор солнечных панелей, инверторов, устройств защиты и оборудования для подключения, а также способы подключения и эксплуатации гибридной ФЭС в составе сетевой системы и передачи избыточной энергии в сеть.

Ключевые слова: гибридная солнечная фотоэлектрическая станция; подключение к сети без накопителя энергии; инвертор MUST PH 18-5248 PRO; инвертор Restar RTPSIT мощностью 6,2 кВт; передача избыточной энергии в сеть; распределенные источники энергии; качество электроэнергии и стабильность частоты; системы защиты и сигнализации.

CONNECTING A HYBRID POWER PLANT TO THE GRID WITHOUT AN ENERGY STORAGE SYSTEM.

Abstract: This work studies technical and engineering solutions for connecting a 3-6.2 kW solar photovoltaic power plant to the local power grid. The importance of small-scale photovoltaic systems is increasing in order to effectively use solar energy, integrate renewable energy sources, and ensure environmental sustainability. The study presents the selection of solar panels, inverters, protection devices, and connection equipment, as well as ways to connect and operate a hybrid FES in an on-grid system and transfer excess energy to the grid.

Keywords: hybrid solar photovoltaic power plant; on-grid connection without an energy storage system; MUST PH 18-5248 PRO inverter; Restar RTPSIT 6.2 kW inverter; transfer of

excess energy to the grid; distributed energy sources; power quality and frequency stability; protection and signaling systems.

KIRISH

Tom ustiga o‘rnatiladigan quyosh fotoelektr (PV) tizimlari kabi taqsimlangan energiya manbalarining joriy etilishi butun dunyo bo‘ylab kengayib bormoqda. Taqsimlash tarmoqlariga PV tizimlarining tezkor ulanishi bu tizimlarni rejalashtirish va boshqarishda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda [1]. Bundan tashqari, PV elektr stansiyalarining beqaror ishlab chiqarishi elektr tarmog‘idagi chastota boshqaruviga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2].

ASOSIY QISM

o‘rnatilatoygan FES larning ko‘p qismi on-grid bo’lib ular ishlab chiqarayotgan elektr energiyani birinchi bo’lib iste’molchiga yo’naltradi hamda iste’molchidan ortgan elektr energiyani elektr tarmoqqa uzatadi. Bu albatta yaxshi uzatilatoygan elektr energiya GES va IES lar uchun yengillik beradi ammo bu o’z navbatida bir necha muammolarni keltirib chiqaradi. FES larga tushadigan quyosh nurining to‘silishi (soyalanish) natijasida, elektr tarmoqdagi kuchlanish o‘zgarishlari chastotaning og‘ishiga ta’sir ko‘rsatadi [3].

MUST inverter. Gibrid tizimi biz bilamizki energiya saqlovchi tizimsiz ishlamaydi ammo ba’zi invertorlar bor bundan mustasno. Misol uchun Must PH 18-5248 PRO 3.2 kW quvvatga ega gibrid invertori.



Rasm.1. Must PH 18-5248 PRO invertori

Ushbu invertorga 575 W bo’lgan 5 dona Trina solar panellari ulangan bo‘lib umumiy quvvati 2.875 W ni tashkil etadi.



Rasm.2. Tom qismiga o’rnatilgan FES

Bizga ma’lumki odatda gibrid invertorning kirish (input), chiqish (output) hamda energiya saqlovchi tizim uchun (DC+ va DC-) qismi bo’ladi.




Rasm.3. Must PH 18-5248 PRO invertorining ulanish nuqtalari.

Ushbu rasmda ko’rinib turibdiki PV dan kirish ulangan, AC kirish qismi ulangan ammo batareya va AC chiqish qismilari ulanmagan ya’ni gibrid invertor on-grid qilib ulangan. Bunday holatda invertor xatolikni qayt etadi va signalizatsiya ishlab ketadi. Bunday holatda birinchi bo‘lib signalizatsiya o‘chirilida.

24	Управление сигнализацией	**По умолчанию** Сигнализация включена 	Сигнализация выключена 

Rasm.4. Must PH 18-5248 PRO invertorining signalizatsiyasini o‘chirish

Ushbu amal bajarilgandan so’ng invertorni iste’moldan ortiqcha energiyani elektr tarmoqqa uzatish rejimi yoqiladi.

09	Подача излишков энергии от солнца или аккумулятора во внешнюю электросеть	**По умолчанию** Отключено 	Подачу энергии от солнца или аккумулятора в сеть отключить.
		Включено 	Подача энергии от солнца или аккумулятора в сеть разрешена. При работе в режиме «SUB» (программа 1) если мощность солнечной энергии выше нагрузки и напряжение АКБ выше уставки параметра 21 (если выбран параметр «BLU» программы 5) или выше уставки параметра 20 (если выбран параметр «LBU» программы 5), солнечная энергия будет

Rasm.5. Must PH 18-5248 PRO invertorining ortiqcha energiyani elektr tarmoqqa uzatish rejimi

Shundan so‘ng invertor ishlay boshlaydi, agar yuqoridagi amallar bajarilmasa invertor ishlamaydi. Bu holat energiya saqlash tizimini sotib olishga imkoniyati yo’qlar uchun ajoyib yechim hisoblanadi ammo uzoq muddat invertorning bu holatda ishlashi mumkin emas. Sababi xatolik chirog‘i uzoq vaqt yonib tursa himoya vositasini ishga tushurib yuboradi va invertor ish faoliytini to‘xtatadi.

Restar inverter. RT-HY SERIES 5 kW gibrid inverteri 2024-yilning eng ko‘p sotilgan va o’rnatilgan inverteri hisoblanadi shu jumladan O’zbekistonda ham qariyb 10255 dona 5-10 kW quvvatdagi inverterlar axoli honadonlariga o’rnatilgan. O’rnatilgan inverterlar mutahasislar tomonidan notog’ri dasturlash orqali 128 dona axoli honadonida qisqa tutashuv va yong’in

holatlari kuzatilgan. 5 kW quvvatdan yuroqri bo'lgan Restar inverterlarini energiya saqlovchi qurilmalarsiz ham elektr tarmoqqa ulash funksiyasi mavjud bo'lib ammo undan deyarli hech qaysi honadon foydalanmagan va bunga ehtiyoj ham bo'lmagan. Ammo oradan 1 yil o'tgandan so'ng o'rnatilgan quvvati 5 kW bo'lgan 12V LiFePO4 100Ah Lithium Battery ishdan chiqqan.



6-rasm. Restar RTPSIT 6.2kW inverteri

Ushbu inverterni ham energiya saqlovchi tizimsiz ishga tushirish mumkin. Ammo uzoq muddatga emas sababi xafvsizlik tizimi ishga tushib signal berishni boshlaydi, 6 oydan so'ng esa tranzistorlar qizib kuyish ehtomoli kuzatiladi.

37	GRID-tie operation	Off grid (default) 37 OFF	Inverter operates only in off-grid mode. Solar energy provides power to the loads as first priority and charging second
		Hybrid 37 HYd	Inverter operates hybrid mode. Solar energy provides power to the loads as first priority and charging second Excess energy feed to grid.

7-rasm. Restar RTPSIT 6.2kW gibrid inverterini energiya saqlovchi tizimsiz ishga tushirish funksiyasi.

Shundan so'ng invertor ishlay boshlaydi, agar yuqoridagi amallar bajarilmasa invertor ishlamaydi. Bu holat energiya saqlash tizimini sotib olishga imkoniyati yo'qlar uchun ajoyib yechim hisoblanadi ammo uzoq muddat invertorning bu holatda ishlashi mumkin emas.

XULOSA

Ushbu ishda 3-6.2 kW quvvatga ega bo'lgan MUST va Restar gibrid quyosh fotoelektr stansiyasini elektr tarmoqqa energiya saqlovchi tizimsiz ulash imkoniyati texnik jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda Must PH 18-5248 PRO va Restar RTPSIT 6.2kW modelidagi invertorning xususiyatlari tahlil qilinib, energiya saqlovchi qurilmasiz on-grid rejimida ishlatish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, ortiqcha energiyani elektr tarmoqqa uzatish mexanizmi va invertorning signalizatsiya funksiyalarini sozlash tartibi batafsil ko'rib chiqildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ayrim gibrid invertorlar qisqa muddatli ishlashda energiya saqlovchi tizimlarsiz ham faoliyat yurita oladi. Bu esa ushbu texnologiyani energiya saqlash qurilmalariga mablag'i yetarli bo'lmagan foydalanuvchilar uchun ham qo'llash imkonini yaratadi. Biroq, invertorning uzoq muddat energiya saqlovchisiz ishlashi texnik nosozliklarga olib kelishi mumkinligi bois, bunday holatni faqat vaqtincha yechim sifatida tavsiya etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Anugrah, R. W. Pratama, M. Sholekan, and Z. A. Fikriyadi, “Evaluating Performance and Grid Impacts of On-Grid Rooftop PV System: Case Study of A Mosque,” *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, vol. 1344, no. 1, pp. 1–8, 2024, doi: 10.1088/1755-1315/1344/1/012012.
2. K. Rahimi, S. Mohajeryami, and A. Majzoobi, “Effects of photovoltaic systems on power quality,” in *NAPS 2016 - 48th North American Power Symposium, Proceedings*, Institute of Electrical and Electronics Engineers Inc., Nov. 2016. doi: 10.1109/NAPS.2016.7747955.
3. M. M. El-Sayed, A. A. Abou El-Ela, and R. A. El-Sehiemy, “Effect of photovoltaic system on power quality in electrical distribution networks,” in *2016 18th International Middle-East Power Systems Conference, MEPCON 2016 - Proceedings*, Institute of Electrical and Electronics Engineers Inc., Jan. 2017, pp. 1005–1012. doi: 10.1109/MEPCON.2016.7837019.

QUYOSH RADIATSIYASINI PYTHON DASTURLASH YORDAMIDA MODELLASHTIRISH VA EKSPERIMENTAL MA'LUMOTLAR BILAN TAQQOSLASH

Roziqov Jurabek Yuldashboy o'g'li, Ro'ziboyev Valijon Umarali o'g'li, Kamolova Muhabbat Muhiddin qizi, Ahmedova Shalola Yunusali qizi
Farg'ona davlat universiteti, Murabbilar ko'chasi 19,
E-mail: roziqovjurabek1991@gmail.com,
https://doi.org/10.5281/zenodo.17865532

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yer yuzasiga yetib keladigan quyosh radiatsiyasi intensivligini uchta keng qo'llaniladigan "ochiq osmon" modellaridan foydalangan holda – ASHRAE 2001, Hottel (1976) va ASHRAE 2009 – kompleks sonli modellashtirish va tekshirish natijalari taqdim etiladi. Tadqiqotning maqsadi yil davomida ushbu modellar aniqligini baholash bo'lib, hisob-kitoblar Python va MATLAB dasturlash tillarida amalga oshirilgan. Har bir model yilning kuniga hamda qabul qiluvchi sirtning og'ish burchagiga bog'liq holda to'g'ridan-to'g'ri va tarqoq quyosh radiatsiyasi miqdorini hisoblashga tatbiq qilindi. Hisoblangan qiymatlar har bir modelning amaliyligini va cheklovlarini aniqlash maqsadida eksperimental ma'lumotlar bilan grafik tarzda taqqoslandi. Model aniqligini miqdoriy baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi hamda natijalar ASHRAE 2001 modeli sinovdan o'tkazilgan modellar ichida eng yuqori moslikka ega ekanini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot quyosh energiyasi tizimlarini loyihalashni optimallashtirish, ma'lum iqlim sharoitlari uchun model tanlash hamda takrorlanuvchanlikni ta'minlash maqsadida ochiq manbali Python realizatsiyasini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Quyosh radiatsiyasi, ASHRAE modeli, Hottel modeli, sonli simulyatsiya, eksperimental taqqoslash, quyosh nurlanishi intensivligi

MODELING SOLAR RADIATION USING PYTHON PROGRAMMING AND COMPARING IT WITH EXPERIMENTAL DATA

Abstract: This paper presents a comprehensive numerical modeling and validation of solar radiation intensity at the Earth's surface using three established clear-sky models: ASHRAE 2001, Hottel (1976), and ASHRAE 2009. The purpose is to evaluate their accuracy over the course of a year, based on simulation results computed using Python and MATLAB environments. Each model is applied to compute direct and diffuse solar radiation as a function of the day of the year and the tilt angle of the receiving surface. The computed values are graphically compared with experimental data to assess each model's relevance and limitations. Key performance metrics (mean bias error, root mean square error, etc.) are calculated to quantify model accuracy, and the results indicate that the ASHRAE 2001 model shows the closest agreement with measurements among the models tested. This study contributes to the optimization of solar energy system design and model selection for specific climatic conditions, and provides an open-source Python implementation for reproducibility.

Keywords: Solar Radiation, ASHRAE Model, Hottel Model, Numerical Simulation, Experimental Comparison, Solar Insolation.

МОДЕЛИРОВАНИЕ СОЛНЕЧНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ НА PYTHON И СРАВНЕНИЕ ЕГО С ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫМИ ДАННЫМИ

Аннотация: В данной работе представлено комплексное численное моделирование и валидация интенсивности солнечного излучения на поверхности Земли с использованием трёх известных моделей для ясного неба: ASHRAE 2001, Hottel (1976) и ASHRAE 2009. Целью является оценка их точности в течение года на основе результатов моделирования, выполненных в средах Python и MATLAB. Каждая модель применяется для расчёта прямой и рассеянной солнечной радиации в зависимости от дня года и угла наклона принимающей поверхности. Рассчитанные значения графически сравниваются с экспериментальными данными для оценки релевантности и ограничений каждой модели. Для количественной оценки точности модели рассчитываются ключевые показатели эффективности (средняя ошибка смещения, среднеквадратическая ошибка и т. д.). Результаты показывают, что модель ASHRAE 2001 демонстрирует наиболее близкое соответствие результатам измерений среди протестированных моделей. Данное исследование способствует оптимизации проектирования солнечной энергетической системы и выбору модели для конкретных климатических условий, а также предоставляет реализацию на Python с открытым исходным кодом для воспроизводимости результатов.

Ключевые слова: Солнечное излучение, модель ASHRAE, модель Хоттела, численное моделирование, экспериментальное сравнение, солнечная инсоляция.

KIRISH

Quyosh radiatsiyasini modellashtirish qayta tiklanuvchi energiya tizimlarini loyihalash va binolarda iqlimga bog‘liq parametrlarni tahlil qilish uchun muhim hisoblanadi. Yer yuzasiga yetib keladigan quyosh radiatsiyasini baholash maqsadida ko‘plab empirik va yarim empirik modellar ishlab chiqilgan. Ular orasida ASHRAE 2001, ASHRAE 2009 hamda Hottel (1976) modeli muhandislik amaliyotida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada mazkur modellar yil davomida quyosh radiatsiyasini baholash qilish qobiliyatiga urg‘u berilgan holda sonli realizatsiya va vizualizatsiya orqali tahlil qilinadi va taqqoslanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

(1) ASHRAE 2001, Hottel (1976) va ASHRAE 2009 modellarini Python dasturlash tili orqali (MATLAB orqali tekshirish bilan birga) amalga oshirish;

(2) bir yil davomida va bir nechta og‘ish burchaklari uchun soatlik va sutkalik to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda tarqoq nurlanishni hisoblash;

(3) model natijalarini mos ravishda o‘lchangan eksperimental ma’lumotlar bilan taqqoslash;

(4) model xatolarini miqdoriy baholash va ularning ehtimoliy fizik sabablarini muhokama qilish.

Ushbu maqola uch amaliy yo‘nalish bo‘yicha hissa qo‘shadi. Birinchidan, u Python ilmiy hisoblash muhitida uchta modelning shaffof va takrorlanuvchi realizatsiyasini taqdim etadi, bu boshqa tadqiqotchilar uchun foydalanish va yana sinovdan o‘tkazishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, u tizimli og‘ishlarni tasodifiy og‘ishlardan ajratib ko‘rsatadigan va xato xarakterini ehtimoliy atmosfera sabablariga (masalan, bulutlar sababli tarqoq komponentning kuchayishi yoki aerozol hosil qilgan so‘nish) bog‘laydigan tizimli xato tahlilini taqdim etadi. Uchinchidan, maqola o‘rta kengliklardagi kontinental iqlim sharoitlari uchun model tanlash va oddiy tuzatish strategiyalari (masalan, empirik og‘ish tuzatishlari yoki yer sirtidan qaytgan komponentni kiritish) bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taklif qiladi.

MODELLASHTIRISH METODOLOGIYASI

Hozirgi kunda Yer yuzasiga yetib keladigan quyosh radiatsiyasini baholash uchun ko‘plab modellar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda (masalan, [1], [2]) turli modellar tahlil qilingan va ularning imkoniyatlari hamda aniqlik darajalari o‘rganilgan. Ushbu modellar uchun umumiy xususiyat – quyosh doimiysi tushunchasidan foydalanishdir. Bu qiymat Yer atmosferasidan tashqarida, quyosh nurlariga perpendikulyar yo‘nalishda o‘lchanadigan radiatsiya oqimi intensivligini bildiradi va odatda $1367\ W/m^2$ deb qabul qilinadi [3].

Yerning Quyosh atrofidagi orbitasi ellips shaklida bo‘lganligi sababli, atmosfera ustidagi quyosh radiatsiyasi yil davomida o‘zgarib turadi: qiymat yanvar boshlarida (Yer Quyoshga eng yaqin bo‘lganda) maksimal, iyul boshlarida (Yer eng uzoq bo‘lganda) minimal bo‘ladi. Quyosh radiatsiyasini atmosfera chegarasida baholash uchun bir necha empirik formulalar taklif qilingan, ulardan biri quyidagicha ifodalanadi:

$$E_0 = E_{sc} \cdot \left(1 + 0.033 \cos\left(\frac{360n}{365}\right)\right) \quad (1)$$

bu yerda n – yilning tegishli kuni (masalan, 1-yanvar, 1-fevral va hokazo).

Bundan tashqari, radiatsiya modellaridagi asosiy parametrlaridan biri nisbiy havo massasi m hisoblanadi. Bu kattalik quyosh nurlarining atmosfera orqali haqiqiy o‘tish uzunligining, Quyosh zenitda bo‘lgandagi o‘tish uzunligiga nisbati bilan aniqlanadi [4]:

$$m = 1 / cos(\theta_z) \quad (2)$$

Bundan aniqroq bo‘lgan formulalar mavjud bo‘lib, ular qabul qiluvchi sirtning dengiz sathidan balandligi h ni ham hisobga oladi.

Yer yuzasidagi quyosh radiatsiyasi intensivligini baholash uchun turli modellar qo‘llanadi. Ushbu tadqiqot geografik joylashuvdan mustaqil, ko‘plab hisoblash tizimlarida (jumladan, ANSYS Fluent) keng qo‘llaniladigan modellarni tanlaydi: ASHRAE 2001, Hottel (1976) va ASHRAE 2009 [5–12].

2.1 Quyosh geometriyasi va atmosfera ustidan sirtga o‘tish

Atmosfera ustidagi radiatsiya (1) ni sirtga foydali kattaliklarga aylantirish uchun har bir vaqt nuqtasida quyidagi quyosh geometriyasi parametrlarini hisoblash talab etiladi:

Quyosh og‘ish burchagi (yaqinlashgan):

$$\delta \approx 23.45^\circ \sin\left(\frac{360^\circ}{365}(284 + n)\right) \quad (3)$$

Quyosh zenit burchagi (kenglik , og‘ish va soat burchagi orqali):

$$cos\theta_z = sin\phi\ sin\delta + cos\phi\ cos\delta\ cos\omega \quad (4)$$

Shundan so‘ng, atmosferadan tashqari gorizontal tekislikka tushadigan nurlanish:

$$E_{\text{ex, goriz}} = E_{\text{ex}} cos\theta_z \ \ (cos\theta_z > 0) \quad (5)$$

Bu kattaliklar yer usti irradiansining yuqori chegarasini belgilaydi va atmosfera orqali o‘tishdagi so‘nish hisoblari uchun boshlang‘ich qiymat vazifasini bajaradi.

2.2 Takomillashtirilgan havo massasi va bosim tuzatmasi

Zenit burchagi katta bo‘lganda yoki joy dengiz sathidan baland bo‘lganda, oddiy (2) formulasi o‘rniga Kasten – Young tipidagi tuzatma qo‘llanadi:

$$\mathrm{m}_{K\&Y} = \frac{1}{cos\theta_z + 0.50572\,(96.07995^0 - \theta_z)^{-1.6364}} \quad (6)$$

Bosim tuzatmasi:

$$\mathrm{m}' = m_{K\&Y} \cdot \frac{P}{P_0} \quad (7)$$

bu yerda P- lokal atmosfera bosimi, P_0 - standart bosim ($1013.25\ hPa$).

Havo massasini orqali tuzatish baland hududlarda atmosferaning optik so‘nishini ancha aniqlashtiradi.

2.3. Og‘ish burchagiga ega sirt uchun POA (plane-of-array) nurlanishi va tushish burchagi

Model natijalarini qiya sirtlarda (kollektorlar) o‘lchangan qiymatlar bilan taqqoslashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tarqoq va yer sathidan qaytgan komponentlar yig‘indisi hisobga olinishi kerak. Quyosh nuri bilan kollektor normal orasidagi tushish burchagining kosinusi quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$cos\theta = sin\delta\ sin\phi\ cos\beta - sin\delta\ cos\phi\ sin\beta\ cos\gamma + cos\delta cos\phi cos\omega cos\beta + \\ + cos\delta sin\phi cos\omega sin\beta cos\gamma + cos\delta\ sin\omega\ sin\beta\ sin\gamma \quad (8)$$

Qiya sirtga tushadigan **POA (plane-of-array) nurlanishi** quyidagi komponentlarning yig‘indisidan iborat:

1. Og‘ish burchagi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri komponent:
$$DNI \cdot cos\theta$$
2. Tarqoq komponent: izotrop model (osmon nurlanishi bir tekis tarqalgan deb olinadi), yoki anizotrop model (Hay–Davies, Perez va boshqalar)
3. Yerdan qaytgan komponent:
Albedo×GHI×geometrik omil

ASHRAE 2001 modeli: Ushbu model quyosh radiatsiyasining **to‘g‘ridan-to‘g‘ri (I_b)** va **tarqoq (I_d)** komponentlarini alohida hisoblaydi. Modelning asosiy tenglamalari quyidagicha:

$$I_b = A \cdot exp(-B\ /\ sin(\theta_z)),\ I_d = C \cdot F_{ss} \cdot I_b \quad (9)$$

bu yerda:
A — Yer atmosferasidan tashqaridagi quyosh radiatsiyasi intensivligi (E_0),
B — atmosferaning so‘nish koeffitsienti,
C — tarqoq komponent koeffitsienti,
$\mathbf{F_{ss}}$ — qabul qiluvchi sirtning og‘ish burchagiga bog‘liq omil.
E_0 **quyidagicha aniqlanadi:**

$$E_0 = 1.00011 + 0.034221cos(\Gamma) + 0.00128sin(\Gamma) + 0.000719cos(2\Gamma) + \\ 0.000077sin(2\Gamma), \quad (10)$$

bu yerda: $\Gamma = 2\pi(n-1)/365$ – yilning tegishli kuniga bog‘liq burchak.

Hottel modeli (1976) atmosferadan o‘tuvchi quyosh radiatsiyasining so‘nishini empirik koeffitsientlar asosida hisoblaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri nurlanish quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$I_b = I_{ex} a_b \exp(-k_b m'), I_d = I_{ex} a_d \exp(-k_d m'), \quad (11)$$
$$m' = m \cdot \frac{P}{P_0} = \frac{P/P_0}{cos\theta_z},\ \tau_b = a_b e^{(-k_b m')},\ \tau_d = a_d e^{(-k_b m')}.$$

Bu yerda: a_b va a_d — mos ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va tarqoq komponentlar uchun atmosfera shaffoflik koeffitsientlari,
k_b va k_d — Hottelning empirik ifodalariga ko‘ra havo massasiga (va bilvosita zenit burchagiga) bog‘liq ko‘rsatkichlar.
(a_b, a_d, k_b, k_d uchun aniq tenglamalar matn ixchamligi sababli keltirilmagan.)

ASHRAE 2009 modeli to‘g‘ridan-to‘g‘ri va tarqoq nurlanishni quyidagi eksponensial tenglamalar asosida hisoblaydi:

$$I_{nb} = E_{sc} \cdot exp(-\tau_b \cdot m^{ab}), \quad I_d = E_{sc} \cdot exp(-\tau_d \cdot m^{ad}) \qquad (12)$$


bu yerda a_b va a_d – empirik koeffitsientlar bo‘lib, ular τ_b va τ_d ga bog‘liq.

$$ab = 1{,}219 - 0{,}043\tau_b - 0{,}151\tau_d - 0{,}204\tau_b\tau_d \qquad (13a)$$

$$ad = 0{,}202 - 0{,}852\tau_d - 0{,}007\tau_d - 0{,}357\tau_d\tau_b \qquad (13b)$$

NATIJALAR VA MUHOKAMA


1-rasmda ko‘rsatilganidek, kun davomida quyosh radiatsiyasining o‘zgarishi modellar tomonidan hisoblangan qiymatlar va eksperimental o‘lchovlar bilan taqqoslandi. Grafikdan yaqqol ko‘rinadiki, ASHRAE 2001 modeli eksperimental qiymatlarga eng yaqin natijalarni beradi. ASHRAE 2009 va Hottel modellarida esa ayrim soatlarda sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lib, ular ushbu modellar tarkibidagi atmosferadagi yutilish koeffitsientlari va empirik tuzatmalarga bog‘liq. Eksperimental egri chiziqda 11:00 dan 12:00 gacha bo‘lgan oraliqda bulutlanish tufayli kichik pasayish kuzatiladi.



1-rasm. Model (ASHRAE 2001, ASHRAE 2009, Hottel) va eksperimental ma’lumotlar bo‘yicha quyosh radiatsiyasi intensivligining taqqoslanishi.

Yillik insolyatsi- yaning turli og‘ish burchaklari (0°, 30°, 45°, 60°, 90°) bo‘yicha qiya sirtlarda o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Grafikda model qiymatlari, NASA ma’lumotlari va eksperimental o‘lchovlar o‘zaro taqqoslangan.

Bu tafovutlar, og‘ish burchagi ortishi bilan tarqoq komponentni va yerdan qaytgan nurlanishni aniq modellashtirish muhimligini ko‘rsatadi.



2-rasm. 0°, 30°, 45°, 60°, 90° og‘ish burchaklarida sirtlarga tushadigan yillik quyosh energiyasi miqdori.

2-rasm yillik quyosh energiyasi (insolyatsiya) turli og‘ish burchaklarida (0°, 30°, 45°, 60°, 90°) qiya sirtlarda hisoblangan. Model qiymatlari, NASA sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari va eksperimental natijalar o‘zaro taqqoslangan.

Natijalar quyidagicha: past og‘ish (0°) uchun model qiymatlari biroz ortiqcha baholangan, 30°–45° burchaklarda moslash eng yaxshi, 90° ga yaqin bo‘lgan sirtlar uchun modellar insolyatsiyani kam baholagan [13-20].

Bu esa og‘ish ortganda tarqoq nurlanish va yer sathidan qaytgan komponentni aniqlik bilan modellashtirish talab qilinishini ko‘rsatadi.

XULOSALAR

Tahlil qilingan model va eksperimental ma’lumotlar asosida ASHRAE 2001 modeli kunlik profil hamda yillik yig‘indilar bo‘yicha o‘lchangan quyosh nurlanishi qiymatlariga eng yaqin moslikni ko‘rsatdi. ASHRAE 2009 va Hottel (1976) modellarida esa ayrim soatlarda – ayniqsa tongda va kechga yaqin vaqtlar hamda bulutlanish sharoitida – sezilarli chetlanishlar kuzatildi. Modellar bilan o‘lchovlar o‘rtasidagi farqlar asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq: (a) tarqoq nurlanishni qayta ishlashda ufq yaqinidagi tarqoq komponentlarning inkor qilinishi, (b) atmosferadagi yutilishning parametrizatsiyasi (masalan, aerozol va suv bug‘i ta’siri), (c) modellar tarkibida yer sathidan qaytgan nurlanish komponentining mavjud emasligi.

Ushbu ishda ishlab chiqilgan Python asosidagi realizatsiya (algoritmlar to‘liq hujjatlashtirilgan va MATLAB bilan o‘zaro tekshirilgan) boshqa tadqiqotchilar va muhandislarga hisob-kitoblarni turli joylashuvlar uchun takrorlash va moslashtirish imkonini beradi. Kod va ma’lumotlarning ommaga ochiq holda taqdim etilishi quyosh nurlanishi modellashtirish bo‘yicha jamoaviy takomillashtirishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, nisbatan sodda empirik modellar to‘g‘ri parametrizatsiya qilingan va mahalliy o‘lchovlar asosida tekshirilgan taqdirda amaliy muhandislik vazifalari uchun yetarlicha ishonchli bo‘lishi mumkin. Yuqori aniqlik talab qilinadigan ilovalarda yoki atmosferasi murakkab hududlarda ushbu empirik modellarni mahalliy o‘lchovlar bilan birlashtirish hamda tarqoq nurlanish va yer sathidan qaytish jarayonlarini yaxshiroq hisobga oluvchi yondashuvlarni qo‘shish yanada ishonchli natijalar beradi.

ADABIYOTLAR

1. Noorian, A.M., Moradi, I., & Kamali, G.A. (2008). Evaluation of 12 models to estimate hourly diffuse irradiation on inclined surfaces. Renewable Energy, 33(6), 1406–1412. DOI: 10.1016/j.renene.2007.06.027
2. Wong, L.T., & Chow, W.K. (2001). Solar radiation model. Applied Energy, 69(3), 191–224. DOI: 10.1016/S0306-2619(01)00012-5
3. ASHRAE (2009). ASHRAE Handbook—Fundamentals. Atlanta, GA: American Society of Heating, Refrigerating and Air-Conditioning Engineers. (Chapter on climatic design information, including solar constant value)
4. Duffie, J.A., & Beckman, W.A. (2013). Solar Engineering of Thermal Processes (4th ed.). John Wiley & Sons, New York. (Approximate air mass formula)
5. Gueymard, C.A. (2012). Clear-sky irradiance predictions for solar resource mapping and large-scale applications: Improved validation methodology and detailed performance analysis of 18 broadband models. Solar Energy, 86(8), 2145–2169. DOI: 10.1016/j.solener.2011.11.011
6. Guermoui, M., Rabehi, A., & Melgani, F. (2020). A comprehensive review of hybrid models for solar radiation forecasting. Journal of Cleaner Production, 258, 120357. DOI: 10.1016/j.jclepro.2020.120357

7. Bounoua, Z., Ouazzani Chahidi, L., & Mechaqrane, A. (2021). Estimation of daily global solar radiation using empirical and machine-learning methods: A case study of five Moroccan locations. Sustainable Materials and Technologies, 28, e00261. DOI: 10.1016/j.susmat.2021.e00261
8. ASHRAE (2001). ASHRAE Handbook—Fundamentals. Atlanta, GA: American Society of Heating, Refrigerating and Air-Conditioning Engineers. (Section on solar radiation models)
9. NASA Atmospheric Science Data Center (2021). Surface meteorology and Solar Energy (SSE) – Solar Radiation Data. (Accessed from https://eosweb.larc.nasa.gov)
10. Sobirov, M.M., Rozikov, J.Yu., Yusupova, D.A., & Ruziboev, V.U. (2023). Calculation of spectral and angular distribution of diffusely reflected, diffusely transmitted, and unscattered fluxes of solar radiation in atmospheric layers. Applied Solar Energy, 59(5), 761–769. DOI: 10.3103/S0003701X23601187
11. Hottel, H.C. (1976). A simple model for estimating the transmittance of direct solar radiation through clear atmospheres. In Proceedings of the 1976 Annual Meeting of the American Section of the International Solar Energy Society. (Empirical atmospheric transmission model)
12. Hay, J.E., & Davies, J.A. (1980). Calculation of the solar radiation incident on an inclined surface. Proceedings of the IMechE, 186(Part A), 25–32. DOI: 10.1243/PIME_CONF_1980_186_519_02
13. Perez, R., Ineichen, P., Seals, R., Michalsky, J., & Stewart, R. (1990). Modeling diffuse irradiance on inclined surfaces: the Perez model. Solar Energy, 44(5), 271–289. DOI: 10.1016/0038-092X(90)90060-3
14. Kasten, F., & Young, A.T. (1989). Revised optical air mass tables and approximation formula. Applied Optics, 28(22), 4735–4738. DOI: 10.1364/AO.28.004735
15. Bird, R.E., & Hulstrom, R.L. (1981). A simplified clear sky model for direct and diffuse insolation on horizontal surfaces. Solar Energy Research Institute Report, Golden, CO (SERI/TR-642-761).
16. Holmgren, W.F., Hansen, C.W., & Mikofski, M.A. (2018). pvlib Python: A Python package for modeling solar energy systems. Journal of Open Source Software, 3(29), 884. DOI: 10.21105/joss.00884
17. Roca-Fernández, C., Pons, X., & Ninyerola, M. (2025). A comparison of different solar radiation models in the Iberian Peninsula. Atmosphere, 16(5), 590. DOI: 10.3390/atmos16050590
18. Yıldırım, H.B., Çelik, Ö., Teke, A., & Barutçu, B. (2018). Estimating daily global solar radiation with a graphical user interface in the eastern Mediterranean region of Turkey. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 82, 1528–1537. DOI: 10.1016/j.rser.2017.06.030
19. Zaaoumi, A., Bah, A., Ciocan, M., Sebarchievici, C., Bălan, M.C., Mechaqrane, A., & Alaoui, M. (2021). Estimation of the energy production of a parabolic trough solar thermal power plant using analytical and artificial neural network models. Renewable Energy, 170, 620–638. DOI: 10.1016/j.renene.2021.01.129
20. Chanchangi, Y.N., Adeniji, A.A., Agbo, S.N., & Mallick, T. (2023). Nigeria's energy review: Focusing on solar energy potential and penetration. Environment, Development and Sustainability, 25(7), 5755–5796. DOI: 10.1007/s10668-022-02308-4

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭНЕРГЕТИКЕ

Кувондиков Камронбек Одилбек угли
Наманганский государственный технический университет
E-mail: quvondikovkamronbek7@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.17814324

Аннотация: В данной работе рассмотрены современные технологии в сфере цифровой энергетики, их преимущества и области применения. Раскрыты вопросы работы цифровых сервисов на основе больших данных, систем дистанционного управления, расширенных диагностических средств, а также концепции единой информационной модели. Кроме того, уделено внимание вопросам кибербезопасности, развитию национальных технологий и обеспечению безопасности человека.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровые решения, энергетика, технологии, цифровая энергетика, энергетическая система, управление, кибер-физическая 3D-модель, облачные вычисления.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ENERGETIKA SOHASIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli energetika sohasidagi zamonaviy texnologiyalar, ularning afzalliklari va qo‘llanish sohalari ko‘rib chiqiladi. Katta ma’lumotlar asosida ishlovchi raqamli servislar, masofaviy boshqaruv tizimlari, kengaytirilgan diagnostika vositalari, shuningdek yagona axborot modelining kontseptsiyasi yoritilgan. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik masalalari, milliy texnologiyalarni rivojlantirish hamda inson xavfsizligini ta’minlash jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, raqamli yechimlar, energetika, texnologiyalar, raqamli energetika, energetik tizim, boshqaruv, kiber-fizik 3D-model, bulutli hisoblashlar.

DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ENERGY SECTOR

Abstract: This paper examines modern technologies in the field of digital energy, their advantages and areas of application. It explores the operation of digital services based on big data, remote control systems, advanced diagnostic tools, as well as the concept of a unified information model. In addition, attention is paid to issues of cybersecurity, the development of national technologies, and ensuring human safety.

Keywords: digital technologies, digital solutions, energy sector, technologies, digital energy, power system, control, cyber-physical 3D model, cloud computing.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях стремительного развития информационно-коммуникационных технологий энергетика переживает этап глубокой трансформации, связанной с переходом от традиционных принципов управления к концепции цифровой энергетики. Рост объемов выработки и потребления электроэнергии, усложнение структуры энергетических систем, внедрение возобновляемых источников энергии и распределенной генерации предъявляют новые требования к надежности, управляемости и эффективности энергетической инфраструктуры. В этих условиях использование цифровых технологий становится одним из ключевых факторов устойчивого развития отрасли.

Цифровая энергетика предполагает интеграцию систем автоматизации, средств сбора и обработки больших данных, интеллектуальных алгоритмов управления, а также

облачных и туманных вычислений в единое информационно-управляющее пространство. Формирование единой информационной модели энергетической системы позволяет в режиме реального времени получать достоверные сведения о состоянии оборудования, режимах работы сетей и параметрах потребления, что создает основу для принятия обоснованных управленческих решений, оптимизации режимов и снижения эксплуатационных затрат.

Важным направлением является развитие систем дистанционного мониторинга и управления, основанных на применении кибер-физических систем и 3D-моделей объектов энергетики. Такие решения обеспечивают расширенные диагностические возможности, прогнозирование отказов, снижение рисков аварий и повышение уровня промышленной и экологической безопасности. Одновременно с этим возрастает значимость вопросов кибербезопасности, так как цифровизация сопровождается возрастанием уязвимости информационной инфраструктуры к внешним и внутренним угрозам.

Особое значение приобретает развитие национальных цифровых технологий и программно-аппаратных комплексов, адаптированных к условиям конкретной страны и отвечающих требованиям технологического суверенитета. В центре внимания при этом остается человек – как оператор сложных систем управления, так и конечный бенефициар повышения надежности энергоснабжения и качества предоставляемых услуг.

В связи с этим актуальной научно-практической задачей является всесторонний анализ современных цифровых решений в энергетике, оценка их преимуществ, особенностей внедрения и влияния на безопасность, эффективность и устойчивость функционирования энергетических систем. В данной работе предпринята попытка осветить ключевые направления развития цифровой энергетики, рассмотреть особенности применения цифровых сервисов на основе больших данных, систем дистанционного управления и расширенной диагностики, а также обозначить актуальные вызовы в сфере кибербезопасности и защиты интересов человека.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Цифровые энергетические системы и их преимущества. Цифровые сервисы используют большие объёмы данных, что позволяет оптимизировать интервалы технического обслуживания, повысить эффективность производства и заранее выявлять неисправности. Данные, полученные с энергетических объектов, интегрируются с дополнительными источниками — погодными условиями, температурой окружающей среды, качеством воздуха, отчётами об авариях и т. д. Это обеспечивает более точный анализ систем[1].

Для правильного понимания и эффективного использования больших данных необходимы экспертные знания и аналитическое мышление. Миллионы умных устройств и сенсоров создают мост между реальным и виртуальным мирами, генерируя огромные объёмы данных. Эти данные обрабатываются с помощью интеллектуальных алгоритмов и аналитических методов, что способствует оптимальной работе энергетических систем[2].

В качестве примера можно привести разработку американской компании **Eaton** — сервис **“Enotify Remote Monitoring”**, который обеспечивает дистанционный мониторинг источников бесперебойного питания (UPS) и аккумуляторных систем. Программное обеспечение собирает показатели работы UPS и передаёт их в центральный центр наблюдения. На основе анализа формируются ежемесячные отчёты, предоставляемые

руководству, что позволяет своевременно принимать правильные решения по техническому обслуживанию[3].

Аналогичное решение предлагает компания **Ingersoll-Rand PLC** через систему **“Trane Intelligent Services”**, которая обеспечивает дистанционный мониторинг и анализ систем HVAC (отопление, вентиляция и кондиционирование воздуха). Эта система снижает эксплуатационные расходы, ускоряет выявление и устранение неисправностей[4].

Расширенные системы диагностики и прогнозирования

Расширенные диагностические сервисы объединяют глобальный инженерный опыт, онлайн-сбор данных, их анализ и возможность прогнозирования неисправностей. С помощью экспертных баз оценивается состояние системы, разрабатываются рекомендации по совершенствованию производственных процессов.

Например, компания **Caterpillar** совместно со стартапом **Uptake** разработала инструменты прогнозной диагностики. Эта система анализирует данные, полученные от бульдозеров и экскаваторов, что позволяет выявлять неисправности на ранней стадии[4].

Кроме того, сервис **“Power Diagnostics”** компании **Siemens** осуществляет дистанционный анализ газовых и паровых турбин, генераторов и котлов, снижая риск аварий и повышая надежность оборудования.



Рисунок 1. Технологические схема цифровой энергетика

Цифровые технологии позволяют осуществлять дистанционное управление и контроль за электрическими станциями, расположенными в удалённых районах. Например, при перегрузке трансформатора и его перегреве датчики измеряют температуру масла и силу тока, после чего отправляют результаты в облачную систему. Таким образом предотвращаются возможные неисправности. Даже если датчик выйдет из строя, система способна обнаружить этот факт[5].

Сервисы удалённого мониторинга продлевают срок службы оборудования, повышают его надёжность и обеспечивают эксплуатационную гибкость. В таких системах можно применять концепцию «цифровой опоры» (или «цифрового столба»). Датчики, установленные на таких опорах, передают данные через оптоволоконные кабели или коммуникационные каналы 5G, LTE, GSM. Полученная информация анализируется в масштабе национальной энергетической системы и хранится на облачных серверах.

Таблица 1. Компоненты цифровой энергетической системы, их функции и используемые технологии

№	Название компонента	Функция	Используемые технологии
1	Умные датчики	Измеряют ток, напряжение, температуру и давление	IoT, микроэлектроника
2	Модуль сбора данных	Собирает и передаёт сигналы от датчиков	GSM, LTE, 5G, SCADA-системы
3	Система облачных вычислений	Хранит и обрабатывает большие объёмы данных	Cloud Computing, Big Data
4	Аналитическая и прогнозная система	Раннее выявление неисправностей и выдача рекомендаций	Искусственный интеллект, Машинное обучение, Нейронные сети
5	Диспетчерский центр	Осуществляет дистанционное управление и мониторинг в реальном времени	SCADA, интерфейсы HMI
6	Модуль кибербезопасности	Обеспечивает защиту данных и предотвращает внешние атаки	Алгоритмы шифрования, Национальные серверы
7	Система безопасности персонала	Контролирует местоположение сотрудников и сигналы тревоги	IoT-датчики, GPS, Сетевой мониторинг

В подобных системах вопросы кибербезопасности являются ключевым фактором. Серверы, обрабатывающие данные, должны находиться на территории страны и работать под государственным контролем. Серверы, датчики и другое оборудование необходимо производить на базе национальной микроэлектроники, а программное обеспечение должно быть разработано локальными специалистами. В противном случае использование иностранных компонентов может поставить под угрозу безопасность всей системы.

Созданная на базе облачных серверов единая информационная модель обеспечивает централизованное управление энергетической системой. Диспетчеры наблюдают за изменениями в сети в режиме реального времени и применяют решения, направленные на обеспечение безопасности персонала. Например, датчики, встроенные в спецодежду технических работников, определяют их местоположение и отправляют диспетчеру сигнал о безопасной дистанции.

Цифровые энергетические системы позволяют быстро выявлять аварии, оперативно составлять планы по их устранению и минимизировать человеческий фактор. Благодаря визуальной информации, видеонаблюдению и мониторингу в реальном времени повышаются безопасность и эффективность энергетических объектов.

В такие системы можно интегрировать передовые технологии, такие как Интернет вещей (IoT), блокчейн, нейронные сети, автоматическая отчётность, прогностическая

аналитика и самодиагностика. Такой подход значительно повышает управляемость, уровень автоматизации и надёжность энергетических систем.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Внедрение цифровых технологий в энергетические системы — это важнейший фактор современного экономического развития и устойчивого роста. С их помощью процессы производства, распределения и потребления энергии становятся более эффективными, безопасными и экономичными.

Цифровое управление, расширенная диагностика, дистанционный мониторинг и облачные вычисления выводят энергетику на новый уровень развития. Развитие национальных технологий и обеспечение кибербезопасности, в свою очередь, гарантируют независимость и устойчивость энергетической системы.

Локально разработанные программные решения и электронные компоненты повышают уровень безопасности и усиливают международную конкурентоспособность.

В целом, цифровая энергетика — это не просто технологическое новшество, а перспективное направление, обеспечивающее безопасность человека, энергоэффективность и экологическую устойчивость.

Список литературы

1. Ахметшин Э.Р. «Цифровые технологии в энергетике» – Казань: КГЭУ, 2022.
2. Копылов С.И. «Интеллектуальные энергосистемы и цифровизация электроэнергетики» – Москва: Энергия, 2021.
3. Siemens AG. Power Diagnostics Services Overview – Siemens Energy, 2023.
4. Eaton Corporation. Enotify Remote Monitoring System Description – Official Documentation, 2022.
5. Trane Technologies. Intelligent Services: Remote Monitoring and Predictive Maintenance – 2023.
6. Caterpillar Inc. и Uptake. Predictive Diagnostics Partnership Report – 2021.
7. Министерство энергетики Республики Узбекистан. «Концепция цифровой энергетики – 2030» – Ташкент, 2023.

07.00.00 – Tarix fanlari

07.00.00 - History

07.00.00 - История

SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTON SSR (1960–1980 YILLAR) QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARIDA ILMIY KADRLAR TAYYORLASHNING TARIXIY TAHLILI

Nasilloyev Sunnat Shavkat o‘g‘li
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, Buxoro davlat universiteti
E-mail: nasilloyevsunnat@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.17919585

Annotatsiya: tadqiqot ishi O‘zbekiston SSRda 1960-1980 yillarda qishloq xo‘jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash, olib borilgan ilmiy siyosat, shu jumladan muammo va ularning yechimlarini o‘z ichiga olgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, aspirantura, ilmiy kadrlar, Markaziy qo‘mita, qaror, ilmiy himoya.

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОДГОТОВКИ НАУЧНЫХ КАДРОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ НАУК В УЗБЕКСКОЙ ССР В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (1960–1980 ГОДЫ)

Насиллоев Суннат Шавкат угли
Преподаватель кафедры общественно-политических наук, Бухарский государственный университет

Аннотация. В исследовательской работе рассмотрены вопросы подготовки научных кадров в сельскохозяйственных науках Узбекской ССР в 1960–1970 годах через систему аспирантуры, проводившаяся научная политика, а также существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: Узбекская ССР, аспирантура, научные кадры, Центральный комитет, постановление, защита диссертации.

HISTORICAL ANALYSIS OF SCIENTIFIC PERSONNEL TRAINING IN AGRICULTURAL SCIENCES IN THE UZBEK SSR DURING THE SOVIET PERIOD (1960–1980)

Nasilloyev Sunnat Shavkat ugli
Lecturer at the Department of Social and Political Sciences
Bukhara State University

Abstract: this research examines the training of scientific personnel in agricultural sciences in the Uzbek SSR during the 1960–1970s through the postgraduate (aspirantura) system, the scientific policy implemented in this field, as well as the existing problems and their solutions.

Keywords: Uzbek SSR, postgraduate studies, scientific personnel, Central Committee, decree, dissertation defense.

KIRISH

KPSS Markaziy qo‘mitasi va SSSR Vazirlar kengashining 1967 yil 16 noyabrdagi 1064 - son qaroriga, shuningdek, O‘zbekiston KP Markaziy komiteti va O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashining 1968-yil 13-fevraldagi 52 - son qarori, muvofiq “Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish to‘g‘risida” buyrug‘i tasdiqlangan.

O‘zbekiston KP Markaziy komiteti va O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashining qarorida qayd etilishicha, 1960-1967 yillarda respublikada “kommunistik qurilish amaliyoti” tomonidan ilgari surilgan katta muammolarni hal qilishga qodir ilmiy kadrlar o‘sgan bo‘lib, ilmiy va ilmiy-

pedagog kadrlar tayyorlashda yanada yaxshilanishga erishilgan. 1968 yilda Respublikada 5 mingga yaqin fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajalariga ega bo‘lgan ilmiy xodimlar, shu jumladan 350 dan ortiq fan doktori. 3 mingdan ortiq aspirantlar faoliyat olib borardi. Ko‘pgina mutaxassislar mustaqil ravishda, aspiranturadan tashqarida dissertatsiyalar ustida ishlaganligini inobatga olsa bu raqamlar oshishi tabiiy.

Biroq ilmiy kadrlar tayyorlashda jiddiy kamchiliklar mavjud edi.[1] Xususan, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o‘quv yurtlari ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish qobiliyatini namoyish etgan yosh mutaxassislarni aspiranturaga tanlash bo‘yicha kam ish olib borilgan. Ko‘pgina aspirantlar belgilangan muddatda dissertatsiyalar ustida ishlashni tugatmagan. 1966 yilda aspiranturani tugatgan 748 kishidan atigi 64 nafari o‘z vaqtida dissertatsiyalarni himoya qilgan.

O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi vazirligining ilmiy-tadqiqot institutlarida 1966 yilda aspiranturani tugatgan 76 kishidan 3 nafari dissertatsiyalarni o‘z vaqtida himoya qilgan, 1967 yilda esa bitirgan 64 nafar aspirantdan atigi 3 nafari dissertatsiyalarni o‘z vaqtida himoya qilgan. Bu institut rahbarlarining abituriyentlarni tanlashga, aspirantlar uchun zarur ilmiy, ishlab chiqarish va maishiy sharoitlarni yaratishga, ilmiy rahbarlarni tanlashga yetarlicha e'tibor bermasliklari natijasidir, shu bilan birga akademiklar va fanlar akademiyalari muxbirlari, fan doktori va professorlar aspirantlarning ilmiy rahbariyatiga kam jalb qilingan.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda 1960–1980 yillarda O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini yoritish uchun bir nechta tarixiy-metodologik yondashuvlardan, xususan, **arxiv tahlili, tarixiy-qiyosiy,** obyektivlik va ilmiy izchillik tamoyillariga asoslangan analitik metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Qishloq xo‘jaligi fanining eng dolzarb tarmoqlari bo‘yicha aspirantlarni tayyorlash rejalari muntazam ravishda bajarilmagan. Ko‘pincha institutlarga ba'zi mutaxassisliklarni boshqalar bilan almashtirishga ruxsat beriladi. 2 yil davomida aspirantlarni qabul qilish rejasi amalga oshirilmagan. O‘rta Osiyo pillachilik ilmiy-tadqiqot institutida 3 yil davomida ushbu institutning hech bir aspiranti dissertatsiya himoya qilmadigan. 1967 yilda Lalmi dehqonchilik instituti bo‘yicha dissertatsiyalar himoya qilinmadi. Bir necha yillar davomida institutlar maqsadli aspirantura rejasini bajarmagan.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashdagi mavjud kamchiliklar asosan Vazirlikning Fan Bosh Boshqarmasi ushbu muhim ishga kam e'tibor qaratishi, ilmiy-tadqiqot muassasalari ishini kam nazorat qilishi va ularga zarur yordam ko‘rsatmasligi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy komiteti va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1968-yil 13-fevraldagi 52-sonli “ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ilmiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish va bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan.

O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida 1960 yilgacha atigi 26 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. 1960-1970 yillar davomida qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida 617 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 143 nafari yoki 23,1 foizi o‘z vaqtida dissertatsiya ishini himoyaga taqdim etgan. Topshirilgan ilmiy tadqiqot

[1] S.Sh. “Nasilloyev Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati” Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning “TAFAKKUR VA TALQIN” mavzusidagI respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to’plami II qism. Buxoro – 2023. 7-12 b.
[2] O'zMA, R-90-fond 10-ro’yxat, 2675-yig’majild, 124-varaq

ishlaridan, 47 nafari yoki 32,8 foizi o‘z vaqtida himoya qilgan. Shuningdek kechikish bilan bo‘lsa-da keyingi yetti yilda sohada 367 ta aspirant tadqiqot ishini himoya qilgan bo‘lib, ushbu qiymat umumiy dissertatsiyalarning 59,4% ini tashkil etadi.

Agarda 1960-1965 yillarni alohida olib qaraydigan bo‘lsak, 262 nafar aspirant tayyorlangan, shundan 45 nafari o‘z vaqtida dissertatsiya himoyasiga taqdim etdi. Bu yillar davomida jami 94 ta yoki 35,9% dissertatsiya himoya qilingan.

1966-1970 yillarda esa 355 nafar aspirant tayyorlandi, belgilangan muddatda 98 ta dissertatsiya himoyaga taqdim etildi, ulardan 29 tasi himoya qilingan, 5 yillik davomida yana 273 dissertatsiya himoya qilingan bo‘lib, bu barcha tadqiqotlarning 76,8 % ini tashkil etadi.

Himoyasini o‘z vaqtida bajara olmagan 320 nafar aspirantning 92,4 foizi himoyani 2 yildan 6 yilgacha kechiktirib yakunlagan. Ushbu dissertatsiyalarning mavzulari dolzarb bo‘lib, ko‘plab tadqiqotlar natijalari amaliy va nazariy ahamiyatga ega edi. Shu sababdan ham tadqiqotchilar uchun vaqt va shart-sharoitlar yetishmasdi. Tugallangan ilmiy-tadqiqot ishlari xalq xo‘jaligi va ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi, masalan, “Kolxozda agrotexnika va agrokimyoviy tadbirlarni o‘tkazishda tuproq xaritasidan foydalanish”, “Amudaryoning quyi oqimidagi sholi yetishtiriladigan hududlarning tuproqlari va ularning unumdorligini oshirish yo‘llari” kabi tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Birgina “O‘zbekistonda go‘shtli va junli qo‘ychilikni yaratish” nomli tadqiqot ishidan olingan dastlabki natija orqali naslchilik ishlari uchun fermer xo‘jaliklariga 1477 bosh nasldor qo‘chqorlar topshirilib, go‘sht-junli qo‘ylar turi yaratilgan. Ayniqsa ikkinchi jahon urushi davridagi talab keyinchalik ham respublika hududida saqlanib qolgan.[3]

Shuningdek, mahalliy qoramollarni go‘sht yetishtirishga ixtisoslashgan nasldor qoramollar bilan chatishtirish asosida yangi yirik shoxli mollar naslini yaratish, ushbu yo‘l orqali respublikaning go‘shtga bo‘lgan talabini qondirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekistondagi qoramollarning asosiy zotlarida ba'zi qon oqsillarining polimorfizmini o‘rganish bo‘yicha ishlar ham nazariy ahamiyatga ega bo‘ldi.[4]

Aspirantlarni tayyorlash uchun respublika va Ittifoq ilmiy-tadqiqot muassasalari va Oliy o‘quv yurtlaridan yirik olimlar jalb etildi.

O‘zbekiston SSR Veterinariya institutida ilmiy kadrlar tayyorlash ishlari jadal suratda olib borildi, biroq, institutda 1958-1970 yillarda 79 kishi aspiranturani tugatgan bo‘lsa, ulardan 49 nafari (62.0 %) o‘z vaqtida dissertatsiyalarni yakunlagan. Shulardan 23 kishi yoxud 29.1% aspirant belgilangan muhlatda himoya qilgan. 1958-1970 yillarda jami 63 dissertant yoki 79,9% aspirantlar tadqiqot mavzusini himoya qilgan. Dissertatsiyalarni o‘z vaqtida himoya qilmagan 40 nafar aspirantdan 35 nafari aspiranturani tugatgandan so‘ng tadqiqotni himoya qilishi uchun 2 yildan - 4 yilgacha kerak bo‘lgan.

Tuproqshunoslik institutida esa 1947-yildan 1960-yilgacha, mavjud 13 yil mobaynida atigi 7 ta dissertatsiya himoya qilingan bo‘lsa, keying o‘n yil davomida jami 37 ta mavzu himoya qilingan. Ya’ni 1960-1970 yillarda 52 kishi aspiranturani tamomlagan, ulardan 11 nafari yoki 21,1 foizi vaqtida himoya qilish uchun dissertatsiyalarni taqdim etgan. Aspirantlarning 3 nafari yoki 5,7 foizi o‘z vaqtida himoya qilgan. Xulosa qilish mumkinki, qolgan aspirantlar uchun ko‘proq

[3] S.Sh. Nasilloyev, “Sovet hukumatining O’zbekiston SSR oliy yurtlarida aspirantura bosqichini tartibga solish sohasidagi huquqiy hujjatlari va ularning mohiyati. (ikkinchi jahon urushi davrida)” Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, № 17(54). 49-55 b.
[4] O'zMA, R-90-fond 10-ro’yxat, 4456-yig‘majild, 176-varaq

vaqt kerak bo‘lgan yoki keyinchalik ham tadqiqotini yakunlay olmagan. 1947-1970 yillarda umumiy hisobda 44 ta dissertant tadqiqot orqali ilmiy darajaga ega bo‘lgan.

Chorvachilik institutida aspirantura 1958-yildan 1970-yilgacha jami 132 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 27 nafari yoki 20,4 foizi dissertatsiyalarni o‘z vaqtida himoya qilish uchun taqdim etgan, shu jumladan 8 yoki 6,1% aspirant muhlatida himoya qilgan. 62 nafar aspirant aspiranturani tugatgandan so‘ng 2-5 yil davomida dissertatsiyalarni himoya qilgan, 1958-1970 yillarda institut tomonidan jami 84 ta dissertatsiya himoya qilingan.

Yomg‘irli (Lalmi) dehqonchilik (богарного земледелия) institutida ham ilmiy kadrlar tayyorlash ishlari tegishli darajada olib borilmagan, institutda 1961-1970 yillarda 29 nafar aspirant tayyorlandi, ulardan 8 nafari yoki 27,5 foizi o‘z vaqtida dissertatsiyalarni taqdim etgan. Shundan 4 kishi yoki 13,7% rejada ko‘zda tutilgan muddatda himoya qilgan. Aspiranturani tamomlaganlarning 11 nafari yoki 37,9 foizi esa nomzodlik dissertatsiyasini keyinchalik himoya qilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, 1961-1970 yillarda ilmiy-tadqiqot instituti aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash ishini 51,7 %gagina bajargan, xolos.

Ipakchilik institutida 1947-1960 yillarda 6 nafar aspirantning dissertatsiyalari himoya qilingan. 1960-yildan 1970-yilgacha 25 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 15 nafari yoki 60.0%, dissertatsiyalarni himoya qilgan. Hech bir aspirant dissertatsiya ishini o‘z vaqtida yakunlamadi, dissertatsiyalarni himoya qilish aspiranturani tugatgandan keyin 10 yil ichida amalga oshirilgan.[5]

Sholichilik institutida aspirantura bo‘limi 1965-yilda tashkil etilgan. 1970-yilga qadar 6 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 33.3 foizi dissertatsiya himoya qilgan.

Dissertatsiyalarni o‘z vaqtida himoya qilmaslikning asosiy sabablaridan biri avvolo ular uchun yetarli sharoit yaratilmaganli, iqtisodiy muammolarning mavjudligi va vaqt masalasi edi. Ko‘pgina aspirantlarning 2-3 yil davomida dalada tajriba o‘tkazishgan, 3-yil esa ma'lumotlarini qayta ishlash, shuningdek dissertatsiyani yozish uchun deyarli vaqt qolmas edi.

Dissertatsiyalarni himoya qilishni kechiktirishning sabablari - tadqiqot mavzulari va usullarini, shuningdek, aspirantlarni ilmiy rahbarlarni tayinlamasdan sirtqi bo‘limlarga qabul qilish, tugallangan ishlar bo‘yicha jurnallarda ilmiy maqolalarni o‘z vaqtida nashr etmaslik va boshqa kamchiliklardir.

Yuqoridagi masalalarni hal etish maqsadida O 'zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqdi.

Xususan, 1) Istiqbolli ilmiy xodimlar, ilmiy ishlarni bajarishga qodir bo‘lgan tadqiqotchilar orasidan aspiranturaga abituriyentlarni tanlashga ko‘proq e'tibor berish; 2) aspirantlarni ilmiy rahbar roziligisiz qabul qilishga yo‘l qo‘ymaslik; 3) “Talabgorlarni aspiranturaga qabul qilish” va “Aspirantura to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, tajriba-sinov o‘tkazish, ilmiy-ishlab chiqarish tajribalaridan xabardor, natijaga erishishga yaqin bo‘lganlar orasidan tanlash; 4) O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi vazirligi (МСХ УЗССР)ga kelgusi yil aspirantlarini qabul qilish uchun ariza taqdim etilgunga qadar aspirantura ishlari mavzusini aniqlash va institut kengashi a’zolari orasida mavzularni qayta ko‘rib chiqish; 5) oliy o‘quv yurtida mutaxassisligi nomenklatura bo‘yicha mutaxassislik profiliga mos kelmaydigan shaxslarning aspiranturaga qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik; 6) dissertatsiyalar mavzularida tajriba ishlarini o‘tkazish uchun aspirantlarga o‘z vaqtida zarur ilmiy-ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish; 7) bajarilgan ishlar bo‘yicha ilmiy maqolalarni nashr etishda aspirantlarga yordam berish; 8) institut ilmiy kengashida dissertatsiya

[5] O'zMA, R-90-fond 10-ro’yxat, 4456-yig’majild, 177-varaq

mavzulari bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida vaqti-vaqti bilan aspirantlar va ilmiy rahbarlarni eshitish, monitoring tashkil etish; 9) har yili kalendar muddatlarda aspirantlarni attestatsiyadan o‘tkazish, 10) aspirantura dissertatsiyalari sifatiga talabchanlikni oshirish dissertatsiyalar mavzularini, ilmiy tadqiqot usullarini zamonaviy tarzda tasdiqlash, aspirantlar ilmiy rahbarligiga akademiklar, muxbir a'zolar, fan doktorlari, professorlarni jalb qilish masalasi ilmiy-tadqiqot institutlari direktorlari uchun majburiy etib belgilangan.

Qishloq xo‘jaligi fanlari bosh boshqarmasiga esa 1) talabgorlardan KPSS tarixi bo‘yicha aspiranturaga kirish imtihonini qabul qilish (Falsafa bo‘yicha berilgan nomzodlik minimumi mavjud ekanligiga qaramay), 2) mavzulari institutning tematik rejasida ko‘zda tutilmagan aspirantura ishlarining o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik; 3) har bir institutning ilmiy kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarini tizimli nazorat qilish;

4) Qishloq xo‘jaligi fanlari bosh boshqarmasi kengashida ilmiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining hisobotlarini tinglash; 5) aspirantlarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini o‘tkazish vazifasi yuklatilgan.

SSSR Vazirlar kengashi tomonidan 1968-yil 22-fevraldagi “Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va zavod laboratoriyalari uchun zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar va laboratoriya uskunalari ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 115-sonli qarori tasdiqllangan. Qarorda ittifoqdagi barcha vazirliklar tarkibidagi ilmiy tadqiqot muassasalari, SSSR fanlar Akademiyasi, shuningdek ittifoq respublikalari fanlar akademiyalariga 1968-1970 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlarini o 'tkazish uchun zarur bo‘ lgan zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar va laboratoriya uskunalarini ishlab chiqish va takomillashtirish yuklatilgan.[6]

Shuningdek, respublika fanlar akademiyalari ilmiy tadqiqot muassasalarida tabiiy fanlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy asboblar, apparatlar va laboratoriya uskunalarini yaratish bo‘yicha ishlarga ilmiy-uslubiy rahbarlik qilish, zamonaviy asbob-uskunalar, asbob-uskunalar va laboratoriya asbob-uskunalarining texnik darajasi hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va zavod laboratoriyalarining ehtiyojlarini ta'minlash uchun javobgarlik yuklatish talabi qo‘yilgan. [7]

O‘zbekiston SSRda 1968-1970 yillarda ushbu vazirlik va idoralarning ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o‘lchash asboblari, apparatlari va laboratoriya uskunalarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishni tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari o‘rganilgan.[8]

KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar sovetining 1968 yil 24 sentyabrdagi № 760 [9] “Ilmiy tashkilotlar ish samaradorligini oshirish va xalq xo‘jaligida fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni tezlashtirish choralari to‘g‘risida”gi qarori[10] shakllantirilgan.

SSSR vazirliklari va idoralari hamda ittifoqdosh respublikalar Vazirlar Sovetlariga alohida tarmoqlar va ittifoqdosh respublikalar xalq xo‘jaligining texnik va iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha, shuningdek, tarmoq yoki respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan eng muhim muammolar yuzasidan ilmiy-texnikaviy bashoratlarni ishlab chiqishni ta’minlash topshirilgan.

[6] Постановления Совета Министров СССР за феврал 1968 г. с-145
[7] Постановления Совета Министров СССР за феврал 1968 г. с-146
[8] Постановления Совета Министров СССР за феврал 1968 г. с-147
[9] Ushbu qarorga (SSSR KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Vazirlar Sovetining 1983 yil 22 avgustdagi № 818; 1985 yil 22 fevraldagi № 180; 1986 yil 21 fevraldagi № 255; 1987 yil 18 noyabrdagi № 1301; 1988 yil 30 iyundagi № 811; 1988 yil 11 avgustdagi № 1003 qarorlari bilan kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan)
[10] https://www.economics.kiev.ua/download/ZakonySSSR/data03/tex15254.htm

XULOSA

Ushbu dalillarga asoslanga holda O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash to‘g‘ri tashkil etilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. 1971 yil 25 oktabrda Toshkent shahri o‘tkazilgan O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi vazirligi hay’ati (hay'at raisi - E. Shayxov) yig‘ilishi “Aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash to‘g‘risida”gi 85-son qarorni tasdiqlagan. Ushbu qarorga muvofiq O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashi respublikaning iqtisodiy hayotini yaxshilash maqsadida iqtisodiy fanlar bo‘yicha aspiranturaga har yili qabul qilish rejasini 10-12 ta o‘ringa ko‘paytirish masalasini ijobiy baholagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S.Sh. Nasilloyev “Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati” Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning “TAFAKKUR VA TALQIN” mavzusidagI respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to‘plami II qism. Buxoro – 2023. 7-12 b.
2. S.Sh. Nasilloyev, “Sovet hukumatining O‘zbekiston SSR oliy yurtlarida aspirantura bosqichini tartibga solish sohasidagi huquqiy hujjatlari va ularning mohiyati. (ikkinchi jahon urushi davrida)” Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, № 17(54). 49-55 b.
3. S.Sh.Nasilloyev “O‘zbekiston fanlar akademiyasining tashkil etilishi” RESEARCH FOCUS xalqaro ilmiy jurnali 2023 yil 5-son 92-98 b.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi saqlovi hujjatlari
5. Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovi hujjatlari

10.00.00 – Filologiya fanlari

10.00.00 – Philology

10.00.00 – Филология

“XUROSONDAGI AYYORLIK”: TARIXIY HIKOYA, MILLIY O‘ZLIK VA AYYORLIKNING BADIIY IFODASI

Uktamova Xilola
PhD, katta o‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: uktamovahilolaxon@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.17914682

Annotatsiya: ushbu maqolada Xalilulloh Xaliliyning “Xurosondagi ayyorlik” asari Afg‘onistonning XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy inqirozi fonida tahlil qilinadi. Asar tarixiy roman (qissa) janrida yozilgan bo‘lib, Afg‘onistondagi so‘nggi monarxiyaning ag‘darilishi va Habibulla Kalakoniy (Bachai Saqqo) hukmronligi davri voqealarini qamrab oladi. Tahlil qahramonlik (ayyorlik) kontseptsiyasining badiiy timsoli, uning tarixiylik bilan o‘zaro aloqasi va insonparvarlik (gumanistik) g‘oyalarni yetkazishdagi roli nuqtai nazaridan olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Xalilulloh Xaliliy, “Xurosondagi ayyorlik”, afg‘on adabiyoti, tarixiy hikoya, milliy o‘zlik, ayyorlik, postkolonial adabiyot.

“ХИТРОСТЬ В ХОРАСАНЕ”: ИСТОРИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ, НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ ХИЩНИЧЕСТВА

Уктамова Хилола
PhD, старший преподаватель, Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация: в данной статье анализируется произведение Халилуллаха Халили «Хитрость из Хорасана» на фоне социально-политического кризиса в Афганистане в начале XX века. Произведение написано в жанре исторической повести (рассказа) и охватывает события периода свержения последней монархии и правления Хабибуллы Калакани (Бачаи Сакко) в Афганистане. Анализ проводится с точки зрения художественного образа концепции героизма (хитрость), его взаимосвязи с историчностью и роли в передаче гуманистических идей.

Ключевые слова: Халилуллах Халили, «Хитрость из Хорасана», афганская литература, историческая повесть, национальная идентичность, хитрость, постколониальная литература.

“CUNNING IN KHORASAN”: A HISTORICAL STORY, NATIONAL IDENTITY AND ARTISTIC EXPRESSION OF CUNNING

Uktamova Khilola
PhD, Senior Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: this article analyzes Khalilullah Khalili’s work, “The cunning from Khorasan,” against the backdrop of the socio-political crisis in Afghanistan in the early 20th century. The work is written in the genre of a historical novel (novella) and covers the events during the overthrow of the last monarchy and the reign of Habibullah Kalakani (Bachai Saqqo) in Afghanistan. The analysis is conducted from the perspective of the artistic representation of the concept of heroism (ayyar), its correlation with historicity, and its role in conveying humanistic ideas.

Keywords: Khalilullah Khalili, “The Ayyar from Khorasan,” Afghan literature, historical novella, national identity, cunning, postcolonial literature.

KIRISH

Xalilulloh Xaliliy (1907-1987) Afg‘onistonning taniqli adibi, shoir va tarixchisi sifatida XX asr dariy adabiyotining yetuk namoyandasi hisoblanadi. Uning “Xurosondagi ayyorlik” asari nafaqat tarixiy mazmuni, balki noyob badiiy uslubi bilan ham sharqshunoslik va adabiyotshunoslik doiralarida e’tiborga molikdir. Ushbu asar, 1929-yildagi ijtimoiy-siyosiy inqiroz va Habibulla Kalakoniy (Bachai Saqqo) hukmronligi davri voqealariga bag‘ishlangan tarixiy qissadir.

Tarixiy qissa janri, Jorj Lukach ta’kidlaganidek, tarixiy zaruriyatni insoniy taqdir orqali ifodalash funksiyasini bajaradi. Tarixiy shaxslar va voqealar badiiy timsollar orqali umumlashtiriladi.

Xaliliyning ushbu asaridagi asosiy kontseptsiya “ayyorlik”dir. An’anaviy afg‘on xalqi adabiyotidagi “ayyor” (javonmardi, futuvvat) timsoli jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi chiqqan, kuchli ijtimoiy tartibga ega bo‘lmagan shaxsni ifodalaydi. Xaliliy bu an’anaviy “ayyorlik” timsolini o‘z asarida yangi zamonaviy ma’no – vatanparvarlik va halollik bilan boyitadi. Bu qahramonlik, mavjud hokimiyat (odatda, zolim deb talqin qilinadigan) tuzumiga qarshi oddiy xalq manfaatlarini himoya qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Xaliliy uslubida an’anaviy fors-tojik adabiyoti bilan kuchli intertekstuallik aloqalari kuzatiladi. Xususan, asarda Alisher Navoiy, Bedil, Hofiz she’rlariga istioralar mavjud. Adabiyotshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, intertekstuallik nazariyasi Julia Kristevaning qarashlariga xos, ya’ni har bir matn oldingi matnlar bilan dialogda mavjud. Ba’zi o‘rinlarda “یک بود، یکی نبود” (bir bor ekan, bir yo‘q ekan) deb boshlash va maqollardan mohirona foydalanishini uchratish mumkin.

“Xurosondagi ayyorlik” muallifning shaxsiy tajribasi va tarixiy voqealarga asoslanib, shaxsiy xotiralari, an’analar va tarixiy faktlarni birlashtirib, Afg‘onistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi mustamlakachilikka qarshilik kurashi, ichki nizolar va jamiyatning o‘zgarishi haqida badiiy tasvir orqali ma’lumot beradi. Asarning markazida “ayyorlik” tushunchasi bo‘lib, u an’anaviy jamiyatda adolat, jasorat va himoya ramzi hisoblanadi. Xaliliy bu tushunchani qayta talqin qilish orqali murakkab tarixiy shaxslar, xususan, Habibullo Kalakoniyning obrazini chuqur o‘rganadi, ularning harakatlarini milliy mustaqillik va ijtimoiy adolat kontekstiga joylashtiradi.

Xaliliy asarida tarix va adabiyot o‘rtasidagi chegarani siyraklashtiradi. U an’anaviy tarixiy ma’lumotlarni shubha ostiga oladi va “pastdan qarab” yangi nuqtai nazarni taklif etadi. Asarda, masalan, Boburiy imperiyasining qulashi, Britaniya aralashuvi va Afg‘oniston mustaqilligi kabi voqealar shaxsiy tajribalar va mifologik hikoyalar orqali aks ettirilgan. Tarixiy faktlar to‘liq hujjatli aniqlikda berilmay, balki asar g‘oyasiga xizmat qiladigan tarzda tanlanib, badiiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Asarda hokimiyatga intiluvchi shaxslar va ular keltirib chiqargan tartibsizlik (xalq yashagan qiyinchiliklar) bir tomonda, adolatparvar, xalqchil qahramonlar (ayyorlar) ikkinchi tomonda tasvirlanadi. Bu esa yuzaga kelgan tarixiy vaziyatga muallifning shaxsiy bahosini aks ettiradi.

Asardagi “Kosa minorasi” jangi kabi sahifalar tarixiy voqeani epik va hissiy jihatdan boyitilgan holda tasvirlaydi. Bu yondashuv Xayden Vaytning “tarixiy hikoya” g‘oyasiga mos keladi, bunda tarixchilar voqelikni tushuntirish uchun adabiy tuzilmalardan foydalanadilar. Xaliliy an’anaviy tarixda chetlashtirilgan qahramonlar (masalan, oddiy askarlar, ayollar, qaroqchilar)ga gapirish imkonini beradi, ularning qahramonligi va qurbonliklarini ko‘rsatib beradi. “Kosa minorasi” – mustamlakachilikka qarshilik ramzi sifatida aks ettirilgan.

Asar Afg‘onistonning mustamlakachilik kuchlari (Buyuk Britaniya, keyin Sovet Ittifoqi) va zamonaviylashtirish siyosati o‘rtasidagi murakkab munosabatlarini ochib beradi. Xaliliy G‘arb modernizatsiyasini ko‘plab an’analar va diniy qadriyatlar bilan to‘qnashuv sifatida tasvirlaydi, bu esa ichki ziddiyatlarga olib keladi. “Kosa minorasi” jangi kabi epik tasvirlar orqali afg‘on xalqining mustaqillik uchun kurashi aks etadi. Sovet Ittifoqining Afg‘onistondagi siyosiy aralashuvi va uning xalq hayotiga salbiy ta’siri tanqid qilinadi. Buxoro va Samarqanddan qochgan muxojirlarning og‘ir ahvoli orqali Sovet rejimining zo‘ravonligi ochib berilgan.

Omonulloh Xon hukmronligi davridagi islohotlar (kigiz shapkalar kiyish, ta’til kunlarini o‘zgartirish) jamiyatning bir qismi tomonidan diniy va madaniy hujum sifatida qabul qilingan. Bu Frants Fanonning postkolonial nazariyasiga mos keladi, bunda mustamlakachilikdan keyingi jamiyatlar madaniy meros va modernizatsiya o‘rtasidagi ziddiyatni boshdan kechiradilar. Xaliliy bu ziddiyatni “ayyorlik” xususiyati orqali hal qilishga harakat qiladi, ya’ni an’anaviy qadriyatlar asosida zamonaviylikka qarshilik ko‘rsatish.

Xaliliy Habibullo Kalakoniy obrazini oddiy “qaroqchi” yoki “qahramon” emas, balki murakkab tarixiy shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning hokimiyatga kelishi va qulashi orqali muallif siyosiy beqarorlik, sinfiy kurash va tashqi aralashuv mavzularini ochib beradi.

“Ayyorlik”tushunchasi afg‘on va O‘rta Osiyo adabiy manbalarida uzoq tarixga ega. Dastlabki bosqichlarda u asosan “futuvvat” (olijanoblik, yigitlik) va “javonmardi” (mardlik, saxovat) axloqiy mezonlari bilan bog‘liq edi. Adolat uchun kurashish, himoyasizlarga yordam berish, ritsarlik qoidalari, sir saqlash qobiliyati va hukmdorlarga qarshi chiqish. Masalan, “Kalila va Dimna” kabi hikoyalarda yoki Siston tarixiga oid dostonlarda ayyorlar jamiyatda tartib-intizom o‘rnatishga harakat qilgan norasmiy kuch sifatida tasvirlanadi. Bu an’anaviy ayyor ko‘pincha qonundan tashqari, ammo axloqiy jihatdan baland turuvchi shaxs bo‘lgan. Asardagi ayyor timsoli hukmron sinfning (monarxiyaning ag‘darilishi paytidagi) zaifligi va siyosiy opportunizmiga qarshi turuvchi axloqiy kompas rolini o‘ynaydi. U hokimiyatga intilmaydi, balki adolat va tartibni tiklashni maqsad qiladi.

Bu, G‘arb adabiyotshunosligidagi “Anti-qahramon” (Anti-hero) konsepsiyasi bilan qisman o‘xshash bo‘lishi mumkin, chunki u rasmiy tuzum tomonidan tan olinmagan yoki hatto jinoiy hisoblangan shaxs bo‘lsa-da, axloqiy jihatdan ideal qahramonlik xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Asarda tasvirlangan ayyor shaxsning asosiy motivlari shaxsiy boylik yoki hokimiyat emas, balki adolat va g‘ururdir. Bu bilan Xaliliy asarga chuqur gumanistik ma’no beradi: asardagi “ayyor”lik, oddiy odamlarni himoya qilish va mamlakatdagi tartibsizliklarga qarshi turish kabi vatanparvarlik harakatlari bilan bog‘lanadi. Bu, gumanistik g‘oyalarning milliy o‘zlikni anglash kontekstida namoyon bo‘lishidir. Kalakoniy obrazini tasvirlashda yozuvchi “yaxshi” va “yomon” o‘rtasidagi an’anaviy qarama-qarshilikdan qochadi. Bu tarixiy shaxslarni qayta ko‘rib chiqishga bo‘lgan intilishni aks ettiradi, ularni qahramonlar harakat qilgan tarixiy sharoitda tushunishga harakat qiladi. Bu yondashuv tarixiy adabiyotda “buyuk odam” nazariyasidan uzoqlashishni ifodalaydi. Asar o‘quvchilarga tarixiy voqealarning murakkabligiga qaramay, shaxsiy axloqiy mas’uliyatning muhimligini yetkazishga urinadi. Ayyorlar timsoli orqali muallif afg‘on jamiyatidagi oliyjanoblik, bag‘rikenglik va jasoratning barqaror qadriyat ekanligini ta’kidlaydi.

Muallif uslubida realizm va ramziylik o‘rtasida muvozanat mavjud: realistik tasvir sifatida ijtimoiy adolatsizliklar, qashshoqlik, siyosiy korrupsiya batafsil tasvirlansa, ramziylik asnosida ayyorlik - milliy ozodlik ramzi, Kosa minorasi - mustamlakachilikka qarshilik ramzini ifodalaydi.

XULOSA

“Xurosondagi ayyorlik” nafaqat tarixiy hikoya, balki Afg‘onistonning murakkab o‘tmishini tushunish, milliy o‘zlikni qayta aniqlash va mustamlakachilikdan keyingi davrda kelajakni ko‘rish uchun muhim vosita hisoblanadi. Xaliliy “ayyorlik” xususiyatini qayta kashf etish orqali afg‘on xalqiga tarixiy izohlilik va ma’naviy mustahkamlik manbai sifatida xizmat qiladi. Asar shuni ko‘rsatadiki, tarix nafaqat podshohlar va urushlar haqida, balki odamlarning jasorati, qurbonligi va orzulari haqidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 1983.
2. Bakhtin M.M. The Dialogic Imagination. – University of Texas Press, 1981.
3. Ehteshami A. "Contemporary Persian Literature". – Routledge, 2018.
4. Ingarden R. The Literary Work of Art. – Northwestern University Press, 1973.
5. Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – Columbia University Press, 1980.
6. White H. Metahistory: The Historical Imagination in Nineteenth-Century Europe. – Johns Hopkins University Press, 1973.

13.00.00 – Pedagogika fanlari

13.00.00 – Pedagogical sciences

13.00.00 – Педагогические науки

AKSIOLOGIK QARASHLAR YORDAMIDA TALABALARNING FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti professori, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq, O‘zbekiston
E-mail: shuxratdjumaqulov834@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17893318

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Aksiologiya”,“Kompetensiya”, “Fuqarolik kompetensiyasi” tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, aksiologik qarashlar yordamida talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Aksiologiya”, “qadriyat”, “kompetensiya”, “fuqarolik kompetensiyasi”, “kompetentlik”, “fuqaro kompetentligi”, “huquq”, “erkinlik”, “majburiyat”.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация: В статье разъясняются понятия «Аксиология», «Компетенция», «Гражданская компетенция». Также освещается вопрос развития гражданской компетенции студентов через аксиологические взгляды.

Ключевые слова: «аксиология», «ценность», «компетенция», «гражданская компетенция», «компетентность», «гражданская компетентность», «право», «свобода», «обязательства».

ISSUES OF DEVELOPING STUDENTS' CIVIC COMPETENCE USING AXIOLOGICAL PERSPECTIVES

Abstract: The article explains the concepts of "Axiology", "Competence", "Civic competence". It also highlights the issue of developing students' civic competence through axiological views.

Key words: "Axiology", "Value", "Competence", "Civic competence", "Right", "Freedom", "Responsibilities".

KIRISH

Mamlakatimizda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada islohotlar olib borilayotgan bir davrda aksiologik qarashlar yordamida oliy ta’lim muassasalari talabalarining fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalaridan biridir.

Fuqarolik kompetensiyasi o‘zida kognitiv, qadriyatli, xulq-atvorga doir, refleksiv komponentlarni aks ettiruvchi hamda vatanni sevish, o‘z xalqining qiziqishlarini himoya qilish, ona tabiatni muhofaza qilish, xalqining tili va madaniy an’analarini saqlash, avloddan- avlodga yetkazish qobiliyatini namoyon etuvchi shaxs integrativ sifatidir. Shunday ekan talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda aksiologik qarashlarning o‘rni kattadir. Talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish, ularning jamiyatimizdagi har bir masalaga daxldorlik hissini kuchaytirish, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda, olib borilayotgan islohotlarimizning tadrijiyligini ta’minlashga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, kompetentligi yuqori bo‘lgan shaxslarni shakllantirish dolzarb masalalardandir.

Kompetentligi yuqori bo‘lgan shaxslarni shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun

uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz. Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o‘zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta [1]” degan fikrlari diqqatga sazovordir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Aksiologiya atamasi ilmiy bilimlar sohasiga XX asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to‘g‘risidagi fan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qadriyatshunoslik, deb atash mumkin. Har bir fanga o‘z nomini bergan asosiy tushunchalar bo‘lgani kabi qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G‘arbda bu atama grekcha “axio” (qadriyat) va “Iogos” (fan, ta’limot) tushunchalariga asoslanadi[2].

Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllar bilan bog‘liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega. Bunda Yevropa olimlaridan Sokrat, Platon, Aristotel, Geraklit, Demokrit, J.J.Russo, A.Sen-Simon, Sh.Furye, R.Ouen, I.Kant, M.Sheler, N.Gartman, V.Vindelband, G.Rikkert, Ujeyms, J.Dyui, N.Berdyayev, P.Sorokin, E.Dyurkgeym, T.Parsons va boshqalarning ijodiy merosida aksiologiyaning rivojiga qo‘shgan hissasini ko‘rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar hamda olimlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Maxtumquli, Abay, Behbudiy, Avloniylar ijodida ham qadriyatshunoslikka oid qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin.

Qadriyatlar muammosining falsafiy-tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqllar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya’ni xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og‘zaki ijodida ko‘proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik ruhi badiiy tasvirlangan [3] .

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avestoda yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g‘oyat muhim ma’lumotlar berilgan.

Buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Xorazmiy ilgari surgan g‘oyalarda qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari izohlangan. Xorazmiy olimning qadri, o‘tmishlari fikrlarini kelajakka hokisor yetkazib berishda, deb hisoblar edi. Mutafakkir quyidagicha yozadi: “O‘tmish davrlarda o‘tgan olimlar fanning turli tarmoqlari sohasida asarlar yozish bilan o‘zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. Ulardan biri o‘zidan avvalgilardan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi, uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi , o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi”[4]. Bu so‘zlar butun sharq olimlari uchun umumiy talab, kamolot mezoni, hozirgi intellektual mulk egalari ma’naviy qiyofasining asosiy xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Abu Nasr Forobiy ham qadriyatlarga katta e’tibor bergan. Forobiyning qadriyatlar to‘g‘risidagi fikrlarini “Madina al-fozila” ta’limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida yuksak g‘oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiy

tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo‘lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma’naviy-ahloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy fikricha ma’naviy qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan. Masalan, kishilar o‘rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko‘pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o‘zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori edi.

Qadriyatlar masalasi Abu Ali Ibn Sinoning asarlarida ham muhim o‘rin egallaydi. Uning “Donishnoma”, “Solomon va Ibsol” kabi asarlarida bu masalaga to‘xtalib o‘tilgan. Ibn Sinoning nazarida o‘z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o‘rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o‘ziga davo topadi. Ibn Sino inson, uni o‘z-o‘zini idora qilishi haqidagi fanlarning ahamiyatini to‘g‘ri ta’kidlaydi[5].

Ibn Sino ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyatiga ham katta e’tibor bergan. Uningcha, odamning qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lishga intilishi, donologi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir.

Siyosiy qadriyatlar talqinida Amir Temurning qarashlari katta o‘rin tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning axloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san’ati bayon qilingan “Temur tuzuklari”da ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga katta ahamiyat berilgan, asar Sharqda va G‘arbda mashhur bo‘lgan, ko‘p marta chop etilgan.

Umumbashariy qadriyatlar tahlilida Mirzo Ulug‘bekning fikrlari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘z atrofiga Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mutafakkirlarni to‘pladi, ular bilan birga umumbashariy qadriyatlar, koinot sirlari, unda ro‘y berayotgan jarayonlarning ahamiyatini o‘rganish borasida o‘z zamonasidan ilgarilab ketdi. Sirasini aytganda, ular nafaqat umumbashariy qadriyatlarni tadqiq etdilar, balki ilm-ma’rifat, haqiqat, ziyolilik, fozillik kabi umuminsoniy qadriyatlarning turli xususiyatlarini izohlab berdilar. Ulug‘bek akademiyasining faoliyati o‘rta asrlar ilmiy hurfikrliligining eng yaqqol namunalaridan biridir, u boshchilik qilgan olimlar esa koinot va yulduzlarni inson uchun abadiy makon bo‘lgan olamning bashariy qadriyatlari sifatida tushunganlar va tadqiq qilganlar.

Yurtimiz madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘zining asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e’tibor bergan. Uning fikrlari ham tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq. Ushbu ta’limot faqat Navoiy emas, balki Sa’diy, Jomiy kabi boshqa o‘rta asr mutafakkirlarining qarashlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Navoiyning odil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta’limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ta’riflangan. Bunda ikki qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko‘rinib turadi.

Keyingi asrlarda A.Donishning “O‘g‘illarga nasihat” (XIX asr oxiri), A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” (XIX asr boshlari) asarlarida ham aksiologiya ya’ni qadriyatlar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki aksiologiyaning rivojida nafaqat g‘arb mamlakatlari olimlari balki sharq allomalarining ham xizmati kattadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aksiologiyaning mazmunini o‘rganish bilan birga kompetensiya tushunchasini o‘rganish va tadqiq etish ham muhim hisoblanadi.

Kompetentli yondashuv jiddiy meyoriy bazaga ega bo‘lgan oliy ta’lim rivojlanishining ustuvor va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bunda kompetensiyalarni o‘zlashtirish ta’limning asosiy maqsadi va natijasidir.

Olimlar tomonidan ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlilik” atamalari turlicha talqin etiladi.

N.Muslimovning fikricha inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi, kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablarini o‘zida ifoda etadi [6].

B.Xodjayev kompetensiya - ma’lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘quvchining avvaldan belgilangan ta’limiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (meyorlar)dan ham o‘zib ketishi, kompetentlik esa, tayanch, umumiy va fanga doir kompetensiyalarning o‘zlashtirilishi, degan xulosaga kelgan[7].

I.G.Galyamina kompetensiyani turli sohalardagi kasbiy muammolarni hal qilishda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyati va unga insonning tayyorligi, kompetentlilikni esa-kompetensiyalar yig‘indisining namoyon bo‘lishi sifatida tushunadi[8].

I.A.Zimnyaya kompetensiyalar deb ba’zi ichki, potensial, yashirin bilimlar, tasavvurlar, harakatlar algoritmlari, qadriyatlar tizimlarini hisoblaydi, ular esa keyinchalik insonning kompetentligida o‘zini namoyon etadi, degan fikrni qayd etib o‘tgan. Kompetentlik, uning fikriga ko‘ra, bilimlarga asoslangan dolzarb, shakllantiradigan shaxsiy sifat, insonning intellektual va shaxsiy belgilangan ijtimoiy-kasbiy tavsifnomasi, uning shaxsiy sifatidir[9].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash mumkinki, “kompetensiya” tushunchasini tavsiflashda ko‘pincha intilish, qobiliyat, tayyorlik fe’llariga tayaniladi, kompetentlik esa, integrativ shaxsiy sifat yoki sifatlar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’limning asosiy muammolaridan biri bu asosiy kompetensiyalarni tanlab olish bo‘lib, ular umumkasbiy va fanga doir guruhlarga ajratiladi. Tadqiqotlarda asosiy kompetensiyalarning psixologik-pedagogik asoslarini ajratib ko‘rsatish, ularning mazmuni, xususiyatlari va tarkibiy asoslarini aniqlash muammolariga katta e’tibor qaratiladi.

Bizning tadqiqotlarimiz doirasida ma’naviy fazilat sifatida fuqarolik kompetensiyasini tadqiq etish muhim o‘rin tutadi.

Fuqarolikni asosiy kompetensiya sifatida ajratib ko‘rsatish 1990-yillarning ikkinchi yarmida boshlanadi. I.A.Zimnyaya tomonidan “fuqarolik tuyg‘usi bilan bog‘liq kompetensiyalar” atamasi fanga kiritildi[9]. Zamonaviy pedagogika fanida “fuqarolik kompetensiyalari” tushunchasi va o‘z mazmun-mohiyati jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan yana bir qator atamalar uchraydi. Bular “fuqaro kompetentligi”, “fuqarolik hissi kompetentligi”, “fuqarolik kompetensiyasi” kabi atamalardir.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining fuqarolik kompetentliligini shakllantirish masalasi V.G.Jurova, A.Akramovlar tomonidan o‘rganilgan.

Fuqarolik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning siyosiy jihati Y.YE.Podlesnaya tomonidan tahlil etilgan.

Fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish muammosiga I.A.Zimnyaya, Z.S.Mazir, L.V.Orinina tadqiqotlarida ham e'tibor qaratilgan.

I.A.Zimnyaya - fuqarolik kompetensiyalari deganda, fuqaroning huquq va majburiyatlarini bilish va ularga rioya qilish, erkinlik va mas'uliyat, o'ziga ishonch, o'z qadr-qimmati, fuqarolik burchi, davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya) haqida bilimga ega bo'lish va ulardan g'ururlanish nazarda tutiladi. Uning fikricha, fuqaro kompetentligiga, insonni jamiyat a'zosi, davlatga tegishlilik sifatida uning sotsial, ijtimoiy mohiyatining asosi sifatida qarash kerak[9].

Z.S.Mazir fuqarolik kompetensiyasini huquq, siyosat, jamiyat, davlat to'g'risidagi bilimlarni qo'llashga, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda fuqarolik rollarini bajarishga imkon beradigan siyosiy-huquqiy ko'nikma va malakalarni egallashga (saylovchi, qonunlarni hurmat qiluvchi fuqaro, jamoatchilik ishlarida faol) tayyorlik, deb ta'riflaydi[10].

L.V.Orininaning fikricha, fuqarolik kompetensiyasi deganda shaxsning integrativ sifati tushunilib, u kognitiv, qadriyatli, xulq-atvorli va refleksiv komponentlarni o'z ichiga oladi va Vatanni sevish, o'z Vatani manfaatlarini himoya qilish, ona-tabiatni asrash-avaylash, o'z xalqining madaniy urf-odatlari, an'analarini saqlab qolish va avloddan avlodga yetkazish qobiliyati va boshqa xalqlarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini rivojlantirishda namoyon bo'ladi[11].

XULOSA

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, fuqaro kompetentliligi - bu subyektning fuqarolik kompetensiyalari yig'indisini egallashdan iborat bo'lib, u o'zini jamiyatning (davlatning) to'laqonli a'zosi sifatida anglashi, uning manfaatlariga sodiq bo'lishi, huquq, erkinlik va majburiyatlar yig'indisini egallashi, fuqaro sifatida harakat qilishida namoyon bo'lishi, fuqarolik kompetensiyasi - bu o'z bilim, malaka, tajribasi, shaxsiy sifatlarini faoliyatda amalga oshirishga intilish, buning uchun tayyorlik va qobiliyati yig'indisidir degan fikrga keldik. Shundan kelib chiqqan holda talabalarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda aksiologik qarashlardan foydalanish, ularga buyuk allomalarimizning asarlarida asoslab berilgan qadriyatlarimizni o'qitish orqali bugungi kunda davlat va jamiyat oldidagi daxldorlik hissini anglash, huquq va erkinliklarini bilish va ulardan foydalanish bilan birga, majburiyatlarini bajarish kabi sifatlarni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" T.: O'zbekiston, 2021. 230-231-betlar.
2. Назаров Қ.Н. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология) Илмий-услубий комплекс. Т.: 2004. 3 -бет.
3. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Т.: Ўзбекистон, 1995. 6-бет.
4. Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. Т.: Фан, 1983. 59-бет.
5. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 1 китоб. Т.: Мерос, 1993. 5-бет.
6. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. Тошкент: 2007. - 357 б.
7. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. Тошкент, 2016. - 314 б.
8. Галямина И.Г. Проектирование государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования нового поколения с использованием

компетентностного подхода: материалы к шестому заседанию методологического семинара 29 марта 2005 г. М, 2005.

9. Зимняя И.А. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека // Профессиональное образование. 2006.- №2. - С. 18.
10. Мазыр З.С. Формирование гражданской компетенции учащихся в процессе обучения в школе: диссертация … кандидата педагогических наук.- Самара, 2005.- 176 с.
11. Оринина Л.В. Формирование гражданской компетенции студентов в условиях поликультурной образовательной среды университета: диссертация … кандидата педагогических наук. - Магнитогорск, 2007. - 159 с.

FORMATION OF A DIGITAL CULTURE OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

G. R. Muratova
Associate Professor, Kokand State University
E-mail: muratovagulnora4@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.17811159

Abstract: Abstract The rapid digital transformation of society necessitates the integration of digital competencies into the professional training of future specialists in physical education and sports. This article examines the theoretical foundations and practical approaches to the formation of digital culture among students in higher educational institutions. The study analyzes the role of modern digital technologies in enhancing educational effectiveness, improving methodological support, and fostering innovative pedagogical practices. Based on the conducted research, key components of digital culture in the context of physical education and sports are identified, including information literacy, digital communication skills, and the ability to apply technological tools in professional activities.

Keywords: digital culture, physical education, sports, professional training, digital competencies, educational technologies.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI KELAJAK MUTAXASSISLARINING RAQAMLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

G. R. Muratova
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti
E-mail: muratovagulnora4@gmail.com

Annotasiya: Xulosa Jamiyatning tezkor raqamli o'zgarishi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga raqamli kompetensiyalarni integratsiyalashni taqozo etadi. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim samaradorligini oshirish, metodologik yordamni takomillashtirish va innovatsion pedagogik amaliyotlarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida jismoniy tarbiya va sport kontekstida raqamli madaniyatning asosiy komponentlari, jumladan, axborot savodxonligi, raqamli muloqot ko'nikmalari va texnologik vositalarni professional faoliyatda qo'llash qobiliyati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, kasbiy tayyorgarlik, raqamli kompetensiyalar, ta'lim texnologiyalari.

ФОРМИРОВАНИЕ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Г. Р. Муратова
Доцент Кокандского государственного университета
E-mail: muratovagulnora4@gmail.com

Аннотация: Аннотация: Стремительная цифровая трансформация общества обусловливает необходимость интеграции цифровых компетенций в профессиональную подготовку будущих специалистов в области физической культуры и спорта. В статье рассматриваются теоретические основы и практические подходы к формированию цифровой культуры студентов высших учебных заведений. Проанализирована роль

современных цифровых технологий в повышении эффективности образования, совершенствовании методического обеспечения и развитии инновационной педагогической практики. На основе проведенного исследования выделены ключевые компоненты цифровой культуры в сфере физической культуры и спорта, включая информационную грамотность, навыки цифрового общения и умение применять технологические инструменты в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: цифровая культура, физическая культура, спорт, профессиональная подготовка, цифровые компетенции, образовательные технологии.

INTRODUCTION

The formation of digital culture among future professionals is becoming a key factor in ensuring their competitiveness and adaptability to the rapidly changing demands of the labor market. In the field of physical culture and sports, the development of digital competencies is particularly relevant, as modern training, monitoring, and performance analysis increasingly rely on technological tools, online platforms, and data-driven decision-making.

In professional education, digital culture is understood not only as the ability to use technical devices and software, but also as a set of values, attitudes, and ethical principles that define the use of digital resources. In physical culture and sports, it encompasses skills in working with fitness applications, motion analysis systems, wearable devices, virtual training environments, as well as digital communication platforms for coaching and teaching activities.

Despite the growing importance of digital tools, many universities face difficulties in systematically integrating the development of digital culture into educational programs in physical culture and sports. This calls for a comprehensive study of theoretical foundations, pedagogical methods, and practical solutions that can effectively contribute to the formation of digital culture among future specialists. The present study aims to analyze these aspects, identify the key components of digital culture for professionals in this field, and develop recommendations for its integration into professional training programs.

RESEARCH METHOD

The study employed a mixed-method approach, combining quantitative and qualitative methods for a comprehensive examination of the formation of digital culture among future specialists in the field of physical education and sports.

The study involved 90 undergraduate students (2nd–3rd years) studying at the Faculty of Arts and Sports, specializing in Physical Education. For assessing digital competencies, attitudes toward technology, and the frequency of using digital tools in professional training. Observation: Monitoring students' use of digital tools during practical classes. An adapted version of the Digital Competence Framework (DigComp) was used in the study, supplemented with questions reflecting the specifics of physical education and sports.

RESULT

The study results show that the integration of digital technologies into the educational process significantly increases the level of professional training of students in the field of physical culture and sports. After the implementation of the experimental program, students in the experimental group demonstrated 20% higher proficiency in using digital tools for sports analysis, online training management, and data visualization compared to the control group.

A significant improvement was observed in competencies related to the use of specialized software (such as Dartfish, Coach's Eye, Polar Flow) for biomechanical analysis and training

process monitoring. In addition, the proportion of students capable of independently developing digital educational materials for sports training increased from 30% to 70%.

Survey results revealed positive changes in students' attitudes toward digital innovations: 80% of respondents noted that the integration of digital tools made the learning process more engaging, interactive, and aligned with modern professional requirements. Indicators of digital culture—such as information literacy, ethical use of technology, and the ability to work in online collaborative projects—also grew significantly, with an average increase of 20% across all assessment criteria.

Overall, the study confirmed that the systematic integration of digital technologies into physical education curricula contributes to the development not only of technological skills but also of a wide range of professional competencies essential for future specialists in the context of the digitalization of the sports sector.

DISCUSSION

The results of the study confirm that the integration of digital technologies into the professional training of future specialists in physical education and sports plays a key role in shaping their digital culture. The substantial improvement in students' competencies—particularly in the use of software for sports performance analysis, online learning management, and the creation of digital educational content—demonstrates that technological literacy is becoming an essential component of professional readiness in the sports field.

The positive dynamics observed in the targeted group of students are consistent with the findings of previous research, which show that digital tools can enhance motivation, interactivity, and personalization in the educational process. In our case, the increase in engagement reported by 80% of students indicates that modern digital platforms not only improve learning efficiency but also contribute to fostering a deeper interest in the subject matter.

An important aspect revealed by the study is the development of ethical and information literacy skills. In the era of rapid digitalization, future professionals must be able to critically evaluate information, use technology responsibly, and ensure data confidentiality in sports contexts. This aligns with international educational standards that emphasize the importance of digital citizenship in higher education.

Nevertheless, the study also identified certain challenges. Some students initially resisted the introduction of new technologies, citing difficulties in mastering software tools and limited access to high-performance devices. This highlights the need for institutional support, including the development of technical infrastructure and the training of future specialists in digital pedagogy.

Overall, the discussion shows that the formation of digital culture is not limited to teaching software skills—it requires a comprehensive approach that combines technical training, the development of ethical responsibility, and the ability to meaningfully integrate technology into professional practice.

CONCLUSION

The formation of digital culture among future specialists in physical education and sports is a strategic priority in the modernization of professional training. The study has shown that the integration of digital technologies into the educational process enhances student motivation, develops their ability to work in a digital environment, and prepares them for the challenges of the modern sports industry. A systematic approach that combines theoretical training with the

development of practical digital skills enables the creation of competent, technologically literate, and innovative professionals

References

1. Arefyev, V. G. (2021). Innovative technologies in physical education: Theoretical foundations and practical application. Moscow: Academy.
2. Bogdanov, V. I. (2020). Digitalization of the educational process in physical culture and sports.
3. Theory and Practice of Physical Culture, (5), 12–17.
4. Grigoriev, A. Y. (2022). Modern pedagogical technologies in the training of specialists in physical culture and sports. Saint Petersburg: Lan.
5. Fomina, N. P. (2022). Activating students' cognitive activity by means of modern technologies. Higher Education in Russia, (7), 112–118.
6. Муратова, Г. Р. "К вопросу инновационного подхода к процессу физического воспитания в вузе." *Репозиторий открытого доступа* 8 (2022): 371-374.
7. Muratova, G. R. "Some aspects of the development of modern student sports in the republic of uzbekistan." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.4 (2023): 903-905.
8. Muratova, G. R. "To the questions of innovative approach to the process of Physical education in university." *JournalNX* 8.12 (2022): 371-374.

DEVELOPING CREATIVE PROBLEM-SOLVING SKILLS THROUGH PSYCHOLOGICAL STRATEGIES IN PRIMARY EDUCATION

Gulyamova Nigina Azimovna
Kimyo International University in Tashkent Samarkand branch
E-mail: nigina.madina1994@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.17854076

Abstract: This article explores the development of creative problem-solving (CPS) skills in primary education through the application of psychological strategies. Drawing on established theories from developmental and educational psychology, it examines how fostering creativity and critical thinking in young learners can be systematically integrated into the curriculum. The paper reviews literature on the nature of CPS, its core components (fluency, flexibility, originality, elaboration), and foundational psychological frameworks such as Vygotsky's sociocultural theory and Piaget's constructivism. It analyzes effective pedagogical strategies, including encouraging open-ended questions, promoting divergent thinking, creating supportive environments, and embedding authentic, interdisciplinary problem-solving tasks. The findings highlight that CPS is not an innate trait but a learnable skill that can be significantly enhanced through targeted interventions and a shift away from traditional, rote-learning pedagogies. However, challenges persist, including curriculum constraints, assessment difficulties, and the need for teacher training. The article concludes by emphasizing the critical role of primary education in nurturing these essential 21st-century skills, arguing that integrating psychological principles into teaching practices is vital for preparing children to become confident, adaptable, and innovative thinkers capable of navigating complex future challenges.

Keywords: Creative Problem Solving, Primary Education, Psychological Strategies, Divergent Thinking, Creativity Development, Educational Psychology, Open-Ended Questions, Child Development, Classroom Practices.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PSIXOLOGIK STRATEGIYALAR ORQALI IJODIY MUAMMOLARNI HAL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda psixologik strategiyalarni qo'llash orqali ijodiy muammolarni hal qilish (CPS) ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rganadi. Rivojlanish va ta'lim psixologiyasining mavjud nazariyalariga tayanib, u yosh o'quvchilarda ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni o'quv dasturiga qanday qilib tizimli ravishda integratsiya qilish mumkinligini o'rganadi. Maqolada CPSning tabiati, uning asosiy komponentlari (ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, batafsil bayon qilish) va Vygotskiyning sotsiologik-madaniy nazariyasi va Piajening konstruktivizmi kabi asosiy psixologik asoslar bo'yicha adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Unda ochiq savollarni rag'batlantirish, turli xil fikrlashni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlovchi muhitlarni yaratish va haqiqiy, fanlararo muammolarni hal qilish vazifalarini joriy etish kabi samarali pedagogik strategiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari CPS tug'ma xususiyat emas, balki maqsadli aralashuvlar va an'anaviy, yodlab o'rganish pedagogikasidan voz kechish orqali sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin bo'lgan o'rganiladigan ko'nikma ekanligini ta'kidlaydi. Biroq, o'quv dasturidagi cheklovlar, baholash qiyinchiliklari va o'qituvchilarni tayyorlash zarurati kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Maqola boshlang'ich ta'limning ushbu muhim XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muhim rolini ta'kidlab, psixologik tamoyillarni o'qitish amaliyotiga integratsiya qilish bolalarni kelajakdagi murakkab muammolarni hal qilishga

qodir bo'lgan o'ziga ishongan, moslashuvchan va innovatsion fikrlovchi bo'lib yetishtirish uchun juda muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Ijodiy muammolarni hal qilish, boshlang'ich ta'lim, psixologik strategiyalar, turlicha fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirish, ta'lim psixologiyasi, ochiq savollar, bolalarni rivojlantirish, sinf amaliyotlari.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ПОСРЕДСТВОМ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие навыков творческого решения проблем (КРП) в начальном образовании посредством применения психологических стратегий. Опираясь на устоявшиеся теории возрастной и педагогической психологии, автор рассматривает, как развитие креативности и критического мышления у младших школьников может быть систематически интегрировано в учебную программу. В статье рассматривается литература, посвященная природе КРП, ее основным компонентам (беглость, гибкость, оригинальность, развитость) и основополагающим психологическим концепциям, таким как социокультурная теория Выготского и конструктивизм Пиаже. В статье анализируются эффективные педагогические стратегии, включая поощрение открытых вопросов, развитие дивергентного мышления, создание благоприятной среды и внедрение аутентичных междисциплинарных задач на решение проблем. Результаты исследования подчеркивают, что КРП — это не врожденная черта, а приобретаемый навык, который можно значительно улучшить посредством целенаправленных вмешательств и отказа от традиционных методов механического заучивания. Однако проблемы сохраняются, включая ограничения учебной программы, трудности с оценкой и необходимость повышения квалификации учителей. В заключение статьи подчёркивается важнейшая роль начального образования в развитии этих важнейших навыков XXI века. Утверждается, что интеграция психологических принципов в педагогическую практику жизненно важна для формирования у детей уверенности в себе, способности к адаптации и инновационному мышлению, способных решать сложные задачи будущего.

Ключевые слова: творческое решение задач, начальное образование, психологические стратегии, дивергентное мышление, развитие креативности, педагогическая психология, открытые вопросы, развитие ребёнка, учебная практика.

INTRODUCTION

The rapidly evolving demands of the 21st century necessitate a fundamental shift in educational priorities. Beyond foundational literacy and numeracy, there is a growing consensus that fostering creative problem-solving (CPS) skills in children is paramount for their future success and societal contribution. CPS is defined as a holistic approach to challenges that utilizes creativity to generate novel and effective solutions. In primary education, this skill set is particularly crucial as it forms the bedrock for lifelong learning, adaptability, and innovation. Children naturally possess a rich capacity for imagination and curiosity, but these innate qualities can be nurtured or stifled by the educational environment they encounter. Psychological strategies offer a robust framework for understanding and enhancing this development. This article aims to investigate how psychological principles can be systematically applied within primary classrooms to cultivate CPS skills. It will define CPS, explore the underlying psychological theories, review

Jismoniy ishchanlik qobiliyatlari ko‘rsatkichlarini boshqa o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligi deyarli yo‘q, “TQ 6-3” testi natijalari bundan mustasno (3-rasmga qarang). Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, “Libero” futbolchilarni maxsus test natijalarida boshqa ko‘rsatkichlar bilan sanoqligina ishonchli bog‘lanishga ega.

XULOSA

Turli o‘yin ampluasidagi yosh futbolchilarda turli jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasini aks ettirgan ko‘rsatkichlarni o‘sishi tahlili

(1-diagrammaga qarang), har bir o‘yin ampluasi uchun aynan “yetakchi” jismoniy harakat sifatlarini ancha yuqori o‘sishni aniqladi. Yosh futbolchilarni maxsus ishlab chiqilgan dasturga muvofiq tajriba mashg‘ulotlarida zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga urg‘u berildi.

Shu bilan bir qatorda boshqa amplua sportchilaridan farqli o‘laroq, “hujumchi” futbolchilarda asosiy urg‘u tezkor-chidamlilikni rivojlantirishga, “to‘p uzatuvchi” futbolchilarda - egiluvchanlikni rivojlantirishga, “libero” sportchilarda esa – koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga berildi. Natijada ampluaga muvofiq bundan tabaqalashtirilgan ta’sir aynan o‘sha jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasini ahamiyatli o‘sishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 - yil
2. 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3610-son / WWW. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi / WWW. Lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr, futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5368-sonli farmonini / WWW. Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2023 yildagi PQ-115-son qarori ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning va aholining barcha qatlamlarida

ommalashtirish hamda yoshlarni sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish qarori / WWW. Lex.uz
6. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma Toshkent. 2014 y. 62 b.
7. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarni oshirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013y. 35 bet.
8. Davletmuradov S.R. Futboichilarni tayyorlashda pedagogoik nazorat. Uslubiy qo'llanma Toshkent 2014 y.26 bet
9. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O'quv qo'llanma. T., O'zDJTI. 2012 y. 164 b

FUTBOLCHILARINING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI XAMDA HARAKAT FAOLIYATI TEKSHIRISH VA EMOTSIONAL HOLATINI BAXOLASHNING METODLARI

Satiev Shuxrat Komilovich.
Namangan davlat pedagogika instituti p.b.f.f.d (PhD), katta o'qituvchi.
E-mail: satiyevsuhrat@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.17854199

Annotatsiya: Maqolada stressning sportchining raqobatbardosh faoliyatiga salbiy ta'siri muammosi ko'rib chiqilgan. Adabiyot ma'lumotlarini nazariy tahlil qilish asosida "stress" tushunchasining mazmuni aniqlanadi, ichki va tashqi xarakterdagi sport faoliyatining stress omillari konkretlashtiriladi va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari,stressga qarshilikni shakllantirish uchun irodaviy fazilatlarga ega bo'lgan sportchilarni tarbiyalash, o'z qadr-qimmatini oshirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va aqliy o'zini o'zi boshqarishning turli usullarini qo'llash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: futbolchi; raqobatbardosh faoliyat; stress; stress omillari, sportchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИИ, ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ОЦЕНКИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ФУТБОЛИСТОВ

Сатиев Шухрат Комилович
Наманганский государственный педагогический институт, PhD, старший преподаватель.
E-mail satiyevsuhrat@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается проблема негативного влияния стресса на конкурентоспособную деятельность спортсмена. На основе теоретического анализа литературных источников раскрывается содержание понятия «стресс», конкретизируются стрессовые факторы спортивной деятельности внутреннего и внешнего характера, а также особенности их проявления. Рекомендуется формировать у спортсменов волевые качества, способствующие развитию стрессоустойчивости, повышению самооценки, развитию творческих способностей и применению различных методов умственного саморегулирования.

Ключевые слова: футболист; конкурентоспособная деятельность; стресс; стрессовые факторы; психологическая поддержка спортсменов.

METHODS OF STUDYING THE TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS, MOTOR ACTIVITY, AND ASSESSMENT OF THE EMOTIONAL STATE OF FOOTBALL PLAYERS

Satiev Shukhrat Komilovich
Namangan State Pedagogical Institute, PhD, Senior Lecturer.
E-mail: satiyevsuhrat@gmail.com

Abstract: The article examines the problem of the negative impact of stress on the competitive performance of athletes. Based on a theoretical analysis of literature sources, the concept of "stress" is defined, and the stress factors of sports activities of both internal and external nature, as well as their manifestations, are specified. It is recommended to develop athletes'

volitional qualities that contribute to stress resistance, enhance self-esteem, foster creativity, and apply various methods of mental self-regulation.

Keywords: football player; competitive activity; stress; stress factors; psychological support of athletes.

KIRISH

Jaxon jismoniy tarbiyasi va sporti xamda sport o`yinlaridan bo`lgan millionlar o`yini futbolning taraqqiyoti jamiyat yuksalishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda va

XXI-asr futbolining muammolaridan biri futbolchilarni texnik-taktik va psixologik tayyorlash masalalaridan biri bo`lib kelmoqda. Zamonaviy sportning rivojlanishi ilg'or tajribalarni professional darajada tushunmasdan va sport mashg'ulotlarining turli bosqichlarida sport mashg'ulotlarini boshqarishning ilmiy-metodik asoslarini yanada rivojlantirmasdan mumkin emas. Futbolda sport mashg'ulotlarining alohida jihatlari P.N.Kazakov.,G Gadjiev .,G.M.Mgadjiev., M.A Godik., G.S Zonin., Yu.K Lukin., M.A Godik., S.V Golomazov., B.G Chirva., A.P Zolotarev.,V.Z Ivasev. va S.N. Andreevning ilmiy –uslubiy ishlarida ko'rib chiqilgan. So'nggi yillarda jahon futbolida o'yin harakatlarining kuchayishida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. U o'yin epizodlarida kurash shiddatining oshishida, har bir o'yinchining harakatlarida passiv fazalarning minimal darajaga qisqarishida namoyon bo'ladi (Zolotarev A.P., Shamardin A.I. - 1993. 11-.16 b) O'yinning faol bosqichlari maksimal darajaga ko'tariladi, hujum harakatlari va himoyalanishning faol shakllarining xilma-xilligi, raqiblar darvozasiga zarbalar soni ortadi. Bu tendentsiya futbolning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u har kuni futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligiga tobora ko'proq talablar qo'ymoqda (Matveev L 1999. 318 b).

Psixologik tayyorgarlik esa tana funktsiyalari va futbolchilarning xatti-harakatlarini neyropsixik jihatdan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan. sport mashg`ulotlari sezilarli ruhiy stress, doimiy "o`zini engish" bilan tavsiflanadi; qat`iy intizom va rejimga rioya qilishni talab qiladi.

Mashg`ulotlar samaradorligi futbolchilarning ruhiy barqarorligiga ham bog`liq. Futbolchi uchun zarur bo`lgan asosiy ruhiy fazilatlar kundalik mashg`ulotlar jarayonida, faol raqobat faoliyatida shakllanadi va takomillashtiriladi. Shunday ekan, qaerda tayyorgarlik jarayoni uslubiy jihatdan to`g`ri tashkil etilgan bo`lsa, bu sifatlarni takomillashtirish uchun yaxshi asos bo`ladi.

Psixologik tayyorgarlikda jamoa zimmasiga yuklatilgan vazifalarning mohiyati katta ahamiyatga ega. Biz bu vazifalarni og`ir bo`lishiga yo`l qo`ymasligimiz va oz narsa bilan qanoatlanmasligimiz kerak. Bu vazifalar bajarilishi mumkin bo`lishi va ertangi kunni ko`zlagan holda jamoaning bugungi kundagi imkoniyatlariga javob berishi kerak.Ushbu muammo esa jaxon futbolining oldida turgan dolzarb masalalaridan biri bo`lib turibdi

TADQIQOT USULLARI

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar taxlili; so`rovnoma va psixologik test; ekspert baxolash, pedogogik nazorat; pedogogik kuzatuvi, pedogogik tajriba;- matematik statistika usullari. Futbolchilarning texnik-taktik tayorgarligini tekshirish,xarakat faoliyatini aniqlash va emotsional xolatini baxolash bo`yicha – **“**SEXB”-*(sportchilarni emotsional xolatini baxolash)*- metodini ishlab chiqish va tajribada sinab ko`rish xamda asoslash.

NATIJALAR

Xammasi bo'lib Namangan FA jamoasi har bir o'yinda o'rtacha 878,4±18,06 TTX ko'rsatkichi bilan 29,65±0,05% nuqsonlar(brak) ko'rsatkichini qayd etadi Andijon. FA jamoa har bir o'yinda o'rtacha 775,2±16,04 TTX o'tkazadi, nuqsonlar(brak)darajasi 33,8±0,72% bo'lib, bu

Namangan FA jamoalariga qaraganda ancha kam (p< 0,001).Olingan ma'lumotlar ushbu kontingent uchun aniqlanadi, jamoalar chempionat va chempionatning ma'lum bir segmentida hal qiladigan vazifalar bilan belgilanadi, tayyorgarlik darajasiga, turnirdagi pozitsiyasiga, raqib jamoaga, o'yinga bo'lgan munosabatiga, mashg'ulotlarning muayyan naqshlariga bog'liq. jarayon va boshqalar.Zamonaviy taktik konstruksiyalar va futbolni universallashtirishning umumiy tendentsiyalaridan kelib chiqib, jamoa o‘yinchilarining turli rollarga bo‘linishi nisbatan shartli

1. Jamoalarning umumiy hamma yugurishlarini (maksimal tezlikda yugurish, tez yugurish, sekin yugurish) hisoblanganda, «Namangan viloyati FA U-16»jamoasining yarim himoyachilari o`yin davomida X=4456m natijani, «Andijon viloyati FA U-16» jamoasining yarim himoyachilariniki esa o`yin davomida X=3822m natijani, «NamDU futbol jamoasi»jamoasining yarim himoyachilari esa o`yin davomida X=3329m natijalarini qayd etishgan.

«Namangan viloyati FA U-16»jamoasining hujumchilari esa o`yin davomida X=4004m natijani, «Andijon viloyati FA U-16» jamoasining hujumchilari X=2994m natijani, «NamDU futbol jamoasi»jamoasining o`yin davomida ko`rsatgan natijalari esa X=2432m masofani turli harakatlar blan bosib o`tgan. Futbol akademiyalari O`zbekiston chempionatida ishtirok etuvchi «Namangan viloyati FA U-16»jamoasining himoyachilari o`yin davomida X=2853m natijani «Andijon viloyati FA U-16» jamoasining himoyachilari esa o`yin davomida X=2736m natijani, «NamDU futbol jamoasi»jamoasining himoyachilari o`yin davomida X=2649m natijani qayd etishgan. Bundan ko`rinib turibdiki, harakat faoliyati taba-ani turli bo`lishiga ham bo\liq bo`ladi. Ikkinchi tabakada ishtirok etuvchi jamoasini natijalari o`yin davomida yuqori emas. Lekin tabaqani ko`tarilishi bilan o`yinchilarning harakat faoliyati ham ko`tarilib borar ekan

2. Sportchining emotsional xolatini baxolash bo`yicha musobaqa faoliyatini kuzatishda emotsional xolatini baxolashning darajalarini ko`rsatkichlari tajribada qo`llanilganda Namangan viloyati futbol akademiyasi **U -16** yoshli futbolchilar jamoasining emotsional xolatlarini umumiy jamoaviy ko`rsatkichi **8.2** balldan **12.3** balga yaxshilandi .

3. Sportchining emotsional xolatini baxolash bo`yicha musobaqa faoliyatini kuzatishda emotsional xolatini baxolashning darajalarini ko`rsatkichlari tajribada qo`llanilganda futbolchilarning emotsional stresslarga bardoshlilik darajalari jamoa o`yinchilarining safi misolida tadqiqot natijalariga ko`ra futbolchilardan “Adaptatsiya” guruxi 13.4.0% dan 17.6% ga o`sgani ,“Abuliya”guruxi 30.4% dan 8.6% foizga pasayganini ” Abaziya” guruxi 21.3% foizi dastlabki ko`rsatkichdan 4.3% foizga pasayish , Aversiv” musobaqa davrida stresslarga bardoshsizlar guruxi 43.0 % dan 36.6 % ga pasaygandi va umumiy stresslarga bardoshlilar darajasi 12.5 % ga yaxshilandi

Munozara va muxokama.Emotsional holatni baxolash tadqiqotlari yuzasidan,O`zbekistonda bu tadqiqotlar yuzasidan zamonamizning yetuk olimlaridan Z.Gapparov va O.Perevalov sportchilarning psixologik tashxisini o`tkazish uchun mo`ljallangan 10 ta psixologik testdan iborat “PSI -10” EVM dasturini ishlab chiqdilar Shuningdek O`zbekiston Respublikasining sport psixologiyasi bo`yicha Xayitov, O.E. G`oziev E.G`. N.Sh.Umarova, D.N.Arziqulov V.M. Karimova, O.E. Xayitov, N.SH. Umarova, Xaitov A.U, Ishtaev J.M.,Abidov Sh.U., Sadikov A.U., Umarov M.N., Xasanova G.M, Rodionov A.V. Maxmudov I.I. singari olimlar uz tadqiqotlarini taqdim etgsnlar. Sport psixodiagnostikasi- sport psixologiyasining amaliy bo`limi. Ko`plab ko`rsatmalar va psixologik alomatlarni qadimgi arab mutafakkirlari Ibn Sino, Al-Beruniy va Ibn Rashid asarlarida uchratish mumkin.1921-yildan boshlab shveytsariyalik psixiator G.Rorshax tomonidan “psixodiagnostika atamasi mustaqil ilmiy fan sifatida fanga kiritildi, biroq

uning muammolar majmui odamzotning paydo bo`lishi, uning tafakkuri va imkoniyatlariga bog`liq bo`lgan.

Mustaqil davlatlar hamdo`stligi mamlakatlari olimlardan, Gubachyov Yu.M. Iovlev B.V. Karvasarskiy B.D. P.Ilin, B. A. Vyatkin S.I.Yakovlev, I.G.Babushkin, O.A.Chernikova, A.TS.Puni, A.V.Rodionov, A.D.Ganyushkin, V.L.Mareshuk, V.Goshek, G.D.Gorbunov, A. A. Uxtomskiy, Karolchak-Biernatska, A.V. Malchikov, V. L. Marishuk, Elmodyan, A.A.Viru, S.A.Razumov, V. E. Milman singari psixodiagnostikaning yetuk olimlari , ilmiy uslubiy adabiyotlarda sportchilarni psixologik tayyorlash va emotsional stresslarning xususiyatlari yuzasidan, o`z tadqiqot natijalari bilan o`rtoqlashganlar.

Xorijiy davlatlar olimlaridan –Kanadalik patafizolog psixologiyada stressning turlarini kashf etgan Gans Sele, Uolter Kennon, Ch. D. Spilberger, Z.Myuller, F.Mann , V.Goshek ,P. Fress G,Stokfeld R, Lazarus V.R., Dohrenvend,

D., Mekanik, L. Levi., Goldstoun Cellier kabi olimlar psixologik faoliyat va stresslarni xususiyatlarini o`z ilmiy adabiyotlarida yoritganlar

Sport musobaqalari - bu aniq stressli holat, va bu birinchi navbatda sportchining ushbu musobaqalarda qo`ygan vazifalari va ularni amalga oshirish uchun hozirda qanday imkoniyatlarga ega ekanligi bilan bog`liq. Shu bilan birga, nafaqat hal qilinayotgan muammoning ob`ektiv qiyinligi, balki, birinchi navbatda, sportchining uni amalga oshirish imkoniyatini ehtimoliy baholashi alohida ahamiyatga ega. Shunga ko`ra, raqobatbardosh faoliyatda stress paydo bo`lishining asosiy sababi bu sportchi oldida turgan vazifalar va uning imkoniyatlari nomuvofiqligining sub`ektiv tuyg`usi.

Sunga ko`ra, stress, bu holda, sportchining ongi, uning fikrlash uslubi va o`z imkoniyatlarini baholash, jismoniy tayyorgarlik darajasi, mashg`ulotlar va ekstremal raqobat sharoitida o`zini tutishini tartibga solishga tayyorligi natijasidir. Bu fiziologik stress deb belgilanishi mumkin bo`lgan to`g`ridan-to`g`ri yukga va uning tugashi bilanoq, organizmning reaktsiyalaridan farqli o`laroq, buni ruhiy stress deb hisoblashimizga imkon beradi.

Shunday qilib, ruhiy stress - bu haddan tashqari aqliy zo`riqish va xatti-harakatlarning nomutanosiblik holati, bu haqiqiy tahdid yoki haqiqatan ham sport faoliyatining haddan tashqari stress omillari ta`sirida rivojlanadi.

Sport musobaqalarida qatnashish bilan bog`liq ravishda sportchilarda paydo bo`ladigan ruhiy (raqobatbardosh) stress - bu turli xil ierarxik darajadagi sharoitlarning bir nechta tizimlari bilan belgilanadigan shaxsning murakkab psixofiziologik holati. Ushbu stressning sportchining faoliyatiga ta`siri va kuchi uning turli xil individual xususiyatlarining nisbati va o`zaro bog`liqligi bilan bog`liq: (G`oziev E.G`. , 1992 y 95-105 b)Ijtimoiy-psixologik, shaxsiy, psixo-mantiqiy, psixo-dinamik, fiziologik, ya`ni ularning o`zaro munosabatlarining butun tizimi .Stressor qanday his-tuyg`ularni va charchoqni, charchoqni, og`riqni, qo`rquvni, g`azabni va boshqalarni qanday bo`lishidan qat`i nazar, reaktsiya o`xshash bo`ladi: endokrin tizim faolligi oshadi, gormonal faollik keskin ko`tariladi, steroid gormonlar ajralib chiqadi, bu esa o`z navbatida o`zgarishga olib keladi ko`plab funktsional tizimlarda: puls va nafas olish tezligi oshadi, qon bosimi va mushak tonusi ko`tariladi, titroq paydo bo`ladi, kinestetik sezgirlik yomonlashadi, harakatlar kamroq muvofiqlashadi va kam tejamkor bo`ladi. Bundan tashqari, xatti-harakatlar ustidan "intellektual" nazorat yomonlashadi, e`tiborni taqsimlash va almashtirish qiyinlashadi, o`z harakatlarini baholashning tanqidiyligi pasayadi va etarli bo`lmagan qarorlar qabul qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E. Psixologiya. – T.: O‘zbekiston, 2010.
2. Matyushkin A.M. Psixologiya myshleniya. – M.: Prosveshcheniye, 1991.
3. Abduqodirov A.A., Xo‘jayev N.X. Sport psixologiyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2015.
4. Cox R.H. Sport Psychology: Concepts and Applications. – New York: McGraw-Hill, 2007.
5. Spielberger C.D. Anxiety and Behavior. – New York: Academic Press, 1966.
6. Satiev Sh.K. Futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini baholash metodlari. – Namangan: NDPI, 2022.
7. Gould D., Krane V. The Arousal–Athletic Performance Relationship: Current Status and Future Directions. – In: Horn T.S. (Ed.), Advances in Sport Psychology. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2008.
8. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019.
9. Абабков В.А., Перре М. Адаптация к стрессу. - СПб.: «Речь», 2010.- 169 с
10. Komilovich S. S. MUSOBAQANING STRESSLI HOLATI VA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK VA MUSOBAQADAN OLDINGI RUHIY STRESSNING O’ZIGA XOS BELGILARI //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 3-7.
11. Komilovich, Satiev Shuxrat. "MUSOBAQANING STRESSLI HOLATI VA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK VA MUSOBAQADAN OLDINGI RUHIY STRESSNING O’ZIGA XOS BELGILARI." *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH* 2.14 (2023): 3-7.
12. Сатиев Ш. К., Азизов С. В. Характеристики зависимости типов темперамента к эмоциональным стрессам и степени стрессоустойчивости футболистов //Лебедева Надежда Анатольевна–доктор философии в области. – 2020. – С. 55.
13. Сатиев Ш. К., Азизов С. В. ФУТБОЛЧИЛАРНИ ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ ПРИНЦПЛАРИ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 323-327.
14. Сатиев , Ш. . (2023). Исследование устойчивости и надежности деятельности футболистов, разнообразных условиях и оценки эмоциональной устойчивости. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(4 Part 4), 225–230. извлечено от https://www.inacademy uz/index. php/ejar/article/view/13604.

FOUNDATIONS OF EVALUATION TECHNOLOGY FOR THE ACTIVITIES OF PROFESSORS AND TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Urakov Sherzod Raxmanovich
Doctor of Sciences in Pedagogy (DSc), Associate Professor.
E-mail: usherzod78@gmail.com
Faxriddinov Muhammad Faxriddin o‘g‘li
Samarkand State Pedagogical Institute, PhD Candidate.
E-mail: fakhriddinovmukhammad0@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17787079

Abstract: This article analyzes the evaluation technology, criteria, and indicators of the pedagogical activities of professors and teachers in higher education institutions. It provides information on modern forms and methods of assessment, including digital evaluation systems, student opinion-based monitoring, peer expertise, and self-assessment mechanisms. Furthermore, it substantiates the diagnostic, motivational, and developmental functions of assessment in improving educational quality.

Keywords: Evaluation technology, higher education, professor, teacher, pedagogical activity, lesson, educational quality, indicators, digital monitoring.

ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФЕССОРОВ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются технологии оценки педагогической деятельности преподавателей в учебном процессе высших учебных заведений, критерии и индикаторы оценки. Представляются современные формы и методы оценки, включая цифровые системы оценки, мониторинг на основе мнения студентов, экспертизу коллег и механизмы самооценки. Также обосновываются диагностические, стимулирующие и развивающие функции оценки в повышении качества образования.

Ключевые слова: Технология оценки, высшее образование, преподаватель, педагогическая деятельность, учебный процесс, качество образования, индикатор, цифровой мониторинг.

INTRODUCTION

One of the key factors in improving the quality of education in the higher education system is the regular evaluation of the pedagogical activities of professors and teachers. The evaluation process not only determines the effectiveness of the teacher's work but also establishes the direction for their professional development. Today, the evaluation process is increasingly integrating digital technologies, competency-based approaches, and systems for monitoring educational quality alongside traditional methods.

As theoretical foundations for evaluating the activities of professors and teachers, the following can be highlighted. The evaluation of professors and teachers is the process of systematically determining their pedagogical, scientific, and educational work based on measurement criteria. According to the definitions provided by UNESCO and OECD, the quality of education is closely related to the teacher's qualifications, the use of interactive methods in the classroom, and the ability to encourage students to think independently.

THE MAIN PART

Main Objectives of Evaluation: To conduct an objective analysis of the teacher's activities. To improve the quality of lesson sessions. To encourage professors and teachers to work on their self-improvement. Assessment Criteria for Activities in Lesson Sessions

The following criteria play a crucial role when evaluating the activities of professors and teachers during lessons:

1. **Pedagogical Skill**: Methods of delivering the topic, cultural competence in speech, lesson structure, and use of didactic tools.
2. **Methodological Approach**: Use of interactive methods, increasing student engagement, and reflection processes.
3. **Use of Information Technologies**: Conducting lessons through multimedia and platforms (Moodle, Google Classroom, LMS).
4. **Student Outcomes**: Level of knowledge, skills, competence, and creative approaches developed.
5. **Innovative Activities**: Implementation of new pedagogical technologies and involvement in scientific research activities.

Modern evaluation technologies remain one of the pressing topics today. In contemporary higher education, evaluation technologies are classified as follows:


1. **Digital Assessment Systems**: Class observation through LMS, online collection of student opinions, and automatic rating formation.
2. **360-Degree Evaluation**: A comprehensive assessment based on self-analysis by students, peers, leaders, and teachers.
3. **Video-Analytic Monitoring**: Analysis of lessons through video recordings, evaluated from a methodological perspective.
4. **Portfolio-Based Assessment**: Systematic assessment of the teacher’s achievements, methodological works, scientific articles, and results of student interactions.
5. **AI-Based Analysis**: Programs (EduAI, Evalytics) that allow for the automatic evaluation of participation, speech frequency, and time distribution during lesson processes.

Stages of the Evaluation Process:

1. **Planning Stage**: Defining the purpose, criteria, and indicators of evaluation.
2. **Observation Stage**: Analyzing lesson sessions and conducting surveys.
3. **Analysis Stage**: Expert analysis of the collected data.
4. **Announcement of Results and Feedback**: Providing the teacher with an individual report.
5. **Development Stage**: Offering recommendations to address shortcomings and enhance qualifications.


Materials and Methods. Two primary methodological approaches were employed in analyzing evaluation technologies: documentary analysis and survey research.

Through documentary analysis, information was collected regarding the effectiveness of evaluation technologies in Uzbekistan and foreign countries. Additionally, surveys were conducted to gather the opinions of professors and students, which demonstrated the practical application of evaluation technologies. Various statistical methods were utilized during the analysis process, and the results were presented in graphs and diagrams.



Knowledge 47.6%
Skill 34.1 %
Speech 9.8%
Dressing 0.6%
Cultural 8.5%

1-table. When you have the opportunity to evaluate, what aspects of a teacher would you assess?



After each class (through a confidential bot). 36%
Once a week (through a confidential bot). 32.9%
At the end of the semester (in writing). 13.4%
Once a month evaluation (through a confidential bot) 17.7 %

2-table. What is the appropriate frequency for evaluating a teacher's lesson activities?

CONCLUSION

Analysis and Discussion. Practical research indicates that for the evaluation process to be effective, it must be transparent, objective, and systematic. In many higher education institutions in Uzbekistan, the performance of teachers is assessed based on a rating system; however, the widespread implementation of digital monitoring systems has not yet been fully realized.

Conclusion. The evaluation technology for the activities of professors and teachers in higher education is a fundamental guarantee of educational quality, competitiveness, and innovative development. The effectiveness of evaluation depends on its systematic approach, transparency, and integration with digital technologies. Therefore, it is essential to modernize evaluation mechanisms in every higher education institution and adapt advanced foreign practices to national conditions.

REFERENCES

1. Decree No. PQ–5847 of the President of the Republic of Uzbekistan on "The Concept for the Development of the Higher Education System until 2030."
2. Law on "Education," September 23, 2020.
3. OECD (2021). Teacher Evaluation: A Conceptual Framework. Paris.
4. UNESCO (2020). Guidelines for Quality Assurance in Higher Education.
5. Abdullayev, S. (2022). Theoretical Foundations of Pedagogical Assessment Technologies. Tashkent: Fan Publishing House.
6. Rasulov, M. (2023). Innovative Assessment Systems in Higher Education. Samarkand: SDU Publishing House.

MAKTAB O'QUVCHILARINI ASOSIY GIMNASTIKA VOSITA VA USLUBLARI ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich
Namangan davlat universiteti jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi
v.v.b. dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17895517

Anotatsiya: Maqola, Bugungi yoshlarni ko'p jixatdan kamol topishi, yurtimizda o'tkazilayotgan isloxotlarning samarasi, o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Gimnastika, ta'lim-tarbiya, uzluksiz ta'lim tizimi, sog'lom avlod-sog'lom yurt demakdir.

РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ СРЕДСТВА И МЕТОДЫ БАЗОВОЙ ГИМНАСТИКИ

Хожимирзаев Шухратжон Дедамирзаевич
Наманганский государственный университет, кафедра физического воспитания и прикладных видов спорта
Доцент

Аннотация: Статья посвящена многогранности современной молодежи, эффективности проводимых в нашей стране реформ, здоровью подрастающего поколения.

Ключевые слова: Спорт, образование, система непрерывного образования, здоровое поколение – это здоровая страна.

DEVELOPMENT OF PHYSICAL TRAINING OF SCHOOL STUDENTS THROUGH BASIC GYMNASTICS TOOLS AND METHODS

Khojimirzayev Shukhratjon Dedamirzayevich
Namangan State University, Department of Physical Education and Applied Sports
Associate Professor

Abstract: The article is dedicated to the many aspects of today's youth, the effectiveness of the reforms being carried out in our country, and the health of the growing younger generation.

Keywords: Gymnastics, education, a continuous education system, a healthy generation means a healthy country.

KIRISH

Bugungi yoshlarni ko'p jixatdan kamol topishida ma'naviy hamda jismoniy faol xarakatlar muxim axamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda yurtimizda o'tkazilayotgan isloxotlar o'z samarasini bermoqda. Jumladan uch bosqichli «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» musobaqalari yoshlarimizni jismonan yetuk, ahloqan teran va ma'naviy shakllanishida muhim o'rin egallab kelmoqda.

Gimnastika Olimpiada o'yinlariga kiritlilgan bo'lib, bugungi kunning eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Respublikamizdagi maktablarning boshlang'ich sinflarida gimnastika mashqlarining murakkabligi va ularni ijro etish mahoratlari yuksak darajaga ko'tarilgandir.

Ko'pgina chet mamlakatlar gimnastika bo'yicha mutahasislari bugungi gimnastikaga erta ixtisoslashuvga koordinatsion murakkablikning o'sib borishi, kombinatsion mashqlarni hal etishga

o’rinmoqdalar. Shu jumladan, yosh gimnastikachilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini kompleks ravishda bajarishni talab qilmoqdalar.

O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan yoshlarni bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida 5 tashabbus tashkil etilgan bo’lib, 2 tashabbus sportga jalb etish, ushbu soxa qisqa vaqt ichida davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari va ulkan isloxotlar yo’lini bosib o’tib, buyuk istiqbol sari taraqqiy etib bormoqda.

Sog’lom avlod-sog’lom yurt demakdir. Sog’lom avlodni tarbiyalash vazifasi esa, birinchi navbatda, umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-8 sinf o’quvchilarining jismoniy tarbiya o’qituvchilari zimmasiga tushadi.

2019-2027 yillarda uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta’lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko’tarish dasturida 2027 yilgacha bo’lgan davrda uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari va eng muhim istiqbol vazifalari, ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari, amalga oshirish manbaalari hamda o’quv-tarbiya jarayoni mazmunini yangilab boorish mehanizmlari belgilab berilgan.

ASOSIY QISM

Yuqori sinf o’quvchilarini insonparvarlik ruxida tarbiyalash yangilanish jarayonining asosi xisoblanadi. Yetakchi olimlar, amaliyotchi mutaxasislarning ko’proq qismi 11-14 yoshli bolalarni jismoniy tarbiyalsh tizimi shaxsga majmuali, insoniy ta’sir o’tkazish, xar bir o’quvchining muntazam va imkon qadar to’la jismoniy rivojlanish huquqini ta’minlash kerak degan hulosalarni bildirishgan.

Yuqori sinf o’quvchilarini o’rab turgan muxit o’zgarib bormoqda. Oddiy va sodda o’yinlar o’rniga kompyuter o’yinlari kirib keldi. Bolalarni aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularning ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, asosiy gimnastika, sayohatlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolalarning vaqti tobora kamayib ketmoqda. 11-14 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanish muammolarini hal etishning yangi yo’llarini izlash, birinchidan, ko’rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o’sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psihologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish, qonunlarni metodologik va uslubiy sharoitlarni o’rganish sharti bilan bog’liq.

5-8 sinflarda bolalarning charchash sabablari uchta holatga bog’liq: static holatda o’tirish, yozish va o’qishni gigiyenik to’g’ri holatda bajara olmaslik. O’quvchilarning xarakatlanishga bo’lgan ehtiyojlarini faqat jismoniy tarbiya darslarida emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya shakllaridan foydalanish hisobiga amalaga oshirishni taklif qilaman.

Inson hayotida maktab davridagi jismoniy tarbiyaning ahamiyati shundan iboratki, u xar tomonlama jismoniy rivojlanish, sog’liqni mustaxkamlash, turli hil harakatlarni shakllantirish ko’nikma va malakalarni hosil qilishga yo’naltirilgan.

O’rta maktab yoshidagi bolalarning faol jismoniy mashqlarsiz to’liq rivojlanishi amaliyotda kuzatilmagan. Harakat faolligining yetishmasligi o’sayotgan organizmning sog’lig’iga yomon ta’sir qiladi. 5-8 sinf o’quvchilarining to’laqonli rivojlanishini faol jismoniy tarbiya mashg’ulotlarisiz amalga oshirish mumkin emas. Bu davrda organizm barcha jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun ta’sirchan bo’ladi. Keyinroq u yoki bu sifatlarni rivojlantirish qiyinchilik tug’diradi. Bundan tashqari, maktab yoshi turli harakatlarni bajarish ko’nikmasi va malakasini hosil qilishga qulay davr hisoblanadi. Maktab yoshida jismoniy va aqliy qobiliyatlar ma’lum darajaga yetadi. Bu esa nazariy o’quv materialini va jismoniy tarbiya dasturini o’zlashtirishga imkon yaratadi.

12-14 yoshda bolalarning rivojlanishi tezlashadi. Yil davomida ularning bo'yining o'sishi 7-9 sm gacha kuzatiladi. Bunday tez o'sish endokrin tizimi ta'sirida bo'ladi. Bu bolalarda gavda proportsiyasiga qaraganda qo'l va oyoq tez o'sadi. Agar 12-14 yoshda gavda uzunligi ikki baravar oshsa, qo'lning uzunligi 2,5 martaga ko'payadi, oyoq uzunligi 3 martaga oshadi.

O'rta maktab yoshidagi davr 11-15 yoshni o'z ichiga oladi. Bu davrda har tomonlama jismoniy rivojlanishga poydevor hosil qilinadi. Tana tuzulishi tipi, qomad shakllanadi, turli harakatlarga ko'nikma hosil bo'ladi, sog'liq mustahkamlanadi. Olimlarning fikricha (J.K.Xolodov, V.S.Kuznetsov, 2009) maktab yoshidagi bolalar sog'lig'ining asosiy me'zonlaridan biri bu ularning jismoniy rivojlanishidir. Bolaning bo'yi va vazni tibbiy, ijtimoiy va sanitariya-gigiyenik ko'rsatkichlardan bo'lib, unga qarab, bola organizmiga atrof-muxit, omillari va hayot sharoitining yaxshi yoki yomon ta'sir qilganligini aniqlab olish mumkin.

Insoniyat madaniyatining rivojlanish jarayonida odamning o'z jismoniy imkoniyatlarini takomillashtirishga bo'lgan talablarini tadbiq qilishga yo'naltirilgan faoliyat turi shakllangan va u XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yangi nom-«Jismoniy madaniyat (tarbiya)» bilan atala boshlangan.

Jismoniy tarbiya (madaniyat) inson hayotida muhim rol o'ynaydi hamda bir qator ihtisoslashgan vazifalar majmuasini yechishga hizmat qiladi va bu uning elementlarini va shakllarini o'zgarishiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda egallangan harakat malaka va ko'nikmalarining, shuningdek, intelektual va jismoniy qobiliyatlarning, boy zaxiralari kasbiy-amaliy xarakatlarni tez va to'laqonli o'zlashtirish hamda ulg'ayganda jismonan yanada takomillashish asos poydevor bo'lib hizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida har bir o'quvchining salomatlik holati, jismoniy tayyorgarlik darajasini, qiziqishlari va ehtiyojlarini qat'iy inobatga olish zarur. Ushbu talablarning buzilishi salomatlikka ziyon yetkazadi va mashg'ulot samaradorligini keskin pasaytirib yuboradi.

Jismoniy madaniyat-bu o'quvchilarda o'z salomatligiga, o'z tanasiga bilimdonlik bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradigan yagona o'quv fani bo'lib, u irodaviy va ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga hamda salomatlikni mustahkamlash talablarini shakllantirishga xizmat qiladi.

L.V.Volkov tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish jismoniy tarbiyaning 12-14 yoshdagi o'z-o'zini anglash jarayoni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi to'g'risida hulosa chiqarish imkoniyatini beradi, chunki o'rta maktab yoshi davrida bola turli murakkab topshiriqlarni bajara borib, tezroq ulg'ayadi. Jismoniy rivojlangan bolalarda salomatlik holati ustunlik qiladi, umuiy ishlash qobiliyati yuqoriroq bo'ladi hamda ular maktab dasturi materiallarini nisbatan tezroq va osonroq o'zlashtiradilar.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish bolalardan ma'lum ma'naviy-ruhiy va jismoniy yuklamalarga chidash qobiliyatini namoyon etishni talab qiladi hamda bu, o'z navbatida, har qanday organizmning moslashuvchanlik (adaptatsion) imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqotlar natijasida jismoniy tarbiya vositalari va uslullari organizmni ham fiziologik, ham ruxiy, stress holatlarga moslashish imloniyatlarini oshirishga hizmat qilishi isbotlangan va bu, o'z navbatida, zamonaviy shart-sharoitlarda bolalar va o'smirlarning salomatligini mustahkamlashga katta e'tibor qaratish zarurligini belgilab beradi.

Jismoniy madaniyatning asosiy vositalari hisoblangan turli-tuman jismoniy mashqlar faqat ular individual rivojlanishga zid kelmasagina organizmning o'sishiga va rivojlanishiga hizmat qiladi.

Ushbu vazifalar majmuasini yechishda gimnastikaga tarixan shakllangan jismoniy tarbiya ta'limi hamda insonning xar tomonlama jismoniy rivojlanish vazifalarini eng to'liq va batafsil yechimini ta'minlaydigan ihtisoslashgan vosita va usullar majmuasi sifatida yetakchi o'rin ajratiladi.

"Gimnastika" tushunchasining bir nechta izohli ta'rifi mavjud. Ba'zi olimlar-«yalang'och, yapyalang'och, qipyalang'och» yunincha «gimnos» so'zidan (qadimgi yunonlar jismoniy mashqlar bilan kiyimsiz-to'liq yechingan holda shug'ullanganlar) olingan deb hisoblaydilar.

Bugungi kunda «gimnastika» tushunchasining kelib chiqishi yunoncha «gimnazo»-mashqlanmoqdaman, trenirovka qilmoqdaman so'zi bilan bog'langan. Bu bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, gimnastikaning mazmun-mohiyati va vazifalarini ancha to'g'riroq aks ettiradi.

Gimnastikaning asosiy ixtisoslashgan vositasi-bu, gimnastik mashqlari bo'lib, ular jismoniy mashqlarning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, bu mashqlarning hammasi ham insonlarning o'yin, sayyohlik va sport singari hayotiy amaliyotidan olingan emas. Ularning ko'pchiligi inson tomonidan organizmning ayrim organ va tizimlariga, shug'ullanuvchi shaxslarning ma'naviy-ruhiy va shaxsiy xususiyatlariga yanada maqsadli va samarali ta'sir ko'rsatish uchun ularni harakatlanish, estetik, emotsional, irodaviy, ma'naviy-axloqiy va boshqalar tajribasi bilan boyitish maqsadida sun'iy ravishda yaratilgan.

Uslublar-bu, gimnastika mashqlarini va gimnastikaning boshqa vositalarini shug'ullanuvchilarga maxsus rejalashtirilgan pedagogik ta'sir o'tkazish maqsadida qo'llash usullari. Mashqlarni bajarish usullari mazkur mashqni bajarish miqdori (soni), nafas olish rejimi, ishchi muskullarning kuchlanishi va bo'shashganligi birikmalari, muskullarning jadal ishidan keyin ishni va tiklanishni navbatma - navbat almashtirib turishni oqilona davriylashtirish bilan ifodalanadi.

Ushbu xususiyatlar quyidagi imkoniyatlar bilan aniqlanadi:

- har bir mashqni qismlarga, fazalarga ajratish va uni avval ushbu qismlar bo'yicha, keyin esa yaxlit holda o'rganish. Bu ularni aniq pedagogik yoki sog'lomlashtirish vazifalarini hal qilish uchun qo'llash, ayrim muskullarning kuchini tanlagan holda rivojlantirish, organizmning ayrim organ va tizimlarining funktsional imkoniyatlarini oshirish, shug'ullanuvchilarning ma'naviy - ruhiy va shaxsiy xususiyatlariga ta'sir ko'rsatish, harakatlanish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini beradi;

- amaldagi ko'p sonli harakatlar tuzilmasi bo'yicha turli - tuman bo'lgan va bajarilish usullari, energetik, informatsion, psixologik ta'minoti bo'yicha bir–biridan farq qiladigan mashqlardan sog'lomlashtirish, ta'lim, tarbiya va amaliy vazifalarni hal qilish uchun majmualar tuzish;

- bitta mashqning aynan o'zidan foydalangan holda uni bajarish usulini va yuklama miqdorini (me'yorini) o'zgartirish hisobiga organizmning turli funktsiyalariga va shug'ullanuvchilarning ma'naviy – ruhiy va shaxsiy xususiyatlariga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish mumkin.

-dars tarkibiga kiritilgan har bir mashqning tomir urishi qiymatini aniqlash va buning asosida fiziologik yuklama qiymatini.

- mashqlarni aniq vaziyat va vazifalardan kelib chiqqan holda dastlabki vaziyatlarni o'zgartirish, ularning bog'lanishlarini biriktirish, kombinatsiyalarga kiritish, muskullar va aqliy charchash hamda emotsional qo'zg'aluvchanlik yoki ruhiy ezilish (siqilish) holatlarida turli tashqi muhitning xar xil sharoitlarida, mashqlarni musiqa jo'rligida bajarish yoki musiqa asari xususiyatiga mos mashqlarni tanlash orqali mashg'ulotning emotsional fonini tartiblashtirish.

-mashg'ulotni mukammal holda tashkil etish, oqilona tuzish va shug'ullanuvchilarning faoliyatini faollashtirish imkoniyatini beradigan pedagogik jarayonni aniq tartibga solish.

Gimnastika mashg'ulotlari har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning asosi (poydevori) bo'lib hisoblanadi, shu bilan birga o'quvchining o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishda, egiluvchanlikni, tezkorlik - kuch qobiliyatlarini, fazoda yaxshi mo'ljal olish malaka va ko'nikmalarini, maqsadga intiluvchanlikni, qo'yilgan maqsadga erishishda tirishqoqlikni va mehnatsevarlikni, har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta bilishni, intizomlilikni rivojlantiradi, harakatlanish amallarini bajarish texnikasini puxta o'ylagan holda amalga oshirish odatini tarbiyalaydi.

Agar shug'ullanuvchi mustahkam, chidamli va tezkor muskullarga, egiluvchan gavdaga, o'zini, o'z gavdasini, o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatlariga ega bo'lsa, har qanday harakatlanish amallarini o'zlashtirish jarayoni sezilarli darajada muvaffaqiyat bilan sodir bo'ladi.

XULOSA

Gimnastika mashqlaridan foydalanib shug'ullanuvchilarga ta'sir ko'rsatish samaradorligi faqatgina mashqlarning pedagog tomonidan mohirona tanlanishiga emas, balki pedagogning so'z yordamida ta'sir etishiga, mashg'ulotni musiqiy jo'rligi xususiyatiga va mashg'ulot o'tkazilayotgan tashqi sharoitlarga ham bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun. T., 1992, 2000.
2. Alekseeva.L.M. Kompleksы detskoy obsherazvivayushey gimnastiki.- Rostov-Donu:Feniks,2006.-20s.
3. Керимов Ф.А. Спорт сохдсидаги илмий тадкикотлар, Т., 2004.
4. Tulenova X., Yunusova D., Ismailova M. Tibbiy nazorat, T., 2013.
5. "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 29 avgust №3481. Farmoni//Xalq so'zi.-2004.-30 avgust.
6. http://lyceum.wiut.uz/uz/5-tashabbus/qisqacha-ma-lumot

6 – 10 YOSHLI O'QUVCHILARNI ASOSIY GIMNASTIKA VOSITA VA USLUBLARI ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich
Namangan davlat universiteti jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi
v.v.b. dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17895561

Anotatsiya: maqola, 6 – 10 yoshli o'quvchilarni ko'p jixatdan kamol topishi, yurtimizda o'tkazilayotgan isloxotlarning samarasi, o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: gimnastika, ta'lim-tarbiya, uzluksiz ta'lim tizimi, sog'lom avlod-sog'lom yurt demakdir, uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan madernizatsiyalash.

РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ 6–10 ЛЕТ СРЕДСТВАМИ И МЕТОДАМИ БАЗОВОЙ ГИМНАСТИКИ

Хожимирзаев Шухратжон Дедамирзаевич
Наманганский государственный университет, кафедра физического воспитания и прикладных видов спорта
Доцент

Аннотация: Гимнастика, образование, система непрерывного образования, здоровое поколение, здоровая страна – это модернизация системы непрерывного образования.

Ключевые слова: гимнастика, образование, система непрерывного образования, здоровое поколение - здоровая страна, модернизация системы непрерывного образования по содержанию.

DEVELOPMENT OF PHYSICAL TRAINING OF 6-10 YEAR-OLD STUDENTS THROUGH BASIC GYMNASTICS MEANS AND METHODS

Khojimirzayev Shukhratjon Dedamirzayevich
Namangan State University, Department of Physical Education and Applied Sports
Associate Professor

Abstract: The article is dedicated to the development of 6-10 year old students in many aspects, the effectiveness of the reforms being carried out in our country, and the health of the growing younger generation.

Keywords: gymnastics, education, continuing education system, healthy generation means healthy country, modernization of the continuing education system in terms of content.

KIRISH

O'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligiga qator ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoshidagi bolalar salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi jiddiy omillardan biri maktabdagi dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan jismoniy tarbiyaning to'g'ri tashkil etilmaganligidir.

2008 – 2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan madernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Dasturida 2012 yilgacha bo'lgan davrda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari va eng muhim istiqbol vazifalari,

ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari, amalga oshirish manbalari hamda o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini yangilab borish mexanizmlari belgilab berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash yangilanish jarayonining asosi hisoblanadi. Yetakchi olimlar, amaliyotchi mutaxassislarning ko'proq qismi 6 – 10 yoshli bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmuali, insoniy ta'sir o'tkazish, har bir o'quvchining muntazam va imkon qadar to'la jismoniy rivojlanish huquqini ta'minlash kerak, degan xulosalarni bildirishgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy va sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolalarni aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularning ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, asosiy gimnastika, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolalarning vaqti toboro kamayib ketmoqda. 6 – 10 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish, qonunlarni, metodologik va uslubiy sharoitlarni o'rganish sharti bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

6 – 10 yoshda bolalarning rivojlanishi tezlashadi. Yil davomida ularning buyining o'sishi 8 – 10 sm gacha kuzatiladi. Bunday tez o'sish endokrin tizimi ta'sirida bo'ladi. Bu bolalarda gavda proportsiyasiga qaraganda qo'l va oyoq tez o'sadi. Agar 6 – 7 yoshda gavda uzunligi ikki baravar oshsa, qo'lning uzinligi 2,5 martaga ko'payadi, oyoq uzunligi 3 martaga oshadi.

Ishning maqsadi: Boshlang'ich maktab yoshidagi davr 6 – 10 yoshni o'z ichiga olib bu davrda har tomonlama jismoniy rivojlanishga poydevor hosil qilinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tana tuzilishi tipi, qomat shakllanadi, turli harakatlarga ko'nikma hosil bo'ladi, sog'liq mustahkamlanadi. Olimlarning fikricha [J.K.Xolodov; V.S.Kuznetsov, 2009] maktab yoshidagi bolalar sog'lig'ining asosiy mezonlaridan biri bu ularning jismoniy rivojlanishidir. Bolaning bo'yi va vazni tibbiy, ijtimoiy va sanitariya-gigienik ko'rsatkichlardan bo'lib, unga qarab, bola organizmiga atrof-muhit, omillari va hayot sharoitining yaxshi yoki yomon ta'sir qilganligini aniqlab olish mumkin.

Darslarda asosiy gimnastikaning sog'lomlashtiruvchi-rivojlantiruvchi shakllaridan foydalanib, o'quvchilarning harakat faolliklarini oshirish jismoniy tayorgarlikni yaxshilashga, ish qobilyatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli asosiy gimnastika vositalaridan foydalangan holda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, vosita va uslublarini izlab topish, ularni samaradorligini amalda sinash sohada o'ta dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi1.

1 Хўжаев Ф., Усмонхўжаев Т.С. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия дарслари: 1-синф учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1999. 173 б. Салимов Ғ.М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида, 7 – 10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. 2005. – 180 с.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslari uchun jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishi yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shu bilan birga, harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf dasturiga kiritilgan asosiy mashqlarni o'rgatishda eng samarali vosita sifatida tavsiya etilgan.

Yuqorida bayon etilganidek, ko'rinib turibdiki, 6 – 10 yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida asosiy gimnastikaning jismoniy sifatlar, asosiy mashqlar bo'yicha shakllanadigan ko'nikma va malakalarni tabaqalashtirish asosida amalga oshirish o'quvchilarning faolligini

oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi, ulardan foydalanishga yangi uslubiy yondashuvlarni izlash hamda ishlab chiqishga bag’ishlangan ilmiy ish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir2.

Boshlang’ich sinflarda egallangan harakat malaka va ko’nikmalarining, shuningdek, intellektual va jismoniy qobiliyatlarning, boy zahiralari kasbiy – amaliy harakatlarni tez va to’laqonli o’zlashtirish hamda ulg’ayganda jismonan yanada takomillashish uchun asos poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Gimnastikaning asosiy ixtisoslashgan vositasi – bu gimnastik mashqlari bo’lib, ular jismoniy mashqlarning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, bu mashqlarning hammasi ham insonlarning o’yin, sayyohlik va sport singari hayotiy amaliyotidan olingan emas. Ularning ko’pchiligi inson tomonidan organizmning ayrim organ va tizimlariga, shug’ullanuvchi shaxslarning ma’naviy-ruhiy va shaxsiy xususiyatlariga yanada maqsadli va samarali ta’sir ko’rsatish uchun ularni harakatlanish, estetik, emotsional, irodaviy, ma’naviy-axloqiy va boshqalar tajribasi bilan boyitish maqsadida sun’iy ravishda yaratilgan.

Uslublar–bu gimnastika mashqlarini va gimnastikaning boshqa vositalarini shug’ullanuvchilarga maxsus rejalashtirilgan pedagogik ta’sir o’tkazish maqsadida qo’llash usullari. Mashqlarni bajarish usullari mazkur mashqni bajarish miqdori (soni), nafas olish rejimi, ishchi muskullarning kuchlanishi va bo’shashganligi birikmalari, muskullarning jadal ishidan keyin ishni va tiklanishni navbatma – navbat almashtirib turishni oqilona davriylashtirish bilan ifodalanadi.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eymerioz bilan zararlangan xikol zotli quyonlar qonini kuz faslining sentabr oyida gematologik tekshirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, zararlangan quyonlarda bu ko‘rsatkich 4,7 mln/mkl ni tashkil etib me’yorga nisbatan 0,7 mln/mkl ga kamayganligi aniqlandi; leykotsit miqdori esa bizning tajribamizdagi eymerioz bilan zararlangan quyonlarda 11,9 ming/mkl ni tashkil etdi va me’yorga nisbatan 3,15 ming/mkl ga ortib ketganligi kuzatildi; gemoglobin miqdori esa eymerioz bilan zararlangan quyonlarda 100 g/l ni tashkil etib me’yorga nisbatan kamayib ketganligi kuzatildi; umumiy oqsillar miqdori invaziya bilan zararlangan quyonlarda 47,5 g/l ga ya’ni 17,5 g/lga kamayib ketganligi kuzatilgan; glukoza miqdori invaziyalangan quyonlar qonida 3 mol/l ya’ni me’yordan 1,71 mol/l ga kamayib ketganligi aniqlandi.

4 – jadval. Eymerioz bilan zararlangan quyonlar qonini 2023-yil dekabr oyida tekshirish natijalari (Bo‘riboy Mustayev zamin nur f/x misolida)

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Me’yori	Eymeriozga chalingan
1	Eritrotsit	mln/mkl	5,0-5,8	4,9±0,23
2	Leykotsit	ming/mkl	5,0-12,5	14,1±1,13
3	Gemoglobin	g/l	105-125	96±3,11
4	Umumiy oqsil	g/l	62-68	44,3±1,87
5	Glukoza	mol/l	4,16-5,27	2,7±0,15

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eymerioz bilan zararlangan xikol zotli quyonlar qonini qish faslining dekabr oyida gematologik tekshirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, eritrosit miqdori me’yorda sog‘lom quyonlarda 5,0-5,8 mln/mkl ni tashkil etadigan bo‘lsa, bizning tajribamizdagi eymerioz bilan zararlangan quyonlarda bu ko‘rsatkich 4,9 mln/mkl ni tashkil etib me’yorga nisbatan 0,5 Mln/mkl ga kamayganligi aniqlandi; leykotsit miqdori esa tajribamizdagi eymerioz bilan zararlangan quyonlarda 14,1 ming/mkl ni tashkil etdi va me’yorga nisbatan 5,35 ming/mkl ga ortib ketganligi kuzatildi; gemoglobin miqdori esa tajribamizdagi eymerioz bilan zararlangan quyonlarda 96 g/l ni tashkil etib me’yorga nisbatan 19 g/l ga kamayib ketganligi kuzatildi; umumiy oqsillar miqdori invaziya bilan zararlangan quyonlarda 44,3 g/l ga ya’ni 20,7 g/lga kamayib ketganligi kuzatilgan; glukoza miqdori invaziyalangan quyonlar qonida 2,7 mol/l ya’ni me’yordan 1,61 mol/l ga kamayib ketganligi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida joylashgan Bo‘riboy Mustayev zamin nur fermer xo‘jaligidagi Xikol zotli quyonlarda dastlab koprologik tekshirishlarda kasallikka gumon qilingan quyonlar tezagida eymeriya oosistalari topilgan, shunga ko‘ra ushbu quyonlarda gematologik qon tahlillari o‘tkazish natijasida quyidagilar aniqlandi. Kasallikka chalingan quyonlar qonida eritrositlar, gemoglobin, umumiy oqsil va gulkoza miqdori sog‘lom quyon qonidagi me’yorga nisbatan kamayib ketganligi, aksincha leykositlar me’yorga nisbatan oshib ketganligi namoyon bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki kasallik qo‘zg‘atuvchi eymeriyalar quyonning jigarida va ichaklarida tuqima va hujayralar butunligini buzgan holda quyonda yuqoridagi gematologik holatni chaqiradi. Kasallikka to‘laqonli diagnoz qo‘yishda qon tahlilini ham o‘tkazish aniqlik miqdorini oshiradi va zamonaviy diagnostikada muhum ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbaev M.Sh., Vodyanov A.A., Kosminkov N.E. et al. Parasitology and invasive diseases of animals. - M.: Kolos, - 2000. - 744 p.
2. Aleksandrov V.A. Household farming. Breeding rabbits and nutria. - M.: EKSMO-Press - 2001. - 245 p.
3. Burlakov S.V. Amprolium Merial - an ideal choice // Zh. "Veterinary Science". - No. 4. - 2002. - P. 13.
4. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. K. (2024). Diagnosis and chemoprophylaxis of rabbit eymeriosis. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 480, p. 03020). EDP Sciences.
5. Elmurodov B.A., Turdiev A.K., Nabieva N.A. // Rabbit breeding tutorial. Samarkand-2018. 72-73 p.
6. Pleshakov S.A. Scientific bases of application of complex preparations based on nitrofurans in case of eimeriosis of rabbits // Author's abstract. diss. ... f. cand. veterinary sciences. - Saratov. - 1999. - 18 p.
7. Khushnazarov, A. X. (2022). OBZOR LITERATURNYX DANNYX PO KHIMIOTERAPII I KHIMIOPROPHYLAKTIKI EYMEROZA KROLIKOV. *Journal of PEDAGOGS*, *23*(2), 83-86.
8. Khushnazarov, A., & Davlatov, R. B. (2022). Rabbit eimeriozin in treatment vazuril of the drug efficiency. *Library*, *22*(2), 173-174.
9. Vershinin I.I. Atlas of the main animal coccidia and their morphobiological characteristics. Ural State Agricultural Academy. - Ekaterinburg, 2001. - 95 p.
10. Xushnazarov, A. X. (2025). O ‘ZBEKISTONDA QUYONCHILIKNI RIVOJLANGANLIGI, QUYON EYMERIOZINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI. *Research Focus*, *4*(9), 189-195.
11. Xushnazarov, A. X. (2025). SAMARQAND VILOYATINING AYRIM TUMANLARIDA EYMERIOZNING QUYON ZOTLARI ORASIDA TARQALISHINI O ‘RGANISH. *Research Focus*, *4*(9), 183-186.
12. Xushnazarov, A. X., & Djurayev, O. A. (2024). QUYONLAR EYMERIOZINING PATOLOGOANATOMIK TEKSHIRISH. *Yangi O ‘zbekiston ustozlari*, *2*(29), 294-301.
13. Давлатов, Р. Б., & Хушназаров, А. Х. (2022). ҚУЁН ЭЙМЕРИОЗИ ЭПИЗООТОЛОГИЯСИ ДАВОЛАШ ВА ПРОФИЛАКТИКА ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 181-184.
14. Хушназаров, А., Эшкораев, А., Ахмадалиев, Т., & Давлатов, Р. (2023). Эпизоотологические диагностические и профелактические данные эймериоз кроликов. *in Library*, *1*(1), 1068-1080.
15. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2022). Қуён эймериозини даволашда янги эймериостатикнинг самарадорлиги. *Library*, *22*(1), 28-29.
16. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Қуён эймериозининг тарқалиши ва патологоанатомик ташҳиси. *Library*, *1*(1), 15-17.
17. Хушназаров, А., & Давлатов, Р. Б. (2022). Эффективность вазурила при лечении эймериоза кролика. *in Library*, *22*(2), 173-174.

FARMAKOPEYADAGI EFIR MOYLI O‘SIMLIKLAR, ULARNING KIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Botirova Marguba Sadullayevna
Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya kafedrasi assistenti
Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.
Farmanov Nizom
Veterinariya farmatsevtikasi, farmakologiya va toksikologiya kafedrasi mudiri, dotsent, veterinariya fanlari nomzodi
Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17811794

Annotatsiya: Mazkur maqolada farmakopeyaga kiritilgan efir moyli o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, biologik faol komponentlari va ularning farmakologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Efir moylarining o‘simliklardagi biosintezi, ularni ajratib olish usullari, shuningdek, dorivor xomashyolardan farmatsevtik preparatlar tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda o‘simliklarning ekologik omillarga bog‘liq holda efir moy miqdori va sifat tarkibining o‘zgarishi ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Efir moyi, efir moyli o‘simliklar, farmakopeya, terpenoidlar, aromatik birikmalar, farmakologik ta’sir, distillyatsiya, anfleryaj, kimyoviy tarkib, fitopreparatlar.

ESSENTIAL OIL PLANTS IN THE PHARMACOPOEIA, THEIR CHEMICAL COMPOSITION AND PHARMACOLOGICAL PROPERTIES

Abstract: This article analyzes the chemical composition, biologically active components and pharmacological properties of essential oil plants included in the pharmacopoeia. The biosynthesis of essential oils in plants, methods for their extraction, as well as their importance in the preparation of pharmaceutical preparations from medicinal raw materials are covered. The study also studied the changes in the quantitative and qualitative composition of essential oils in plants depending on environmental factors.

Keywords: Essential oil, essential oil plants, pharmacopoeia, terpenoids, aromatic compounds, pharmacological action, distillation, enfleurage, chemical composition, phytopreparations.

ЭФИРОМАСЛИЧНЫЕ РАСТЕНИЯ В ФАРМАКОПЕЕ, ИХ ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА

Аннотация: В статье анализируются химический состав, биологически активные компоненты и фармакологические свойства эфиромасличных растений, включённых в фармакопею. Рассматриваются биосинтез эфирных масел в растениях, методы их извлечения, а также их значение в приготовлении фармацевтических препаратов из лекарственного сырья. Также изучены изменения количественного и качественного состава эфирных масел растений в зависимости от факторов окружающей среды.

Ключевые слова: Эфирное масло, эфиромасличные растения, фармакопея, терпеноиды, ароматические соединения, фармакологическое действие, дистилляция, анфлераж, химический состав, фитопрепараты.

KIRISH

Dolzarligi: Bugungi kunda tabiiy kelib chiqadigan biofaol moddalar, xususan, efir moylari tibbiyot, farmatsiya, parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llanilmoqda. Ularning tabiiy manbalari bo‘lgan o‘simliklarni o‘rganish, tarkibidagi asosiy komponentlarni aniqlash va farmakopeyaga kiritilgan turlarni standartlashtirish zamonaviy farmatsevtika fanining muhim yo‘nalishlaridan biridir.
O‘simliklar dunyosida efir moylari keng tarqalgan. Aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, yer sharining florasidagi o‘simliklardan taxminan 2500 dan ortiq turi tarkibida efir moyi mavjud. Shundan 77 oilaga kiradigan 1050 dan ortiq o‘simlik turi sobiq Ittifoq hududida o‘sadi. Ayniqsa, yasnotkadoshlar — Lamiaceae (labguldoshlar — Labiatae), selderdoshlar — Apiaceae (soyabonguldoshlar — Umbelliferae), astradoshlar — Asteraceae (murakkabguldoshlar — Compositae), sho‘radoshlar — Chenopodiaceae, archadoshlar (sarvindoshlar) — Cupressaceae, mirtadoshlar — Myrtaceae, rutadoshlar — Rutaceae, ra’noguldoshlar — Rosaceae va boshqa oilalarning vakillari efir moyiga boydir.

Efir moylarining antimikrob, yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik, sedativ, antiseptik, analgetik kabi farmakologik ta’sirlari klinik va eksperimental jihatdan isbotlangan. Shu sababli o‘simliklarning kimyoviy va farmakologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish dorivor vositalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Efir moylari farmatsevtika, kosmetologiya va tibbiyot sohalarida keng qo‘llaniladigan tabiiy biofaol moddalar hisoblanadi. Ular o‘simliklarning bargi, guli, ildizi yoki mevasidan olinadi va o‘ziga xos hid, ta’m hamda farmakologik faollikka ega. Farmakopeyadagi efir moyli o‘simliklar tibbiy preparatlar, aromaterapiya vositalari va fitopreparatlar ishlab chiqarishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada efir moyli o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, farmakologik xususiyatlari va farmakopeyadagi o‘rni tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot ishlari O‘zbekiston farmakopeyasi va xalqaro farmakopeyalar (Yevropa, Rossiya) talablari asosida olib borildi.

Obyekt sifatida farmakopeyaga kiritilgan efir moyli o‘simliklar — Mentha piperita L. (yalpiz), Chamomilla recutita L. (romashka), Lavandula officinalis L. (lavanda), Foeniculum vulgare L. (arpabodiyon) va Rosa damascena Mill. (atirgul) namunalaridan foydalanildi.

Efir moylarini ajratib olish uchun suv bug‘i yordamida distillyatsiya, maceratsiya va anfleryaj usullari qo‘llanildi.

Kimyoviy tarkibni aniqlash gaz-xromatografiya (GC-MS) usuli yordamida amalga oshirildi. Natijalarda asosiy komponentlar sifatida mentol, evgenol, linalol, geraniol, kamfora, anetol kabi moddalarning mavjudligi aniqlangan.

Farmakologik xususiyatlarni baholash uchun in vitro (mikroblarga qarshi faollik) va in vivo (hayvon modellarida yallig‘lanishga qarshi ta’sir) sinovlar o‘tkazildi.

Efir moylari – bu o‘simliklarning ikkilamchi metabolitlari bo‘lib, ular o‘simlikning barg, gul, po‘stloq yoki ildiz qismlarida to‘planadi. Ularning asosiy komponentlari terpenlar, fenilpropanoidlar va efirlar hisoblanadi. Farmakopeyaga ko‘ra, efir moylari sifat nazorati jarayonida fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari (zichlik, sinish ko‘rsatkichi, optik aylanish) orqali baholanadi.

XVIII asrdan boshlab efir moylarining xossalari va tarkibiy qismi o‘rganila boshlangan bo‘lsada, bu sohadagi ishlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ayniqsa avj oladi. A.M.Butlerov va A.N.Reformatskiy (Rossiya), Gildemeyster va Gofman (Germaniya),

E.E.Vagner va uning shogirdlari (Polsha) hamda boshqa mashhur olimlar efir moylarini o‘rganishga katta hissa qo‘shdilar.

Efir moylari tarkibini o‘rganishda, tarkibida efir moyi bo‘lgan o‘simliklarni qidirib topishda hamda chet mamlakatlardan keltirilgan efir moyli o‘simliklarni o‘stirishda B.N.Rutovskiy, G.V.Pigulevskiy, I.P.Tsukervanik, N.G.Kiryalov, E.V.Vulf, V.I.Nilov, S.N.Kudryashov, M.I.Goryaev kabi olimlar va ularning shogirdlarining xizmati katta.

NATIJALAR VA TAHLIL

O‘rganilgan efir moyli o‘simliklarda asosiy komponentlarning nisbati o‘simlik turi, vegetatsiya bosqichi, iqlim va saqlash sharoitlariga bog‘liqligi aniqlandi. Masalan, yalpiz efir moyida mentol miqdori 42–50% ni tashkil etgan, lavanda moyida linalol 35–40%, romashka moyida esa azulen va bisabolol 30–38% oralig‘ida bo‘lgan. Eksperimental tadqiqotlar natijasida efir moylarining antimikrob (Staphylococcus aureus, Escherichia coli ga nisbatan), antifungal va yallig‘lanishga qarshi faolligi tasdiqlandi.

Tarkibida efir moyi bo‘lgan o‘simliklar asosan Ukraina, Moldova, Gruziya, Tojikiston, Qirg‘iziston respublikalari, Shimoliy Kavkaz, Qrim va Voronej viloyatlarida ko‘plab o‘stiriladi.

O‘simliklarning deyarli barcha organlarida efir moyi bo‘ladi. U gul va meva, barg va yer ostki organlarida hamda o‘simlikning butun yer ustki qismlarida to‘planadi. Ba’zan bitta o‘simlikning turli organlarida tarkibi jihatidan turlicha bo‘lgan efir moylari bo‘lishi mumkin. Masalan, pomerants daraxti bargidan, gulidan, xom mevasidan va pishgan mevasi po‘stidan tarkibi turlicha bo‘lgan to‘rt xil efir moyi olinadi.

Efir moyining miqdori o‘simliklarda 0,001–20 % bo‘lishi mumkin. Bu moyning miqdori va tarkibiy qismi o‘simlikning o‘sish joyiga, rivojlanish davriga, yoshiga va naviga qarab o‘zgarib turadi. Turli o‘simliklarda efir moyining ko‘p miqdorda to‘planishi turli vaqtga to‘g‘ri keladi. Odatda o‘simliklar gullash, ba’zilari g‘uncha hosil qilish davrida yoki undan ham ertaroq efir moylarini maksimal miqdorda to‘playdi.

Efir moyining o‘simlik tarkibida ko‘p yoki kam miqdorda to‘planishi havo haroratiga va namligiga, tuproq namligiga hamda undagi mineral moddalarning miqdoriga bog‘liq. Odatda havo harorati ko‘tarila boshlagan sari o‘simlik tarkibida efir moylari ko‘proq sintezlanadi, aksincha, havo namligi ortishi bilan bu birikmalar miqdori kamayib boradi. Tuproqdagi namlikning ortiqcha yoki yetishmasligi efir moylarining kamayishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, qurg‘oqchilik ba’zi o‘simliklarda efir moylarining ko‘proq to‘planishiga sabab bo‘ladi.

Mineral moddalardan, masalan, kaliy kationi va PO_4 anioni rozmarin tarkibida efir moyining ko‘p to‘planishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Odatda janubiy tumanlarning florasi shimoliy tumanlardagiga nisbatan efir moyi saqlovchi turlarga boy. Shu sharoitda o‘sadigan o‘simliklarning efir moylarining hidi yoqimliroq, tarkibiy qismi esa murakkabroq bo‘ladi.

Efir moylarining o‘simliklar hayoti uchun ahamiyati hali to‘la aniqlanmagan. Ba’zi olimlar efir moylari va smolalar o‘simliklarni turli kasalliklar, zararkunandalar, chirish va zaharlanishdan saqlaydi, deb taxmin qiladilar. Boshqa nazariyalar esa efir moylari hasharotlarni jalb etadi va o‘simlik gullarining changlanishiga yordam beradi, deb hisoblaydi. Shuningdek, efir moylari o‘simlik chiqindisi yoki zahira ozuqa modda sifatida xizmat qiladi, degan fikr ham mavjud.

Tindal efir moylari o‘simliklarni kunduzi ortiqcha qizib ketishdan, kechasi esa sovuqdan saqlaydi, shuningdek, to‘qimalardagi suv bug‘lanishini tartibga solib turadi, deb hisoblaydi. Yuqoridagi nazariyalar qisman to‘g‘ri bo‘lsa-da, efir moylari o‘simliklarda faqat shu maqsadlar uchun xizmat qiladi, deyish noto‘g‘ri bo‘lur edi. Efir moylari boshqa biologik faol moddalarga

o‘xshab, o‘simlik to‘qimalarida kechadigan modda almashinuvi jarayonlarida faol ishtirok etadi, degan fikrlar so‘nggi yillarda ko‘plab olimlar tomonidan ilgari surilmoqda.

Efir moylarining miqdori va tarkibi o‘simlikning o‘sish davrida doimo o‘zgarib turadi. O‘simlikda dastlab oddiy birikmalar sintez bo‘ladi, keyinchalik rivojlanish bosqichlariga (unish, g‘uncha hosil qilish, gullash, meva tugish va boshqalar) qarab efir moyining tarkibi o‘zgaradi va vegetatsiya davrining oxirida yanada murakkab komponentlar hosil bo‘ladi. Ko‘pincha o‘simlikning qarish davrida moy tarkibida oksidlangan qismlar yig‘iladi. Yuqoridagi faktlar o‘simliklardagi efir moylarining fiziologik ahamiyatini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Efir moylari o‘simlik to‘qimalarida moy ishlab chiqaruvchi va saqlovchi maxsus organlarda to‘planadi. Erkin holatda uchraydigan efir moylaridan tashqari, glikozidlar tarkibiga kiradigan efir moylari ham mavjud. Ular glikozidlar parchalangandagina erkin holatda ajralib chiqadi. Bunday glikozidlar to‘qimalarning hujayra shirasi tarkibida bo‘ladi.

2. Kimyoviy tarkibi

Efir moylarining kimyoviy tarkibi turli sinflarga mansub organik birikmalardan iborat. Asosiy komponentlar quyidagilardir: Monoterpenlar: limonen, mentol, kamfen, pineol. Seskuiterpenlar: kariofillen, farnesen, humulen. Fenilpropanoidlar: evgenol, anetol, safrol.

Masalan, lavanda (Lavandula officinalis) efir moyida linalool va linalil-asetat, evkalipt (Eucalyptus globulus) tarkibida 1,8-sineol, rayhon (Ocimum basilicum) tarkibida metilxavikol va linalool mavjud. Efir moylarining tarkibi o‘simlik turi, iqlim, o‘sish joyi va yig‘ish sharoitiga bog‘liq.

3. Farmakologik xususiyatlari

Efir moylarining farmakologik ta’siri ularning kimyoviy tarkibidagi faol komponentlarga bog‘liq. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: Antibakterial – timol, karvakrol va evgenol bakteriyalar hujayra devorini buzadi. Antifungal – mentol va sineol zamburug‘larga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Antiinflamatuar – kariofillen va linalool yallig‘lanishni kamaytiradi. Antioksidant – efir moylari erkin radikallarni neytrallaydi. Sedativ va spazmolitik – asab tizimini tinchlantiradi va mushak spazmlarini bartaraf etadi.

Farmakopeya bo‘yicha, efir moylaridan malhamlar, inhalyatsion eritmalar, kapsulalar va aromatik vositalar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

4. Farmakopeyadagi o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi hamda Yevropa farmakopeyasida efir moylarining sifat ko‘rsatkichlari aniq belgilangan. Har bir efir moy uchun organoleptik belgilar, zichlik, sinish ko‘rsatkichi, optik aylanish va xromatografik profil keltiriladi. Efir moyli o‘simliklar dorivor preparatlar, kosmetik mahsulotlar va fitopreparatlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.

Efir moyi o‘simliklardan quyidagi usullar bilan olinadi:

1. Efir moyini o‘simliklardan suv yoki suv bug‘i yordamida haydab olish usuli. Bu eng eski va oddiy usul bo‘lib, efir moyi olish uchun kubga (laboratoriyada esa kolbaga) maydalanib tayyorlangan o‘simlik organi solinadi va ustiga suv quyiladi. So‘ngra kub (yoki kolba) sovutkich bilan birlashtirilib, qizdiriladi. Efir moyi bug‘i suv bug‘i bilan birgalikda sovutkichdan o‘tadi-da, loyqa suv holatida distillatga aylanadi va so‘ngra qabul qiluvchi idishga tushadi. Distillat bir oz turgandan keyin efir moyi zichligiga qarab, maxsus tayyorlangan florentik idishlarda yoki suv ustiga, yoki suv ostiga yig‘iladi va shundan so‘ng efir moyi ajratib olinadi.

Efir moylarini suv bug‘i yordamida ajratib olish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: maxsus kolba yoki kubda suv bug‘i hosil qilinib, u o‘simlik organi solingan idish tagidan

o‘tkaziladi. Bunda suv bug‘i o‘ziga efir moyi bug‘ini olib, sovutkichdan o‘tadi. Bug‘lar sovib, suyuqlikka aylanadi va maxsus idishlarga tushadi.

Efir moyini suv bilan haydab olinganda o‘simlik organi ham suv bilan birga qiziydi. Bunda o‘simlik organi bir oz kuyishi, efir moyining sifati esa biroz buzilishi mumkin. Suv bug‘i bilan efir moyi haydalganida esa bu hodisa yuz bermaydi. Shu sababli tarkibiy qismi tez buziladigan efir moylari o‘simliklardan aynan suv bug‘i yordamida haydab olinadi.

2. Matsyeratsiya usuli efir moylarining yog‘larda erish xususiyatiga asoslangan. Shu sababli bu usul qizdirilganda tarkibiy qismi o‘zgarib ketadigan efir moylarini olishda qo‘llaniladi. Tarkibida efir moyi bo‘lgan gullar maxsus idishga solinib, ustiga zaytun moyi quyiladi va 50°C gacha qizdiriladi. Natijada mahsulotdagi efir moyi zaytun moyiga o‘tadi. Gullardan tozalangan moy esa maxsus maqsadlar uchun ishlatiladi.

3. Anfleraj (yutish) usuli efir moylarining qattiq moylarda yutilishiga asoslangan. Bu usul orqali odatda gullardan yuqori sifatli va qizdirilganda buziladigan efir moylari olinadi. Yutilish jarayoni oddiy haroratda olib boriladi, shuning uchun efir moyining tarkibi buzilmaydi va sifati saqlanib qoladi. Bir necha kun davom etgan yutilish jarayonida gullar o‘zidan efir moyini ajratib chiqarmoqda davom etadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar farmakopeyadagi efir moyli o‘simliklarning kimyoviy tarkibi va farmakologik faolligi o‘zaro chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar efir moylarini tibbiyot va farmatsiyada keng qo‘llash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Efir moylarining tabiiy manbalari hisoblangan o‘simliklarni o‘stirish, xomashyo sifatini standartlashtirish va ularni zamonaviy tahlil usullari bilan o‘rganish dorivor preparatlarning sifatini oshirish va yangi fitoterapevtik vositalar yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Efir moyli o‘simliklar farmakopeyadagi muhim tabiiy biofaol komponent manbaidir. Ularning kimyoviy tarkibi farmakologik faolligini belgilaydi. Kelgusida farmakopeya standartlarini takomillashtirish, yangi efir moyli o‘simliklarni o‘rganish va klinik tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Essential Oils: Chemistry and Pharmacological Activities. Frontiers in Pharmacology, 2023.
2. Essential Oils: Chemical Composition and Diverse Biological Activities. Natural Product Communications, 2024.
3. Chemical Composition of Essential Oils and Their Potential Applications. Molecules, 2024.
4. Pharmacological Properties of Essential Oils and Their Components. Pharmaceutics, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi. – Toshkent: SSV nashriyoti, 2018.
6. Е.В. Кузнецова, Л.А. Пахомова. Эфирные масла и их фармакологическая активность. – М.: Медицина, 2020.
7. P. V. Shinde et al. A Review on Essential Oils: Chemical Composition and Therapeutic Potential. Journal of Pharmacognosy and Phytochemistry, 2022.
8. Azizov Sh.R., Shadieva G.S. Fitoterapiya asoslari va efir moyli o‘simliklar farmakologiyasi. – Toshkent: TTA nashriyoti, 2021.

QON CHO‘PI (*CHELIDONIUM MAJUS*) O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA CHISTOTEL PREPARATINING QUYONLAR TERISIGA FARMAKOTOKSIKOLOGIK TA’SIRI

D.A.Ernazarov
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali katta o‘qituvchisi.,v.f.f.d (PhD)
H.B.Niyozov
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori, v.f.d

https://doi.org/10.5281/zenodo.17765627

Annotatsiya: Ushbu maqolada qon cho‘pi (*Chelidonium majus*.) o‘simligining kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari, uning asosida tayyorlanadigan chistotel preparatining farmakologik xususiyatlari hamda quyonlar terisiga bo‘lgan farmakotoksikologik ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari o‘simlikdan olinadigan preparatlarning antimikrob, yallig‘lanishga qarshi va regeneratsiya jarayonini tezlashtiruvchi xususiyatlarini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Qon cho‘pi,chelidonium majus, chistotel, quyonlar, alkaloidlar, farmakotoksikologiya, teri regeneratsiyasi, antimikrob ta’siri.

ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА ЧИСТОТЕЛА БОЛЬШОГО (CHELIDONIUM MAJUS) И ФАРМАКОТОКСИКОЛОГИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ ЧИСТОТЕЛА НА КОЖУ КРОЛИКОВ

Аннотация: В данной статье изучены химический состав, биологически активные вещества чистотел (*Chelidonium majus*), фармакологические свойства препарата чистотела большой, приготовленного на его основе, а также фармакотоксикологическое действие на кожу кроликов. Результаты исследований подтверждина антимикробные, противовоспалительные и ускоряющие процессы регенератsii препаратов растительного происхождения.

Ключевые слова: гвоздика, Chelidonium majus, чистотел, кролики, алкалоиды, фармакотоксикология, регенерация кожи, антимикробное действие.

MEDICINAL PROPERTIES OF CELANDINE (CHELIDONIUM MAJUS) AND PHARMACOTOXICOLOGICAL EFFECTS OF CELANDINE ON RABBIT SKIN

Abstract: In this article, the chemical composition, biologically active substances of the Chelidonium (*Chelidonium majus*), the pharmacological properties of the purifier preparation prepared on its basis, as well as its pharmacotoxicological effect on rabbit skin were studied. The research results confirm the antimicrobial, anti-inflammatory, and accelerating processes of regeneration of the properties of plant-derived preparations.

Keywords: Clove, Chelidonium majus, celandine, rabbits, alkaloids, pharmacotoxicology, skin regeneration, antimicrobial effect.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda o‘simliklardan olinadigan tabiiy dorivor preparatlar veterinariya amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Ularning afzalligi shundaki, ular hayvon organizmiga nisbatan xavfsiz, kam toksik va samarali bo‘ladi. Shunday o‘simliklardan biri – qon cho‘pi (*Chelidonium majus L.*), xalq orasida “chistotel” deb ataladi. Mazkur o‘simlikning

dorivor xususiyatlari qadimdan ma’lum bo‘lib, teri kasalliklarini davolashda, yara va yallig‘lanishlarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida ishlatilgan.

Veterinariya sohasida teri va tuyoq kasalliklarini davolashda sintetik preparatlardan tashqari, o‘simlik asosidagi dorilarni qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, ekologik toza, arzon va samarali vositalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Qon cho‘pi (*Chelidonium majus*) o‘simligidan tayyorlangan chistotel preparati shu jihatdan e’tiborga loyiqdir. U teri hujayralarining yangilanishini tezlashtirib, mikroblarga qarshi ta’sir ko‘rsatadi.

Qon cho‘pi (chistotel) o‘simligining balandligi 30-80 sm, ildizpoyasi kalta, ildizi shoxlangan ko‘p yillik o‘simlik. Ildizi tashqi tomondan qizil-jigarrang, ichi sariq. Poyasi shoxlangan, siyrak tukli. Barglari muqobil; bazal va pastki poyalari uzun poyalarda, ustkilari esa o‘simtali. Gullari ochiq sariq, oddiy soyabon shaklidagi to‘pgullarda poyaning uchida 3-8 tadan to‘plangan.Maydan sentyabrgacha gullaydi; mevalar iyun oyida pishishni boshlaydi.

Qon cho‘pi (chistotel) (Chelidoii herba) ko‘knorguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, undan dorivor xom ashyo sifatida o‘simlikning yer usti qismidan foydalaniladi. Quyuk sutli sharbatida taxminan 1-4% izoxinolin alkaloidlari mavjud (qon cho‘pi o‘tida va quruq ildizlarida alkaloidlar miqdori ancha past) - xelidonin, xeleritrin, α-, β- i γ-gomoxelidonin, sangvinarin, xelidoksantin, oksixelidonin, xelirubin, protopin, koptizin, kriptonin, spartein, stilonin, defillin, xelilutin va boshqalar, shuningdek, yuqori alifatik spirt xelidoniol, flavonoidlar, xolin, tiramin, saponinlar, organik kislotalar (limonli, xelidonik, olmali, yantarli), efir yog‘lar, fenolkarbonli kislotalar, vitamin C, karotin, taninlar va qatronlar ham mavjud.

Qon cho‘pi antimikrobli, spazmolitik, o‘smaga qarshi, siydik va o‘t xaydovchi, og‘riqsizlantiruvchi va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega. (https://compendium.com.ua/akt/67/73/chelidonium-majus/).

Qon cho‘pi tarkibida saqlaydigan fitonsitlar Staph. Aures, Proteus vulgaris, Esherichia coli, Str. Epidermidis mikroorganizmlariga qarshi ta’sir ko‘rsatadi [1; 171-б.].

Qon cho‘pi o‘simligi antimikrob xususiyatlaridan tashqari ko‘plab teri kasalliklaridan dermatoz, psoriaz, papiloma va bazi shikastlanishlarni davolashda qo‘llaniladi.

Chelidonium majus — izoxinolin alkaloidlari va fenolik kislota derivatlariga boy, antiparazitar, antibakterial, antiinflamatoriy va antioksidant xususiyatlarga ega o‘simlik. Veterinar tibbiyotda u turli hayvonlarda qo‘llanilishi mumkin, lekin yuqori toksikligi sababli ehtiyotkorlik talab qilinadi (Frontiers in Pharmacology, 2024; MDPI Plants, 2024). **Uning fitokimyoviy tarkibi asosiy alkaloidlar: chelidonin, sangvinarin, cheleriitrin, berberin, koptisin. Flavonoidlar va fenolik kislota derivatlari ham mavjud. Alkaloidlar konsentratsiyasi o‘simlik organi, yil mavsumi va o‘simlik sharoitiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi** (MDPI Plants, 2024; RNZ Journal of Animal Science, 2023).

Chistotel ekstraktlari baliqlardagi parazitlar (Dactylogyrus intermedius) va qoramollardagi ba’zi ichak parazitlariga qarshi samarali (PubMed ID: 21537985). Ekstraktlar Gram+ va Gram− bakteriyalar, shuningdek Candida albicans ga qarshi faollik ko‘rsatadi (MDPI Plants, 2024). TNF-α, IL-6 kabi saytokinlarning sekretsiyasini kamaytiradi; antioksidant fermentlarni faollashtiradi (Agrobiodiversity Journal, 2020; Frontiers in Pharmacology, 2024). Parrandalarda immun javobni kuchaytirishda samarali.

Yuqori doza sitotoksik ta’sir ko‘rsatishi va hujayra apoptozini stimullash bilan bog‘liq (PubMed ID: 25481375). Yuqori dozada jigar toksikligi va markaziy asab tizimiga ta’sir qiladi. LD_{50} xom ekstrakt uchun sichqonlarda ~350 mg/kg (og‘iz orqali).Belgilar: sustlik, qo‘zg‘alish,

qon bosimi pasayishi, nafas olishda qiyinaladi (Toxicology Reports, 2021; Hepatology Review, 2020).

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi – qon cho‘pi o‘simligini dorivorlik xususiyatlarini va o‘simligidan olingan chistotel preparatining quyonlar terisiga farmakotoksikologik ta’sirini o‘rganishdir.

TADQIQOTLAR OBYEKTI VA USLUBLARI

Tajribalarda quyonlar terisiga chistotelning turli xil nisbatlarda suvli eritmalarining ta’sirini aniqlash maqsadida 15 bosh laboratoriya hayvonlaridan har birida 3 boshdan quyonlar bo‘lgan 5 ta guruhga ajratildi. Barcha hayvonlarning orqa oyoqlarining son qismidan ehtiyotkorlik bilan 2x2 sm maydonni juni olindi. Birinchi guruh quyonlariga chistotelning (sof) o‘zi, ikkinchi guruh quyonlariga esa chistotelning 1:1 nisbatdagi suvli eritmasi, uchinchi guruh quyonlar terisiga esa chistotelning 1:2 nisbatdagi suvli eritmasi, to‘rtinchi guruh quyonlariga esa chistotelning 1:3 nisbatdagi suvli eritmasi va beshinchi guruh quyonlariga esa chistotelning 1:4 nisbatdagi suvli eritmasi surtilib teridagi o‘zgarishlar aniqlandi.

OLINGAN NATIJALAR

Birinchi guruh quyonlari orqa oyoqlarining son qismi junlari qirqilib va chistotelning (sof) o‘zi surtilganda terida kuchli kuydirish, sog‘lom teri epidermisi va to‘qimalarini o‘ldirishi va kuygan joyda nekroz chaqirishi kuzatildi (1 va 2-rasm).



1-2-rasm. Quyonlar terisiga chistotelning sof 100%li eritmasining tasiri .

Ikkinchi guruh quyonlariga esa chistotelning 1:1 nisbatdagi suvli eritmasi tashqi tomondan surtilganda va ushbu guruh quyonlari terisida o‘rta darajali kuyish, sog‘lom to‘qimalarning shikastlanishi va kuygan joyda nekroz o‘choqlari paydo bo‘lishi aniqlandi (3 va 4-rasm).



3-4-rasm. Quyonlar terisiga chistotelning 1:1 nisbatdagi suvli eritmasining tasiri.

Uchinchi guruh quyonlar terisiga esa chistotelning 1:2 nisbatdagi suvli eritmasi ta’sir etirilib ko‘rilganda quyon terisida yengil darajali kuyish, sog‘lom to‘qimalarning shikastlanishi va qizarish belgilari namayon bo‘ldi (5 va 6-rasm).



5-6-rasm. Quyonlar terisiga chistotelning 1:2 nisbatdagi suvli eritmasining tasiri.



7-8-rasm. Quyonlar terisiga chistotelning 1:3 va 1:4 nisbatdagi suvli eritmalarining tasiri.

To‘rtinchi guruh quyonlariga chistotelning 1:3 nisbatdagi suvli eritmasi va beshinchi guruh quyonlariga esa chistotelning 1:4 nisbatdagi suvli eritmasi ta’sir qildirilib ko‘rilganda, terida kuyish belgilari paydo bo‘lmadi, sog‘lom to‘qimalarga salbiy shikastli ta’sir ko‘rsatmadi, terida patologik o‘zgarishlar paydo bo‘lmaganligi aniqlandi (7 va 8-rasm).

O‘tkazilgan tajribalar natijasida aniqlanishicha, chistotel preparatining 1:3 va 1:4 nisbatli suvli eritmalarini quyonlar terisiga salbiy toksik ta’sir ko‘rsatmagan. Aksincha, yengil yallig‘lanishlar va jarohatlar mavjud bo‘lgan joylarda regeneratsiya jarayoni tezlashgani kuzatildi. Preparat tarkibidagi chelidonin, sanguinarin, protopin kabi alkaloidlar antimikrob va yallig‘lanishga qarshi faollikka ega ekani tasdiqlandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Qon cho‘pi (*Chelidonium majus*) o‘simligidan tayyorlangan chistotel preparatini 1:3 va 1:4 nisbatlardagi suvli eritmalari quyonlar terisiga toksik ta’sir ko‘rsatmadi ya’ni terida qizarish va nekroz o‘choqlari paydo bo‘lmadi.Preparatni veterinariya amaliyotida yara, dermatit va yengil yallig‘lanish holatlarida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Стельмухов М.В. Этиопатогенетическая терапия гнойно-некротических язв копытец у коров. // Дис. канд.вет.наук. Владикавказ, 2008. 171 с.
2. https://compendium.com.ua/akt/67/73/chelidonium-majus.

3. Frontiers in Pharmacology (2024). *Phytochemical and pharmacological profile of Chelidonium majus L.: a comprehensive review.* DOI
4. MDPI Plants (2024), Vol. 14(17): 2627. *Chemical composition and biological activities of Chelidonium majus L. extracts.* Link
5. RNZ Journal of Animal Science (2023). *Greater celandine (Chelidonium majus) in livestock nutrition: chemical composition, pharmacological and toxicological aspects.* Link
6. VeterinGroup Journal (2021). *In vivo activity of different feeding levels of greater celandine extract on growth and digestibility in broilers.* Link
7. Agrobiodiversity Journal (2020). *Effects of Chelidonium majus extracts on oxidative stress markers in horse plasma samples.* Link
8. PubMed (2011). *Antiparasitic efficacy of Chelidonium majus L. extract against Dactylogyrus intermedius in goldfish.* PMID: 21537985
9. PubMed (2014). *Effects of Chelidonium majus extracts on dog cardiac action potential.* PMID: 25481375
10. Toxicology Reports (2021). *Chelidonium majus-induced hepatotoxicity: clinical and experimental evidence.* DOI
11. Hepatology Review (2020). *Hepatotoxicity associated with greater celandine.* PMID: 28379595
12. Mirzaev M.M. va boshq. O‘simliklarning dorivor xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2018.
13. Shakirov A.A. Fitoterapiya asoslari. Samarqand, 2020.
14. European Medicines Agency. 'Chelidonium majus L. – Herbal preparation monograph'. EMA, 2021.
15. Zaytsev V.N. Farmakognoziya. Moskva: GEOTAR-Media, 2019.
16. Various methods of treatment of artificial purulent necrotic process in rabbits- Hakim Niyozov[1], Daniyor Ernazarov[2], Shavkat Avezimbetov[2], Jo‘shqin Rejepbayev[2], Umbetali Shakilov[2]. BIO Web of Conferences 181, 01007 (2025)
17. THE EFFECT OF 10% BLOOD HERB (CHISTOTEL) (CHELIDOII HERBA) OINTMENT AND 10% ALOE EXTRACT OINTMENT ON THE INFLAMMATION PROCESS- Ernazarov D.A., Niyazov KH. B. Vol. 5 (2024): International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies P-69-73

UDK: 633:632:634:632.5:632.53

RESPUBLIKAMIZ YAYLOVLARIDA TARQALGAN ZAHARLI O‘SIMLIKLARNI O‘RGANISH

H.R.Zarifov
Mustaqil izlanuvchi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti
M.A.Aslonova
Mustaqil izlanuvchi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti
A.A.Xoliqov
Ilmiy rahbar, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti, v.f.n.
A.A.Azamatov
Ilmiy maslahatchi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti, katta ilmiy xodimi, b.f.n.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17767637

Annotatsiya: Yaylovlarimizda tarqalgan zaharli o‘simliklarning geografik tarqalishi va botanik xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yaylov, geografik, botanik, zahar, fitotoksin, o‘simlik, conium maculatum L, ranunculus sceleratus L, euphorbia peplus L, biotransformatsiya.

ИЗУЧЕНИЕ ЯДОВИТЫХ РАСТЕНИЙ, РАСПРОСТРАНЕННЫХ НА ПАСТБИЩАХ НАШЕЙ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация: Приведены сведения о географическом распространении и ботанической характеристике ядовитых растений, распространенных на наших пастбищах.

Ключевые слова: Пастбище, географический, ботанический, яд, фитотоксин, растение, conium maculatum L, ranunculus sceleratus L, euphorbia peplus L, биотрансформация.

STUDY OF POISONOUS PLANTS COMMON IN THE PASTURES OF OUR REPUBLIC

Abstract: Information is provided on the geographical distribution and botanical characteristics of poisonous plants common in our pastures.

Keywords: Pasture, geographical, botanical, poison, phytotoxin, plant, conium maculatum L, ranunculus sceleratus L, euphorbia peplus L, biotransformation.

KIRISH

Bugungi kunda respublikamiz aholisining soni kabi demografik ko‘rsatkichlarimiz yuqori sur’atlarda o‘sayotgan bir paytda aholiga ekologik toza, sifatli, hamda arzon go‘sht va go‘sht mahsulotlari hamda sut va sut mahsulotlari yetkazib berish nafaqat tadbirkorlar balki biz veterinarlar oldida turgan yuksak vazifadir.

Hozirgi paytdagi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra respublika miqyosidagi chorvaning 84% qismi aholida 16% ga yaqin qismi esa xususiy yoki davlat chorvachilik komplekslari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shunday ekan yaylovlar sharoitida boqiladigan, aholi qaramog‘i va chorvachilik fermer xo‘jaliklarida boqiladigan qishloq xo‘jaligi hayvonlari

ko‘pincha o‘zida alkaloidlar, glikozidlar, organik kislotalar, glikoalkaloidlar va shunga o‘xshash zaharli moddalar saqlaydigan o‘simliklarni iste’mol qilishi natijasida zaharlanishlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ushbu soha toksikologiyaning bir bo‘limi sifatida chorvachilikni boshqa tarmoqlari bilan birgalikda bir maqsad ya’ni biologik xavfsiz, ekologik toza, sifatli, organizm uchun bezarar oziq-ovqat hamda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun ham soha mutasaddilari bir qator qonun va qonun osti hujjatlari, muhtaram Prezidentimizning qator qaror hamda farmonlari ushbu sohaning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi 538-sonli “Yaylovlar to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi 543-I-sonli qonunning 7.9.14.16-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan “Ayrim turdagi yovvoyi o‘simliklarning tarqalishi va ularni miqdorini tartibga solish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 18-noyabrdagi 912-sonli qarorida “Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatib o‘tilgan. Yuqoridagi qonun va qarorlar sohani naqadar muhim ekanligi hamda mavzuning nechog‘lik dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Respublikamiz florasi foydali, shifobaxsh o‘simliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuning bilan bir qatorda zaharli o‘simliklar ham yaylovlarimizda, daryo va zovurlar yoqalari, adir hamda tog‘larda, hatto cho‘l kabi mintaqalarimizda ham keng tarqalgan. Shuning uchun ham yaylovlar sharoitida qoramollar, otlar ayniqsa qo‘ylar ko‘proq va qolaversa ayrim hollarda parrandalar ham zaharlanadi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi Zaharli o‘simliklar va ular tarkibidagi toksik zaharlovchi moddalarni va ularni zaharli moddalarini turli hayvonlarda o‘rgangan olimlardan F.I.Gizze, A.M.Vilner, A.K.Golostinskiy, J.Medijskiy, A.P.Arixov, I.A.Gusnin, N.S.Kojemyakin, P.D.Yevdikimova, V.M.Minervin, N.S.Xoroshev, A.M.Gushin, E.V.Nikitina, A.K.Dudar, L.M.Krechetovich. O‘zbekistonlik olimlardan S.Yu.Yunusov, M.S.Yunusov, S.Sodiqov, X.Z.Ibragimov, D.A.Tovmasyan, A.Abdukarimovlar qishloq xo‘jaligi hayvonlarida quyidagi fitotoksinlar bilan zaharlanish hollari kuzatiladi. Bularga alkaloidlar, glikozidlar, organik kislotalar, terpen moylari va steroidlar, glikoalkaloidlar, sianoglikozidlar, toksaalbuminlar, efir moylari, oksalat kislota unumlari, smolalar, va laktonlar kabi zaharlovchi moddalar saqlaydi.

Tadqiqot maqsadi

Mamlakatimizning turli hudud yaylovlarida tarqalgan zaharli o‘simliklar o‘rganish, shuning bilan birgalikda ushbu zaharli hayvonlarning veterinariya va chorvachilik tarmoqlariga keltiradigan zararini aniqlash va bartaraf etish usullari va zaharlanishlarni samarali davolash usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari

Geografik ekspeditsion, biologik (botanik taqqoslash), sistematik,

Tadqiqot obyekti va joyi

Dastlabki tadqiqotlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati va unga yaqin tumanlar Zangiota, Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent, Yangiyo‘l, G‘azalkent tumanlari shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari yaylov hududlarida olib borildi

TADQIQOT NATIJALARI

1-jadval. Yaylovlarimizda tarqalgan turli zaharli moddalarni o‘zida saqlagan eng keng va ko‘p tarqalgan o‘simliklar

№	O‘simlik nomi	O‘simlikning tarqalishi, o‘simlikning botanik ma’lumotlari, o‘simlikning rasmi
1	Conium maculatum L	 **Tarqalishi:** Yevropaning barcha hududlarida (shimoliy chekka qismlaridan tashqari), Kavkazda, Markaziy, Kichik va Old Osiyoda, Qozog‘istonda, Janubiy Sibir hududlarida, Xitoyda, Shimoliy Afrikada tarqalgan; begona o‘simlik sifatida Uzoq Sharqda va Shimoliy Amerikada ham uchraydi. **Ilmiy nomi:** Conium maculatum L. **Oilasi:** Soyabonguldoshlar (Apiaceae). **Hayot shakli:** Ikki yillik (monokarpik) o‘t o‘simlik. **Ildizi:** O‘q ildizli, uzun, oqish rangli. **Poyasi:** 100–150 sm gacha, ichi bo‘sh, silliq, yumaloq, yashil rangli, qizg‘ish-binafsha dog‘lar bilan qoplangan, yuqori qismida shoxlangan. **Barglari:** Uchburchaksimon shaklda, 3–4 marta patsimon bo‘lingan, bo‘laklari lansetsimon, uchlari o‘tkir, yashil rangli. **Gullari:** Mayda, oq rangli, murakkab soyabon shaklida, umumiy qo‘rg‘on bargchalari yo‘q yoki juda kichik. **Mevasi:** Ikki urug‘li merikarpiy, uzunligi 2,5–3,5 mm, kulrang, 5 ta biroz bo‘rtib chiqqan to‘lqinsimon qirrali. **Hidi:** Ezilganda o‘tkir, yoqimsiz “sichqon hidi”ga o‘xshash. **Gullash davri:** May – iyul. Meva yetilishi: Iyul – avgust. **Ekologiyasi:** Yo‘l bo‘ylari, chiqindi maydonlar, bo‘sh joylar, devorlar yonida, bog‘lar, o‘rmon chetlari, tap-tayyor yaylovlarda o‘sadi. **Ko‘payishi:** Faqat urug‘ bilan. Bir o‘simlik 10 000–15 000 gacha urug‘ beradi. Urug‘lar tuproqda qishlab, bahorda unadi. **Kimyoviy tarkibi:** Alkaloidlar: coniine, coniceine, conhydrine, pseudoconhydrine, methylconiine. Ularning asosiy ta’siri – markaziy nerv tizimini falajlash. **Zaharlilik xususiyati:** Juda zaharli o‘simlik. Inson va hayvonlarda mushaklar falajini va nafasning to‘xtashini chaqirishi mumkin. Ayniqsa bolalar uni petrushka yoki sabzi bilan adashtirib yeyishi xavfli. Quritilganda zaharliligi qisman kamayadi.

2	**Ranunculus sceleratus L**	 **Tarqalishi:** Nam joylarni yaxshi ko‘radi — ko‘l, ariqlar bo‘yi, botqoqliklar, nam o‘tloqlarda uchraydi. Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Shimoliy Afrika hududlarida tarqalgan. **Ilmiy nomi:** Ranunculus sceleratus L. **Oilasi:** Lyutikdoshlar (Ranunculaceae) **Hayot shakli:** Bir yillik o‘t o‘simlik. **Ildizi:** Mayda tolali ildiz tizimiga ega. **Poyasi:** 50 sm gacha balandlikda, shoxlanmagan yoki biroz shoxlangan, ichi bo‘sh, suvli shilimshiqsimon. **Barglari:** Tuksiz, uzun bandli, plastinkalari chuqur bo‘lingan yoki uch bargchaga ajralgan, sershira. **Gullari:** Mayda, diametri 5–10 mm, sarg‘ish rangli, 5 yoki undan kam bargchali, kubchalari tashqariga qayrilgan. **Mevasi:** Yong‘oqcha (acheniy), bir nechta urug‘dan tashkil topgan to‘plam. **Fenologiyasi: Gullash davri:** May – avgust. **Meva yetilishi:** Iyul – sentyabr. **Ekologiyasi:** Asosan nam yerlarda, ko‘l va ariqlar bo‘yida, botqoqliklarda, nam o‘tloqlarda o‘sadi. Namlikni yaxshi ko‘radi. **Ko‘payishi:** Urug‘ bilan ko‘payadi. **Kimyoviy tarkibi:** Asosiy zaharli modda — protoanemonin (2–2,5 % gacha). **Zaharlilik xususiyati:** O‘simlikning barcha qismlari zaharli. Barglari ezilganda terida yaralar, pufakchalar paydo qiladi. Iste’mol qilinganda og‘iz bo‘shlig‘i va oshqozon-ichak shilliq pardalarini kuchli tirnash xususiyati bilan ta’sirlaydi, og‘riq va kuydiruvchi sezgi chaqiradi.
3	**Euphorbia peplus L**	 **Tarqalishi:** O‘rta Yer dengizi mintaqasi, Yevropa, G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikada tabiiy holda o‘sadi. Introduktsiyalangan hududlar: Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya va boshqa mintaqalarda begona o‘t sifatida uchraydi. **Ilmiy nomi:** Euphorbia peplus L. **Oila:** Euphorbiaceae (Sut o‘tlar oilasi) Sinonimlari: Kichik sut o‘ti, petty spurge (inglizcha) **Hayot shakli:** Bir yillik o‘t. Balandligi: 5–30 sm (ba’zan 50 sm gacha). **Poyasi:** Silliq, tuksiz, tik, ko‘pincha novdali. **Barglari:** Bandli, tuxumsimon-uchli (oval), uzunligi 1–3 sm, cheti butun, tuksiz.
3	**Euphorbia peplus L**	**Gullari:** Juda kichik, yashil rangda, uch shoxli soyaboncha shaklida joylashgan. **Bezchalari:** Buyraksimon shaklda, uzun ingichka “shoxcha”ga o‘xshash qo‘shimchasi bor. **Mevasi:** Yong‘oqcha (achene), urug‘larining uzunligi 1–1.6 mm, yuzasi chuqurchali. **Fenologiya: Gullash davri:** Bahor – yoz mavsumida. **Urug‘lanish:** Urug‘ bilan ko‘payadi, tez tarqaladi. **Ekologiyasi:** Bog‘lar, ekin maydonlari, yo‘l chetlari, buzilgan tuproqlar va namroq joylarda o‘sadi. Bog‘lar, ekin maydonlari, yo‘l chetlari, buzilgan tuproqlar va namroq joylarda o‘sadi. **Kimyoviy tarkibi va ahamiyati:** Shirasida ingenol mebutate kabi diterpen esterlar bor. **Zaharlilik xususiyati:** Xom holatda o‘simlikning shira va barcha qismlari tirnash xususiyatiga ega, teriga tegsa yallig‘lanish va kuyish keltirib chiqaradi.

4	**Sinapis arvensis L**	 **Tarqalishi:** Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrikada keng tarqalgan. Introduktsiyalangan hududlar Shimoliy Amerika, Avstraliya va boshqa mintaqalarda uchraydi. **Ilmiy nomi:** Sinapis arvensis L. **Oila:** Brassicaceae (Karamdoshlar, krestguldoshlar oilasi) **Sinonimlari:** Yovvoyi xantal, charlock mustard, field mustard. **Hayot shakli:** Bir yillik (ba'zan ikki yillik) o't. Balandligi: 30–80 sm (ba'zi hollarda 1 m gacha). **Ildizi:** O'q ildiz tirimli (asosiy ildiz chuqur ketadi). **Poyasi:** Tik, ko'pincha shoxlangan, qisman tukli. **Barglari:** Pastki barglari katta, pat-pat shaklida bo'lingan, o'rtadagi bo'lagi yirikroq, chetlari tishsimon. Yuqori barglari cho'zilgan, kichikroq va cheti butun yoki kam tishsimon. **Gullari:** To'pgul — cho'zilgan shingil yoki g'unchasimon. Gulbarglari to'rtta, yorqin sariq, xochsimon joylashgan. Changchilari oltita **Mevasi:** Uchma — uzun, ingichka qo'shqanotli meva (2–4 sm), uchida tumshuqsimon o'simta bor. **Urug'lari:** Dumaloq, jigarrang yoki to'q rangli, ko'p miqdorda hosil bo'ladi. **Gullash davri:** May – iyul. Mevasini pishish vaqti Iyul – avgust. **Ekologiyasi:** Dalalar, yo'l chetlari, bo'sh yotgan yerlar, g'alla ekinlarida begona o't sifatida; unumdor va yorug' tuproqlarda yaxshi o'sadi. **Fitotoksikligi:** Urug'lari va yosh poyalari glikozidlar (masalan, sinalbin) saqlaydi, ko'p miqdorda yeyilganda chorva mollari zaharlanishi mumkin.
5	**Trifolium repens L**	 **Tarqalishi:** Yevropa va G'arbiy Osiyoda tabiiy. Introduktsiyalangan hududlar: Butun dunyoda ekin sifatida tarqalgan. **Ilmiy nomi:** Trifolium repens L. **Oila:** Fabaceae (Dukkaklilar) Sinonimlari Oq beda, oq yong'ichqa, white clover (ing). **Hayot shakli:** Ko'p yillik (perennial) o't. **Ildiz tizimi:** Ildizi kalta, ammo poyasi yer ustida yotib ildiz otadi va zich poya to'shagini hosil qiladi. **Poyasi:** Yer ustida sudraluvchi (poya), bo'g'imlarida yangi ildizlar hosil qiladi. **Barglari:** Uch bargli (trifoliat), bandli. Barg plastinkasi yumaloq yoki tuxumsimon, ko'pincha o'rtasida oqsimon "V" belgisi shaklida bo'ladi. **Gullari:** Gullari oq (ba'zan biroz pushti rangli). To'pgul — sharsimon boshchalar shaklida (2–3 sm diametrli). Har bir gulchada 40–80 ta gul bo'ladi. Gul kosachasi naychasimon, gulbarglari papilionatsiya (dukkaklilarga xos "kapalak"simon). **Mevasi:** Qisqa, ko'p urug'li dukkak. Urug'i: Mayda, sariq yoki och jigarrang. **Ko'payishi:** Vegetativ (poyalari orqali) va urug' bilan. **Gullash davri:** May – sentabr. **Ekologiyasi:** Yaylovlar, pichanzorlar, yo'l chetlari, o'rmon chekkalari, maysazorlar va nam, unumdor tuproqli joylar. **Zaharlilik xususiyati:** Azotni bog'laydi (ildizlaridagi rizoid bakteriyalar orqali tuproqni azot bilan boyitadi). Nitrit va nitratni hamda fitoporfirinlar parchalanishi qiyin bo'lgan zaharli moddalar ko'p saqlaydi.

6	**Heliotropium europaeum.L**	 **Tarqalishi:** O‘rta Yer dengizi mintaqasi, Yevropa, G‘arbiy Osiyo, Shimoliy Afrika. Introduktsiya Avstraliya, Amerika, Janubiy Afrika va boshqa hududlarda begona o‘t sifatida uchraydi. **Ilmiy nomi:** Heliotropium europaeum L. **Oila:** Boraginaceae (G‘ozpanja/guruchgul yoki burachnikdoshlar oilasi) Sinonimlari: Yevropa heliotropi, common heliotrope (ing.), European turnsole. **Hayot shakli:** Bir yillik o‘t. Odatda 10–40 sm. **Ildiz tizimi:** Shtab ildiz (asosiy ildiz). **Poyasi:** Ko‘pincha tik, poyasi va barglari kulrang-yashil, zich mayda tuk bilan qoplangan. **Barglari:** Joylashishi — navbatma-navbat joylashgan. Shakli — tuxumsimon-uzunchoq,
6	**Heliotropium europaeum.L**	uzunligi 2–5 sm. Tomirlari aniq ko‘rinadi, yuzasi biroz burishgan. **Gullari:** Mayda, oq rangli, 3–4 mm diametrda. To‘pgul — g‘altaksimon, heliotropga xos “burama” shaklida. Gul kosachasi besh bo‘lakli, gul toj beshbargli. **Mevasi:** To‘rt bo‘lakka ajraladigan quruq meva , har birida 1 urug‘dan. **Gullash davri:** Iyun – sentabr. Mevasi pishish: Iyul – oktyabr. **Ekologiyasi:** Quruq dalalar, yaylovlar, yo‘l chetlari, buzilgan tuproqlar, quyoshli ochiq joylar. Ko‘plab mamlakatlarda zararli begona o‘t sifatida tanilgan. **Zaharlilik xususiyati**: O‘simlik tarkibida pirrolizidin alkaloidlari (heliotrine, lasiocarpine va boshqalar) mavjud — chorva hayvonlari ko‘p miqdorda iste’mol qilganda jigar shikastlanishi va hatto o‘limga olib kelishi mumkin.
7	**Convolvulus arvensis L**	 **Tarqalishi:** Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika. Introduktsiya Shimoliy va Janubiy Amerikada, Avstraliyada begona o‘t sifatida keng tarqalgan. **Ilmiy nomi:** Convolvulus arvensis L. **Oila:** Convolvulaceae (Ipakkuldoshlar oilasi) Mahalliy nomlari Dala qumg‘oni, ipakka, bindweed (inglizcha). **Hayot shakli:** Ko‘p yillik chirmashib o‘suvchi o‘t (liana-simon). Balandligi: Poyasi yer bo‘ylab sudraladi yoki boshqa o‘simliklarga o‘ralib chiqadi, uzunligi 0,5–2 m gacha. **Ildiz tizimi:** Juda chuqur kiruvchi va kuchli rivojlangan asosiy ildiz tizimiga ega (6 m gacha chuqurlikka borishi mumkin). Ko‘plab yon ildiz va ildiz bachkilari (vegetativ ko‘payish manbai). **Poyasi:** Ingichka, chirmashuvchi, tuksiz yoki ozgina tukli. **Barglari:** Navbatma-navbat joylashgan, uzunchoq-yuraksimon yoki nayzasimon. Uchi o‘tkir, poyaga band bilan birikkan. Barg uzunligi 2–5 sm. **Gullari:** Yirik, oq yoki och pushti, grammofon shaklida (voronkali). Gullari yakka-yakka yoki juft holda, bandli. Toj barglari birikkan, kosachasi 5 bo‘lakli. **Mevasi:** Sferik kapsula, 2–4 urug‘li. Urug‘lari jigarrang, uchburchaksimon. **Ekologiyasi:** Dalalar, bog‘lar, yo‘l chetlari, yaylovlar, ochiq yerlarda uchraydi. Quyoshli va yarim soyali joylarni yaxshi ko‘radi. Juda agressiv begona o‘t. Kuchli ildiz tizimi tufayli yo‘qotish qiyin. Don, sabzavot, poliz ekinlari hosildorligini kamaytiradi. Kimyoviy kurash vositalariga nisbatan nisbatan chidamli. Ba’zi joylarda tuproqni mustahkamlash uchun foydalaniladi. **Zaharlilik xususiyati**: O‘simlik tarkibida qatronlar, tannin, glikozidlar, efir moylari, organik kislotalar va boshqa moddalar) mavjud
7		- chorva hayvonlari ko‘p miqdorda iste’mol qilganda jigar shikastlanishi va hatto o‘limga olib kelishi mumkin.

8	**Polygonum persicaria L**	 **Tarqalishi:** Yevropa, Osiyo (jumladan, O‘zbekiston), Shimoliy Afrika. Introduktsiya Shimoliy Amerika va boshqa hududlarda begona o‘t sifatida keng tarqalgan. **Ilmiy no mi:** Polygonum persicaria L. Sinonim Persicaria maculosa — hozirgi ko‘p ishlatiladigan nom. **Oila:** Polygonaceae (Turonguldoshlar oilasi) Mahalliy nomlari: Qizil no‘xat, suv turonguli, "lady’s thumb" (inglizcha). **Hayot shakli:** Bir yillik o‘t. Balandligi: 20–80 sm (ba’zan 1 m gacha). **Ildiz tizimi:** Mayda, tolalangan ildiz. **Poyasi:** Tik yoki yotib o‘suvchi, tuksiz yoki ozgina tukli, ko‘pincha qizg‘ish rangli. **Barglari:** Joylashishi — navbatma-navbat. Shakli — uzunchoq, lansetsimon, uchli, ba’zida barg plastinkasida to‘q dog‘ bo‘ladi (shuning uchun “lady’s thumb” nomi berilgan). Uzunligi 4–12 sm. Bandining asosida o‘ziga xos ochrea (yupqa, qo‘ng‘ir parda shaklida qopqoq) bor — bu turonguldoshlar oilasiga xos belgi. **Gullari:** To‘pgul — silindrsimon boshoqsimon, ixcham va cho‘qqida joylashgan. Gullari mayda, pushti yoki qizil, ba’zan oq rangli. **Mevasi:** Uch qirrali, silliq, yaltiroq achene (yakka urug‘li quruq meva). **Gullash davri:** Iyun – sentabr. Mevasi pishish: Iyul – oktyabr. **Ekologiya:** Namli joylar — ariq bo‘ylarida, suv havzalari atrofida, dalalarda, yo‘l chetlarida, nam maysazorlarda o‘sadi. Ko‘p joyda dalalarda begona o‘t hisoblanadi, ayniqsa sug‘oriladigan yerlarda tez tarqaladi. Don ekinlari va sabzavotlar hosiliga zarar yetkazishi mumkin. **Zaharlilik xususiyatlari:** Achchiq glikozidlardan meniantin, loganin, sverozid, foliamentin, alkaloidlardan gensianin, flavonoidlardan rutin, giperozid, oshlovchi moddalar bor.
9	**Ceratocephalis.orthoceras L**	 **Tarqalishi:** Yevropa, G‘arbiy va Markaziy Osiyo, Kavkaz, O‘rta yer dengizi hududi. **Ilmiy nomi:** Ceratocephala orthoceras L. Sinonimlari Ceratocephala testiculata (Crantz) Roth. **Oila:** Ranunculaceae (Ayiqtovondoshlar oilasi) **Hayot shakli:** Bir yillik o‘t. Balandligi 2–15 sm (juda past bo‘yli o‘simlik). **Ildiz tizimi:** Mayda, asosiy ildiz va yon ildizchalardan iborat. Poyasi: Yotib o‘suvchi yoki ko‘tarilib o‘suvchi, ko‘pincha tuksiz yoki juda mayda tukli.
9	**Ceratocephalis.orthoceras L**	**Barglari:** Joylashishi — poyada navbatma-navbat. Shakli - chuqur bo‘lingan, uchlari ingichka, 3–5 bo‘lakli. Yashil yoki kulrang-yashil rangda. **Gullari:** Mayda, diametri 4–8 mm. Toji oltin-sariq, odatda 5 bargli. Kosachabarglari yashil, odatda ichkariga egilgan. **Mevasi:** Shoxsimon (rogach) shaklli achene — bu uning eng muhim ajratuvchi belgisi. Mevalari guruh bo‘lib, bir boshcha hosil qiladi. **Gullash davri:** Mart – may (erta bahorda). Mevasi pishish: May –iyun. **Ekologiya:** Quruq ochiq yerlarda, yaylovlarda, toshloq yerlarda, yo‘l chetlarida, ba’zan tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Ko‘proq qurg‘oqchil va quyoshli joylarni yaxshi ko‘radi. Ayrim hududlarda mayda, ammo zaharli begona o‘t sifatida qaraladi. **Zaharli xususiyati:** Ayiqtovondoshlar oilasiga xos ravishda glikozidlar va boshqa toksik moddalar bor, chorva mollari ko‘p miqdorda iste’mol qilganda zaharlanishi mumkin.

10	Raphanus raphanistrum L	**Tarqalishi:** Yevropa, Osiyo, Shimoliy Afrika. Introduktsiya: Shimoliy va Janubiy Amerikada, Avstraliyada begona o‘t sifatida uchraydi. **Ilmiy nomi:** Raphanus raphanistrum L. **Oila:** Brassicaceae (Krestguldoshlar karamdoshlar oilasi) Mahalliy nomlari Yovvoyi rediska, wild radish (inglizcha). **Hayot shakli:** Bir yoki ikki yillik o‘t. Balandligi: 20–80 sm, ba’zida 1 m gacha. **Ildiz tizimi:** Shtab ildiz, ingichka, madaniy rediska kabi shishmagan. **Poyasi:** Tik yoki ko‘tarilib o‘suvchi, ko‘pincha tuksiz yoki mayda tukli, shoxlangan.  **Barglari:** Pastki barglari — katta, patpoya bo‘lingan, oxirgi bo‘lagi yirikroq. Yuqori barglari — maydaroq, uzunasiga cho‘zilgan, ba’zan butun qirrali. **Gullari:** To‘pgul — shingil yoki kalta boshoqsimon. Toji 4 ta, ranglari oq, och sariq, pushti yoki binafsha, ko‘pincha tomirlar aniq ko‘rinadi. Xochsimon joylashgan, krestguldoshlarga xos. **Mevasi:** Silikula (urug‘li meva) o‘ziga xos — bo‘rtma, bo‘g‘imli, pishgach bo‘g‘inlardan sinadi. Har bo‘g‘inda bitta **Gullash davri:** May – sentabr. Mevasi pishish: Iyun – oktyabr. **Ekologiyasi:** Dalalar, yo‘l chetlari, yaylovlar, buzilgan yerlarda, sug‘oriladigan maydonlarda keng tarqalgan. Don, sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarida zararli begona o‘t. Kuchli raqobat qilib hosildorlikni kamaytiradi. Ayrim joylarda pichan tarkibiga kirsa, hayvonlarga achchiq ta’m beradi.
10		**Zaharlilik xususiyatlari:** Turli o‘tlar pichani orqali organizmga tushadi. O‘simlik tarkibida achchiq glikozidlar, ramno-katartin organik kislotalar glikoalkaloidlar saqlaydi.

XULOSALAR

Respublikamiz yaylovlarida tarqalgan quydagi turkumlarga mansub tur o‘simliklarning zaharli ekanligi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi. Conium maculatum L., Ranunculus sceleratus L., Euphorbia peplus L., Sinapis arvensis L., Trifolium repens L., Heliotropium europaeum L., Convolvulus arvensis L., Polygonum persicaria L., Ceratocephala orthoceras L., Raphanus raphanistrum L. kabi turkum vakillarining toksik xususiyatlari adabiyot ma’lumotlari va ensiklopedik lug‘at ma’lumotlariga ko‘ra hamda Toshkent viloyatining bir qancha tumanlarining yaylov hududi mavjudligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Арестова И.Г. “Ветеринария токсикология”. Минск: Урожай, 2000.
2. Бакиров Б. “Хайвонлар касалликлари”. Самарканд, 2019.
3. Вильнер А.М. “Кормовые отравления сельскохозяйственных животных”. Ленинград, 1966.
4. Голоснитский А.К. “Профилактика отравлений животных растительными ядами”. Москва, 1979.
5. Гусынин И.А. “Захарли усимликлар токсикологияси” (монография). Москва, 1962.
6. Ибрагимов Х.З., Хабиев М.З., Бабаев П.Б., Товмасян Д.А. “Растительные токсикозы сельскохозяйственных животных Узбекистана”. Тошкент, 1979.
7. Иванов А.Л. Определитель растений Средней Азии. Том 4. Л.: Наука, 1968. – 520 с.
8. Комаров В.Л. (ред.) Флора СССР. Том 8, 15, 17. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939–1941.
9. Машковский М.Д. Лекарственные средства. I–II том. 1977–1983.

10. Никитина Э.В. “Киргизистон СССР яйловларидаги захарли, захарли ейилмайдиган ўсимликлари”. 1959 й.
11. Привалова Е.Г., Мирович Б.М. “Основы фитотоксикологий: обзор растительных объектов. Элементы фитохимического анализа.” Иркутск, 2018.
12. Захаренко Г.М. Ботаника. Высшие растения. Москва: Академия, 2003. – 400 с.
13. Abu Ali Ibn Sino. “Tib qonunlari” I–V tom. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2020.
14. Abdullayeva N., Teshaboyev N., Kisel N. “O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobi” I jild. Toshkent, 2016.
15. Flora Europaea. Cambridge University Press, 1993. (Volumes on Apiaceae, Brassicaceae, Polygonaceae, Fabaceae).
16. Hamidov A., Nabiyev M., Odilov T. “O‘zbekiston o‘simliklar aniqlagichi”. Toshkent, 1987.
17. Jo‘rayev A. “Begona o‘tlar va ularga qarshi kurash”. Toshkent: Mehnat, 2004. – 280 b.
18. Komiljonov K., Zarifov H., Aslonova M. “Sanoatlashgan hududlardagi korxonalarning atrof muhitga ko‘rsatadigan zararli ta’sirlarini tahlil qilish.” UXeXc, 58.
19. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2005.
20. Plants of the World Online (Kew Science): https://powo.science.kew.org
21. Qo‘ldoshov O. O., Zarifov H. R., Qadirberganov B. G., Aslonova M. A. “Yaylovlar sharoitida qo‘ylarning fitotoksinlar bilan zaharlanishi, zaharlangan qo‘y go‘shtini vetsanekspertiza choralari.” UXeXc, 53.
22. To‘xtayev T., Karimov U. Botanika: Darslik. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 360 b.
23. USDA Plants Database: https://plants.usda.gov
24. Xolmatov X. O‘zbekiston florasi: Dala va begona o‘tlar. Toshkent: Fan, 1997. – 290 b.
25. Zarifov H. R., Aslonova M. A., Mixliyeva F. F., To‘raboyev N. J. (2024). CH Vitasal preparatini buzoqlarning o‘sish va rivojlanishiga ta’siri.* Fan va innovatsiyalar, 3 (Maxsus 47-son), 547–551.
26. Zarifov H. R., Aslonova M. A., Mixliyeva F. F., To‘raboyev N. J. (2024). Superamino-C vitaminli ozuqaviy qo‘shimchasini buzoqlarning o‘sish va rivojlanishiga ta’siri. Fan va innovatsiyalar, 3 (Maxsus 47-son), 542–546.
27. Internet saytlari:
    www.vetmed.uz
    www.lex.uz
    www.ziyonet.uz
    www.wikipedia.org
    www.arxiv.uz

UDK:619.576.895.751.614.449.57

SINBOVIL PASHSHALARGA QARSHI BIOINSEKTITSID PREPARATINING SAMARASI

Ismoilov Adxam Shuxratovich
v.f.f.d. katta ilmiy xodim

https://doi.org/10.5281/zenodo.17801366

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jalik hayvonlarining ekto va endoparazitlariga qarshi loyiha doirasida ishlab chiqarilgan “Bioinsektitsid” preparatining sinbovil pashshalariga qarshi ta’sir samarasi laboratoriya sharoitida o‘rganilganligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Hasharot, ektoparazit, pashsha, bakteriya, spora, preparat, insektitsid, Bioinsektitsid, dezinseksiya.

THE EFFECTIVENESS OF THE BIOINSECTICIDE SINBOVIL AGAINST MOSQUITOES

Abstract: This article describes the laboratory study of the effectiveness of the drug "Bioinsecticide" against the cynbovil fly, developed within the framework of the project against ecto- and endoparasites of farm animals.

Keywords: Insect, ectoparasite, fly, bacteria, spore, drug, insecticide, Bioinsecticide, disinsection.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ БИОИНСЕКТИЦИДА СИНБОВИЛ ПРОТИВ КОМАРОВ

Аннотация: В данной статье описывается лабораторное исследование эффективности препарата «Биоинсектицид» против мухи-цинбовилы, разработанного в рамках проекта по борьбе с экто- и эндопаразитами сельскохозяйственных животных.

Ключевые слова: Насекомое, эктопаразит, муха, бактерии, спора, препарат, инсектицид, биоинсектицид, дезинсекция.

KIRISH

Pashshalar - bu turkumdagi kalta mo‘ylovli hasharotlarning eng yuqori uyushgan vakillari hisoblanadi. Zoofil pashshalar – bu chorvachilik binolarida, omborxonalarda va yaylovlarda uy hayvonlari bilan biotsenotik (trofik, topikal, forik) aloqaga ega hasharotlardir [2].

Zoofil pashshalar chorvachilikda jiddiy muammo bo‘lib, ko‘plab yuqumli va invazion kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarining tashuvchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, ularning lichinka yoshidagilari ham kasallik keltirib chiqaradi. Pashshalar o‘ziga xos zaif tuzilgan bo‘lsada, ular qoramollarga katta zarar keltiradi. Ushbu zoofil pashshalarning 120 dan ortiq turlari hayvonlar bilan bevosita aloqada. Ulardan 92 tasi yaylovlarda, 57 tasi sigirxonalarda, 48 tasi cho‘chqaxonalarda va 27 tasi otxonalarda uchraydi. Eng zararli pashshalarning 30 turi (otlarda 5 turi, qon so‘ruvchi pashshalarning 4 turi, yaylov pashshalarining 16 turi va hayvonlarda miaz kasalligini qo‘zg‘atuvchi pashshalarning 5 turi) uchraydi [5, 6].

Pashshalarning chorva mollariga yetkazadigan zarari juda katta bo‘lib, yaylov mavsumi davomida zoofil pashshalarning turli xil ekologik va taksonomik guruhlari vaqti-vaqti bilan parazitlik qilib, bir-birini almashtirib, kun va mavsum davomida hayvonlarni doimo bezovta qilib turadi. Zoofil pashshalarining hayvonlarga hujum qilish natijasida ularning go‘sht, sut, jun va

boshqa mahsuldorligining pasayishiga olib keladi, tovuqlarda tuxum qo‘yish kamayadi, maral (kiyik)larning teri xom ashyosi va shoxining sifati pasayadi [3].

Pashshalar shahar va qishloqlarda odamlar va hayvonlarni kuchli bezovta qiladigan tur hisoblanadi va butun dunyo bo‘ylab kasallik va o‘limning eng muhim vector tashuvchilaridan biri hisoblanadi [7].

Laboratoriya sharoitida permetrin va uning asosidagi insektitsidlar pashshalarga qarshi 99-100% samaradorlikni 50 mg dan 100 mg/m^2 gacha bo‘lgan dozalarda 45-98 kun va undan ko‘proq qoldiq tasirni saqlab qolishi aniqlangan [1].

Shu sababli sinbovil pashshalarga qarshi kurashda mahalliy biologik preparatlarni qo‘llash muhim hisoblanadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida Bacillus megateriumning 4616 ta shtammi ajratilgan hamda J.B.Jespersen, J.Keiding lar tomonidan Bacillus thuringiensis shtammi o‘zidan 2 xil toksin delta-endo va beta-ekzotoksin ishlab chiqarishini aniqlashgan (2000). Hasharotlar toksin kristallarini iste’mol qilganda, ularning ishqoriy ovqat hazm qilish trakti erimaydigan kristallarni denatüratsiya qiladi, bu ularni eruvchan qiladi va bu esa kristaldan toksinni chiqaradi. Keyin toksin hasharotlar ichak hujayra membranasiga kiritilib, ovqat hazm qilish traktini falaj qiladi va teshik hosil qiladi. Hasharot ovqat eyishni to'xtatadi va bir necha soat yoki hafta ichida o‘ladi [8].

O‘zbekistonda 1966 yildan buyon VITI Araxnoentomologiya laboratoriyasida (A.Ro‘zimurodov, D.Vaxidova, S.Mavlonov va bsh.) qon so‘ruvchi hasharot va kanalarga qarshi biologik kurash usullari o‘rganilib kelinmoqda. Natijada Bacillus thuringiensis var.Thuringiensis O‘zVITI M №1 bakteriya shtammi Musca domestica vicina Mcq. (uy chivini) ning mahalliy populyatsiyasi lichinkasidan ajratilgan va Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti mikroorganizmlar kolleksiyasiga №1 registratsiya raqami bilan kiritilgan. Lekin ushbu ajratib olingan shtammning parazit va transmissiv kasallik tarqatuvchilariga nisbatan insektoakaritsid samaradorligi yetarli darajada o‘rganilmagan [4].

Ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida mahalliy chorvachilik xo‘jaliklariga jiddiy zarar yetkazayotgan sinbovil va zoofil pashshalarga qarshi “Bioinsektitsid” preparatini sinab ta’sir samarasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Sinbovil chivinlarga qarshi mahalliy “Bioinsektitsid” preparatining ta’sir samarasini laboratoriya sharoitida o‘rganishdan iborat.

TADQIQOT NATIJALARI

Ilmiy tadqiqot ishlari 2023-2024 yillar davomida Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Araxnoentomologiya va akarologiya hamda Mikrobiologiya laboratoriyalarida olib borildi.

Hozirgi paytda chorva mollarining dominant parazitlar populyatsiyalariga qarshi kurashda chetdan keltirilayotgan va o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan yangi piretroid va fitoasosli insektitsid preparatlardan keng foydalanilmoqda. Shularni hisobga olib toksikologik xususiyatlari yaxshi o‘rganilgan va kanserogen, mutagen, embriotoksik xususiyatlari bo‘lmagan mahalliy yangi biologik preparat “Bioinsektitsid” preparatining parazitotsidlik ta’sirini laboratoriya sharoitida o‘rganib chiqildi.

3 ta maxsus plasmassa idishga mos ravishda filtr qog‘ozi joylashtirilib uning yuzasiga yangi terib olingan 30 nusxadan Musca domesticha pashshalari qo‘yib yuborildi va “Bioinsektitsid” preparatining 0,45 mlrd/ml bakteriya sporasi bilan maxsus uskuna orqali purkash usulida dorilandi va optimal sharoitga, ya’ni +28+30 ^{0}C haroratdagi termostatga saqlab, har 1, 3,

6, 24 soat va 5 kun davomida kuzatish ishlari olib borildi. Natijada 24 soatdan keyin 20% samara berganligi kuzatildi.

“Bioinsektitsid” preparatining 0,9 mlrd/ml bakteriya sporasi esa 30%, 1,35 mlrd/ml bakteriya sporasi 50%, 1,8 mlrd/ml bakteriya sporasi 70%, 2,25 mlrd/ml bakteriya sporasi 80%, 3,6 mlrd/ml bakteriya sporasi 90%, 4,05, 4,5 hamda 9 mlrd/ml bakteriya sporalari 100 % insektitsid samara berishi aniqlandi (1-jadval).

Bunda preparat tarkibidagi sporalar miqdoriga qarab minimal yoki maksimal konsentratsiyalarining O‘K_0 (o‘ldirmaydigan konsentratsiya), O‘K_{50} (50 foiz o‘ldiradigan konsentratsiya) va O‘K_{100} (100 foiz o‘ldiradigan konsentratsiya) ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Jadval 1. Laboratoriya sharoitida «Bioinsektitsid» preparatining turli konsentratsiyalarini insektitsid ta’sirini o‘rganish tajribasi

T.r.	Preparat konsentratsiyasi (mlrd/ml bakteriya sporasi)	Dorilangan hasharotlar soni (nusxa)	O‘lgan hasharotlar soni (nusxa)	Samara (foiz)
1	0,45	30	6	20
2	0,9	30	9	30
3	1,35	30	15	50
4	1,8	30	21	70
5	2,25	30	24	80
6	3,6	30	27	90
7	4,05	30	30	100
8	4,5	30	30	100
9	9,0	30	30	100
10	Nazorat (toza suv bilan ishlov berildi)	30	0	0

Natijada, «Bioinsektitsid» preparatining eng minimal va 100 foiz samara beradigan 4,05 bakteriya sporasi bo‘lgan konsentratsiyalari junxo‘rlarning lichinkasiga nisbatan 2-kuni va 4,5 mlrd/ml bakteriya sporasi bo‘lgan konsentratsiyalari esa imago shakllariga nisbatan 3-kunga borib laboratoriya sharoitida 100 foiz insektitsid samara berishi aniqlandi.

Mahalliy “Bioinsektitsid” biologik preparatining 9,0 mlrd/ml sporali konsentratsiyasi zoofil va sinbovil hasharotlariga qarshi qo‘llanilgandan 48-72 soat o‘tgandan so‘ng insektitsid ta’sir samarasi 100 foizni tashkil etdi.

Nazorat guruhidagi sinbovil pashshalarga toza suv bilan ishlov berildi bunda hasharotlar nobud bo‘lmadi.

XULOSA

Qishloq xo‘jalik hayvonlarining parazitar va transmissiv kasallik tarqatuvchilari ya’ni zoofil va sinbovil pashshalarga qarshi mahalliy Bioinsektitsid preparatining 9,0 mlrd/ml sporali konsentratsiyasi esa yuqori (100 foiz) insektitsid samara berishi aniqlandi.

Bioinsektitsid preparatini veterinariya amaliyotida xavfli ektoparazitlar uchun qo‘llash natijasida hayvonlar mahsuldorligi pasayishining oldi olinadi hamda xavfli parazitar va transmissiv kasalliklardan profilaktika qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аубакиров М.Ж., Мариненко Т.Г., Мамедова Т.М. “К вопросу изучения зоофильных мух в Костанайском регионе”, Наука научно-производственный журнал, № 3, 2013, С. 94-97.
2. Веселкин Г.А. О видовом составе зоофильных мух фауны СССР//Сборник трудов. Зоологический институт АН СССР.-1987.-С.15-17.
3. Жданова О.Б. Токсокароз домашних и диких плотоядных в Кировской области // Мат. докл. к науч. конф. «Современные проблемы ветеринарной медицины» -2004. - С. 34-37.
4. Рўзимуродов А. МавлановС.И., Пулотов Ф.С. Битоксибациллин экто ва эндопаразитларга қарши, Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали № 3, 2001, Б. 52-53
5. Domatskiy V.N., Sivkova E.I., Distribution and management of the zoophilous flies Ukrainian Journal of Ecology, 2021, 11(9), P.- 88-94.
6. Paliy A.P., Sumakova N.V., Paliy A.P., Ishchenko K.V., Biological control of house fly Ukrainian Journal of Ecology, 2018, 8(2), P.- 230-234.
7. Taubes, G. (2000): Searching for a parasite’s weak spot. Science 290, P.- 434–437.
8. J. B. Jespersen., Keiding, J., 2000. Effect of different control strategies on the development of insecticide resistance by houseflies: experience from Danish farms, pp. 623-630, Br. Crop Prot.

UDK:619.616.993.192.615.084.

VETERINARIYA AMALIYOTIDA QORAMOLLAR TEYLERIOZINI ANIQLASHDA GEMATOLOGIK TAHLILNING O‘RNI

N.U.Karimova
katta ilmiy xodim v.f.f.d., Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti
Q.X.G‘oyibnazarov
kichik ilmiy xodim v.f.f.d., Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti
A.G.Gafurov
v.f.d. professor, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17853975

Annotatsiya: Kasallik namunalarining klinik tahlili asosida qizil qon tanachalari (eritrotsitlar) va gemoglobin (HGB) sonining kamayishi qayd etildi. Oq qon tanachalari (leykotsitlar) soni, trombotsitlar soni (PLT) va eritrotsitlar morfologik parametrlarining (MCV, MCh, MChC) kamayishi mikrotsitik va gipoxromik anemiya rivojlanishiga olib keladi. Salom, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, teylerioz qoramollarning qon aylanish va limfa tizimlarida chuqur patologik o'zgarishlarga olib keladi.

Kalit so‘zlar: teylerioz, qoramol, gemotologik ko‘rsatkichlar, eritrotsit, leykotsit, gemoglobin, anemiya, gemopoez, diagnostika.

РОЛЬ ГЕМАТОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ДИАГНОСТИКЕ ТЕЙЛЕРИОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В ВЕТЕРИНАРНОЙ ПРАКТИКЕ

Аннотация: По результатам анализа образцов клинических признаков заболевания отмечено снижение количества эритроцитов (RBC) и гемоглобина (HGB). Снижение числа лейкоцитов (WBC), тромбоцитов (PLT), морфологических показателей эритроцитов (MCV, MCh, MChC) приводит к формированию микроцитарной и гипохромной анемии. Здравствуйте, результаты исследования показали, что заболевание тейлериозом вызывает глубокие патологические изменения в кровеносной и лимфатической системе крупного рогатого скота.

Ключевые слова: тейлериоз, крупный рогатый скот, гематологические показатели, эритроциты, лейкоциты, гемоглобин, анемия, кроветворение, диагностика.

THE ROLE OF HEMATOLOGICAL ANALYSIS IN THE DIAGNOSIS OF BOVINE THEILERIOSIS IN VETERINARY PRACTICE

Abstract: Analysis of clinical disease samples revealed decreased red blood cell (RBC) and hemoglobin (HGB) counts. Decreases in white blood cell (WBC) count, platelet count (PLT), and erythrocyte morphological parameters (MCV, MCh, MChC) lead to the development of microcytic and hypochromic anemia. Hello, the study results showed that theileriosis causes profound pathological changes in the circulatory and lymphatic systems of cattle.

Keywords: theileriosis, cattle, hematological parameters, erythrocyte, leukocyte, hemoglobin, anemia, hemopoiesis, diagnostics.

KIRISH

Respublikamizning barcha hududlarida qoramollarning qon-parazitar kasalliklari, jumladan, teylerioz keng tarqalgan bo‘lib, ushbu kasalliklardan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar kasallangan qoramollarning o‘limi, majburiy so‘yilgan hayvonlarning go‘shti iste’molga yaroqsiz

holga kelishi, sigir sutining iste'molga tavsiya etilmasligi hamda veterinariya-sanitariya tadbirlariga ketgan xarajatlardan iborat bo‘ladi. Shu bois, qoramollarda teylerioz kasalligini diognostikasida gematologik tekshiruvlar o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kasallikga tashxis qo‘yish va vaqtida davolab chiqishga olib keladi.

Maqsad: Qoramollar teylerioz uni diognostika zamonaviy gemoanalizator asosida gematologik tahlil usullarining ahamiyatini baholash, kasallikning gemotologik ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarga ta'sirini aniqlash va kasallikdan davolashda ushbu tahlil natijalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Vazifalar: 1. Teylerioz kasalligining etiologiyasi, epizootologiyasi va patogenezini o‘rganish;

2. Qoramollarda teylerioz kasalligi kechishini klinik belgilari asosida baholash;

3. Teylerioz bilan kasallangan qoramollarda qonning gematologik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash;.

TADQIQOTLAR NATIJASI

Teylerioz bilan kasallangan qoramollarning tana harorati 41-42°C gacha ko‘tarilishi, limfatik tugunlarining 3-4 barobargacha kattalashib ketishi, ishtahasining buzilishi, ovqatdan qolishi, kavshamay qo‘yish, oriqlab ketishi va shilliq pardalari anemiya, infiltratsiyaga uchrashi bilan bir vaqtda ularda qon quyulishlari yuz berishi bilan tavsiflandi. Bunday xolatda organizmda modda almashinuvi hamda gemopoezning buzilishi natijasida intoksikatsiya xolatlari kuzatiladi. (Protozoologiya laboratoryasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida kelib chiqan).

Yuqoridagi klinik ko‘rinishlarga gemotologik ko‘rsatgichlarni ahamyatiga molikliga aniqlik kiritish uchun kasallik qo‘zg‘atuvchi- *Theileria annulata* ning gemopoezga ta'sirini o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etiladi. Har xil geografik iqlim sharoitidan ajratilgan shtammlarning gemopoezga ta'sir qilish xususiyatini o‘rganish bo‘yicha tajribalar ikki guruh qoramollarda o‘rganildi. Tajribadagi qoramollar dastlabki ko‘rikdan o‘tkazilgandan keyin, bo‘yin oblastining terisi ostiga 20 ml dan teylerioz bilan spontan kasallangan qoramoldan olingan qon bilan yuqtirildi. Yuqtirilgan qoramollarda har kuni umumiy axvoli ko‘rikdan o‘tqazib turildi, shu bilan bir vaqtda klinik va parazitologik tekshiruvlar olib borildi va tajribadagi qoramollardan har 3-4 kunda qon olinib, gematologik tekshirishlar o‘tkazildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi 1 va 2-jadvallarga keltirilgan bo‘lib undan ma'lum bo‘lishicha,1-guruh Karmana tumanidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan qoramollarda eritrotsit, leykotsit va gemoglobinni miqdori 2-guruh Navbahor tumanidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan qoramollardagiga nisbatan kam o‘zgarishi namoyon bo‘ldi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida teyleriozning patogenezida intoksikatsiya, gemopoezni buzilishlari, qon aylanishi va lifatik tizimlar faoliyatining buzilishlari yuz berishi va uning natijasida qoramol nobud bo‘lishi kuzatildi. Aynan gemopoezning buzilishi natijasida organizmda eritrotsit, leykotsit va gemoglobin miqdorlarining 2-3 barobar kamayib ketishi, shilliq pardalarda animiya, sariqlik va infiltiratsiya xolatlari yuz berdi.

1-jadval. Teyleriozning kechishida qoramollarda qon ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tkazilgan gematologik tekshiruvlar natijalari

	Ko‘rsatkichlar	Natija			Me'yor bo‘yicha ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi
		Yuqtirishdan oldin	17-kun	Kasallikni kilinik belgilari va parazitar		

				reaksiyasi namoyon bulgan 21-kun		
WBC	Leykotsitlar	16	12	10	4,50-12,50	10^9/l
Lymph %	Limfotsitlar	0,450	0,380	0,300	0,450-0,750	10^9/l
Gran%	O‘rtacha o‘lchamli xujayralar soni	4,9	4,0	3,87	4,9-6,8	10^9/l
Mid%	Granulotsitlar	0,90	0,80	0,75	0,84-2,0	10^9/l
Lymph #	Limfotsitlar foizi	0,450	0,485	0,752	0,450-0,750	%
Gran#	O‘rtacha o‘lchamli xujayralar foizi	0,055	0,045	0,042	0,050-0,065	%
Mid#	Granulotsitlar foizi	0,425	0,375	0,318	0,500-0,800	%
HGB	Gemoglobin	120	98	75	128-147	g/l
RBC	Eritrotsitlar	5,50	4,55	3,78	5.50-7.50	10^{12}/l
HCT	Gematokrit	0,356	0,260	0,230	0,300-0,400	%
MCV	O‘rtacha korpuskulyar hajm	54,0	50,0	48,5	54,0	f/l
MCh	Eritrotsit tarkibidagi gemoglobin miqdori	18,5	15,0	10,0	17,8-32,8	p/g
MSNS	gemoglobinning xujayra konsentratsiyasi	369	340	308	363-393	g/l
RDW-CV	Eritrotsitlarning taqsimlanish koeffitsienti	0,112	0,98	0,080	0,110-0,150	%
RDW-SD	Eritrotsitlar taqsimlanishining standart me’yordan og‘ishi	35,4	29,5	23,6	35,0-36,0	f/l
PLT	Trombotsitlar	300,6	250,5	240,4	260,0-700,0	10^9/l
MPV	Trombotsitlarning o‘rtacha hajmi	6,5	5,2	3,7	6,5-12,0	f/l

PDW	Trombotsitlarning tarqalish kengligi	6,4	4,9	3,0	6,1-7,6	%
PCT	Trombokrit	0,12	0,08	0,05	0,12-0,36	%

Olib borilgan tadqiqotlar davomida teylerioz bilan kasallangan qoramollarda qonning gematologik ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Qoramollarda kasallikning klinik belgilari namoyon bo‘lishi bosqichida (17 va 21-kunlarda) qon namunalar olinib, tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

Eritrotsitlar (RBC) va gemoglobin (HGB) miqdori kasallikning rivojlanishi davomida izchil kamayishi kuzatildi. Bu holat gemopoez jarayonining izdan chiqishi va gemolitik anemiyaning rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

RBC: 5,5 → 4,6 → 3,8 ($\times 10^{12}$/l)

HGB: 120 → 100 → 82 (g/l)

Leykotsitlar (WBC) miqdorining kamayishi, ayniqsa 21-kunda 10 $\times 10^9$/l gacha tushishi, organizmda immunitetning zaiflashganini bildirdi. Bu esa parazitning limfa va qon tizimiga ta’siri kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Trombotsitlar (PLT) miqdori 14 va 21-kunlarda kamayib, 240,7 $\times 10^9$/l gacha tushdi. Bu esa qon ivish tizimi buzilishi va gemorragik sindrom rivojlanish xavfi borligini anglatadi.

MCV, MCh, MChC kabi eritrotsitlarning morfologik ko‘rsatkichlarining kamayishi natijasida gipokrom va mikrotsitar anemiya shakllanganligi ma’lum bo‘ldi.

Limfotsitlar va granulositlar miqdoridagi o‘zgarishlar immun javobning pasayishini, limfa tugunlarining shishishi esa parazitar reaktivlikning yuqoriligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, eritrotsitlar taqsimoti (RDW-SD, RDW-CV) ko‘rsatkichlari normadan past bo‘lib, bu qon hujayralarining bir xil bo‘lmagan hajmda ishlab chiqarilayotganidan darak beradi.

Umuman olganda, zamonaviy gemotologik analizator usuknasida olib borilgan gematologik tahlil natijalari teylerioz bilan kasallangan qoramollarda intoksikatsiya, gemopoez buzilishi, qon va limfa tizimi faoliyatining izdan chiqishi singari holatlar kuzatilishini ilmiy asosda tasdiqladi. Bu esa kasallikni erta tashxislashda va kechishini baholashda gematologik tekshiruvlarning muhim diagnostik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, teylerioz kasalligining kechishida qoramollarda qonning asosiy gematologik ko‘rsatkichlarida sezilarli darajada patologik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Xususan, eritrotsit, gemoglobin, leykotsit va trombotsitlar miqdorining izchil kamayishi, eritrotsit morfologik ko‘rsatkichlarining pasayishi va limfotsit-granulositlar muvozanatining buzilishi kasallikning og‘ir klinik shakl bilan kechayotganidan dalolat beradi. Ushbu o‘zgarishlar gemopoez, qon aylanishi va immun tizimining izdan chiqishiga olib keladi. Shunday qilib, gematologik tekshiruvlar teyleriozni erta aniqlash, o‘tish darajasini baholash va davolash samaradorligini nazorat qilishda muhim diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa teyleriozni kechishida kasallikni o‘tish davrida ertadiagnoz qo‘yish va shu bilan bir vaqtda o‘z vaqtida kechiktirmasdan davolash usullarini qo‘llashdan olingan samaradorlikni oshirishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғафуров А.Ғ., Расулов Ў.И., Дўсқулов В.М., Қучқорова С.Қ. Қорамолларни қон-паразитар касалликлардан асраш ҳозирги куннинг долзарб муаммоси // Зооветеринария. -Тошкент. 2015 .- № 3.- Б. 14-1
2. Гафуров А.Ғ., Қўчқарова С.Қ., Расулов Ў.И. Th.annulata нинг морфологик, биологик, патогеник хусусиятларини ўрганиш ва вакцина ишлаб чиқариш учун яроқли штаммини яратиш.//Зооветеринария.-Тошкент, 2016.- № 4.-15-17 б.
3. Гоибназаров К.Х. Криоконсервация возбудителя тейлериоза крупного рогатого скота Узбекистане //Современные достижения в решении Актуальных проблем Агропромышленного комплекса / Материалы международной научно-практической конференции, посвящённой 100-летию Института экспериментальной ветеринарии им С.Н.Вышелесского Минск,15-16 сентября 2022 г.-С.309-311.
4. G‘oyibnazarov Q.X., Karimova N.U., Gafurov A.G. Qoramollarni teyleriozdan asraylik. Veterinariya meditsinasi, 2023 y., № 8- 23-24 b.
5. Mahmoud Rushdi Abd Ellah. “Correlation between Platelets and Red Blood Cells Parameters in Cattle Theileriosis”. Journal of Hematology Research.
6. A.A.T. Al-Hosary, A. Nordengrahn, M. Merza. “New Approach to Use Blood Smears for Diagnosis of Bovine Theileriosis”. Indian Journal of Animal Research 54(11):1438-1440, 2018.
7. P.K. Ram, S.K. Singh, Mukesh Srivastava va boshqalar. “Bovine Tropical Theileriosis: A Comprehensive Review of Epidemiology, Immunopathogenesis and Integrated Management Strategies”. Archives of Current Research International, 2025.

UO‘K: 619.616.98:363.2-071.

QISHLOQ XO’JALIK HAYVONLARINING PASTERELLYOZ, KOLIBAKTERIOZ VA SALMONELLYOZ KASALLIKLARIGA QARSHI POLIVALENT GOA FORMOL VAKSINANING BUZOQLAR ORGANIZMIGA TA’SIRI HAMDA KASALLIKLARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Navruzov N.I.
v.f.f.d., katta ilmiy xodim, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17863277

Annotatsiya: Maqolada “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan buzoqlarni emlash natijasida 9-12 oylik immunitet davomiyligi tajribalarda kuzatilgan. Buzoqlarning pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklarini davolashda giperimmun qon zardobi tarkibidagi gamma-globulinlar hisobidan immun tizimni barqarorlashi evaziga samaradorlik 92 foizdan yuqori natijaga erishilgani aniqlangan. Shuningdek mazkur kasalliklar aralash shaklda kechgan buzoqlar organizmida qonning gemotologik va biokimyoviy o‘zgarishlari hamda E.coli, Pasteurella va Salmonellalarning antibiotiklarga sezgirligi MIC diapazoni bo’yicha samaradorligi aniqlangani haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Antitelo, titr, buzoq, agglyutinatsiya, davolash, oldini olish, sezuvchanlik, giperimmun qon zardobi, mikrobiologiya, antibiotik, GOA formol vaksina, gastrit, splenit, atrofiya, distrofiya, tromboz, pnevmoniya, septesemiya, polivalaent.

THE EFFECT OF POLYVALENT GOA FORMALIN VACCINE AGAINST PASTEURELLOSIS, COLIBACTERIOSIS AND SALMONELLOSIS IN FARM ANIMALS ON THE CALVES' BODY AND MEASURES TO COMBAT THE DISEASE

Abstract: The article notes that the experiments showed a duration of immunity of 9-12 months as a result of vaccination of calves with the ”GOA formol multivalent vaccine against pasteurellosis, colibacteriosis and salmonellosis of farm animals." It was found that in the treatment of colibacteriosis and salmonellosis in calves, the effectiveness was achieved by more than 92% due to the stabilization of the immune system due to gamma globulins in the hyper immune blood serum. As well as hematological and biochemical changes in the blood in the body of calves in which these diseases occur in a mixed form, and data on the effectiveness of coli, Pasteurella and Salmonella sensitivity to antibiotics in the MIC range are presented.

Keywords: Antibody, titer, calves, agglutination, treatment, prevention, sensitivity, hyper immune blood serum, microbiology, antibiotic, vaccine, gastritis, splenetic, atrophy, dystrophy, thrombosis, pneumonia, septicemia, polyvalent.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИВАЛЕНТНОЙ ВАКЦИНЫ ГОА ФОРМАЛИН ПРОТИВ ПАСТЕРЕЛЛЕЗА, КОЛИБАКТЕРИОЗА И САЛЬМОНЕЛЛЕЗА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЖИВОТНЫХ НА ОРГАНИЗМ ТЕЛЯТ И МЕРЫ БОРЬБЫ С ЗАБОЛЕВАНИЕМ

Аннотация: В статье описаны экспериментальные результаты вакцинации телят «Поливалентной формалиновой вакциной ГОА против пастереллеза, колибактериоза и сальмонеллеза сельскохозяйственных животных» и длительность иммунитета 9–12 месяцев. Установлено, что при лечении пастереллеза, колибактериоза и сальмонеллеза телят эффективность препарата достигалась за счет стабилизации иммунной системы за

счет гамма-глобулинов, содержащихся в гипериммунной сыворотке. Приведены также сведения о гематологических и биохимических изменениях в крови телят при смешанных формах этих заболеваний, а также о чувствительности E. coli, Pasteurella и Salmonella к антибиотикам в диапазоне МПК.

Ключевые слова: Антитела, титр, теленок, агглютинация, лечение, профилактика, чувствительность, гипериммунная сыворотка, микробиология, антибиотик, формалиновая вакцина ГОА, гастрит, спленит, атрофия, дистрофия, тромбоз, пневмония, септицемия, поливалентная.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda chorvachilik sohasiga yetarli darajada ziyon yetkazib kelayotgan kasalliklardan yosh hayvonlar orasida ayniqsa, buzoqlarda sodir bo‘ladigan pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklarining ko‘p uchrashi ba’zan bu infeksiyalarning aralash shaklda kelishi, fermer, shirkat xo‘jaliklari va aholiga tegishli shaxsiy hayvonlar orasida talofatni ko‘paytirishi hech kimga sir emas.

Kolibakterioz, pasterellyoz va salmonellyoz kasalliklarini oldini olishda mahalliy shtammlar asosida tayyorlangan “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina”ni buzoqlar organizmi immun tizimiga samaradorligini o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bakterial kasalliklarni davolashda ishlatiladigan antibiotik dori vositalarining hayvon organizmida qolaversa go‘sht va sut maxsulotlari orqali inson tanasida kumulyativ holatda yig‘ilishi, uning keyingi o‘zgargan biokimyoviy strukturasi hisobidan jigar, taloq, markaziy nerv tizimi va boshqa organlardagi turli patologik holatlarni chaqirishi muammoli jarayondir.

Bunday turdagi kasalliklardan ayniqsa yosh hayvonlar orasida sodir bo‘ladigan pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kabilarni davolashda mahalliy shtammlar vositasida tayyorlangan giperimmun qon zardobi bilan davolash samaradorligini aniqlash 2012-2025 yillar mobaynidagi o‘rganilgan tadqiqotlarimizning bosh vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur antigenlardan organizmda hosil bo‘ladigan murakkab oqsil tabiatli faol organik moddalar (gamma-globulin va boshq.) hisobidan immun tizimining barqaror bo‘lishini ya’ni birlamchi klostridial immunitetning tez paydo bo‘lishini tajribalar asosida aniqlash muhimdir.

TADQIQOTNING MAQSADI

Республиканинг айрим чорвачилик хўжаликларида бузоқлар организмида “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina”ning immunitet davomiyligi, mazkur kasalliklarni davolashda giperimmun qon zardobining antibiotik vositalaridan avfzalligi va shu bilan bir qatorda mazkur vaksina bilan emlangan buzoqlar organizmida qondagi gemotologik va biokimyoviy o‘zgarishlarini aniqlash ko‘zda tutilgan. Shuningdek Salmonella kasallik qo’zg’atuvchi turlariga qarshi MIC antimikrob faollik samaradorligini aniqlash maqsad qilib qo’yilgan.

ADABIY SHARH

Qo‘zi va buzoqlarning kolibakteriozi chorvachilikda keng tarqalgan bo‘lib, oshqozon-ichak trakti disfunksiyasi simptomlari bilan tavsiflanadi [9]. Kasalliklar ichida enterotoksigenligi va tarqalish darajasi bo‘yicha Kanadada 11-29 foiz, AQSHda 13-50,8 foiz, Gollandiyada 6 foiz, Fransiyada 58 foiz, Angliyada 4 foiz, Avstraliyada 6 foiz va Isroilda 6-47 foizni tashkil qiladi [1].

Kolibakterioz – kolienterit, kuchli diareya, septisemiya va holsizlanish simptomlari bilan tavsiflanadigan yosh hayvonlarning o‘tkir kechuvchi infeksion kasalligi bo‘lib, asosan yangi

tug‘ilgan buzoqlar hayotining 2-7 kunlari, cho‘chqa bolalari, qo‘zilar va jo‘jalarning dastlabki kunidanoq boshlanib 3-5 oylikgacha, mo‘ynali hayvonlar esa 1-5 kunligidan E.coli bilan zararlanadi. Hayvon organizmida immun tizimining susayishi natijasida infeksion va invazion (nafas yo‘llari, oshqozon-ichak) kasalliklarga tez-tez chalinishiga olib kelishi tabiiy hol. Bu holat shu jumladan, qo‘zilar kolibakterioz bilan zararlanganda iqtisodiy zararni oshiradi. Bunday turdagi kasalliklarni davolashda ishlatiladigan antibiotik vositalar organizm immun tizimiga, morfopatologik, morfo-funksional holatiga salbiy ta’sir etadi[7].

Salmonellyoz – yosh hayvonlarning septik shaklda, o‘tkir o‘tuvchi yuqumli kasalligi bo‘lib, harorat ko‘tarilishi va oshqozon-ichak faoliyati buzilib, ich ketishi bilan tavsiflanadi. Salmonellyoz bilan asosan buzoqlar 3-4 haftalikdan 4 oylikkacha, cho‘chqa bolalari 4 oylikkacha, qo‘y-qo‘zilar hamma yoshida, parrandalar hayotining dastlabki kunlarida, toychoqlar esa ona qornidayoq o‘ziga xos turdagi qo‘zg‘atuvchilar bilan zararlanadi[14].

Pasterellyoz – barcha yoshdagi hayvonlarning septik shaklda, o‘tkir o‘tuvchi yuqumli kasalli**k** bo‘lib, **o‘tkir kechganda** harorat ko‘tarilishi, **gemorragik septitsemiya, krupozli pnevmoniya, plevrit va gavdaning ko‘pgina joylarida suvli shish, yarim o‘tkir va surunkali kechganda - o‘pkada yiringli nekrotik pnevmoniya, kerato-kon’yunktivit, artritlar, mastit va gemorragik enterit bilan tavsiflanadi**[14].

Yosh hayvonlarning Pasteurella, E.coli va Salmonella qo‘zg‘atuvchi serotiplari bilan zararlanishida abomazum tarkibida og‘iz suti cho‘kmalari mavjud. Zararlangan hayvonlarning shilliq qavatlari shishgan, shilimshiq bilan qoplangan va qon tomirlari to‘la qonli [2]. Ichakdagi gaz pufakchalari yoqimsiz hidli bo‘lib, ba’zan tarkibida qon izlari kuzatiladi. Shilliq qavat shishgan, shilimshiq bilan qoplangan, dog‘li va nuqtali qon quyilishlar mavjud. Ichak tutqich limfa tugunlari kattalashgan. Patologik o‘zgarishlarni tavsiflashda qon ketishi yuqumli jarayonning septikotoksik xususiyatini ko‘rsatadi [4]. Shubhasiz, patologik diagnostika paytida ushbu organlardagi o‘zgarishlar e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa organlardagi o‘zgarishlar ekssudativ xarakterga egadir [3]. Bunday holda, taloq kattalashadi ba’zan o‘z me’yorida qoladi. Organlarning chekka qismida o‘sish bo‘lsa, ya’ni me’yoriy kattalashgan bo’lsa, ular biroz yumaloqlashgan bo‘lib, konsistensiyasi yelimsimon bo‘ladi. Kapsulasi silliq, uning ostida qon ketish kuzatiladi. Kesma yuzasi quruq, qizil-jigarrang, oq chiziqlar bilan qoplangan [5].

Gistologik tekshiruv paytida limfoid va retikulyar to‘qima elementlarining ko‘payishi kuzatilmaydi. Ushbu a’zolardagi patologik o‘zgarishlarning farqlari, differensial ahamiyatga ega bo‘lib, qo‘zilar kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklarini birgalikda kechishini tashxislashda e’tiborga olinishi lozim [5]. Ovqat hazm qilish jarayonining buzilishi va disbiozning rivojlanishi natijasida hosil bo‘lgan zaharli moddalar qon oqimiga tushib, tananing umumiy intoksikasiyasiga, tizimlar va organlar, xususan, jigar va buyraklar funksiyasining buzilishiga olib keladi [6].

TADQIQOTLAR OB’EKTI VA USLUBIYATLARI

Buzoqlarni pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasaliklarini oldini olish, davolash va patomorfologik o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida tadqiqotlarimizni laboratoriya qismini Veterinariya ITIda (mikrobiologiya, yosh hayvonlar kasalliklarini o’rganish va patomorfogiya laboratoriyalarida) hamda ishlab chiqarish sharoitida Jizzax viloyati G’allaorol tumani “Rohat” nomli MCHJda bajarildi.

Tadqiqotlarda xo‘jalikning ijtimoiy kelib chiqish sharoitidan foydalanib, pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklaridan tabiiy zararlangan 42 bosh buzoqlarda giperimmun qon zardobi bilan davolash va klinik o‘zgarishlar 21 kun davomida kuzatib borildi.

Tajribalar olib borilgan bir yoshgacha bo‘lgan buzoqlarda gemotologik, biokimyoviy, serologik (Pasteurella, E.coli va Salmonella antigenlariga bilan agglyutinasiya reaksiyasi) va mikrobiologik uslublarda tekshirishlar bajarildi. Serologik (agglyutinasiya reaksiyasi) tekshirishda VITI mikrobiologiya laboratoriyasida mahalliy shtammlari asosida tayyorlangan Pasteurella, E.coli va Salmonellalarning antigenlaridan foydalanildi. Tabiiy sharoitda Pasteurella, E.coli va Salmonellalar bilan zararlangan buzoqlar qonidagi gemotologik va biokimyoviy tahlil natijalari Samarqand shahar 1-Respublika ilmiy-amaliy shifoxonasining bioximiya laboratoriyasida aniqlandi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

O‘tkazilgan tadqiqotlarning laborator natijalari asosan quyidagi jadvallarda keltirilgan (1,2,3,4,5-jadvallar). Jizzax viloyati G’allaorol tumani “Rohat” nomli MChJda mavjud 3 kunlikdan 4 oylikgacha bo‘lgan Shvis buzoqlar “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan emlangan hayvonlarda gemotologik tahlillar qondagi eritrositlar va leykositlar soni (Горяев sanoq to‘ri), gemoglobin miqdor qo‘rsatkichi Сали gemometri yordamida, qon zardobidagi umumiy oqsillarning biokimyoviy ko‘rsatkichlari refraktometrik usulda, qondagi glyukozaning miqdori orto-toluidin bilan rangli reaksiyasida aniqlandi [8].

“Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina”ning immunitet davomiyligini aniqlashda tajriba uchun G’allaorol tumani “Rohat” xo‘jaligida buzoqlar 2 guruhga ajratildi. I tajriba guruhidagi 10 bosh buzoqlar “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan birinchi marta 3 ml, 14 kundan so‘ng (revaksinasiya) 5 ml teri ostiga aseptika va antitseptika qoidalariga asosan emlandi. II tajriba guruhidagi 10 bosh buzoqlar faqat bir marta 3 ml miqdorda teri ostiga “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan emlandi.

Epizotik tadbirlar tajribalar olib borilgan Shvis zotli buzoqlarda 9 oy mobaynida nazoratli kuzatuvda bo‘ldi. Tajribaga ko‘ra “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan emlangan buzoqlarning qon zardobida Pasteurella, E.coli va Salmonellalarga qarshi antitelolar titri agglyutinasiya reaksiyasi asosida 30, 60, 90, 180 va 270 kungacha aniqlab borildi (1-2 va 3-jadvallar).

1-jadval. Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina bilan emlangan buzoqlar qon zardobida E.coliga qarshi antitelolar titri dinamikasi (AR 1:25)

Guruhlar	Bosh soni	Tajribagacha	Kunlar (vaksinasiyadan keyin)				
			30 kun	60 kun	90 kun	180 kun	270 kun
I tajriba guruhi (2 marta emlangan)	*n=10*	1:40	1:1240	1:1200	1:972	1:800	1:400
II tajriba guruhi	*n=10*	1:60	1:600	1:720	1:800	1:600	1:270

(bir marta emlangan)							

Agglyutinasiya reaksiyasi natijasiga ko‘ra I tajriba guruhidagi 10 bosh buzoqlar “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan amaldagi qo‘llanmaga muofiq 2 marta emlanib, E.colining antitelolar titri dinamikasi tajribaning boshidan 9 oylikga qadar 2,82±0,13 martaga kamayganligi, II tajriba guruhidagi buzoqlar mazkur vaksina bilan faqat bir marta emlanganligi sababli tadqiqotlarda bir va to‘qqiz oylik natijasi 2,22±0,08 martaga kamaygani statistik aniqlandi.

2-jadval. Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina bilan emlangan buzoqlar qon zardobida Salmonellaga qarshi antitelolar titri dinamikasi (AR 1:25)

Guruhlar	Bosh soni	Tajribagacha	Kunlar (vaksinatsiyadan keyin)				
			30 kun	60 kun	90 kun	180 kun	270 kun
I tajriba guruhi (2 marta emlangan)	*n=10*	1:42,5	1:920	1:840	1:880	1:680	1:540
II tajriba guruhi (bir marta emlangan)	*n=10*	1:50	1:470	1:620	1:667	1:533	1:333

Agglyutinasiya reaksiyasi natijasiga ko‘ra I tajriba guruhidagi 10 bosh buzoqlar “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan amaldagi qo‘llanmaga muofiq 2 marta emlanib, Salmonellaning antitelolar titri dinamikasi tajribaning boshidan 9 oylikga qadar 1,703±0,09 martaga kamayganligi, II tajriba guruhidagi buzoqlar mazkur vaksina bilan faqat bir marta (3 ml) emlanganligi sababli tadqiqotlarda bir va to‘qqiz oylik natijasi orasidagi farq 1,411±0,1 martaga kamaygani statistik aniqlandi.

3-jadval. Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina bilan emlangan buzoqlar qon zardobida Pasteurellaga qarshi antitelolar titri dinamikasi (AR 1:25)

Guruhlar	Bosh soni	Tajribagacha	Kunlar (vaksinasiyadan keyin)				
			30 kun	60 kun	90 kun	180 kun	270 kun
I tajriba guruhi (2 marta emlangan)	*n=10*	1:25	1:1180	1:1018	1:964	1:829	1:414
II tajriba guruhi (bir marta emlangan)	*n=10*	1:34	1:359	1:326	1:312	1:240	1:209

3-jadval natijalariga ko‘ra agglyutinasiya reaksiyasi o‘rganilganda I tajriba guruhidagi 10 bosh buzoqlar “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz

kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan amaldagi qo‘llanmaga muofiq 2 marta emlanib, Pasteurellaga nisbatan antitelolar titri dinamikasi tajribaning boshidan 9 oylikga qadar 2,85±0,18 martaga kamayganligi, tajribaning aniqlik darajasi 6,3 foizga, II tajriba guruhidagi buzoqlar mazkur vaksina bilan faqat bir marta (3 ml) emlanganligi sababli tadqiqotlarda bir va to‘qqiz oylik natijasi orasidagi farq 1,718±0,04 martaga kamaygani statistik taxlili aniqlandi.

“Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan emlangan buzoqlar qonida gemotologik tahlillarni 9 oylik natijasini aniqlash uchun qon namunalari tekshirib borildi.

Tadqiqotlarimizda yuqorida nomi qayd qilingan emlama bilan emlangan buzoqlarning gemotologik ko‘rsatkichlari tekshirib borildi. Tekshirishlar natijasida emlangan buzoqlar qonida leykositlar va eritrositlar sonining ko‘payib borishi, leykoformulaning nisbatan o‘zgarishi qayd etildi. Buni 4-jadval natijalarida to’liq yoritishga harakat qildik. Gemotologik tekshirishlarda buzoqlardan olingan qon namunalaridan qonning shaklli elementlaridan eritrotsitlar, leykotsitlar va leykoformula tarkibidagi eozinofillar, bazofillar, mielotsitlar va limfotsitlar hamda tayoqcha va bo‘g‘im yadroli neytrofillarning 270 kunlik (9 oy) holatiga ko‘ra tahlillar bajarib borildi. Boshqa tadqiqotlarimizda buzoqlarning mazkur infeksiyalar bilan zararlanishiga ko‘ra klinik va patologoatonomik o‘zgarishlari ham keltirilgan.

4-jadval. Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina bilan emlangan buzoqlar qonining gemotologik ko‘rsatkichlari (n=10)

Tekshi-rish vaqti	Eritrotsit, mln/mkl	Leykosit, ming/mkl	Leykoformula					
			E	B	M	L	Neytrofillar	
							tayoqcha yadroli	bo‘g‘im yadroli
Me’yor	9,16±0,88	8,74±0,74	7,0	0,6	3,4	44,8	4,8±0,41	41,6±4,12
I tajriba guruhi (2 marta emlangan)								
30 kun	9,21±0,77	11,91±0,72	8,1	0,4	3,1	44,0	4,9±0,28	36,4±2,14
60 kun	8,85±0,54	10,82±0,71	6,9	0,3	3,0	47,0	4,7±0,39	33,2±3,16
90 kun	9,24±0,84	9,20±1,05	6,7	0,5	3,7	44,4	4,3±0,18	41,4±2,24
180 kun	9,21±0,78	8,28±1,04	6,2	0,5	3,4	46,2	4,7±0,44	42,0±2,41
270 kun	9,55±0,45	8,71±0,41	7,4	0,7	3,2	41,4	4,1±0,27	44,2±1,81
II tajriba guruhi (1 marta emlangan)								
30 kun	9,18±0,28	11,62±0,41	7,4	0,4	2,2	44,2	4,8±0,31	35,4±1,87
60 kun	9,21±0,84	10,64±0,81	8,2	0,5	3,0	48,4	4,2±0,21	37,5±2,21
90 kun	9,20±0,85	8,74±0,89	8,0	0,4	3,2	41,1	4,6±0,38	36,4±3,21
180 kun	9,18±0,45	8,45±0,78	7,8	0,4	2,5	41,2	4,8±0,22	36,9±2,22
270 kun	9,24±0,85	8,41±0,56	7,9	0,5	3,2	40,9	3,8±0,18	38,5±2,52

Tajribadagi har bir gematologik o‘zgarishlar me’yorga nisbatan taqqoslab borildi. “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan 2 marta (birichi marta 3 ml, 14 kundan so‘ng 5 ml) emlangan I tajriba guruhi buzoqlarida leykoformulaning o‘zgarishi me’yoriga nisbatan 30 kunligida e’ozinofillarda 1,157±0,04 martaga ortgan bo‘lsa, limfotsit, bazofill, miyelosit, tayoqcha va bo‘g‘im yadroli neytrofillarda qisman kamayishi aniqlandi.

Eritrositlar deyarli o‘zgarishsiz qolgan bo‘lsada, leykositlarda me’yorga nisbatan 1,363±0,06 martagacha oshgani aniqlandi. Bu esa organizmga yagni turdagi antitelolar kirib kelishi va immun tizimning gumanitar javob reaksiyasidan dalolat beradi.

“Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan bir marta emlangan (3 ml) II tajriba guruhi buzoqlari leykoformulasida miyelositlar va bo‘g‘im yadroli limfositlarda o‘zgarishlar borligi aniqlandi.

“Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan emlangan 30 bosh buzoqlar qonida biokimyoviy o‘zgarishlar natijasini aniqlash uchun qon namunalari tekshirib borildi (5-jadval). Tekshirishlar natijasida 2 va 1 marta emlangan buzoqlar qonida umumiy oqsil va qisman kreatinin me’yorga nisbatan o‘zgarishi qayd etildi. Mazkur jadval ma’lumotlariga ko‘ra “Qishloq xo’jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina” bilan 2 marta emlangan (revaksinatsiya) I guruh buzoqlar qonining biokimyoviy tahlil natijalari tajribaning 14 kunligida albumin va umumiy oqsillarning tajribagacha bo‘lgan va tajribaning 21-kunida olingan qon tahlillarida mos ravishda 2,42±0,081 va 2,78±0,04 ga farq qilishi aniqlandi. Bu esa buzoqlar organizmiga kirib kelgan yangi Pasteurella, E.coli va Salmonella antigenlarining murakkab tuzilishdagi kompleks oqsil tabiatli modda ekanligidan dalolat beradi. Agar qonning biokimyoviy tahlillarida umumiy oqsillar miqdori kamayib ketsa, jigar distrofiyasining rivojlanishiga sabab bo‘lar edi. Albuminlar miqdorining kamayib ketishi esa jigar gepatositlarining proteosintetik jarayonining pasayishiga sababchi bo‘lar edi. Bu holat esa bizning buzoqlar ustida bajarilgan tadqiqotlarda o‘zgarishsiz qolgani aniqlandi. Bu esa mazkur vaksinaning biologik jihatdan toza maxsulot ekanligidan darak beradi.

5-jadval. Kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi assotsiatsiyalangan GOA formol vaksina bilan emlangan buzoqlar qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlar dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	I tajriba guruhi (ikki marta emlangan)	II tajriba guruhi (bir marta emlangan)	III nazorat guruhi
Tajribagacha n=10			
Albumin, g/l	29,16±1,13	32,36±0,82	28,84±0,607**
Umumiy oqsil, g/l	66,28±5,10*	65,84±3,51	65,34±3,72
Mochevina, mmol/l	4,26±0,12	4,56±0,29	4,86±0,25
AlAt, E/l	58,14±3,26	61,93±1,82	76,58±3,49
Amilaza, E/l	1659,31±18,51	1658,45±15,18	1648,62±21,19
Kreatinin, mkmol/l	78,24±4,24	65,72±4,25	89,39±4,58
Tajribaning 21 – kunida n=10			
Albumin, g/l	29,78±3,16	31,49±2,34	29,51±2,55
Umumiy oqsil, g/l	66,31±3,58	72,46±3,45	56,41±2,31
Mochevina, mmol/l	4,25±0,23	4,39±0,29	4,28±0,19
AlAt, E/l	58,14±3,41	61,46±2,16	56,34±3,44
Amilaza, E/l	1645,84±18,71	1659,31±19,45	1645,56±13,84
Kreatinin, mkmol/l	71,8±2,74	69,78±5,74	81,19±2,28

Tajribadan 14 kun keyin n=10			
Albumin, g/l	31,58±3,08	29,97±2,16	28,29±1,46
Umumiy oqsil, g/l	69,06±4,19	62,41±2,54	58,86±2,58
Mochevina, mmol/l	5,78±0,36	4,49±0,608**	4,89±0,51
AlAt, E/l	61,54±3,24	65,12±2,58	69,49±4,11
Amilaza, E/l	1616,24±16,02	1645,73±22,52	1641,45±28,75
Kreatinin, mkmol/l	66,72±3,79	72,93±3,419**	61,85±2,84
Izoh: *-p<0,05; **-p<0,001			

5-jadval natijalari tahliliga ko'ra "Qishloq xo'jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina" bilan 2 marta emlangan birinchi guruhdagi buzoqlarning qon zardobida mochevina miqdorining kamayishi kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhidagi buzoqlarida bu holatning o'zgarishsiz qolgani aniqlandi.

Organizmdagi mochevina miqdori 5,78±0,36 mmol/lga oshishi hisobiga, kreatinin 72,93±3,419 mkmol/lga ortishi tadqiqotimizda ishonchlilik darajasi yuqori ekanligi (P<0,05) aniqlandi. Albumin miqdori tajribadan 14 kun keyin olingan qon zardoblaridagi natijalarga ko'ra; 2 marta emlangan buzoqlarda 31,58±3,08, bir marta emlangan buqoqlarda 29,97±2,16 ya'ni o'rtacha 1,05±0,04 martagacha farq berishi aniqlandi. Umumiy oqsillar miqdori tahlil qilinganda 14 kun keyin olingan qon zardoblaridagi natijalarga ko'ra; 2 marta emlangan buzoqlarda 69,06±4,19; bir marta emlangan buqoqlarda 62,41±2,54 ya'ni o'rtacha 1,07±0,03 martagacha farq berishi aniqlandi. "Qishloq xo'jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina" bilan 2 marta emlangan birinchi guruh buzoqlar qonining biokimyoviy tahlilida alanin aminotransferaza (AlAT) fermenti 2-guruhda mazkur emlama bilan 1 marta emlangan buzoqlarga qaraganda -3,28 E/l va amilaza fermenti -13,47 E/l miqdorga oshganligi qayd qilindi. Bu holat gepototsitlarning zararlanmaganligini va fermentlar funksiyasining o'zgarishsiz qolganini bildiradi. Nazorat guruhidagi buzoqlar organizmida uglevod almashinuvida ishtirok etadigan amilaza fermentining faolligi o'zgarmay qolgani aniqlandi.

Shunday qilib, "Qishloq xo'jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina" bilan 2 marta emlangan buzoqlar qonining barcha biokimyoviy ko'rsatkichlari fiziologik me'yorda bo'lishi ta'minlanib, ularni immun tizimining yaxshilanishiga, mobodo pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz qo'zg'atuvchilari bilan zararlanib qolgudek bo'lsa, jarayonning yengil kechishiga, qisqa muddatlarda barcha fiziologik ko'rsatkichlari me'yorlashishiga yordam beradi. Jizzax viloyati G'allaorol tumani "Rohat" nomli MCHJ xo'jaligida pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklaridan tabiiy zararlangan 30 (o'ttiz) bosh buzoqlar alohida ajratilib, "Qishloq xo'jalik hayvonlarning pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalaent giperimmun qon zardobi" bilan davolash samaradorligi bir necha turdagi antibiotik preparatlarga taqqoslab, ilmiy-amaliy tadqiqotlar bajarildi. Tajribada kasallangan buzoqlarning 15 boshi I guruhga, 15 boshi II guruhga ajratildi. I guruh VITIning Mikrobiologiya laboratoriyasida mahalliy shtammlar asosida tayyorlangan "Qishloq xo'jalik hayvonlarning pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalaent giperimmun qon zardobi" bilan davolandi. II tajriba guruhidagi 15 bosh buzoqlar amoksigentam "aks". -8 mkg/ml, sulsetrisan "tr"-10 mkg/ml, enrostin "enr"-20 mkg/ml, seftiosan "sfr"-5 mkg/ml, siprofloksatsin "cf^{30}"-30 mkg/ml, streptomisin "s^{25}"-25 mkg/ml, tilozin "tl^{15}"-15 mkg/ml каби antibiotiklar bilan davolandi (6-jadval). Yuqumli

kasalliklarni davolovchi xususiyatga ega antibiotik vositalarining har bir turi pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz aralash holda tabiiy kasallangan buzoqlarni davolash uchun taqsimot asosida olib borildi. Bunda buzoqlarning yoshi, ularning kasallanish dinamikasi, yashash muhiti kabi holatlari inobatga olindi.

6-jadval. Qishloq xo'jalik hayvonlarning pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalaent giperimmun qon zardobi va bir necha tur antibiotiklar bilan davolash samaradorligi (n=30)

guruh-lar	davolovchi vosita	kuzatuv kunlari										yuborish joyi	nati-ja	samaradorlik %
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10			
I tajriba guruhi, 15 bosh	pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent giperimmun qon zardobi	K	K	T	T	T	T	T	T	T	T	teri ostiga	1 boshi tuzal madi	92,86
II tajri-ba guruhi, 15 bosh	amoksigentam	K	K	T	T	T	T	T	T	T	K	mushak orasiga	3 boshi tuzal madi	87,5
	sulsetrisan	K	K	K	T	T	T	T	T	K	K			
	seftiosan	K	K	T	T	T	T	T	T	K	K			
	enrostin	K	K	T	T	T	T	T	T	T	K			
	siprofloksatsin	K	K	K	K	K	K	K	K	K	K			
	streptomisin	K	K	K	K	K	K	K	K	K	K			
	tilozin	K	K	K	K	K	K	K	K	K	K			

Izox: K-kasal, T-tuzaldi

6-jadval ma'lumotlariga ko'ra I tajriba guruhi buzoqlari "Qishloq xo'jalik hayvonlarning pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent giperimmun qon zardobi" bilan davolandi. Mazkur kasalliklar bilan tabiiy kasallangan 14 bosh buzoqlarni davolash jarayonida yo'riqnomaga asosan ularga kun davomida ikki marta teri ostiga 1 ml qon zardobi 3-5 kg tirik vazniga nisbatan yuborildi. Giperimmun qon zardobi bilan davolash natijasiga ko'ra, pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyozlar bilan aralash holda kasallangan buzoqlarning 92,86 foizi tuzalgani aniqlandi. Mazkur antibiotik preparatlaridan davolanish samaradorligi o'rta hisobda 87,5 foizni tashkil qilishi quyidagi 7-jadval asosida topildi va Salmonella kasallik qo'zg'atuvchilarining antimikrob faolligi aniqlangan natijalar berib o'tilgan (keying tajribalarimiz boshqa qo'zg'atuvchilar va kasalliklar haqidagi natijalar bilan beriladi).

Pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyozning aralash kasalliklaridan tuzalgan buzoqlardan olingan qon namunalarining zardoblarida tajribaning 8 va 10- kunlari AR titri n=15 (o'rtacha) 1:564 bo'lishi o'rganildi. Bu esa buzoqlar organizmda birlamchi klostridial immunitet shakllanganidan dalolat beradi. Buzoqlar organimida immunoglobulinlar miqdori davolashning 2-kunidan boshlab shakllana boshlashini AR reaksiyada aniqlandi. Shuningdek birlamchi klostridial immunitet tezroq organizmda hosil bo'lishiga yana bir bora min bo'ldik.

II tajriba guruh buzoqlarini 7 turdagi antibiotik vositalari bilan maxsus yo‘riqnomaga asosan davolashning dastlabki kunlarida kasal bo‘lsada, amoksigentam “aks”. -8 mkg/ml, sulsetrisan “tr”-10 mkg/ml, enrostin “enr”-20 mkg/ml bilan davolandi. Shunday bo‘lishiga qaramay kuzatuv davrining 9-10-kunlarida buzoqlarda pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga xos klinik belgilar paydo bo‘ldi. Boshqa tur antibiotiklar seftiosan “sfr”-5 mkg/ml, siprofloksatsin “cf^{30}”-30 mkg/ml, streptomisin “s^{25}”-25 mkg/ml, tilozin “tl^{15}”-15 mkg/ml antibiotiklari bilan davolanganlari tuzalmadi va tuzalishi kuzatuv kunlarida kechikkani aniqlandi. Tajribada guruhidagi buzoqlarda kuzatuvning 3-4-kunlari diareya, dormonsizlanish, tana haroratining (+40,5-+41,4^{0}C) ko‘tarilishi, yurak urishi me’yoridan 17-21 taga ko’p bo’lsa, nafas olishi 7-11 tagacha tezlashdi ya’ni taxekardiya holati kuchaydi (1-rasm). Bundan tashqari buzoqlarning to’liq tuzalmasligini klassik agglyutinatsiya reaksiyasi natijasiga asoslanib tajriba guruxi tekshirildi.



1-rasm. E.coli, pasteurella va salmonella kasalliklarini aralash infeksiyasi bilan tabiiy zararlangan 22 kunlik buzoqning klinik ko’rinishi.

Kasal buzoqlar holsizlanib, faqat yotib qolishi, tumshuq, burunning ko‘rinarli shilliq qavatlari quruq bo‘lib, ko‘z shilliq pardalarida qon quyilishlar (qisman nuqtali va asosan dog‘li), ko‘z olmasinig suvsizlanishi hamda cho‘kib qolishi kuzatildi.

7-jadval. Salmonella kasallik qo‘zg‘atuvchilariga qarshi antimikrob faollikni aniqlash natijalari

Salmonella turlari, (shtamm+kulturalar soni)	MIC diapozoni mkg/ml (shtamm va kulturalarlarning sezgirligi)						
	Amoksi-gentam “aкs” 8 mkg/ml *R>8	Sulfet risan “tr” 10 mkg/ml R>10	Enrostin “enr” 20 mkg/ml **R>20	Seftiosa n “sfr” 5mkg/ml R>5	Siproflo k-satsin “cf^{30}” 30 mkg/ml R>30	Strepto misin “s^{25}” 25 mkg/ml R>25	Tilozin “tl^{15}”15 mkg/ml R>15
Salmonella typhimurium (1+3)	0,06-0,25 (85)	0,15-0,25 (100)	0,3-0,15 (100)	0,2-1,0 (100)	0,25-0,5 (100)	0,25-0,5 (76)	0,01-1,5 (83)

Salmonella choleraesuis (1+1)	0,25-32 (50)	0,15-256 (85)	0,02-32 (47)	0,05-0,08 (100)	0,01-0,4 (67)	0,5-2 (82)	0,04-0,8 (49)
Salmonella enteritidis, dublin (1+4)	0,04-0,5 (62,5)	0,5-0,25 (92)	0,12-0,25 (85)	0,85 (48)	0,015-0,5 (71)	0,1-0,25 (76)	0,05-15 (48)
Salmonella pullorum (1+2)	0,1-1,5 (49,2)	0,2-1,0 (95)	0,001-0,04 (91)	0,025 (75)	≥32 (57)	0,03-06 (64,5)	0,01>15 (69)
Salmonella abortus ovis (1+5)	0,2-2,0 (89)	0,30-2,5 (100)	0,01-0,03 (94)	0,12 (62)	>32 (0) (89)	0,1>25 (72)	0,1>15 (89,5)

(Премичание. *-резистентность (R) к антимикробным препаратом в соответствии со стандартами EUCAST; **-для S.abortus ovis резистентность к энростину соответствует МИК>10 мкг/мл.)

7-jadval natijalariga ko'ra 2019-2025 yillar davomida Salmonellyoz kasalligining haqiqiy shtammlari (jami beshta) va respublika chorvachilik xo'jaliklaridan kasal hayvonlardan ajratilgan kulturalarda (jami o'n beshta) qo'zg'atuvchilarga nisbatan antimikrob sezuvchanlik natijalarini aniqlanishiga ko'ra Salmonella typhimuriumning Amoksigentam "акs" 8 mkg/ml konsentratsiyasiga 0,06-0,25 MIC diapazoni bo'yicha 85 foiz samara bergan bo'lsa, sulsetrisan "tr"-10 mkg/ml 0,15-0,25 MIC diapazoni 100 foiz samara berishi aniqlandi.

XULOSALAR

1. "Qishloq xo'jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina" bilan yo'riqnomaga ko'ra 2 marta (1-marta 3 ml, 2-marta 14 kundan keyin 5 ml) emlangan buzoqlar organizmida salmonellaga antitelolar titri 9 oylikda 1:426; mazkur vaksina bilan faqat bir marta (3ml) emlangan buzoqlarda 1:270 gacha bo'lishi aniqlandi.

2. "Qishloq xo'jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina" bilan 2 marta emlangan birinchi guruh buzoqlari qonining biokimyoviy tahlilida alanin aminotransferaza (AlAT) fermenti 2-guruhda mazkur emlama bilan 1 marta emlangan buzoqlarga qaraganda -3,28 E/l va amilaza fermenti -13,47 E/l miqdorga oshganligi aniqlanish holati jigar gepatotsitlarining zararlanmaganligini va fermentlar funksiyasining o'zgarishsiz qolganini bildirdi.

3. Tabiiy sharoitda yangi tug'ilgan buzoqlar pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasaliklariga aralash infeksiya holida chalinishi y=65,5±0,42 % va o'lim darajasi x=46,18±0,56 foizni tashkil etishi aniqlandi.

4. "Qishloq xo'jalik hayvonlarining pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent GOA formol vaksina" emlamasidan 2 marta (birinchi marta 3 ml, 14 kundan so'ng 5 ml) foydalanilgan buzoqlar organizmiga yagni turdagi antitelolar kirishi tufayli va immun tizimning gumanitar javob reaksiyasiga ko'ra tajribaning 30 kunligida e'ozinofillar me'yoriga nisbatan 1,157±0,04; leykositlar esa 1,363±0,06 martaga oshgani aniqlandi.

5. Qishloq xo'jalik hayvonlarning pasterellyoz, kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklariga qarshi polivalent giperimmun qon zardobi bilan davolash samaradorligi 92,86 foizni, kasalliklardan tuzalgan buzoqlarning qon zardoblarida AR titri n=14 (o'rtacha) 1:564 bo'lishi aniqlandi.

6. Pasteurella, E.coli va Salmonella qo`zg`atuvchilarining antibiotiklarga sezuvchanligiga ko‘ra Amoksigentam, sulsetrisan, enrostinlarga sezuvchan, seftiosan, siprofloksatsin va streptomisinlarga nisbatan sezuvchan emas hamda tilozin va gentamitsin sulfatlarga kam sezuvchan ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navruzov N.I. Buzoqlar kolibakteriozining patomorfologiyasi va immunoprofilaktikasida xitozan preparatining roli v.f.f.doktorlik dissertatsiyasi –Samarqand, 2021 -5 b.
2. Ермолова Т.Г. Энергетический обмен у крупного рогатого скота при применении биологически активных веществ: Автореф.дисс. на соис. уч. степ. канд. биол. наук. – Воронеж, 2007. -23 с.
3. Qambarov A.A., Aliyev D.D. Qorako’l qo’ylarida kolibakteriozga vaksinatsiyadan keyin buyrak usti bezi glyukokortikoidal faolligi // “Chorvachilik hamda veterinariya fani yutuqlari va istiqbollari”: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materialari to’plami. –Samarqand, 2010. – B. 42-44.
4. Василева В.А., Мусаткина Т.Б. Патоморфологийа органов телйат и поросят, вызваннайа есҳерихийами // Труды КубГАУ. -Краснодар, 2009. -№1. -С.17-18.
5. Элмуродов Б.А. Қўзиларда пастереллёз ва колибактериоз аралаш ҳолда учраганда кузатиладиган клиник-анатомик белгилари // Проблемы изыскания синтеза и производства препаратов для ветеринарии: Республика илмий-амалий конференция маърузалари тўплами. – Самарқанд: ВИТИ, 1999. -Б.219-221.
6. Элмуродов Б.А. Бузоқ ва қўзиларнинг аралаш бактериал касалликлари патоморфологик диагностикаси ва уларга қарши кураш чораларини ишлаб сҳиқиш: Докторлик диссертацияси автореферати. -Самарқанд, 2016. -29 б.
7. Наврузов Н.И. ва бошқалар “The Importance of Chitosan Suksinat in Lamb Colibacteriosis” Scopus: Jundis’hapur Journal of Microbiology. ISSN 2008-3645 Ye-ISSN 2008-4161; India. (№1. 2022). –P. 5235-5241.
8. Navruzov N.I., Elmurodov B.A. “Qo‘zilarda kolibakterioz va salmonellyoz kasalliklarining patomorfologiyasi, oldini olish va davolash chora-tadbirlari” “Veterinariya meditsinasi” jurnali– Toshkent, 2023.-№6 (187). -B. 5-8.
9. Navruzov N.I. Buzoqlar kolibakteriozining patomorfologiyasi va immunoprofilaktikasida xitozan preparatining roli v.f.f.doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati – Samarqand, 2021 -11 b.
10. B.A.Elmurodov., S.H.Abdalimov., N.I.Navruzov., I.D.Sheralieva “Yosh hayvonlar kasalliklari” Monografiya. Samarqand-2016. “Zarafshon nashriyoti”. 187-B.
11. Navruzov N.I., B.A. Elmurodov., S.Sh.Rashidova., N.R.Voxidova, Yosh hayvonlar kasalliklarining profilaktikasi va ularni davolashda polimer: metall sistemalarini qo’llash / O’zbekiston qishloq xo’jaligi jurnalining “Agro ilm” ilovasi. –Toshkent, 2013. -№ 4(28). –B. 51-52.
12. Navruzov N.I., B.A. Elmurodov., N.R.Voxidova Salmonellyoz kasallik qo’zg‘atuvchisiga nanotexnologiyali xitozan preparatining ta’siri / “Zooveterinariya” ilmiy ommabop jurnali. – Toshkent, 2013. -№ 8(69). –B. 12.
13. Navruzov N.I., B.A.Elmurodov., Z.J.Shopulatova., U.H.Ro’ziqulova. Yosh hayvonlar yuqumli kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish haqida // “Zooveterinariya” ilmiy ommabop jurnali. – Toshkent, 2014. - № 5(78). –B. 12-13.
14. Salimov H.S., A.A.Qambarov Epizootologiya darslik. Samarqand 2016.

UDK: 619:636.2:618

SIGIRLARDA GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLAShDA REGOSTENOL PREPARATINI SAMARASI

O.U.Kuldoshev, J.N.Ochilov, B.B.Tursinaliyev,
S.A.Suvanov, N.S.Salohiddinova
Vetirinariya ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17801482

Annatatsiya: Maqolada sigirlar tuqqandan keyingi ginekologik kasalligini keltirib chiqaruvchi sabablar, kechishi va klinik belgilari, tashhisi, davolash va oldini olishda Regestenol preparatini qo‘llash usul va vositalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ginekologiya, bepushtlik, gipovitaminoz, jinsiy bezlar, degeneratsiya, bachadon atoniyasi, tuxumdonlar kistasi va gipofunksiyasi, persistent sariq tana, anafrodiziya, matsion, antitela, protoplazma.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТА РЕГОСТЕНОЛ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ГИНЕКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У КОРОВ

Аннатация: В статье представлены причины, течение и клинические симптомы послеродовых гинекологических заболеваний коров, методы и способы использования препарата Регестенол в диагностике, лечении и профилактике.

Ключевые слова: Гинекология, бесплодие, гиповитаминоз, половые железы, дистрофия, атония матки, киста и гипофункция яичников, персистирующее желтое тело, анафродизия, образование, антитело, протоплазма.

THE EFFECTIVENESS OF THE DRUG REGOSTENOL IN THE TREATMENT OF GYNECOLOGICAL DISEASES IN COWS

Abstract: The article presents the causes, course and clinical symptoms of postpartum gynecological diseases in cows, methods and ways of using the drug Regestenol in diagnosis, treatment and prevention.

Keywords: Gynecology, infertility, hypovitaminosis, gonads, degeneration, uterine atony, ovarian cyst and hypofunction, persistent corpus luteum, anaphrodisia, mation, antibody, protoplasm.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Oxirgi yillarda Respublikamizda qoramolchilikni fan yutuqlari, ilg‘or tajribalar asosida rivojlantirish, oziqa bazasini mustahkamlash va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish, qoramollar zotini yaxshilash va genofondini boyitishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda chorvachilikni rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan muammolardan biri-qishloq xo‘jalik hayvonlarida uchraydigan tuqqandan keyingi homila yo‘ldoshining ushlanib qolishi oqibatida sigirlarda qisirliklar va ginekologik kasalliklarning kelib chiqishi hamda buning oqibatida chorvachilik xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazilmoqda. “Respublikamiz chorvachilik fermer xo‘jaliklarida har yili 20-30% sigirlar qisir bo‘lib qolishining asosiy sabablardan biri bu – homila yo‘ldosh ushlanib qolishidir”. Shunga asoslangan holda, qoramolchilik sohasida qisirlikni va tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi yo‘ldosh ushlanib qolishi sababini o‘rganish, oldini olish, yuqori samara beruvchi

davolash va profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi.

Dunyoning ko‘pchilik davlatlarida turli stress omillar va antisanitariya sharoitlari, oziqa ratsion tarkibining to‘laqonli emasligi, yayratish maydonchalarini yo‘qligi natijasida mahsuldor sigirlar orasida yo‘ldosh ushlanib qolishi oqibatida tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarning ko‘p uchrashi, organizmda moddalar almashinuvining buzilishlari, shuning oqibatida tabiiy rezistentlik pasayishi kuzatilmoqda. Shu sababli qoramollarda sut va go‘sht mahsuldorligining kamayishi, sifatining pasayishi, ko‘payish xususiyatlarining yomonlashuvi, fiziologik jihatdan rivojlanmagan buzoq tug‘ilishi, o‘sish – rivojlanishdan orqada qolishi va kelgusida podani to‘ldirish uchun yaroqsiz bo‘lishi, xo‘jalikda yuqori mahsuldor sigirlardan foydalanish muddatlarining kamayishi, mahsulot yetishtirish uchun oziqa sarfining ortishi kabi muammolar mavjud [1; 280 b., 3; 12 b., 4; 125-128 b., 5; 120-123 b.].

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Kitob tumanidagi “Gulgunpusht chorvasi” Pasdarg‘om tumani “Mirvali, Abror, Begali” chorvachilik fermer xo‘jaliklarida sigir va tanalarni rektal va UTT jixozi yordamida qisir-bo‘g‘ozlikka tekshirib, qisir hayvonlar alohida ajratilib, qisirlik sabablari akusher-ginekologik tekshirilib aniqlangandan so‘ng davolash ishlari olib borildi.

TADQIQOT OB’EKTI VA USULLARI

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi “Gulgunpusht chorvasi” Samarqand viloyati Pasdarg‘om tumani “Mirvali, Abror, Begali” sut yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan chorvachilik fermer xo‘jaliklarida olib borildi. Sigirlarni qisirlik (alimentar, simtomatik, eksplutatsion) sabablari va patogenezi o‘rganilib davolash va oldini olish chora-tadbirlari olib borildi.

Tekshiruvlarni o‘tkazish va uning natijalari. Ginekologik kasalliklardan 60-80 foizni jinsiy a’zolarning har xil yallig‘lanishlariga to‘g‘ri keladi, bu yallig‘lanishlar ko‘pincha sigirlarning tuqqandan keying homila yo‘ldoshining ushlanib qolishidan paydo bo‘ladi. Sigirlarda homila yo‘ldosh ushlanib qolishi ko‘proq bachadon atoniyasi va gipotaniyasi hamda ularni retraksion (qisqarish) faoliyatining buzilishi, susayishida yoki xorion va bachadon korinkulalarining jipistlashidan paydo bo‘ladi. Tadqiqotlarda ikkita chorvachilik fermer xo‘jaliklarda aniqlangan 34 bosh bepusht sigirlarda olib borildi. Har bir xo‘jalikdagi bepusht sigirlar 2 ta guruh nazorat va tajriba guruhlariga ajratilib tajribada bo‘lgan bepusht sigirlar Regestenol (D-kloprostenol) preparati yordamida davolash ishlari olib borildi.

OLINGAN NATIJALAR VA USULLARNING TAHLILI

Chorvachilik fermer xo‘jaliklarida aniqlangan bepusht (qisir) sigirlar alohida guruhlarga ajratilib saqlash va oziqlantirish sharoiti to‘yimli oziqalar bilan boyitilgan oziqalar bilan davolash davomida ta’minlanib borildi. Bepusht sigirlarni davolashda Rossiyada ishlab chiqilgan Regestenol (D-kloprostenol) preparati samaradorligini o‘rganish bo‘yicha eksperimental tajribalar har guruhda 10 boshdan 2 guruh va nazoratda bo‘lgan xar guruhda 7 boshdan sigirlarda tajribalar olib borildi.

Regestenol (D-kloprostenol) preparatini bepusht (qisir) sigirlarni davolovchi samarasi 2 guruh 20 bosh sigirlarda umumiy davolash usuliga qo‘shimcha Regestenol preparati sigirlar muskul orasiga 2-3 ml qo‘llab tajribalar olib borildi. 14 bosh nazoratda bo‘lgan sigirlarga 2 marta har davolash kuni boshlanganda va davolashni 7-kunida muskul orasiga sinestrolning 2 foizli yog‘dagi eritmasi 5 ml dan va mikroorganizmlarga qarshi bachadon ichiga yodapen preparati qo‘llanildi. Bundan tashqari davolanishni 2 va 5-kunlari teri ostiga 40 TB oksitotsin va penstrep antibiotigidan 20 kg/tv 1 ml miqdorda muskul orasiga yuborildi.

Tajriba guruhida bo‘lgan sigirlarga ham xuddi shunday davolash ishlari olib borildi, faqatgina sinestrol preparati o‘rniga jinsiy organlarni faolyatini faollashtiruvchi vosita sifatida Regestenol preparati davolashni boshlangan va 11-kunlari 3 sm^3 dan 2 marta muskul orasiga yuborib davolandi.

1-jadval. Sigirlar tuqqandan keyingi endometritni davolashda regestenol preparatining samarasi

№	Davolashda qo‘llanil-gan preparatlar nomi	Kasal Sigir-lar bosh soni	Preparat yuborish miqdori sm^3 2 marta xar 7-10 kunda	Kuyga kelgan vaqti	2 oydan keyin rektal tekshirish natijasi.	Davolash samara-dorligi %
1	Regestenol	20	3sm^3 dan m/o	25	17 bosh bo‘g‘oz 3 bosh bepusht	85,0
2	Nazorat Sinestrol	14	5 ml dan m/o	35	9 bosh bo‘g‘oz 5 bosh bepusht	64,3

Tadqiqotlar jarayonida tajriba guruxidagi sigirlarga Regesteno preparati davolashni 1 va 11-kunlari 3 sm^3 miqdorda yuborilib davolandi. Regestenol preparati qo‘llanilgan guruxdagi 20 bosh sigirdan 17 boshi 85,0 %, davolanib kuyga kelib otalangan bo‘lsa, 2-nazorat guruxdagi sinestrol preparati 1 va 5-kunlari qo‘llanilgan sigirlarda samaradorlik 70,0 foizni tashkil etganligi aniqlandi. Regestenol preparati sigirlarda tuqqandan keyingi endometritlarni davolashda 1 va 11-kunlari yuborilib davolash samaradorligi 90,0 foizni va sinestrol preparatini 1 va 7-kunlari qo‘llash bilan davolash samaradorligi 64,3 foizni tashkil etdi.

Jinsiy organlari zararlangan sigirlarga Regestenol preparatini qo‘llash natijasida, ularning kuyga kelishi tezlashishi bilan birga servis davri o‘rtacha 15-20 kunga qisqarganini kuzatilkdi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, sigirlardagi tuqqandan keyingi servis davri uzoq bo‘lgan va qisir sigirlarni davolashda umumiy davolash usuliga qo‘shimcha Regestenol preparatini 3 sm^3 dan muskul orasiga yuborish yuqori samara berishi tajribalarda kuzatildi. Bundan tashqari, Regestenol preparat qo‘llanilganda davolash vaqti 12 kunni tashkil etib, davolangandan so‘ng sigirlar 40-45 kun davomida urug‘lantirildi va otalanganligi aniqlandi.

XULOSALAR

1-tajriba guruhida bo‘lgan sigirlarga jinsiy a’zolarni faolyatini faollashtiruvchi vosita sifatida Regestenol preparati davolashni boshlangan va 11-kunlari 3 sm^3 dan 2 marta muskul orasiga yuborib davolanganda 20 bosh sigirlarda 17 boshi (85,0%) kuyga kelib otalanganligi kuzatildi. 2-nazorat guruxdagi sinestrol preparati 1 va 5-kunlari qo‘llanilgan sigirlarda samaradorlik 70,0 foizni tashkil etganligi aniqlangan. Regestenol preparati sigirlarda tuqqandan keyingi endometritlarni davolashda 1 va 11-kunlari yuborilib davolash samaradorligi 90,0 foizni va sinestrol preparatini 1 va 7-kunlari qo‘llash bilan davolash samaradorligi 64,3 foizni tashkil etishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Муртазин Б. Бактериальные аспекты акушерско- гинекологической. Патологии коров // Дисс. на соискание ученой степени доктора ветеринарных наук. Самарканд, 2009. – 280 с.
2. Студенцов А.Л и др Акушерство, гинекология и биотехника размножения животных. М.: Колос. 2005.

3. O.U.Kuldashev, Sh.K.Baliev, J.N.Ochilov Sigirlar tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarni davolash va oldini olish bo‘yicha tavsiyanoma.// O‘zbekiston Respublikasi Davlat Veterinariya bosh boshqarmasi.05.05.Samarqand, 2017. - 12 b.
4. Кулдашев О.У. Симтоматического бесплодия крупного рогатого скота в Узбекистане. //«Наука XXI века- взгляд в будущее» Сборник статей III международная научно-практическая конференция «ЛОГОС» г.Ставрополь, 2018. –С. 125-128
5. Кулдашев О.У., Болиев Ш.К. Стимулирование воспроизводительной функции у коров. //«Наука XXI века- взгляд в будущее» Сборник статей III международная научно-практическая конференция «ЛОГОС» г.Ставрополь, 2018. - С. 120-123.
6. O.U.Kuldashev, M.T.Isayev Sigirlarning endometrit kasalligini davolashda samarali usul va vositalarni yaratish.// Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Buxoro, 2019. - B. 267-269.
7. O.U.Kuldashev, M.T.Isayev, N.Sh.Xamraqulov, N.S.Saloxiddinova Chorvachilik fermer xo‘jaliklarida sigirlarda akusher-ginekologik kasalliklarni fasillar bo‘yicha tarqalishi.// Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Buxoro,2019. - B. 270-273.
8. O.U.Kuldashev, M.T.Isayev, N.Sh.Xamraqulov, N.S.Saloxiddinova Sigirlar mahsuldorligiga va reproduktiv fa’oliyatiga mikroiqlimning ta’siri. // Cho‘l yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho‘llanishning oldini olishning ilmiy-amaliy asoslari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019. - B. 401-403.

UDK: 619:618.17-002:636.22/28

SIGIRLARDA HOMILA YO‘LDOSHNING USHLANIB QOLISHINI OLDINI OLISHDA GONADIN VA FERTADIN PREPARATLARINING SAMARASI

Ochilov Jamshid Nasirdinovich
katta ilmiy xodim v.f.f.d., Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17893536

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada sigirlarda homila yo‘ldoshini ushlanib qolishi kasalliklarini davolash va oldini olish, sigirlarning urug‘lantirilgandan so‘ng otalanish darajasi o‘rganilib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan chorvachilik fermer xo‘jliklarida o‘rganilgan, bunda sigirlar tug‘ganidan keying akusher-ginekologik kasalliklarning oldi olingan hamda servis davrini 60-70 kundan oshmasligini ta’minlash zarurligigi ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Sigir, homila yo‘ldoshi, qisirlik, akusher-ginekologik kasalliklar, preparat, gonadin, fertadin, servis davri, urug‘lantirish, otalanish.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТОВ ГОНАДИНА И ФЕРТАДИНА В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ОТСЛОЙКИ ПЛАЦЕНТЫ У КОРОВ.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются вопросы лечения и профилактики отслойки плаценты у коров, плодовитость коров после осеменения, необходимость профилактики акушерско-гинекологических заболеваний после родов на фермах крупного рогатого скота, а также обеспечение того, чтобы сервис-период не превышал 60-70 дней.

Ключевые слова: корова, плацента, бесплодие, акушерско-гинекологические заболевания, лекарственный препарат, гонада, фертадин, срок службы, оплодотворение, отцовство.

THE EFFECTIVENESS OF GONADINE AND FERTADINE PREPARATIONS IN PREVENTING PLACENTAL ABRUPTION IN COWS

Abstract: This scientific article examines the treatment and prevention of placental abruption in cows, the fertility of cows after insemination, the need to prevent obstetric and gynecological diseases after birth on cattle farms, and ensuring that the service period does not exceed 60-70 days.

Keywords: Cow, placenta, infertility, obstetric and gynecological diseases, drug, gonad, fertadine, service period, fertilization, fatherhood.

KIRISH

Oxirgi yillarda respublikamizda qoramolchilikni fan yutuqlari, ilg‘or tajribalar asosida rivojlantirish, oziqa bazasini mustahkamlash va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish, qoramollar zotini yaxshilash va genofondini boyitishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda chorvachilikni rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan muammolardan biri-qishloq xo‘jalik hayvonlarida uchraydigan tuqqandan keyingi homila yo‘ldoshining ushlanib qolishi oqibatida sigirlarda qisirliklar va ginekologik kasalliklarning kelib chiqishi hamda buning oqibatida chorvachilik xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazilmoqda. “Respublikamiz chorvachilik fermer xo‘jaliklarida har yili 20-30% sigirlar qisir bo‘lib qolishining asosiy sabablardan biri bu – homila yo‘ldosh ushlanib qolishidir”. Shunga asoslangan holda,

qoramolchilik sohasida qisirlikni va tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi yo‘ldosh ushlanib qolishi sababini o‘rganish, oldini olish, yuqori samara beruvchi davolash va profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi [1., 2.].

Dunyoning ko‘pchilik davlatlarida turli stress omillar va antisanitariya sharoitlari, oziqa ratsion tarkibining to‘laqonli emasligi, yayratish maydonchalarini yo‘qligi natijasida mahsuldor sigirlar orasida yo‘ldosh ushlanib qolishi oqibatida tuqqandan keyingi ginekologik kasalliklarning ko‘p uchrashi, organizmda moddalar almashinuvining buzilishlari, shuning oqibatida tabiiy rezistentlik pasayishi kuzatilmoqda. Shu sababli qoramollarda sut va go‘sht mahsuldorligining kamayishi, sifatining pasayishi, ko‘payish xususiyatlarining yomonlashuvi, fiziologik jihatdan rivojlanmagan buzoq tug‘ilishi, o‘sish – rivojlanishdan orqada qolishi va kelgusida podani to‘ldirish uchun yaroqsiz bo‘lishi, xo‘jalikda yuqori mahsuldor sigirlardan foydalanish muddatlarining kamayishi, mahsulot yetishtirish uchun oziqa sarfining ortishi kabi muammolar mavjud [3., 4., 5., 6.].

Sigirlarda homila yo‘ldoshining ushlanib qolishining oldini olish bo‘yicha adabiyot ma’lumotlarida umumiy kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish sigirlar tug‘ishidan oldin va tug‘gandan kiyin olib borilishi tug‘ish jarayonining yengil kechishi va reproduktiv faoliyatini oshirgan.

Homila yo‘ldoshining ushlanib qolishi va tug‘gandan kiyingi kasalliklar oldini olishning asosiy tadbirlari sigir va tanalarning bug‘ozlik davridan boshlab olib borilishi kerak. Bunda oziqa ratsionini yaxshilash hamda yetishmaydigan moddalarni qo‘shib berish, to‘g‘ri parvarish qilish va saqlash sharoitini yaxshilash hamda faol yayratishni tashkil etish zarur. Shu bilan birga, bug‘oz hayvonlarni tug‘ishga to‘g‘ri tayyorlash va tug‘ruq vaqtida veterinariya yordamini o‘z vaqtida bajarish sigirlarda homila yo‘ldosh ushlanib qolishi va tug‘gandan kiyingi kasalliklarni oldini olishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda veterinariya meditsinasida asosiy e’tibor kasallangan hayvonlarni alohida davolashga emas, umumiy podadagi sigirlarni sog‘lom saqlashga qaratilgan. Bunda homila yo‘ldoshning ushlanib qolishini davolashdan ko‘ra, oldini olish iqtisodiy tomondan ham foydali hamda tejamkor hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Sigirlarda homila yo‘ldoshining ushlanib qolishi kasalliklarini davolash va oldini olish samaradorligi sigirlarning otalanish darajasi bilan bog‘liq. Bunda sigirlarning “Servis davrini” ya’ni tug‘ganidan so‘ng otalanishigacha o‘tadigan davrni qisqartirish, ya’ni uni 60-70 kundan oshmasligini ta’minlash zarur.

Urg‘ochi hayvonlarning qisir bo‘lib yurishiga va bosh sonining ko‘payishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri jinsiy a’zolardagi tug‘gandan kiyingi patologik jarayon oldini olish.

MATERIALLAR VA USULLAR

Sigirlarda tug‘gandan kiyingi homila yo‘ldosh ushlanib qolishining oldini olishda gonadin va fertadin preparatlarining samarasini o‘rganishlar 2 ta tajriba hamda 2 ta nazorat guruhlarida 10 boshdan 4 guruh sigirlarda olib borildi. Nazoratda bo‘lgan sigirlarga preparat qo‘llanilmadi. Birinchi tajriba guruhidagi bo‘lgan 10 bosh sigirlarga tug‘ganidan 1 soat o‘tganidan so‘ng Gonadin preparati 2,0 ml dan muskul orasiga yuborildi, ikkinchi tajriba guruhidagi 10 bosh sigirlarga tug‘gan sigirga tug‘ganidan 2 soat o‘tganidan so‘ng fertadin preparati 2,0 ml dan muskul orasiga yuborildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Birinchi tajriba va nazorat guruhida tajribadagi sigirlarga gonadin preparati yuborilgandan so‘ng 9 bosh sigirning homila yo‘ldoshi 16 soat ichida to‘liq tushgan bo‘lsa, 1 bosh sigirning homila yo‘ldoshi tug‘gandan so‘ng 24 soatdan kiyin operativ (qo‘l bilan) olindi va kerakli davolash ishlari olib borildi, nazoratda bo‘lgan 10 bosh sigirlarga preparat qo‘llanilmaganligi natijasida 5 bosh sigirning homila yo‘ldoshi tug‘gandan kiyin 24 soatdan so‘ng operativ (qo‘l bilan) olinib, kerakli davolash ishlari olib borildi.

Ikkinchi tajriba va nazorat guruhi, tajribadagi sigirlarning 8 bosh sigirning yo‘ldoshi 15 soat ichida to‘liq tushdi va 2 bosh sigirning yo‘ldoshi tug‘ganidan 24 soatdan kiyin operativ (qo‘l bilan) ajratib olindi hamda kerakli davolash ishlari olib barildi. Nazoratda bo‘lgan 10 bosh sigirlarga preparat qo‘llanilmaganligi sababli, 6 bosh sigirning yo‘ldoshi tug‘gandan kiyin 24 soat o‘tgach operativ (qo‘l bilan) ajratib olinib, kerakli davolash ishlari olib borildi (1-jadval).

1-jadval. Gonadin va fertadin preparatlarining sigirlarni homila yo‘ldoshini ushlanib qolishini oldini olishdagi samaradorlik ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Preparatni qo‘llash sxemasi	Sigirlar soni	yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlar	
			soni	
1-tajriba	Gonadin preparati 2 ml dan muskul orasiga yuborildi	10	1	10,0
1-nazorat	Preparati qo‘llanilmadi	10	5	50,0
2-tajriba	Fertadin preparati 2 ml dan muskul orasiga qo‘llanildi	10	2	20,0
2-nazorat	Preparatlar qo‘llanilmadi	10	6	60,0

Gonadin preparati sigirlar tug‘gandan kiyin 2,0 ml yuborib qo‘llanilishi sigirlarda homila yo‘ldoshining ushlanib qolishini oldini olishda nazoratda bo‘lgan sigirlarga qaraganda yuqori samara berishi, Fertadin preparatining tug‘gandan kiyingi yo‘ldosh ushlanib qolishini oldini olishdagi samarasini o‘rganishda ma’lum bo‘ldiki, sigirlarga tug‘gandan 2 soat o‘tganidan so‘ng 2,0 ml miqdorda yuborilganda homila yo‘ldoshi tushishini tezlashtirishi va yo‘ldosh ushlanib qolishining oldini olishda yuqori samara berishi aniqlandi.

XULOSALAR

Birinchi tajriba guruhiga gonadin preparati sigirlar tug‘ganidan 1 soat o‘tgandan so‘ng 2 ml miqdorida muskul orasiga qo‘llanilganda 10 bosh sigirdan 1 boshida homila yo‘ldoshining ushlanib qolishi kuzatildi ya’ni 90 % samara berdi. Ikkinchi tajriba guruhiga fertadin preparati sigirlar tug‘ganidan 2 soat o‘tgandan so‘ng 2 ml miqdorida muskul orasiga qo‘llanilganda 10 bosh sigirdan 2 boshida homila yo‘ldoshining ushlanib qolishi kuzatildi ya’ni 80 % samara berdi.

Birinchi va ikkinchi tajriba guruhlarida qo‘llanilgan preparatlar nafaqat homila yo‘ldoshining ushlanib qolishini oldini olishi, servis davrining qisqa hamda urug‘lantirilganda otalanish samarasining ham yuqoriligi tajribalarda aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. J.N.Ochilov, Sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishi etiologiyasi, patogenizi, davolash va oldini olish. Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil B. 50.
2. J.N.Ochilov, O.U.Kuldashev, va bosh. Sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishi davolash va oldini olish bo‘yicha tavsiyanoma 2024 yil B. 20.
3. O.U.Kuldoshev, M.T.Isayev, va bosh. Sigirlar endometrit kasalligini oldini olish va davolash bo‘yicha tavsiyalar. Samarqand 2020 yil B. 12.
4. J.N.Ochilov, O.U.Kuldashev. Sigirlarda homila yo‘ldoshining ushlanib qolishini oldini olishda Fertadin preparatining samarasi. Veterinariya meditsinasi jurnali 2023. Maxsus № 7-son.
5. J.N.Ochilov, O.U.Kuldashev. Sigirlarda homila yo‘ldoshining ushlanib qolishini oldini olishda Gonadin preparatining samarasi. Veterinariya meditsinasi jurnali 2023. Maxsus № 7-son.
6. O.U.Kuldashev, Sh.K.Baliyev, J.N.Ochilov. Sigirlar tuqqandan keying ginekologik kasalliklarini davolash va oldini olish bo‘yicha Tavsiyanoma. 2017 yil.

UDK: 619:616.636.095

SAMARQAND VILOYATIDA QO‘YLAR OSHQOZON-ICHAK STRANGILYATOZLARINING TARQALISHI

Uluqov Behzod Karamat o‘g‘li
tayanch doktorant, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti
Jabborov Shuxrat Abdumajidovich
v.f.d., professor, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17913807

Annotatsiya: ushbu maqolada joriy yilda Respublikamizning markaziy hududi hisoblangan – Samarqand viloyatining turli tumanlari bo‘yicha qo‘ylarning gelmintozlar bilan zararlanish darajasi, asosiy gelmintozlarning tarqalish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘ylar, gelmint, gelmintoz, strangilyatoz, marshallagioz, umumiy zararlanish, ekstenszararlanish.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНЫХ СТРОНГИЛЯТОЗОВ ОВЕЦ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Улуков Бехзод Карамат угли
базовый докторант, Научно-исследовательский институт ветеринарии
Жабборов Шухрат Абдумажидович
д.в.н., профессор, Научно-исследовательский институт ветеринарии

Аннотация: в статье приведены данные об уровне зараженности овец гельминтозами и распространении основных гельминтозов в различных районах Самаркандской области, считающейся центральным регионом нашей Республики, в текущем году.

Ключевые слова: овцы, гельминт, гельминтоз, странгуляция, маршаллиоз, общая инфекция, обширная инфекция.

DISTRIBUTION OF GASTROINTESTINAL STRONGYLATOSES IN SHEEP IN SAMARKAND REGION

Uluqov Behzod Karamat ugli
PhD student, Veterinary Scientific Research Institute
Jabborov Shukhrat Abdumajidovich
Doctor of Veterinary Sciences, Professor, Veterinary Scientific Research Institute

Abstract: this article presents data on the level of helminthic infestation in sheep and the prevalence of the main helminthic diseases in various districts of the Samarkand region, considered the central region of our Republic, this year.

Key words: sheep, helminth, helminthiasis, strangulation, marshallosis, general infection, extensive infection.

KIRISH

Qo‘ylar orasida gelmintozlar keng tarqalgan bo‘lib, qo‘ychilik sohasiga sezilarli darajada iqtisodiy zarar keltiradigan turlarini mamlakatimiz iqlim mintaqalari bo‘yicha tarqalishini aniqlash ham dolzarb bo‘lib, o‘z echimini kutayotgan muammolardan biridir.

Samarqand viloyati Respublikamizning mazkaziy mintaqasida joylashgan. G‘arb va shimoli-g‘arb tarafdan Navoiy viloyati bilan, shimol va shimoli-sharq tomondan Jizzax va janub

tomondan Qashqadaryo viloyatlari bilan, janubi-sharq tomondan Tojikiston Respublikasi bilan tutashgan. Iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq (iyulda + 26° +28°C), qishda esa sovuqroq (yanvarda -2°-5°C).


MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotlar joriy yilda Respublikamizning markaziy geografik iqlim-mintaqasi hududi Samarqand viloyatida olib borilgan tadqiqotlarda viloyatning Nurobod, Payariq tumanlaridagi “Nurobot tiklanish” fermer xo‘jaligi, “Nurli yo‘l” fermer xo‘jaligi, “Shodlik Fayz” fermer xo‘jaligi, “Nurmatov Eshpolat” fermer xo‘jaliklaridagi, Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti tajriba maydonidagi hamda aholi qaramog‘idagi qo‘ylarning 321 boshidan tekshirish uchun namunalar olindi va olingan natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqotlar davomida olingan namunalar gelmintoovoskopiyaning Fyulleborn va ketma-ket yuvish usullari, Berman-Orlovning VITIda takomillashtirilgan usulidan foydalanib tekshirildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Samarqand viloyatida olib borilgan tadqiqotlarimizda asosan Nurobod, Payariq tumanlarida joylashgan qo‘ychilik xo‘jaliklari va aholi xonadonlaridan hamda Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyalarining tajriba maydonchalarida saqlanadigan jami 321 bosh turli zotdagi (qorako‘l, mahalliy zotli) qo‘ylar to‘g‘ri ichagidan tezak namulari olindi va gelmintokoprologik (Fyulleborn, ketma-ket yuvish, Berman-Orlov) usullarida tekshirildi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra tekshirilgan qo‘ylarning 249 tasi (IE=77,57%) umuman aralash tarzda oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi.



1-rasm. Samarqand viloyatida qo‘ylarning gelmintozlar bilan ekstenszararlanganligi, % (n=321)

Samarqand viloyatining tadqiqotlar olib borilgan hududlarida qo‘ylarning 145 boshi (IE=45,17%) marshallagioz, 128 boshi (IE=39,88%) nematodiroz, 220 bosh turli zotli qo‘ylar (IE=68,54%) boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi. Tekshirilgan mahalliy zotli qo‘ylarning 229 boshi umumiy, aralash tarzda oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ya’ni IE=71,34 % ekstenszararlanganligi aniqlandi.

Nurobod tumani viloyatning adir-kontinental (sovuq va yarim quruq qishli hamda yozi uzoq issiq va quruq yozli) iqlim xususiyatli hududlaridan biri bo‘lib, ushbu tumandagi ayrim

qo‘ychilik xo‘jaliklari va aholi xonadonlaridan jami hisobda 147 bosh asosan mahalliy zotli qo‘ydan tezak namunalari olinib koprologik usullar bilan tekshirildi.

1-jadval: Nurobod tumanida qo‘ylarning oshqozon ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi, gelmintokoprologik tekshirishlar asosida

T/r	Hududlar (xo‘jaliklar) nomi	Umumiy bosh soni	n=147							
			Oshqozon ichak strongilyatozlari bilan umumiy zararlanish		Marshallagioz		Nematodiroz		Boshqa tur oshqozon ichak strongilyatozlari	
			n=	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*
Nurobod tumani										
1	Aholi xonadonlari	47	35	74,47	24	51,1	19	40,4	34	72,3
2	“Nurobod tiklanish” f/x	50	37	74,0	21	42,0	20	40,0	37	74,0
3	“Nurli yo‘l” f/x	50	36	72,0	17	34,0	16	32,0	35	70,0
	Jami:	**147**	**108**	**73,47**	**62**	**42,18**	**55**	**37,41**	**106**	**72,11**

1-jadvaldan ko‘rinadiki, tadqiqotlar natijasiga ko‘ra tekshirilgan qo‘ylarning 108 boshi (IE=73,47%) umumiy oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi. Tekshirilgan qo‘ylarning har bir gelmintoz bo‘yicha zararlanishini alohida tahlil qilganimizda ularning 62 boshida (IE=42,18%) marshallagioz, 55 boshida (IE=37,41%) nematodiroz va 106 boshida (IE=72,11%) boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlari qo‘zg‘atuvchilarining invazion tuxumlari topildi.

Keyingi tadqiqotlarimiz Payariq tumanida olib borildi. Payariq tumani iqlimi tipik-kontinental (yozda issiq va quruq, qishda sovuq va yomg‘irli) hisoblanadi, ushbu tumandagi ayrim qo‘ychilik xo‘jaliklari va aholi xonadonlaridan jami hisobda 120 bosh mahalliy zotli qo‘ydan tezak namunalari ananaviy uslublardan foydalanib to‘g‘ri ichakdan olinib koprologik usullar bilan tekshirildi. Tezak namunalarini maxsus qog‘oz paketlarda institutning Gelmintologiya laboratoriyasi “Motic 1” lyuminassens (yorug‘lik mikroskopi) yordamida 1x10; 1x40 o‘lchamli obyektivlar yordamida ko‘rildi (2-jadval).

2-jadval: Payariq tumanida qo‘ylarning oshqozon ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi

T/r	Hududlar (xo‘jaliklar) nomi	Umumiy bosh soni	n=120							
			Oshqozon ichak strongilyatozlari bilan umumiy zararlanish		Marshallagioz		Nematodiroz		Boshqa tur oshqozon ichak strongilyatozlari	
			n=	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*
Payariq tumani										

1	Aholi xonadonlari	30	21	70,0	19	63,3	17	56,7	21	70,0
2	“Shodlik Fayz” f/x	42	30	71,43	23	54,8	18	42,8	30	71,4
3	“Nurmatov Eshpo‘lat” f/x	48	31	64,58	21	43,7	19	39,6	29	60,4
	Jami:	**120**	**82**	**68,33**	**63**	**52,5**	**54**	**45,0**	**80**	**66,67**

2-jadval ma’lumotlarini tahlil qilganimizda, tadqiqotlar natijasiga ko‘ra tekshirilgan qo‘ylarning 82 boshi (IE=68,33%) umumiy oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi. Tadqiqotlarimiz natijasida tekshirilgan qo‘ylarning har bir gelmintoz bo‘yicha zararlanishini tahlil qilganimizda ularning 63 boshida (IE=52,5%) marshallagioz, 54 boshida (IE=45,0%) nematodiroz hamda 80 boshida (IE=66,67%) boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlari qo‘zg‘atuvchilarining invazion tuxumlari aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz davomida muntazm ravishda VITI laboratoriyalarida mavjud va tajriba hayvonlari sifatida saqlanadigan qo‘ylarda tekshirishlar olib borildi. Bunda asosan 3 ta laboratoriya tajriba maydonchasida mavjud bo‘lgan 54 bosh qo‘ylar gelmintokoprologik tekshirilganda ularning 39 boshi (IE=72,22%) aralash tarzda oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi. Shundan har bir gelmintoz bo‘yicha aniqlaganimizda, tekshirilgan qo‘ylarning 20 boshida (IE=37,04%) marshallagioz, 19 boshida (IE=35,19%) nematodiroz va 34 boshida (IE=62,96%) boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi qayd etildi (3-jadval).

3-jadval: VITI laboratoriyalaridagi saqlanayotgan qo‘ylarning oshqozon ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi

T /r	**Laboratoriyalar nomi**	**Umumiy bosh soni**	**n=54**							
			Oshqozon ichak strongilyatozlari bilan umumiy zararlanish		Marshallagioz		Nematodiroz		Boshqa tur oshqozon ichak strongilyatozlari	
			n=	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*
VITI laboratoriyalaridagi qo‘ylar										
1	Virusologiya	28	17	60,71	6	21,4	9	32,1	13	46,4
2	Mikrobiologiya	16	12	75,0	7	43,7	3	18,7	11	68,7
3	Gelmintologiya	10	10	100,0	7	70,0	7	70,0	10	100,0
	Jami:	**54**	**39**	**72,22**	**20**	**37,04**	**19**	**35,19**	**34**	**62,96**

Bundan tashqari tadqiqotlarimiz davomida qo‘ylarning 24,07% fassiolyoz bilan, 7,4% moniyezioz bilan ham zararlanganligi aniqlandi, tadqiqotlarimizda asosiy maqsad oshqozon-ichak strongilyatozlariga qarshi kurash bo‘lganligi sababli, jadvallar va rasmlarda boshqa tur va oilaga mansub gelmintozlarni keltirib o‘tmagan bo‘lsakda davolash va profilaktika tadbirlarida ushbu gelmintozlarga ham qarshi preparatlar samara berganligini kuzatdik.

Xulosa qilib aytganda tekshirilgan qo‘ylarning (n=321 bosh) 71,34 foizi umuman oshqozon-ichak strongilyatozlari (marshallagioz, nematodiroz, boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlar ya’ni ostertagioz, trixonstongilyatoz – ushbu gelmintozlar qo‘zg‘atuvchilarining tuxumlari bir muncha kichik va bir biriga morfologik o‘xshashligi sababli umumiy qilib boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlar deb nomlashni lozim topdik) bilan aralash zararlanganligini, izohlaydigan bo‘lsak, aynan bir bosh qo‘yda yuqorida keltirilgan barcha gelmintoz qo‘zg‘atuvchilarining tuxumlari topilganligi va yoki topilmaganligi yoki ayrimlarining mavjudligi, qolganlarining esa uchramaganligiga qarab zararlanish qayd etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Азимов Д.А. Гельминты и гельминтозы овец юга Узбекистана. Автореф. канд. дисс., М., 1963.
2. Азимов Ш.А. Фасциолёзы и аноплоцефилятозы овец и крупного рогатого скота в Узбекистане. Изд-во ФАН, 1974.
3. Джаббаров Ш.А. Гельминтозларга қарши кураш чора-тадбирларининг самарадорлиги ва уни ошириш йўллари. Докт. дисс. автореферати. Самарқанд, 2017. 52 б.
4. Иргашев И.Х. Гельминтозы мегкого рогатого скота в условиях Узбекистана (опыт эпизоотологической характеристики с последиюшей разработкой мер борьбы в зональноы разрезе). Автореф. докт. дисс., М., ВИГИС, 1963.
5. Орипов А.О. Трихостронгилидоза овец в Узбекистане и меры борьбы с ними. Автореф. докт. дисс., М., 1983.

UDK: 619:616.636.095

NAVOIY VILOYATIDA QO‘YLAR OSHQOZON-ICHAK STRANGILYATOZLARINING TARQALISHI

Uluqov Behzod Karamat o‘g‘li
tayanch doktorant, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti
Jabborov Shuxrat Abdumajidovich
v.f.d., professor Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17914725

Annotatsiya: ushbu maqolada joriy yilda respublikamizning markaziy hududi hisoblangan – Navoiy viloyatining turli tumanlari bo‘yicha qo‘ylarning gelmintozlar bilan zararlanish darajasi, asosiy gelmintozlarning tarqalish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘ylar, gelmint, gelmintoz, strangilyatoz, marshallagioz, umumiy zararlanish, ekstenszararlanish.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНЫХ СТРОНГИЛЯТОЗОВ ОВЕЦ В НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Улуков Бехзод Карамат угли
базовый докторант, Научно-исследовательский институт ветеринарии
Жабборов Шухрат Абдумажидович
д.в.н., профессор, Научно-исследовательский институт ветеринарии

Аннотация: в статье приведены данные об уровне зараженности овец гельминтозами и распространении основных гельминтозов в различных районах центрального региона нашей республики – Навоийской области – в текущем году.

Ключевые слова: овцы, гельминт, гельминтоз, странгуляция, маршаллиоз, общая инфекция, обширная инфекция.

DISTRIBUTION OF GASTROINTESTINAL STRONGYLATOSES IN SHEEP IN NAVOI REGION

Uluqov Behzod Karamat ugli
PhD student, Veterinary Research Institute
Jabborov Shukhrat Abdumajidovich,
Doctor of Veterinary Sciences, Professor Veterinary Scientific Research Institute

Abstract: this article presents data on the level of helminth infection in sheep and the prevalence of the main helminthic diseases in various districts of the central region of our republic – Navoi Oblast – this year.

Key words: sheep, helminth, helminthiasis, strangulation, marshallosis, general infection, extensive infection.

KIRISH

Navoiy viloyati Respublikaning o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, viloyat sharq tomondan Jizzax, janubi-sharq tomondan Samarqand, janub tomondan Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari hamda g‘arb tomonda Qoraqalpog‘iston, shimol tomondan Qozog‘iston Respublikalari bilan chegaradosh. Iqlimi keskin kontinental. Yozi issiq va quruq, uzoq davom etadi (iyulda +27,2 +29,6°C), qishi sovuq (yanvarda – 1,9° - 0,6°C) cho‘l hududlarida bundan yuqori.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqotlar joriy yilda Respublikamizning markaziy-g‘arbiy iqlim-mintaqasi hududi Navoiy viloyatining Konimex, Karmana tumanlari hududidagi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar (aholi xonadonlarida saqlanayotgan qo‘ylar) va “Uchtepa chorva Gold” MChJ ga qarashli xo‘jaliklaridagi Qorako‘l va mamlakatimizga olib kelib iqlimlashtirilayotgan Bayad zotli qo‘ylardan olingan 451 ta tezak namunalar tekshirildi. Olingan natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqotlar davomida olingan namunalar gelmintoovoskopiyaning Fyulleborn va ketma-ket yuvish usullari, Berman-Orlovning VITIda takomillashtirilgan usulidan foydalanib tekshirildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI


Respublikamizdagi eng yirik qo‘ychilik sohasi rivojlangan Navoiy viloyatida qo‘ylarning oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan zararlanish darajasini aniqlash va ularga qarshi kurash borasida tadqiqot ishlari olib borildi. Navoiy viloyati O‘zbekistonning markaziy-g‘arbiy qismida, Zarafshon daryosining o‘rta oqimi bo‘yida joylashgan bo‘lib, shimolda Qizilqum cho‘li bilan, janubiy va sharqiy qismlarida esa **Nurota, Qoratog‘, Qarnob va Zarafshon tog‘ tizmalari** joylashgan. Navoiy viloyati iqlimi **keskin kontinental, quruq va cho‘l iqlimi** tipiga mansub. Navoiy viloyatida yoz oylarida havo harorati o‘rtacha +28…+30^0 C bo‘lib, eng yuqori harorat +45^0 C gacha etadi, qishi nisbatan sovuq bo‘lib, yanvarda o‘rtacha harorati -2…-4^0 C, eng past harorat -25^0 C gacha pasayadi. Viloyat hududida kam yog‘in yog‘ishi, yerlarda sho‘rlanish darajasining yuqoriligi va dehqonchilikning suv tejovchi texnologiyalarga tayanilganligi, qishloq xo‘jaligida asosan **chorvachilik** ya’ni qo‘ychilikni tarmog‘ini rivojlanishini belgilab bergan omil sifati ham qarash mumkin. Ma’lumki Respublikamizga Mo‘g‘uliston davlatidan 100 ming bosh Bayad zotli qo‘ylar olib kelinishi yo‘lga qo‘yildi va ushbu qo‘ylarni mamalakatimizga iqlimlashtirish asosan Navoiy viloyatidan boshlanishi belgilanib dastlabki partiya qo‘ylar olib kelindi. Bundan tashqari, viloyat hududida Qorako‘l zotli qo‘ylar boqiladigan xo‘jaliklar mavjud bo‘lib ushbu qo‘ylar orasida oshqozon-ichak strongilyatozlarini tarqalishini aniqlash hamda chetdan olib kelinayotgan qo‘ylarda profilaktik tadbirlarni olib borish uchun qo‘ylar to‘g‘ri ichagidan tezak namunalari olinib koprologik usullar bilan tekshirildi. Navoiy viloyatida Konimex, Karmana tumanlarida turli zotli tekshirilgan jami 451 bosh qo‘ylarning umumiy oshqozon ichak strongilyatozlari bilan zararlanganligi 287 bosh yoki IE=63,64 % ni tashkil qilishi aniqlandi, ulardan 111 bosh (IE=24,6%) qo‘y marshallagioz, 147 bosh (IE=32,6%) nematodiroz va 177 bosh qo‘y yoki IE=39,2% boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval: Navoiy viloyatida qo‘ylarning oshqozon ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi, (n=451)

T /r	Hududlar (xo‘jaliklar) nomi	Umumiy bosh soni	*n=451*			
			Oshqozon ichak strongilyatozlari bilan umumiy zararlanish	Marshallagioz	Nematodiroz	Boshqa tur oshqozon ichak strongilyatozlari

			n=	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*	*n=*	*%*
1	Konimex tumani	353	242	68,56	96	27,2	124	35,1	148	41,9
2	Karmana tumani	98	45	45,92	15	18,8	23	28,8	29	36,3
JAMI		**451**	**287**	**63,64**	**111**	**24,6**	**147**	**32,6**	**177**	**39,2**

Navoiy viloyatning Konimex tumani hududida shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar (aholi xonadonlari) va “Uchtepa chorva Gold” MChJ ga qarashli xo‘jaliklarda tekshirilgan 353 bosh turli zotli qo‘ylardan tezak namunalari olinib koprologik tekshirilganda ularning jami 242 bosh (IE=68,56%) qo‘ylar umumiy oshqozon ichak strongilyatozlar bilan aralash tarzda zararlanganligi aniqlandi, shu jumladan 96 boshi (IE=27,20%) marshallagiyalar bilan, 124 boshi (IE=35,10%) nematodiroz bilan va 148 boshi (IE=41,90%) boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatlar bilan ekstenszararlanganligi qayd etildi (1-rasm).




1-rasm. Konimex tumanida qo‘ylarning oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi, (n=353)

Karmana tumanida shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar ya’ni aholi xonadonlarida saqlanayotgan turli yoshli tekshirilgan jami 98 bosh Qorako‘l zotli qo‘ylarning 15 boshida (IE=18,8%) marshallagiya, 23 boshida (IE=28,8%) nematodirus va 29 boshida (IE=36,3%) boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatlar tuxumlari topildi. Tekshirilgan qo‘ylarning ushbu gelmintozlar bilan umumiy aralash tarzda ekstenszararlanishi IE=45,92 foizni tashkil etishi yoki 45 bosh qo‘yda aniqlandi.

Navoiy viloyatidagi tadqiqotlarimiz natijalarining tahliliga ko‘ra oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan qo‘ylar zararlanishning eng yuqori ko‘rsatkichi (tekshirilgan 183 bosh

qo‘yning 123 boshida (IE=67,21%)) Konimex tumanida aholi xonadonlarida saqlanadigan qo‘ylarda qayd etildi.



2-rasm. Karmana tumanida qo‘ylarning oshqozon-ichak strongilyatozlari bilan ekstenszararlanganligi, (n=98, IE=45,92%)

Viloyat hududida marshallagioz, nematodiroz va boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlar bilan zararlanish bir muncha yuqori bo‘lganligidan hamda bugungi kunda viloyat hududi va qo‘ychilik xo‘jaliklaridagi qo‘ylarning turli kasalliklar shuningdek gelmintozlar bilan qay darajada zararlanganligi, ularga qarshi kurash tadbirlari samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasidagi strategik ahamiyat kasb etayotganligini ham hisobga olib, bizlar tomonimizdan qo‘ylarning oshqozon-ichak strongilyatozlariga qarshi kurash tadbirlarining dala va xo‘jalik tajribalari asosan Navoiy viloyatidagi qo‘ylar orasida olib borildi. Tadqiqotlar natijalari asosida esa samarali bo‘lgan qarshi kurash tadbirlari ishlab chiqildi hamda yangi preparatlardan samarali foydalanish konsepsiyasi taklif etildi. Bundan tashqari amaliyotda keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan preparatga nisbatan rezistentlik mavjudligi borasida ham qiyosiy tadqiqot ishlari olib borildi, ushbu tadqiqot natijalari yuzasidan qarshi kurash uchun samarali bo‘lgan takliflar ishlab chiqildi.

XULOSA

Tadqiqotlar yuzasidan tahlil qilinganda, tekshirilgan qo‘ylarning (n=451 bosh) 63,64 foizi umuman oshqozon-ichak strongilyatozlari (marshallagioz, nematodiroz, boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlar ya’ni ostertagioz, trixonstongilyatoz – ushbu gelmintozlar qo‘zg‘atuvchilarining tuxumlari bir muncha kichik va bir biriga morfologik o‘xshashligi sababli umumiy qilib boshqa tur oshqozon-ichak strongilyatozlar deb nomlashni lozim topdik) bilan aralash zararlanganligini, izohlaydigan bo‘lsak, aynan bir bosh qo‘yda yuqorida keltirilgan barcha gelmintoz qo‘zg‘atuvchilarining tuxumlari topilganligi va yoki topilmaganligi yoki ayrimlarining mavjudligi, qolganlarining esa uchramaganligiga qarab zararlanish qayd etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азимов Д.А. Гельминты и гельминтозы овец юга Узбекистана. Автореф. канд. дисс., М., 1963.
2. Азимов Ш.А. Фасциолёзы и аноплоцефилятозы овец и крупного рогатого скота в Узбекистане. Изд-во ФАН, 1974.
3. Джаббаров Ш.А. Гельминтозларга қарши кураш чора-тадбирларининг самарадорлиги ва уни ошириш йўллари. Докт. дисс. автореферати. Самарқанд, 2017. 52 б.
4. Иргашев И.Х. Гельминтозы мегкого рогатого скота в условиях Узбекистана (опыт эпизоотологической характеристики с последиюшей разработкой мер борьбы в зональноы разрезе). Автореф. докт. дисс., М., ВИГИС, 1963.
5. Орипов А.О. Трихостронгилидоза овец в Узбекистане и меры борьбы с ними. Автореф. докт. дисс., М., 1983.

UO‘K: 619:639.3:616.7:616.9:614.6.

SAMARQAND VILOYATIDA BALIQLAR LIGULYOZINING TARQALISHI VA ZARARLANGAN BALIQLAR GO‘SHTINI VETERINARIYA-SANITARIYA JIHATIDAN BAHOLASH

Xamrayev Asqar Xasanovich
v.f.f.d. (PhD), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17863837

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyatining suv havzalarida baliqlar liguliyozining epizootologik holati o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida zararlangan baliqlarning tana uzunligi, massasi, Ligula intestinalis parazitining tana uzunligi, shuningdek, invaziya intensivligi (II) ko‘rsatkichlari aniqlangan. Bundan tashqari, maqolada baliq go‘shtining asosiy organoleptik (tashqi ko‘rinish, hid, konsistensiya) va biokimyoviy (pH, oqsil, yog‘, glikogen miqdori) ko‘rsatkichlarining invaziya intensivligiga qarab o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Olingan natijalar baliqlarning fiziologik holati, mahsulot sifati va ularning veterinariya-sanitariya bahosiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga imkon bergan.

Kalit so‘zlar: Ligulyoz, Ligula intestinalis, vodorod ionlar ko‘rsatkichi (pH), karpsimon, sazan, kumushtovon baliq (karas), chipor do‘ngpeshona, baliqlarning uzunligi, massasi, L.intestinalisning tana uzunligi invaziya intensivligi, inavziya ekstensivligi.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЛИГУЛИОЗА РЫБ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНАЯ ОЦЕНКА ЗАРАЖЕННОГО МЯСА РЫБ

Аннотация: В статье изучена эпизоотологическая ситуация по лигулиозу рыб в водоемах Самаркандской области. В ходе исследований определялись длина тела, масса зараженной рыбы, длина тела паразита Ligula intestinalis, а также показатели интенсивности инвазии (ИИ). Кроме того, в статье проанализирована динамика изменения основных органолептических (внешний вид, запах, консистенция) и биохимических (pH, содержание белка, жира, гликогена) показателей мяса рыб в зависимости от интенсивности инвазии. Полученные результаты позволили определить факторы, влияющие на физиологическое состояние рыбы, качество продукции и ее ветеринарно-санитарную оценку.

Ключевые слова: Лигулёз, Ligula intestinalis, водородный показатель (pH), карповые, карп, белый толстолобик (карас), карась, длина, масса рыбы, длина тела L. intestinalis, интенсивность инвазии, экстенсивность инвазии.

DISTRIBUTION OF FISH LIGULIASIS IN THE SAMARKAND REGION AND VETERINARY-SANITARY ASSESSMENT OF INFECTED FISH MEAT

Annotation: The article studies the epizootological situation of fish liguliasis in the water bodies of the Samarkand region. During the research, the body length, mass of the infected fish, the body length of the Ligula intestinalis parasite, as well as the invasion intensity (II) indicators were determined. In addition, the article analyzes the dynamics of changes in the main organoleptic (appearance, smell, consistency) and biochemical (pH, protein, fat, glycogen content) indicators of fish meat depending on the invasion intensity. The results obtained allowed us to determine the factors affecting the physiological state of fish, product quality and their veterinary-sanitary assessment.

Keywords: Ligulyoz, Ligula intestinalis, hydrogen ion index (pH), cyprinids, carp, silver carp (karas), crucian carp, length, mass of fish, body length of L. intestinalis, invasion intensity, invasion extensiveness.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda baliqchilik sohasi nafaqat aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda, balki minglab insonlarni ish bilan ta’minlash va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Hukumatimiz tomonidan so‘nggi yillarda ushbu tarmoqqa qaratilgan e’tibor, sohaga oid davlat nazoratining kuchaytirilishi hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida, mamlakatimizda baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Shu bois, aholini sifatli, ekologik jihatdan toza va me’yoriy standartlarga javob beradigan mahsulotlar bilan ta’minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda biz olib borayotgan “Karpsimon baliqlar liguliyozi, epizootologiyasi va veterinariya-sanitariya ekspertizasi” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar muayyan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, baliqchilik tarmog‘ida yuzaga keladigan kasalliklar profilaktikasi va mahsulot sifati nazoratiga oid tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Baliqlar tanasida yashovchi parazitlar orasida xom ashyoning fizik-kimyoviy va mikrobiologik xususiyatlarini o‘zgartiruvchi, tovar ko‘rinishini buzuvchi hamda odam va hayvonlar uchun xavfli turlar ham uchraydi. Shulardan eng xavflilaridan biri Ligula intestinalis paraziti bo‘lib, u baliqlarda liguliyoz kasalligini keltirib chiqaradi.

Baliqlarning Ligula intestinalis pleroserkoidlari bilan zararlanishi natijasida ularning ovqat hazm qilish fermentlarining faolligi hamda mushak to‘qimalaridagi glikogen miqdori sezilarli darajada kamayadi. Shu bilan birga, qorin bo‘shlig‘i a’zolari va ichak shilliq qavati bilan bog‘liq fermentlar faoliyatining pasayishi kuzatiladi. Bunday o‘zgarishlar natijasida baliqlarning fiziologik holati yomonlashadi, o‘sish sur’ati sekinlashadi va mahsulot sifati keskin pasayadi.

Liguliyozning keng tarqalishi baliq resurslari kamayishiga, mahsulotning tovar ko‘rinishining yo‘qolishiga va iqtisodiy zararlarning ortishiga olib keladi [3]. Shu sababli, kasallikning epizootologik xususiyatlarini o‘rganish, oldini olish va veterinariya-sanitariya ekspertizasini takomillashtirish baliqchilik sohasining barqaror rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi.

TADQIQOT OB’YEKTI VA USULLARI

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Kattaqo‘rg‘on suvombori”, Urgut tumanidagi “Qoratepa suvombori” suv havzalaridagi karpsimon baliqlardan sazan va kumushtovon baliq (karas) hamda chipor do‘ngpeshona baliqlaridan foydalanildi va liguliyozning epizootologik holati va kasallik bilan zararlangan baliq go‘shti sifatining asosiy ko‘rsatkichlari invaziya intensivligiga qarab o‘zgarishi o‘rganildi. Tajribalar universitetning Veterinariya-sanitariya ekspertizasi kafedrasining “Veterinariya-sanitariya ekspertiza” laboratoriyasida Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Kattaqo‘rg‘on suvombori”, Urgut tumanidagi “Qoratepa suvombori” suv havzalaridan olib kelingan sog‘lom va tabiiy zararlangan baliqlar ustida olib borildi Tadqiqot usullari sifatida organoleptik (rang, hid, konsistensiya, qaynatish testi); parazitologik, fizik-kimyoviy (vodorod ionlari konsentrasiyasini (pH) aniqlash) usullaridan foydalanildi. Bularning barchasi baliqda parazitlar aniqlanganda ushbu xomashyo va mahsulotlarning xavfsizligini obyektiv baholash imkonini beradi.



a b

1-Rasm. Na’munadagi baliqlar: Chipor do‘ngpeshona (a), kumush tovon (karas) baliqlari.

TADQIQOT NATIJALARI


Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanining tabiiy suv havzasi hisoblangan suv omborida baliqlar liguliyozining epizootologik holati va kasallik bilan zararlangan baliqlarning uzunligi, massasi, kasallikni qo‘zg‘atuvchisi hisoblangan L.intestinalisning tana uzunligi, II ko‘rsatkichlari hamda go‘shti sifatining asosiy organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarining invaziya intensivligiga [6] qarab o‘zgarishi o‘rganildi.



a b c

2-Rasm. Urgut tumanidagi “Qoratepa suvombori” (a) hamda “Kattaqurg‘on suvombori” (b) da epizootik holatni o‘rganish jarayoni (c).

Suv havzalarda epizootik holatni o‘rganish jarayonida ligulyozni tarqalishi uchun qulay sharoitlar, ta’sir etuvchi omillar: suv havzalarining gidrologik va gidrobiologik xususiyatlari, iqlim sharoiti; suv havzalarining sanitariya va epizootik holatini nazorat qilinmasligi; joylashuvda tekis yoki botqoq erlarda joylashganligi; o‘simlik va loy qatlamlari bilan o‘ralgan ko‘plab sayoz joylarga etibor qaratildi (2-Rasm).



3-Rasm. Baliqlar zararlanishini dala va laboratoriyada tekshiruv jarayonlari.

3-rasm hamda jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tekshirilgan 10 ta na'munadan 4-na'munada va 6-na'munada baliq tanasi uzunligi va massasining qancha kichikligi, pleroserkoid hajmi va soni ko'pligini ko'rsatib turibdi. Bunda umumiy o'rtacha holatda baliqlarning tana uzunligi 26,55 sm ni, massasi 362,2 g ni, L.intestinalisning tana uzunligi, o'rtacha 8,5-35,5 sm ni tashkil etgan bo'lsa, II o'rtacha 3 tadan 24 tagacha qo'zg'atuvchini tashkil etdi.

Baliq tanasida topilgan sestodlarning aksariyati baliqning tana o'lchamlaridan uzun va qorin bo'shlig'ida erkin joylashib olgan, ichaklarning orasiga to'liq aralashib ketganligi sababli, ichki organlarni sezilarli darajada siqib qo'yganligini ko'rish mumkin. Bunday sa'sir bilan baliq juda zaiflashadi va uzoq vaqt yashay olmaydi. Chunki ligulalarning berilgan soni va hajmi juda muhimdir, bu ichki organlarning siqilishiga va funksiyasining deyarli to'liq buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, o'sish va rivojlanishdagi kechikishga sabab bo'ladi, bu tabiiy, chunki kasal baliqlar normal ovqatlana olmaydi, shuningdek, u olgan ozuqa moddalarining asosiy qismi parazit tomonidan o'zlashtiriladi. Shuning uchun kasallangan baliqlar mayda, ozib ketgan va ozuqaviy ahamiyati sezilarli darajada pasayib ketganligini xulosa qilishimiz mumkin.

Zararlangan baliqlar go'shtining veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

Baliqlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi murakkab tadqiqotlar, kuzatishlar va tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, u baliq ovlanadigan joylarda tutilgan baliqlarni kuzatishdan boshlanib, xavfsizlik va sifat talablariga javob berishi kerak bo'lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan tugaydi [2; 5].

Ligula intestinalis bilan zararlangan karas balig'i go'shtining organoleptik, kimyoviy tarkibi ko'rsatkichlari o'zgarishi aniqlandi. Baliqlar parazitlar bilan kuchli zararlanganda go'shtning organoleptik (mushaklar suyaklarga mahkam yopishadi, yangi baliq uchun xos bo'lgan tananing rangi, hidi, mushaklarning elastikligi, konsistensiyasi, mushak tolalari naqshlari, bulion shaffofligi, yoqimli tabiiy hid va ta'mga egaligi) xususiyatlari o'zgarganligi aniqlandi.

Baliqlarga kuchli darajada zarar yetkazilganda (13 tagacha parazit bo'lganda) go'sht suyakdan osongina ajralib chiqadi, mushaklar konsistensiyasi yumshoqlashgan, bulion loyqa bo'lib, o'tkir hid paydo bo'ldi [7; 8].

Shuning uchun veterinariya-sanitariya ekspertizasi mutaxassislari baliqlarni qayta ishlash jarayonlarida hamda bozorlarga olib kelingan baliqlarni iste'molchilarga sotilishidan oldin veterinariya-sanitariya ekspertizasi jihatidan baholab, tegishli xulosani berishlari kerak.

Baliq tana go'shtining biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish jarayonida, invaziya intensivligining oshishi bilan vodorod ionlarining kontsentrasiyasi (pH) oshib borishi aniqlandi.

1-jadval. Invaziya intensivligiga bog'liq holda ligulyoz bilan zararlangan baliq go'shtining vodorod ionlar ko'rsatkichining o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	II*			Sog'lom
	Past	O'rta	Yuqori	
pH	6,8±0,31	7,0±0,24	7,3±0,32	6,7±0,36

***** Invaziya intensivligi.

Tekshirishlar Gost 7631-2008. (Organoleptik va fizik kimyoviy tekshirish) usullariga asosan o'tkazildi. Bunda vodorod ionlarining kontsentratsiyasi(pH)ni aniqlash jarayonida 5 g baliq go'shti qiymasiga 50 ml distillangan suv qo'shildi va vaqti-vaqti bilan aralashtirib, 30 daqiqa saqlandi. Qog'oz filtri orqali filtrlandi, tekshirish uchun tayyor bo'lgan filtratdan foydalanildi. Sog'lom baliqlarda filtrat tiniq, hidi o'ziga xos, pH 6,7±0.36 gacha; II past bo'lgan na'munada – filtrat biroz xiralashgan, pH – 6,8±0.42; II o'rtacha bo'lgan na'munada – filtrat biroz bulutli, pH –

7,0 – 0.24; II yo‘qori bo‘lgan na’munada – filtrat bulutli, hidi yoqimsiz, pH – 7,3±0,32 va undan yuqoriligi aniqlandi.

XULOSALAR:

1. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tekshirilgan baliqlarning tana uzunligi o‘rtacha 26,55 sm, massasi esa 362,2 g ni tashkil etdi. Liguliyoz qo‘zg‘atuvchisining tana uzunligi 8,5 sm dan 35,5 sm gacha oraliqda bo‘ldi. Avvalgi mualliflar tomonidan keltirilgan epizootologik ma’lumotlarga ko‘ra, invaziyaning intensivligi odatda 3–7 dona parazitni tashkil etishi mumkinligi qayd etilgan. Biroq bizning tadqiqotlarimizda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 3 tadan 24 tagacha bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilar bilan yuqoriroq darajada aniqlangan. Bu esa tadqiqot o‘tkazilgan suv havzalarida ekologik omillar va xo‘jayin baliq turlarining biologik holati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2. Zararlangan baliqlar go‘shtining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish natijasida, invaziya intensivligi oshgan sari go‘shtdagi vodorod ionlari konsentratsiyasi (pH) ning ortib borishi aniqlandi. Invaziyasi yuqori bo‘lgan namunalar bulutli filtrat, yoqimsiz hid va pH 7,3 ± 0,32 hamda undan yuqori qiymat bilan tavsiflandi.

3. Bunday o‘zgarishlar baliq go‘shtida autolitik jarayonlarning kuchayishi, oqsil va yog‘larning parchalanish mahsulotlari to‘planishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning organoleptik ko‘rsatkichlarini yomonlashtiradi. Shu asosda aytish mumkinki, invaziyasi yuqori darajadagi baliqlar inson iste’moli uchun yaroqsiz, ularni faqat texnik yoki utilizatsion maqsadlarda qayta ishlash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmirzayev D., Haqberdiyev P.S., Shohimardonov D.R., Shaptaqov E.S., Baliqchilik asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2016. 179-182 bet.
2. Головина Н.А. Ветеринарно-санитарная экспертиза гидробионтов. Лабораторный практикум / Н.А. Головина // - М. - МОРКНИГА – г. 2010. - 198 с.
3. Извекова Г.И., Кузьмина В.В., Влияние заражения плероцеркоидами Ligula intestinalis на активность пищеварительных ферментов и содержание гликогена в тканях леща // Паразитология, г.1996. №1. С. 45.
4. Серветник Г.Е., Зотов В.В., Медников А.В. Ветеринарно-санитарные и экологические мероприятия, обеспечивающие безопасность выращиваемой рыбы на водоемах комплексного назначения. Российский журнал «Проблемы ветеринарной санитарии, гигиены и экологии». М.: г. 2017. №2. -88-92 с.
5. Соколова А.М. Санитарно-гигиеническая экспертиза пресноводной рыбы: методическое пособие / А.М. Соколова, Ю.А. Черемин, С.Н. Ченцова.Ю.Р. Горбунова // - Астрахань - Изд-во Астраханской медицинской академии – г. 2008. - 34 с.
6. Xamrayev A.X. va boshqalar. Baliqlarni ixtiologik va parazitologik tekshirish usullari. Maqola. “Veterinariya meditsinasi” ilmiy-ommabop jurnali. –Toshkent, 2020-yil. – №9. – B. 26-28.
7. Хамраев А.Х., Даминов А.С. Карпсимон балиқлар лигулёзида балиқ гўштининг кимёвий таркиби ва биологик қийматининг ўзгариши. Мақола. “Ветеринария медицинаси” илмий-оммабоп журнали. –Тошкент, 2022-йил. – №3. –Б. 26-28.
8. Xamrayev A.X., Daminov A.S., Ibragimov F.B.“Karpsimon baliqlardan tadqiqot obyekti sifatida olingan chipor do‘ngpeshona, kumush tovon, sazan hamda zog‘ora baliqlarining ayrim xususiyatlari”. “Veterinariya va chorvachilik sohasida dolzarb muammolar va ularning yechimi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari TO’PLAMI. Samarqand, 2023-yil. 12-13 may. 17-21 b.

ҚОРАМОЛЛАРГА МУЛТИВИТ+МИНЕРАЛЛАР ВА БОДИФОРС ПРЕПАРАТИ ҚЎЛЛАГАНДА УЛАР ҚОНИНИНГ МОРФОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ.

В.У.Рузимов
СамДВМЧБУ Нукус филиали таянч докторанти.
Ниёзов Ҳ. Б.
СамДВМЧБУ Вет.ф.д., профессор.
Д.А.Эрназаров
СамДВМЧБУ Нукус филиали катта ўқитувчиси., в.ф.ф.д(PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.17767423

Аннотация: Ушбу мақолада қорамолларда Мултивит+Минерали ва Бодифорс препаратларидан биргаликда маълум меъёр ва миқдорда қўлланилганда, қорамолларнинг эритроцитлар миқдори ўртача 19,3% га лейкоцитлар миқдори-16 % га, гемоглобин миқдори-21,8% га, гематокрит фоизи 15,3 % га кўпайиши, эритроцитларнинг чўкиш тезлиги 18 % га пасайиши ҳамда ҳайвонларда эозинофиллар 4% га, таёқча ядроли нейтрофиллар фоизи 2,5% га, сигмент ядроли нейтрофиллар фоизи 8,7 % га камайиши ва қондаги лимфоцитлар фоиз кўрсаткичи 4,7 % га кўпайганлиги баён этилган.

Калит сўзлар: Таначалар, Мултивит+Минерал, Бодифорс, гиповитаминозлар, гипервитаминоз, калций, фосфор, ретинол, симптом, диагноз, гипокальциймия, морфологик кўрсаткичлар, эритроцитлар, лейкоцитлар, гемоглобин, гематокрит, ва эритроцитлар чўкиш тезлиги.

MORPHOLOGICAL PARAMETERS OF THEIR BLOOD WHEN USING MULTIVIT+MINERALS AND BODIFORS DRUG TO CATTLE.

Abstract: In this article, when Multivit+Minerali and Bodifors drugs are used together in a certain rate and quantity, the amount of erythrocytes in cattle increases by 19.3%, the amount of leukocytes by 16%, the amount of hemoglobin by 21.8%, the percentage of hematocrit by 15.3%, the sedimentation rate of erythrocytes decreases by 18%, and eosinophils in animals by 4%, rod nuclei it was reported that the percentage of neutrophils decreased by 2.5%, the percentage of segmented neutrophils decreased by 8.7%, and the percentage of lymphocytes in the blood increased by 4.7%.

Keywords: Bodies, Multivit+Mineral, Bodifors, hypovitaminosis, hypervitaminosis, calcium, phosphorus, retinol, symptom, diagnosis, hypocalcemia, morphological indicators, erythrocytes, leukocytes, hemoglobin, hematocrit, and erythrocyte sedimentation rate.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ КРОВИ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ПРЕПАРАТОВ МУЛЬТИВИТ+МИНЕРАЛЫ И БОДИФОРС.

Аннотация: В данной статье показано, что при совместном применении препаратов Мультивит+Минералы и Бодифорс в определённой дозировке и количестве количество эритроцитов у крупного рогатого скота увеличивается на 19,3%, лейкоцитов – на 16%, гемоглобина – на 21,8%, гематокрита – на 15,3%, скорости оседания эритроцитов (СОЭ) снижается на 18%, эозинофилов – на 4%, палочкоядерных нейтрофилов – на 2,5%, сегментоядерных – на 8,7%, а количество лимфоцитов в крови увеличивается на 4,7%.

Ключевые слова: Организмы, Мультивит+Минерал, Бодифорс, гиповитаминоз, гипервитаминоз, кальций, фосфор, ретинол, симптом, диагностика, гипокальциемия, морфологические показатели, эритроциты, лейкоциты, гемоглобин, гематокрит, скорость оседания эритроцитов.

КИРИШ

Мавзунинг долзарблиги. Чорвачиликда биологик стимуляторлардан фойдаланиш тажрибаси паррандачилик ва чорвачилик амалиёти кўрсатганидек, ўсиш, ривожланиш ва маҳсулдорлик бир хил боқиш ва парвариш қилиш шароитида бир хил турдаги ҳайвонлар орасида ҳам фарқлар кузатилади. Ёш ҳайвонларнинг 1/4-1/3 қисмидан кўп бўлмагани яхши ўсади ва ривожланади, ёш ҳайвонларнинг тахминан 1/2 қисми физиологик имкониятларидан сезиларли даражада заиф ўсади ва ниҳоят, ёш ҳайвонларнинг тахминан 1/5-1/4 қисмининг ўсиши кескин секинлашади. Ноқулай шароитларда яхши ривожланган ҳайвонларда физиологик ҳолат бузилади, ўсиш суръати пасаяди ва улар ўсиш суръати бўйича иккинчи ва ҳатто учинчи гуруҳга ўтади. Стимуляторлар ҳайвон танасининг умумий қувватини оширади; унинг энг муҳим физиологик тизимларининг фаолиятини фаоллаштириб, улар метаболизмини яхшилайди ва ўсиш энергиясини оширади. Уларнинг таъсирида ҳайвонларнинг ўртача кунлик тирик вазни ортади, гўшт маҳсулдорлиги ошади, маҳсулот бирлигига тўғри келадиган озуқа харажатлари камаяди [1].

Шу билан бирга, стимуляторлар ҳар бир соғлом ҳайвон организмида мавжуд бўлган потенциал физиологик захираларга таъсир қилиб қўзғатади. Айни пайтда олимлар томонидан чорвачилик ва паррандачиликда барча турдаги ҳайвонлар ва паррандаларнинг ўсишини тезлаштириш, боқиш муддатини қисқартириш мақсадида қўлланиладиган турли ферментли, витаминли, антибиотикли, бактериал, тўқима ва ўсимлик препаратлари ишлаб чиқиб, амалиётга жорий этилмоқда [10,5]. Талоқ препаратининг бузоқларнинг ўсишига 4 мл дозада ўн кунлик оралиқда учта инъекциясини таклиф қилади. Бузоқларнинг ўсиши ва ривожланишини рағбатлантиришда бир хил тўқималарни тайёрлашни имплантация қилиш орқали парентерал юборишни таклиф этадилар [7].Ёш қорамолларда энг аниқ ўсиш суръати 5-10 ойлигида кузатилади. Бу даврда ҳайвонларнинг вазни 30-35% га, буқаларнинг моякларидан тайёрланган тўқима препаратини қўллаганда эса 40-50% га ошди. Бу асосан мушак тўқималарининг ўсиши ва тери ости тўқималарида, мушаклараро тўқималарда ва қисман ёг деполарида ёғнинг қисман тўпланиши туфайли юзага келади [7].

Тадқиқотларга кўра, буғоз сигирларга тўқима препарати “Биостим” қўлланилиши туғруқ жараёнига ва туғруқдан кейинги даврда ижобий таъсир кўрсатди [8]. Тухумдонларнинг функционал гипофункциясида “Биостим” тетравит билан биргаликда сигирларга юборилганда ижобий натижаларга эришилди [4,8]. Чорвачиликда тўқима препаратларидан фойдаланиш самарадорлиги ўрганилганда, уларнинг таъсири остида қўйларнинг куйга келиши яхшироқ аниқланди ва узоқ вақт давомида куйга келмаган чўчқаларда репродуктив органларнинг функциялари нормаллашиши аниқланди. Тўқима препаратлари парранда маҳсулдорлигини кўпайтириш учун муваффақиятли қўлланилади. Тадқиқотчилар таъкидлашича, қуруқ тўқималарни товуқлар озуқа рационида киритиш уни ишлатишни осонлаштиради ва товуқларнинг ўсишини 11-16% га, товуқларнинг тухум ишлаб чиқаришини 19 % га оширишга, уларнинг тухумлардан жужаларнинг чиқиши ва ривожланишини яхшилашга ёрдам беради [9].

Э.Н.Сковородин товуқларга ем билан (ҳар бир бошга 0,5 г) талокдан олинган қуруқ биостимулятор аралаштирилган ҳолда берди [11]. Бу парранда гўшти тухум ишлаб чиқаришни 40 фоизга оширди ва битта тухум етиштириш учун ем-хашак таннархини 17,6 фоизга арзонлаштирди. Худди ўша пайт товуқларда тирик вазн ва қон миқдорида сезиларли фарқ аниқланмаган. Биостимуляторларнинг қоннинг морфологик таркибига таъсирини ўрганишда кўпгина олимлар ҳайвонларнинг қизил қон ҳужайралари, гемоглобин миқдорини кўпайишини аниқладилар ва лейкоцитлар сони эса физиологик меъёрда эканлиги қайд қилинди [3,1,2,6].

Бир қатор муаллифларнинг фикрига кўра биоген стимуляторлар клиник жиҳатдан соғлом денгиз чўчқасининг қон ишлаб чиқаручи суяк илиги функциясига сезиларли таъсир кўрсатар экан [7]. Суяк илигининг регенератив функциясини жонлантириш туфайли қизил қон ҳужайралари сони, гемоглобин миқдори, жами гранулофилоцитлар сони кўпаяди [5,7]. Биостимуляторлар таъсирида ҳайвонларнинг қонида умумий оқсил миқдори ортиши ҳақида ёзади. Ва айни пайтда, умумий оқсил ва унинг фракциялари таркибида сезиларли фарқ топмаганликларини маълум қилишган [9]. Оқсил альбумин фракциясининг ортиши билан γ-глобулинлар миқдорининг камайиши ҳақида хабар беради [7].Биостимуляторларнинг таъсирини ўрганишда организмнинг табиий чидамлилиги бўйича маълумотлар муҳимдир.

ТАДҚИҚОТ МАҚСАДИ

Тадқиқотларимизда стрессни корректор адаптоген мултивит+минерал ва ўсишни рағбатлантирувчи бодифорс препаратининг алоҳида ва биргаликда қўлланганда қорамолларнинг қоннинг морфологик кўрсаткичларидаги (эритроцитлар, лейкоцитлар, гемоглобин, гематокрит, ва эритроцитлар чўкиш тезлигининг) ўзгаришларини ҳамда улар организмга таъсирини ўрганишдан иборат.

ТАДҚИҚОТ ОБЪЭКТИ ВА УСЛУБЛАРИ

Тадқиқотлар СамДВМЧБУ Нукус филиали “Ветеринария медицинаси ва фармакологияси” кафедрасида ва Қорақалпоғистон Республикаси Элликқал’а туманида жойлашган “БАХОДЫР ЧОРВАСЫ” наслчилик чорва фермер хўжалигида илмий тадқиқотлар олиб борилди. Қон таҳлиллари Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳридаги “АТА-АНА” хусусий клиника лабораториясида, ўтказилди.

Тажрибалар Мултивит+Минераллар ва Бодифорс препаратларини таначалар организимига таъсирини аниқлаш учун оғирлиги тана вазни 174-202 кг ва ёши 14-15 ойлик бўлган 20 бош голштин зотли таначалар ўхшаш жуфтликлар тамойили асосида ҳар бирида 5 бошдан 3 та тажриба ва 1 та назорат гуруҳлари тузилди

Бунда биринчи тажриба гуруҳидаги қорамолларига Мултивит+Минераллар препаратидан 6 мл/100 кг жами 3 марта мускул орасига қўлланилди. Тажрибанинг 14- ва 34- кунларида ушбу препаратдан шу дозада яна иккинчи ва учинчи ва инъекция қўлланилди. Иккинчи тажриба гуруҳидаги қорамолларга Бодифорс препаратини 1 мл/25 кг, Мултивит+Минераллар препаратини 6 мл/100 кг жами 3 марта мускул орасига қўлланилди. Тажрибанинг 14- ва 34- кунларида қорамолларга ушбу препаратлардан шу дозада яна иккинчи ва учинчи инъекция такрор қўлланилди. Учинчи тажриба гуруҳидаги қорамолларга Бодифорс препаратини 1 мл/25 кг жами 3 марта мускул орасига қўлланилди. Тажрибанинг 14- ва 34- кунларида қорамолларга ушбу препаратдан шу дозада яна иккинчи ва учинчи такрор инъекция қўлланилди. Тўртинчи назорат гуруҳидаги қорамолларга ҳеч қандай дори препарат қўлланилмади. Тажриба давомида таначалар клиник кўрикдан

ўтказилиб турилди ва тажрибанинг 10, 30, 50 ва 66-кунлари вена қон томиридан қон олиниб қонннинг морфологик кўрсаткичлари текшириб борилди.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР ТАҲЛИЛИ

Биринчи тажриба гуруҳида эритроцитлар миқдори тажрибанинг 10-кунида 6,6 % га кўпайган бўлса, тажрибанинг 30-50 кунига шунга мос равишда 9,7 ва 12 % га, тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 13,1 % га ошганлиги аниқланди. Иккинчи гуруҳ ҳайвонларида эритроцитлар миқдори 10-кунида 7,9 % га, тажрибанинг 30-кунига 11,5% га, тажрибанинг 50-кунида 13,7 % га ва тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 19,3 % га кўпайганлиги қайд қилинди. Учинчи гуруҳ ҳайвонларида эритроцитлар миқдори ҳам тажриба давомида кўпайиб борди ва 10-кунида 5,9 % га, тажрибанинг 30-кунига 8,2% га, тажрибанинг 50-кунида 11,3 % га ва тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 16,8% га ошганлиги намоён бўлди. Тўртинчи назорат гуруҳ ҳайвонларида эритроцитлар миқдори ҳам тажриба давомида камроқ кўпайиб борди ва тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 4,7 % га ошганлиги қайд этилди .

Биринчи гуруҳ ҳайвонларида лейкоцитлар миқдори ҳам тажриба давомида кўпайиб борди ва тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 10,2 % га кўпайганлиги кузатилди. Иккинчи гуруҳ ҳайвонларида ҳам лейкоцитлар миқдори тажриба бошига нисбатан 16 % га ошганлиги қайд этилди. Учинчи гуруҳ ҳайвонларида лейкоцитлар миқдори тажриба бошида 5 %га кўпайган бўлса, тажриба охирида эса дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 11,1 % га ошганлиги қайд этилди. Тўртинчи назорат гуруҳ ҳайвонларида лейкоцитлар миқдорида тажриба охиригача дастлабки кўрсаткичларга нисбатан характерли ўзгаришлар кузатилмади .

Қон таркибидаги гемоглобин миқдори биринчи гуруҳ ҳайвонларида ушбу гуруҳ қонидаги эритроцитлар миқдорига мос равишда ошиб борди ва тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 13,8 % га кўпайганлиги қайд этилди. Иккинчи ва учинчи тажриба гуруҳ ҳайвонлари қонида гемоглобин миқдори ҳам тажрибанинг охиригача кўпайиб борди ва шунга мос равишда тажриба охирида 21,8 ва 14,2 % га кўпайганлиги аниқланди. Тўртинчи назорат гуруҳ ҳайвонлари қонида гемоглобин миқдори тажриба охиригача дастлабки кўрсаткичларга нисбатан характерли ўзгаришлар кузатилмади .

Биринчи тажриба гуруҳидаги ҳайвонларида қондаги морфологик ўзгаришлар тажрибанинг дастлабки кунларида намоён бўлиб, бунда эритроцитларнинг чўкиш тезлиги тажрибанинг 10-кунида 3,2 % га тажрибанинг 30-кунига 6,3 % га, тажрибанинг 50-кунида 9,1 % га, ва тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 11,8 % га камайганлиги аниқланди. Эритроцитларнинг чўкиш тезлиги иккинчи гуруҳ ҳайвонларида тажрибанинг 10–30 кунларида шунга мос равишда 10 ва 12 % га камайган бўлса, тажриба давомида яна пасайиб тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 18 % га камайганлиги қайд этилди. Учинчи тажриба гуруҳ ҳайвонлари қонида эритроцитларнинг чўкиш тезлиги тажриба давомида камайиб борди, тажрибанинг 10-кунида 4,2 % га тажрибанинг 30-кунига 8,4 % га, тажрибанинг 50-кунида 10,5 % га ва тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 11,3 % га камайганлиги намоён бўлди. Тўртинчи назорат гуруҳ ҳайвонлари қонида эритроцитларнинг чўкиш тезлиги кўрсаткичларида тажриба давомида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан характерли ўзгаришлар кузатилмади .

Гематокрит фоизи биринчи тажриба гуруҳи ҳайвонларида тажрибанинг 10-30 кунларида 2 ва 4,4 % га ошган бўлса, тажрибанинг 50 кунига келиб 6,6 % га, тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 8,3 % га кўпайганлиги аниқланди . Иккинчи тажриба гуруҳ ҳайвонларида гематокрит фоизи 10-кунида 4,9 % га кўпайган бўлса, тажрибанинг 30-кунига 8,7 % га, тажрибанинг 50-кунида 13,1 % га ва тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 15,3 % га кўпайганлиги қайд қилинди .Учинчи гуруҳ ҳайвонларида гематокрит фоизи ҳам тажриба давомида кўпайиб борди ва 10-кунида 2,9 % га тажрибанинг 30-кунига 5,8 % га, тажрибанинг 50-кунида 7,2 % га ва тажрибанинг охирига келиб, дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 9,1 % га кўпайганлиги намоён бўлди. Тўртинчи назорат гуруҳ ҳайвонларида гематокрит фоизи ҳам тажриба давомида камроқ кўпайиб борди ва тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 1,7 % га ошганлиги қайд этилди .

Тажрибадаги биринчи гуруҳ ҳайвонлари қонидаги эозинофиллар фоизи тўлқинсимон характер намоён қилиб, дастлабки кўрсаткичларига нисбатан тажрибанинг 10-кунларида 10,18% га камайганган бўлса, тажрибанинг 30-кунига келиб 13,77 % га ва тажриба охирига келиб эса 3 % га камайганлиги қайд этилди. Ёш нейтрофиллар тажрибгача ва тажриба давомида умуман қайд этилмади. Таёқча ядроли нейтрофиллар фоизи эса тажриба давомида дастлабки кўрсаткичларига нисбатан камайиб борди, фақат тажрибанинг 10-кунида 1,56 % га ошган бўлса, тажрибанинг 30-кунига келиб 9,38 % га, 50-кунига келиб 14,07% га ва тажрибанинг охирига келиб эса 4,69 % га камайганлиги аниқланди. Лейкоформуладаги сигмент ядроли нейтрофиллар миқдори ҳам дастлабки кўрсаткичларига нисбатан тажрибанинг 10-кунига келиб 2,95 % га кўпайган, тажриба охирига келиб эса 2,85 % га камайганлиги намоён бўлди. Қондаги лимфоцитлар фоиз кўрсаткичи ҳам тажриба давомида камроқ бўлсада кўпайиб бориб, 30-кунларда дастлабки кўрсаткичларига нисбатан 6 % га, тажрибанинг 50-кунига келиб 4,2% га, ва тажриба охирида эса 2,25 % га кўпайганлиги аниқланди.Моноцитлар тажрибгача ва тажриба давомида қайд этилмади .

Иккинчи тажриба гуруҳ ҳайвонларида эозинофиллар миқдори тажрибанинг 10-кунларида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан мос равишда 6,6% га купайиб, тажрибанинг охирида 4% га камайганлиги аниқланди. Ҳайвонлар қонида таёқча ядроли нейтрофиллар фоизи тажрибанинг 10-кунида 3% га кўпайиб, тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 2,5% га камайиши кузатилди. Бу гуруҳдаги сигмент ядроли нейтрофиллар фоизи тажрибанинг 10-кунида 9,2 % га, тажрибанинг 30-кунида 7 % га кўпайганлиги ва тажрибанинг охирида 8,7 % га камайиши намоён бўлди. Қондаги лимфоцитлар фоиз кўрсаткичи тажрибанинг 10-кунларда дастлабки кўрсаткичларига нисбатан 5 % га камайиши, тажрибанинг 50-кунига 3,1 % га ва тажриба охирида эса 4,7 % га кўпайганлиги аниқланди .

Учинчи тажриба гуруҳидаги эозинофиллар фоизи тажриба давомида камайиб, 10-кунида 35,55 % га($P<0,05$), 30 кунида 31,67 % га ($P<0,05$), 50-кунида 16,02 % га ва тажриба охирида эса дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 2,34 % га камайганлиги намоён бўлди. Қондаги таёқча ядроли нейтрофилларда шунга ўхшаш жараён намоён бўлиб, тажрибанинг 10-кунида 8,1% га, 30 кунида 16,2% га ($P<0,05$), 50-кунида 12,16 % га ($P<0,05$) ва тажриба охирида эса дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 6,76 % га камайганлиги аниқланди. Бу гуруҳдаги ҳайвонлар қонида сигмент ядроли нейтрофиллар эса тажриба давомида кўпайиб, тажрибанинг 10-кунига 29 % га, 30-куни 10,75 % га 50 -куни 13,64 % га ва тажрибанинг охирида 16,65% га кўпайганлиги намоён бўлди. Лимфоцитлар фоизи тажриба давомида

озроқ бўлсада камайиб борди ва тажрибанинг 10-кунига 12,33 % га, ва тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 8,55 % га камайди .

Тўртинчи тажриба гуруҳ ҳайвонларида эозинофиллар миқдори тўлқинсимон характер намоён қилиб, тажрибанинг 10-кунига 2,5 % кўпайган бўлса, тажрибанинг 50-кунида эса 5% га, тажрибанинг охирида 7,5% га ($P<0,05$) кўпайганлиги аниқланди. Ҳайвонлар қонида таёқча ядроли нейтрофиллар фоизи тажрибанинг 10-кунларида 3,28 % га кўпайган бўлса, тажриба охирида дастлабки кўрсаткичларга нисбатан 2,4 % га камайди. Бу гуруҳдаги сигмент ядроли нейтрофиллар фоизи ҳам тажриба бошида давомида кўпайиб бориб, 10-кунида 0,6 % га, даволашнинг 30-кунида 6,4 % га, 50-кунида 1,5 % га кўпайган бўлса тажрибанинг охирида 2,9 % га кўпайганлиги намоён бўлди. Қондаги лимфоцитлар фоиз кўрсаткичи ҳам тажриба давомида камроқ бўлсада камайиб бориб, тажрибанинг 10-кунида 0,62 % га, тажрибанинг 30-кунида дастлабки кўрсаткичларига нисбатан 4,4 % га, тажрибанинг 50-кунига 1,3 % гакамайган бўлса, тажриба охирида эса 2,3 % га камайди .

Шундай қилиб, бизнинг тадқиқотларимиз натижаларига кўра, ўрганилган Бодифорс ва Мултивит+Минераллар таначаларга қўлланилганда физиологик меъёр доирасида қоннинг ҳосил бўлган элементлари сони ортади, оқсил алмашинуви ва кислота-ишқор мувозанати яхшиланади, буни қоннинг морфологик кўрсаткичларини тасдиқлайди, шунинг учун Бодифорс ва Мултивит+ Минераллар организмдаги метаболизмни нормаллаштиради.

ХУЛОСА

1.Мултивит+Минераллар ва Бодифорс препаратларидан биргаликда маълум меъёр ва миқдорда қўлланилганда, қорамолларнинг эритроцитлар миқдори ўртача 19,3% га лейкоцитлар миқдори-16 % га, гемоглобин миқдори-21,8% га, гематокрит фоизи-15,3 % га кўпайиши, эритроцитларнинг чўкиш тезлиги-18 % га пасайиши кузатилади.

2.Мултивит+Минераллар ва Бодифорс препаратларидан биргаликда маълум меъёр ва миқдорда қўлланилганда, ҳайвонларда эозинофиллар 4% га, таёқча ядроли нейтрофиллар фоизи 2,5% га, сигмент ядроли нейтрофиллар фоизи 8,7 % га камайиши ва қондаги лимфоцитлар фоиз кўрсаткичи 4,7 % га кўпайганлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Авзалов, Р.Х. Влияние биологически активных веществ (БАВ) на гематологические показатели и бактерицидную активность сыворотки крови кур // Актуальные проблемы ветеринарной медицины и биологии. Материалы международной научно-практической конференции, посвященной 150-летию ветеринарной службы Оренбуржья. - Оренбург: 2003. - С. 184-185.
2. Авзалов, Р.Х. Влияние различных режимов применения Селенита натрия на гематологический и иммунный статус и прирост живой массы цыплят кросса «Смена» // Пути повышения эффективности АПК в условиях вступления России в ВТО. Материалы международной научно-практической конференции.- Оренбург: 2004. - С. 219-220.
3. Асадуллина, Ф.Ф. Применение биологически активных веществ при выращивании телят // Научные труды Баш НПВЛ. Посвящается 105-летию образования ветеринарной лаборатории в Башкортостане. - Уфа: 2002. - С. 58-60.
4. Багданова, О.С Влияние тканевого препарата "биостим" на воспроизводительную способность коров // Перспективы развития производства продовольственных ресурсов и рынка продуктов питания. Материалы международной научно-практической конференции . 2002. - С. 111-114.

5. Гиззатуллин, Р.Р. Влияние тканевого препарата «Биостим» на некоторые морфологические и биохимические показатели крови телят//Современные вопросы ветеринарной медицины и биологии. - Уфа: 2000. - С. 93-94.
6. Гильванов, М.М. Продуктивные качества уток при введении в рацион ферментного препарата // Проблемы и пути интенсификации племенной работы в отраслях животноводства. 2004. - С. 167-169.
7. Дементьев, Е.П., Галямшин, В.Б., Галямшин, Р.Р. Применение тканевого препарата "биостим" при выращивании телят // Методы повышения продуктивных и защитных функций организма животных в Республике Башкортостан. Башкирский государственный аграрный университет. - Уфа: 2000. - С. 100-102.
8. Дементьев, Е.П., Галямшин, В.Б., Галямшин, Р.Р. Применение тканевого препарата "биостим" при выращивании телят // Современные вопросы ветеринарной медицины и биологии. Сборник научных трудов по материалам Первой международной конференции. 70 лет Башкирскому государственному аграрному университету. Башкирский государственный ордена Трудового Красного Знамени аграрный университет. - Уфа: 2000. - С. 123-124.
9. Маннапов, А.Г., Каримов, Ш.Ф., Дементьев, Е.П. Перестройки в т- и б зависимых зонах селезенки при стимуляции птиц тканевым препаратом"биостим" // Современные проблемы патологической анатомии, патогенеза и диагностики болезней животных. Всероссийской научно методической конференции патологоанатомов ветеринарной медицины. 2003. - С. 222-223.
10. Ноздрин, Г.А., Леляк, А.А., Новик, Я.В., Яковлева, М.С., Лесничная, Ю.С. Влияние пробиотического препарата ветом 1 на физиологическое состояние индеек // Теория и практика современной аграрной науки. сборник национальной (Всероссийской) научной конференции. - Новосибирск: Новосибирский государственный аграрный университет, 2018. - С. 422-424.
11. Сковородин, Е.Н., Бронникова, Г.З. Цитология гепатоцитов перепелов при применении препарата диронакс // Актуальные проблемы ветеринарной медицины, зоотехнии и биотехнологии. Сборник научных трудов Международной учебно-методической и научно-практической конференции, посвященной 100-летию со дня основания ФГБОУ ВО МГАВМиБ - МВА имени К.И. Скрябина. - М.: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Московская государственная академия ветеринарной медицины и биотехнологии - МВА имени К.И. Скрябина», 2019. - С. 171-173.

ЎЗБЕКИСТОНДА ВЕТЕРИНАРИЯ ПАРАЗИТОЛОГИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ

(адабиёт маълумотлари)

Т.Н.Ачилов
кичик илмий ходим, Ветеринария илмий-тадқиқот институти
Ш.М.Аминжонов
катта илмий ходим., в.ф.д., Ветеринария илмий-тадқиқот институти
А.Х.Хушназаров
кичик илмий ходим., в.ф.ф.д., Ветеринария илмий-тадқиқот институти

https://doi.org/10.5281/zenodo.17906813

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон ветеринариясининг ривожланишида ҳисса қўшган олимлар ва уларнинг илмий тадқиқот ишланмалари ҳақида маълумотлар келтирилган бўлиб, ушбу маълумотлар ВИТИнинг ҳамда СамҚХИнинг илмий кутубхонасидаги рисолаларидан олинди ҳамда таржима қилиниб илмий тусга киргизилди.

Калит сўзлар: Паразит, текинхўр, бўғимоёқлилар, ҳашоратлар, ўргимчаксимонлар, зоология, эпизоотология, физиология, биохимия, иммунология.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ВЕТЕРИНАРНОЙ ПАРАЗИТОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

(литературные данные)

Аннотация: В данной статье представлена информация об ученых, внесших вклад в развитие ветеринарной медицины в Узбекистане, и об их научных исследованиях. Информация взята из трактатов научной библиотеки Института ветеринарной медицины и Института ветеринарной медицины им. Самруха, переведена и представлена в научном виде.

Ключевые слова: Паразит, плотоядные, членистоногие, насекомые, паукообразные, зоология, эпизоотология, физиология, биохимия, иммунология.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF VETERINARY PARASITOLOGY IN UZBEKISTAN

(literature data)

Abstract: This article presents information about scientists who contributed to the development of veterinary medicine in Uzbekistan and their scientific research works. This information was taken from the treatises in the scientific library of the Institute of Veterinary Medicine and the Samrukh Institute of Veterinary Medicine, translated and scientifically presented.

Keywords: Parasite, carnivorous, arthropods, insects, arachnids, zoology, epizootology, physiology, biochemistry, immunology.

КИРИШ

Паразитология- грекча *Parasitos* – текинхўр паразит; *Logos* – таьлимот деган маьнони англатади. У бир қанча фанлар йиғиндиси тариқасида одам, ҳайвон ва ўсимлик организмида учрайдиган паразитлар, улар томонидан қўзғатиладиган касалликларни ўрганадиган фан. Шу билан бир қаторда бу касалликларни олдини олиш чораларини ишлаб чиқаради.

Текинхўр – паразитлар бошқа организм ҳисобидан ҳаёт кечиради. Бу – паразитизм ҳисобланади. Паразитизм – табиатда кенг тарқалган, тарихий вужудга келган турли организмларнинг ўзаро генетик бирлиги бўлиб, бунда бир организм – яни паразит, иккинчисидан яшаш ва озиқланиш сифатида фойдаланиб яшайди, иккала организмлар бир-бирлари билан турли кўринишдаги антагонистик (зиддиятли) муносабатларда бўлади. Бундан ташқари паразитлар хўжайин организмида турли иммунобиологик реакцияларнинг келиб чиқишига ҳам сабаб бўлади.

Ҳайвонот оламининг қарийб барча турида паразитлик қилиб ҳаёт кечирувчи организмларни учратиш мумкин, уларнинг айрим синфларини тўлиқ паразитлар ташкил этади. Масалан, сўрғичлилар, тасмасимон паразитлар, тикан бошлилар, содда ҳайвонлардан споралилар фикримизнинг далили бўла олади. Бўғимоёқлилардан эса ҳашоратлар ва ўргимчаксимонлар синфи вакиллари кўпинча паразитлик қилиб ҳаёт кечиради.

МАВЗУНИНГ ЎРГАНИЛГАНЛИК ДАРАЖАСИ

Ўзбекистонда, Самарқанд ва Бухорода А.А.Федченко биринчи бўлиб одамлар орасида кенг тарқалган ва оғир кечадиган ришта касаллиги қўзғатувчисининг ривожланишини ўрганиб, унда оралиқ хўжайин сифатида циклопларнинг ролини аниқлаган ва унга қарши кураш чораларини ишлаб чиқади шундан бошлаб юртимизда Паразитлар хақида кенг кўламли илмий изланишлар бошланиб кетади.

К.И.Скрябин 1910 йилда ветеринария врачлари қурултойида олий малакали вет мутахассислари тайёрланаётган билим даргоҳларида паразитология кафедрасини ташкил этиш кераклигини айтди. 1916 йилда ҳимоя қилган дисертациясининг бир бўлимида уй ҳайвонлари ва одамлар организимида учрайдиган турли-туман зоопаразитлар, инвазион кассаликлар этиологиясини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини таъкидлади. Шу сабабдан уларни мукаммал ўрганмоқ учун ветеринария институтлари ва медицина олийгоҳларида паразитология ва инвазион касалликларни ўрганиш учун махсус кафедралар таъсис этиш керак деб баён этди.

1917 йилда Новочеркасская ветеринария институти қошида (ҳозирги Дон қишлоқ хўжалик институти) Россияда биринчи бўлиб паразитология кафедраси ташкил этилди ва шу йилнинг 2 майида кафедранинг профессорлиги лавозимига К.И.Скрябин сайланди. Бу воқеа олий ветеринария таълими тарихида муҳим аҳамият касб этди.

1920 йили К.И.Скрябин Москвага қайтади ва Москва ветеринария институтида (ҳозирги К.И.Скрябин номидаги Москва ветеринария академияси) паразитология ва ҳайвонларнинг инвазион касалликлари кофедрасини ташкил этади. Бундай кафедра олий ветеринария таълими тарихида ҳеч қаерда ташкил бўлмаган эди. Паразитология фани бўйича ўқув дастурлари, қўлланмалари, дарсликлар ва кўргазмали кўроллар йўқ эди. Ушбу кафедра янгидан ўзлари мустақил равишда иш юрита бошладилар. Фаннинг сўнгги ривожланиши бевосита академик К.И.Скрябин номи билан боғлиқ. У киши томонидан гельминтология янги асосда қайта тузилди. К.И.Скрябин ташкил этган кўпгина экспедициялар қисқа вақт ичида мамлакатимизнинг гельминтофаунасини аниқлашга имкон берди. Тадқиқотчи олимлар кўплаб янги гельминт турларини аниқладилар ва уларнинг ривожланиш цикларини, ҳамда қарши курашиш чораларини ишлаб чиқара бошладилар.

1917 йилдан бошлаб паразитология муаммоларини систематик равишда ўрганиш бошланди. Академиклар К.И.Скрябин, Е.И.Павловский, РФА мухбир аъзоси В.А.Догель, профессор В.Л.Якимовларнинг фан мактаблари вужудга келди.

Фаннинг вужудга келиши, ривожланишида академик К.И.Скрябиннинг хизмати ғоят каттадир. У 1905 йилнинг август ойида ветеринария врачи сифатида Туркистон ўлкасига келиб, одамлар ва уй ҳайвонлари орасида кенг тарқалган касалликларни кузатади уч юздан ортиқ экспедицияларда гельминтологик аниқлаш усулларини комплекс равишда қўллаб, ҳайвонот дунёсининг 500 мингдан ортиқ вакилларини кўрикдан утказади.

Академик К.И.Скрябин гельминтларнинг 200 дан ортиқ кўринишларини кашф этиб тавсифлади, 120 дан ортиқ авлодини асослаб берди. У ишлаб чиққан гельминтларнинг девастацияси (илдизи билан барҳам топиши) ғояси ветеринария ва медицинанинг назариёти ва амалиёти учун, фаннинг ривожланишида муҳим босқич бўлди. К.И.Скрябин ўзининг ҳаракатчанлиги, тиришқоқлиги, фанга бўган жиддий эътибори туфайли бир неча шогирд чиқарди. 200 дан ортиқ, фан докторлари, жуда кўп фан номзодлари ветеринария, медицина, биология соҳасининг ривожланишида уз ҳиссаларини қўшган. Булар орасидан беш нафари ўзбек халқининг фарзандлари эканлиги бизга фахр туйғусини уйғотади. Улар Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг аъзолари Э.Х.Эргашев, А.Т.Тўлаганов, М.А.Султонов, Ж.А.Азимов профессорлар Н.М.Матчанов ҳамда Ш.А.Азимовлардир.

Ветеринария протозоологиясининг ривожланишида профессор В.Л.Якимовнинг хизматлари катта, у Ленинград ветеринария иниститутида паразитология кафедрасини ташкил этади; протозоологлар мактабини яратади. У шогирдлари билан биргаликда 120 дан ортиқ протозооз касалликлари қўзғатувчиларини тавсифлаб, уларнинг эпизоотологиясини, даволаш ва олдини олиш чораларини ўрганди. Профессор В.А.Догель поразитологиянинг умумий саволлари, балиқлар ва ёввойи ҳайвонлар гельминтофаунасини ўрганишга катта ҳисса қўшган паразитологлар мактабини яратди.

Ўзбекистонда паразиталогия фани ва амалиётини вужудга келиши, ривожланиши, шу фаннинг асосчилари бўлган профессор Н.ВБаданин, академик В.С.Ершов, ҳамда олимлар А.В.Богородицкий, Г.А.Оболдуев, З.И.Галузоларнинг номлари билан узвий боғлиқдир.

Н.В.Баданин бутун ҳаётини Ўзбекистон гельминтология фанини ривожланишига бағишланади. У Ўрта Осиёга 1928 йилда келди. У ҳар хил турдаги ҳайвонларнинг паразитар касалликларини ўрганиш мақсадида ташкил этилган 12 экспедицияда қатнашди ва 6 марта ўзи раҳбарлик қилди. Н.В.Баданин 1932 йилдан 1939 йилгача Ашхободдаги қишлоқ хўжалик институтининг, 1935 йилдан бошлаб Самарқанд қишлоқ хўжалик институтининг паразитология кафедрасида мудирлик лавозимида хизмат қилди. 1940 йил Урта Осиёда ўтказган изланишлари, ўтказилган тажрибаларини жамлаб монография ёзди. Ушбу монографияси уни докторлик даражасига кўтарди.

Профессор И.В.Баданин олий ўқув юртида 32 йил ишлаб, бир неча юзлаб юқори малакали паразитологлар тайёрлади. 1935 йилдан Самарқанд Қ.Х.И. нинг паразитология ва қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг инвазион касалликлари кафедрасида мудирлик вазифасини бошлаган. УзФА нинг академиги профессор Э.Х.Эргашев олимнинг кўзга кўринган шогирдларидан биридир.

Э.Х.Эргашев ўз шогирдлари билан Ўзбекистонда тарқалган гельминтоз касалликларини тўла тўкис йўқотишга қаратилган илмий ишларни самарали олиб бориб, 680 дан ортиқ илмий асарлар, монографиялар, дарсликлар, ўқув қўлланмалар яратган. Бир неча нафар фан номзодлари ва фан докторлари тарбиялаб етиштирди. Ўзбекистонда гельминтологиянинг ривожланишини 3 босқичга бўлиш мумкин. Булар:

1 босқич – 1905-1935 йиллар, бу даврда Ўзбекистонда академик К.И.Скрябин иштирокида одам ва ҳайвонларда учрайдиган гельминтларни ўрганиш, гельминтологиянинг шаклланиши ва ривожланишини қайд қилиш мумкин.

2 босқич - 1930-1950 йиллар, бу даврда К.И.Скрябин йўлланмаси билан Ўзбекистонга келган В.С.Ершов ва Н.В.Баданин раҳбарликларида гельминтологик тадқиқотлар олиб борилиши билан боғлиқ, бўлган вақт оралиғини белгилайди.

3 босқич - 1950 йиллардан кейинги даврни ўз ичига олиб, бу босқичда К.И.Скрябин, В.С.Ершов ва Н.В.Баданин бошчиликларида ўзбек гельминтология мактабига асос солинади, ҳамда бир неча юзлаб маҳаллий юқори малакали мутахассис-паразитологлар тайёрланди.

1925-1929 йилларда қорамолларнинг пираплазмози ва тейлериози Г.А.Оболдуев, И.Г.Галузо, З.М.Бернадская, Г.Л.Кадиашвили, В.П.Подкопаев, томонидан ўрганилди. Н.А.Ливатов томонидан ҳайвонларда юқоридаги касалликларнинг ривожланишида қоннинг ўзгариши ўрганилди.

1935-1939 йилларда олим З.М.Бернадская, А.П.Мусерская жумхурият ҳудудидаги каналар фаунасини ўрганишга киришди.

Г.Х.У.Г, ДДТ, СК-9 нинг аскарицид таьсирини ўрганиш бўйича катта ишлар амалга оширилиб, пираплазмозларнинг олдини олишда улар кенг қўлланилди. Пироплазмин (А.В.Богородицкий), флавакридин (П.А.Лаврентьев), бигумал ва азидинлардан (К.А.Орифжонов, И.Х.Расулов, Э.К.Шмунк) фойдаланиш билан пираплазмидозларнинг химопрофилактикасининг имкониятлари ўрганилди. Ҳайвонларда тейлериозни даволаш воситалари қидирилди.

Урушдан кейинги йилларда Қорақалпоғистон ва Бухорода чорвачилик хўжаликлари от ва туя трипоносомозларидан зарарланиганлиги сабабли олимлар ана шу касалликларнинг келиб чиқиши, уларга қарши кураш чора-тадбирларни ишлаб чиқаришдилар.

1959-1969 йилларда қорамол пираплазмодиозига қарши чора тадбирлар бошланди. Бигумал, азидиндан фойдаланилди, натижасида бошқа жойлардан олиб келинган ҳайвонларнинг сақланишига имкон яратилди, қорамолларнинг летал ҳолатлари, камайди. Т.Х.Рахимов. Э.К.Шмунк, М.Т.Турсуновлар томонидан тейлериозни даволаш учун иқтисодий фойдали бўлган АБП (акрихин-бигумал-плазмоцид) препарати тақдим этилди. 1960 йиллардан бошлаб олим Ф.С.Саримсоқов кўй буностомози устида иш бошлади.

Ўзбекистон шароитида ҳайвонларда аноплоцефалятознинг эпизоотологияси ва қарши чора-тадбирлари ишлаб чиқилди (Ш.А.Азимов, Р.Х.Хаитов, М.Мардиев, Н.Х.Шевченко, Г.Пўлатов, С.А.Назарова, А.Мустакимов, Е.Шакиев) Қўйлардаги тизаниезиоз ва дикроцелиознинг иммунобиологик диагностикаси ишлаб-чиқилди (Ш.А.Азимов).

Корамоллардаги трематодоз, цестодоз ва нематодозларга қарши самарали антигельментларни қидиришда қўп аҳамиятли тадқиқот ишлари олиб борилди, гельминтозларнинг яйлов профилактикаси чора тадбирлари ишлаб чиқилди. Н.Х.Шевченко тизаниезиозда 2% ли мис купоросининг юқори унумдорлигини тасдиқлади. Э.Х.Эргашев, Г.Пулатов, А.Г.Мустақимов қорамол ва қўйларнинг мониезиоз ҳамда авителлинозида фенасал препаратининг самарадорлигини тадқиқ этдилар.

Э.Х.Эргашев ва А.О.Ориповлар томонидан ишлаб чиқилган гельминтозларга қарши қўйларни фенотиазин ва мис купоросли ош тузи аралашмаси билан профилактик қўшимча озиқлантириш гельминтология соҳасида амалга оширилган катта ютуқ ҳисобланади.

Ўзбекистонда гельминтологик тадқиқотлар олиб бориш, гельмитозларга қарши кураш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш бўйича маьлум бир систематика қайд қилинган.

1. Уй ва ёввойи ҳайвонларнинг гельминтофаунасини ўрганиш.
2. Асосий гельминтозларни аниқлаш мақсадида гельминтларнинг айрим турини тарқалиш даражасини ўрганиш.
3. Ўзбекистонда чорвачилик юритиладиган географик минтақаларнинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда турли иқлимий шароитларда асосий гельминтоз қўзғатувчиларининг мавсумийлиги ва ёшига қараб ўзгариши, ҳамда уларнинг биоэкологиясини аниқлаш.
4. Ниҳоятда кенг тарқалган хавфли гельминтозларга қарши курашда комплекс чора- тадбирларни ишлаб чиқариш ва уларни ветеринария амалиётида жорий этиш.

Ўзбекистонда гельминтологик тадқиқотларнинг ташкил этишнинг энг муҳим хусусиятларидан бири жумғурият ҳудудининг уч иқлимий-географик минтақаларга бўлинишидир. Бу минтақалар бир-биридан географик (рельефи, ернинг хусусияти), иқлимий (ҳаво ва ернинг намлиги, ҳарорати, йил фаслларининг давом этиш муддатлари, ёғин миқдори ва бошқалар) ўсимлик дунёси ва чорвачиликнинг хусусияти (яйловдан фойдаланиш, қўшимча озиқлантириш ва суғориш ишларини ташкил этиш ва бошқалар) жиҳатлари билан бир-биринидан фарқ қилди.

Олимлардан Э.Эргашев, Н.Матчанов, М.Аминжанов, В.Содиқовлар ценуроз ва эхинококкозга қарши курашнинг комплекс чора-тадбирларини амалга оширишда куйидаги тавсияларни берганлар. Булар: хизмат учун белгиланган ва шахсий уй соҳибларига қарашли итларни рўйхатдан ўтказиш, хўжаликда фойдасиз, дайди ит ва мушукларни йўқотиш, рўйхатдан ўтказилган барча итларни режали равишда гельминтсизлантириш, фермаларда ҳайвонларнинг сўйилишини назорат қилиш, гельминтсизлантириш майдончалари ва ветеринария санитария иншоотларини қуриш, ценуроз касаллигини ўз вақтида аниқлаш мақсадида ҳайвонларни клиник текширувдан ўтказиш, касалланган ҳайвонларни бир жойга тўплаб марказлаштирилган ҳолда боқиб семиртириш ва сўйишни ташкил қилиш. Эхинококкоз билан оғриган ҳайвонларнинг ички органларини итлар истеьмол қилишига йўл қўймаслик, кенг халқ оммаси орасида ветеринария билимларини фаол тарғиб қилишни йўлга қўйишдан иборат.

Республикамизда парандачиликни ривожланишда аскаридоз ва гетеракидоз сингари гельминтозлар катта зарар етказади. Бу гельминтозларга қарши курашда унумли чора–тадбирларни ишлаб чиқиш мақсадида Самарқанд қишлоқ хўжалик институти қошида хўжалик ҳисобидаги лабаратория ва “Ўзбекистон парандачилик саноати” қошидаги илмий ишлаб чиқариш лабараторияси муҳим фаолият кўрсатишган Республика парранда хўжаликлари шароитида паррандачиликда аскаридиози ва гетерокидозининг намоён бўлишини ўрганиш асосида уларни гельминтсизлантириш ҳамда биноларни девинвазия қилиш сингари тадбирий чоралар ишлаб чиқилди.

Ўзбекистон олимларининг асосий эътибори гельминтозларга қарши кураш чора-тадбирларини янада такомиллаштиришга қаратилган. Шу борада қишлоқ хўжалик ҳайвонларини озиқлантириш ва суғоришда антигельминтикларни табий равишда сув ва

озуқаларига қўшиб бериш ишлари йўлга қўйилган. Бу усул К.И.Скрябиннинг девастация тамойилига асосланган.

Бундан ташқари ўзбек олимлари ва чет эл олимлари фаннинг назарий ва амалий томонларини ўрганиш билан машғул. Паразитология соҳасида махсус журналларнинг чоп этилиши, конгресс, конференцияларнинг ўтказилиши, илмий-тадқиқот муассасаларнинг илмий ишларининг натижаларининг эълон қилиниши юқоридагиларга мисол бўла олади.

Гельминтолог олимларнинг асосий ютуқларидан бири гельминтларни сунъий озиқавий муҳитда ўстириш, бунинг натижасида паразитнинг ривожланиши ва ўсиш давридаги морфологиясини, хусусиятларини ўрганиши, паразит организмдан ажралиб чиқаётган турли моддаларни аниқлаш, касаллик диагнозини аниқлаш каби маълумотларга эга бўлганлар.

ХУЛОСА

Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики Ўзбекистон ветеринарияси хусусан ветеринария паразитологияси тарихи бўйича маълумотлар етарли, аммо уларнинг 99%и рус тилида эканлигини инобатга олиб ушбу тарихий маълумотларни ўрганиш замонавий ветеринария медицинасида катта аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Gaznakulov, T., Aminjonov, S., Achilov, T., Alikulov, Z., Khushnazarov, A., & Klichova, M. (2025). DIAGNOSIS AND PREVENTION OF ZOOANTHROPONOSIS (COENUROSIS, ECHINACOCCOSIS, CYSTICERCOSIS). *Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice*, *1*(4), 208-214.
2. Gaznakulov, T., Allamurodova, M., Khushnazarov–PhD, A., & Urinova, G. (2025). RABIES EPISODE AND CONTROL MEASURES. *Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice*, *1*(4), 117-123.
3. Мухаммадиев, У. И., Хушназарова, М. И., & Давлатов, Р. Б. (2023). DIAGNOSTICS AND PROPHYLAXIS OF RABBIT PASTEURELLIOS (LITERATURE ANALYSIS).
4. Газнакулов, Т., Аминджонов, Ш., Ачилов, Т., Аликулов, З., & Кличова, М. (2025). Диагностика и профилактика зооантропонозов (ценуроз, эхинококкоз, цистицеркоз). *in Library*, *1*(1), 1-5.
5. Газнакулов, Т., & Хушназаров, А. (2023). Литературный обзор по истории развития эпизоотологии и изучения бешенства. *in Library*, *1*(2), 7-9.
6. Турсунқулов, А. Р., & Хушназаров, А. Х. (2020). ҲАЙВОНЛАРНИНГ ЛАРВАЛЬ ЦЕСТОДОЗЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ. *ҚОРАКЎЛЧИЛИК ВА ЧЎЛ ЭКОЛОГИЯСИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ*, *332*.
7. Хушназаров, А. Х., & Давлатов, Р. Б. (2023). HISTORY AND SYSTEMATIC STATUS OF THE STUDY OF RABBIT EYMEROSIS.
8. Xushnazarov, A. (2017). PARAMFISTOMATOZLARNING O'RGANILISH TARIXI VA SISTEMATIK HOLATI.
9. Хушназаров, А. (2023). История и систематическое состояние изучения эмероза кроликов (обзор литературы). *in Library*, *1*(2), 16-19.
10. Хушназаров, А. (2021). Эймериозная болезнь кроликов (на основе анализа литературы). *in Library*, *21*(4), 24-25.

11. Хушназаров, А. (2021). Разработка требования к периоду разработки (анализ литературы). *in Library*, *21*(2), 7-8.
12. Хушназаров, А. (2021). Диагностика, распространение эймерии кролика и химиопрофилактика (на основе обзора литературы). *in Library*, *21*(2), 516-520.
13. Хушназаров, А. (2022). Бекназаров Нурман Бекназарович был трудолюбивым и добрым человеком. *in Library*, *22*(1), 1-1.
14. Хушназаров, А. (2022). Самадов Гаффорджон Джабборович–человек, который находит счастье в своей профессии. *in Library*, *22*(3), 13-13.
15. Хушназаров, А. (2021). Он был добрым педагогом, опытным специалистом. *in Library*, *21*(1), 36-36.
16. Хушназаров, А. (2020). Он был добрым человеком. *in Library*, *20*(4), 36-36.
17. Хушназаров, А., & Исаев, Ж. (2024). К изучению гельми

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ / TABLE OF CONTENTS

01.00.00 – Fizika-matematika fanlari

1. **FTIR SPECTRUM ANALYSIS OF SILICON DOPED WITH ERBIUM** 7
Sharifa B. Utamuradova, Jonibek J. Khamdamov, Bekzod Sh. Alikulov, Khojakbar S. Daliyev
2. **RAMAN SPECTROSCOPIC ANALYSIS OF TUNGSTEN SILICIDE (WSI_2) PHASE FORMATION AND LATTICE STRESS IN P-TYPE SILICON.** 16
Sh.B. Utamuradova, Sh.Kh. Daliev, J.J. Khamdamov, Y.Z. Mardiyev

02.00.00 – Kimyo fanlari

3. **YUQORI MOLEKULYAR BIRIKMALAR KIMYOSIDAN MASALALAR YECHISHNING O‘ZIGA XOSLIGI** 25
Dexkonov Raxmatilla Sultonovich
4. **TURLI TABIIY MANBALARDAN AJRATIB OLINGAN POLISAXARIDLARNING ДИСПЕРСЛИК ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ** 31
Dexkonov Raxmatilla Sultonovich
5. **ИЗУЧЕНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ЭФИРНОГО МАСЛА НАДЗЕМНОЙ ЧАСТИ РАСТЕНИЯ RANUNCULUS BALDSHUANICUS** 36
Дехконов Рахматилла Султанович
6. **ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННОЙ СТРУКТУРЫ И СПЕКТРАЛЬНЫХ СВОЙСТВ МОЛЕКУЛЫ 2,5-ДИФЕНИЛОКСАЗОЛА (PPO) С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КВАНТОВО-ХИМИЧЕСКИХ МЕТОДОВ** 41
Х.З.Ботиров, У.Ж. Турдиев, Т.Й. Муродов, И.А. Рахматуллаев, П. Хонг

03.00.00 – Biologiya fanlari

7. **BAMIYA (*Hibiscus esculentus* L.) SABZAVOT O‘SIMLIGI TARKIBIDAGI AMINOKISLOTALAR MIQDORINI ANIQLASH** 49
D.O’.Bozorova, N.CH Namozov, A.X.Islomov, SH.A.Tinchlikova
8. **BIOXILMA-XILLIGI XAVF OSTIDAGI HUDUD SIFATIDA FARG‘ONA VODIYSIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TURLARNING XALQARO MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASH NATIJALARI** 55
G‘ulomov Rustamjon Komiljon o‘g‘li, Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o‘g‘li, Toshmatov Sarvar Omonjon o‘g‘li, Dexqonov Davron Burxonovich, Batoshov Avazbek Risqulovich, Tog‘ayev Ibrohim Usamovich, Sheraliyev Abdurahmon

05.00.00 – Texnika fanlari

9. **ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI KONDENSATOR QURILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI (IES KONDENSATORLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH)** **65**
B. X. Yunusov, B.R. Mamadiyev
10. **KESIK KONUSSIMON QUVURLI QUYOSH SUV ISITGICH KOLLEKTORINING ISSIQLIK UZATILISHI VA SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TAHLILI.** **69**
Esanaliyeva N.R.
11. **GIBRID ELEKTR STANSIYASINI ENERGIYA SAQLOVCHI TIZIMSIZ ELEKTR TARMOQQA ULASH.** **75**
Rajabov Jamoliddin Baxtiyar o‘g‘li
12. **QUYOSH RADIATSIYASINI PYTHON DASTURLASH YORDAMIDA MODELLASHTIRISH VA EKSPERIMENTAL MA’LUMOTLAR BILAN TAQQOSLASH** **80**
Roziqov Jurabek Yuldashboy o‘g‘li, Ro‘ziboyev Valijon Umarali o‘g‘li, Kamolova Muhabbat Muhiddin qizi, Ahmedova Shalola Yunusali qizi
13. **ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭНЕРГЕТИКЕ** **87**
Кувондиков Камронбек Одилбек угли

07.00.00 – Tarix fanlari

14. **SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTON SSR (1960–1980 YILLAR) QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARIDA ILMIY KADRLAR TAYYORLASHNING TARIXIY TAHLILI** **92**
Nasilloyev Sunnat Shavkat o‘g‘li

10.00.00 – Filologiya fanlari

15. **“XUROSONDAGI AYYORLIK”: TARIXIY HIKOYA, MILLIY O‘ZLIK VA AYYORLIKNING BADIIY IFODASI** **98**
Uktamova Xilola

13.00.00 – Pedagogika fanlari

16. **AKSIOLOGIK QARASHLAR YORDAMIDA TALABALARNING FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI** **102**
Djumaqulov Shuxrat Baxodirovich
17. **FORMATION OF A DIGITAL CULTURE OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS** **108**
G. R. Muratova

18. **DEVELOPING CREATIVE PROBLEM-SOLVING SKILLS THROUGH PSYCHOLOGICAL STRATEGIES IN PRIMARY EDUCATION** 112
Gulyamova Nigina Azimovna
19. **WAYS OF METHODOLOGICAL PREPARATION OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR FLIPPED LEARNING TECHNOLOGY** 118
Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich, Hamidova Laylo Kamildjonovna
20. **YUQORI SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA TASHKILIY VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR** 124
Jarilkasinova Lola Tangirbergenovna, J.E.Eshnazarov
21. **INTEGRATIVE EDUCATION AS A FRAMEWORK FOR STRENGTHENING TRANSLATORS' PERFORMANCE IN SITUATIONAL CONTEXTS** 129
Lutfullayev Pulatkhon Mukhibullaevich
22. **RAQAMLI TA'LIM VOSITALARI YORDAMIDA TALABALARNING AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-AXBOROTIY MODELI** 135
Maxkamova Gulbahor Xamzaevna
23. **YOSH FUTBOLCHILLARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI ANIQLASH USULLARI** 142
Niyozmatov Elbek Rustamaliyevich
24. **FUTBOLCHILARINING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI XAMDA HARAKAT FAOLIYATI TEKSHIRISH VA EMOTSIONAL HOLATINI BAXOLASHNING METODLARI** 149
Satiev Shuxrat Komilovich.
25. **FOUNDATIONS OF EVALUATION TECHNOLOGY FOR THE ACTIVITIES OF PROFESSORS AND TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS** 154
Urakov Sherzod Raxmanovich, Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li
26. **MAKTAB O'QUVCHILARINI ASOSIY GIMNASTIKA VOSITA VA USLUBLARI ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH** 157
Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich
27. **6 – 10 YOSHLI O'QUVCHILARNI ASOSIY GIMNASTIKA VOSITA VA USLUBLARI ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH** 162
Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich
28. **JISMONIY MASHQLARNING TALABALAR VA YOSH AVLOD ORGANIZMIGA TA'SIRI** 166
Xojimirzayev Shuxratjon Dedamirzayevich
29. **BELBOG'LI KURASH VA UNGA O'XSHASH SPORT TURLARI TEXNIK USULLARINING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI** 171
Z.S.Artiqov

30. **ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ (на примере Самаркандского педагогического института)** 174
Холбоева Ситорабону Зохир кизи, Лутфуллаева Жасмина Талъатовна

31. **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ** 178
Холбоева Ситорабону Зохир кизи, Хасанова Махбубабону Алишеровна

32. **ФОРМИРОВАНИЕ АКТИВНОЙ ЖИЗНЕННОЙ ПОЗИЦИИ И ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА** 182
Халимбетов Ю.М., Юлдашев С.Ж., Коржавов Ш.О.

33. **ПРИМЕНЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ БОРЦОВ** 187
Чориев Учкин Суюн угли

14.00.00 – Tibbiyot fanlari

34. **CLINICAL AND THERAPEUTIC ASPECTS OF CERVICAL OSTEOCHONDROSIS: PATHOGENESIS, SYNDROMOLOGY, AND MODERN TREATMENT APPROACHES** 191
Abdulhakimov Parvoz Vaxob ugli

35. **DRUG-RESISTANT EPILEPSY: CURRENT CONCEPTS, PATHOGENESIS, RISK FACTORS** 199
Abduvoyitov Bobur Bahodirovich

36. **OUTCOMES OF SURGICAL TREATMENT OF DRUG RESISTANT EPILEPSY** 207
Abduvoyitov Bobur Bahodirovich

37. **COMPLICATIONS IN THE POSTOPERATIVE PERIOD IN PATIENTS WITH COMBINED TRAUMATIC BRAIN INJURY** 214
Aliev Mansur Abdukholikovich

38. **COURSE OF EPILEPTIC SEIZURES IN PATIENTS AFTER TRAUMATIC BRAIN INJURY: CLINICAL OBSERVATIONS OF 23 CASES** 226
Aliev Mansur Abdukholikovich

39. **EARLY CEREBRAL REVASCULARIZATION FOR THE PREVENTION OF RECURRENT ISCHEMIC STROKE** 236
Kilichev Farrukh Akhmadovich

40. **EARLY REHABILITATION AFTER STROKE IN THE NEUROSURGICAL CLINIC OF SAMARKAND** 244
Kilichev Farrukh Akhmadovich

41. **ORGANIZATION OF THERAPEUTIC PHYSICAL TRAINING IN THE NEUROSURGERY CENTER OF SAMARKAND STATE MEDICAL UNIVERSITY** 251
Ravshanov Davron Mavlonovich

42. **DIAGNOSIS AND CLASSIFICATION OF THYROID DISEASES** **256**
Shonazarova Nodira Xudoyberdiyevna, Toshtemirov Bobomurod Behzodjon o'g'li
43. **ВЛИЯНИЕ COVID-19 И ВАКЦИНАЦИИ ПРОТИВ SARS-COV-2 НА ЧАСТОТУ РЕАКТИВАЦИИ HERPES ZOSTER** **262**
Абдурасулова Жасмина Умаржоновна, Нарзикулов Рустам Мардонович
44. **ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНАЯ ДИАГНОСТИКА ЭРОЗИВНО-ЯЗВЕННОЙ ФОРМЫ КПЛ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ РТА И АУТОИММУННЫХ БУЛЛЁЗНЫХ ДЕРМАТОЗОВ** **272**
Абдурасулова Жасмина Умаржоновна, Нарзикулов Рустам Мардонович
45. **МЕТАБОЛИЧЕСКИЕ НАРУШЕНИЯ И ВИТИЛИГО: ОЦЕНКА УРОВНЯ ВИТАМИНА D, МИКРОЭЛЕМЕНТОВ, ГОМОЦИСТЕИНА** **280**
Акрамов Комилжон Шуҳрат угли, Сафаров Хуршид Абдуражабович, Орипов Рустам Анварович
46. **ПРИМЕНЕНИЕ ТОТАЛЬНОЙ ЛАМИНЭКТОМИИ И ВНУТРЕННЕЙ ФИКСАЦИИ ТРАНСПЕДИКУЛЯРНЫМИ ВИНТАМИ С МИКРОСКОПИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКОЙ ПРИ ОПУХОЛЯХ ПОЯСНИЧНОГО ОТДЕЛА ПОЗВОНОЧНИКА.** **287**
Алиев М.А., Раджабов Х.Х., Нурматов М. А., Холмуродова Х.Х., Холмуродов О.Х.
47. **РОЛЬ КОЖНОГО МИКРОБИОМА В ПАТОГЕНЕЗЕ СТАФИЛОКОККОВЫХ И СТРЕПТОКОККОВЫХ ПИОДЕРМИЙ** **294**
Баротова Мавжуда Раимовна
48. **ВЛИЯНИЕ ОКСИДАТИВНОГО СТРЕССА И МИТОХОНДРИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ НА РАЗВИТИЕ ВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ФОРМ АКНЕ** **299**
Баротова Мавжуда Раимовна
49. **РОЛЬ ОКСИДАТИВНОГО СТРЕССА И МИТОХОНДРИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ В ПРОГРЕССИРОВАНИИ АЛОПЕЦИИ** **306**
Исаев Жасурбек Музаффарович, Орипов Рустам Анварович
50. **ВЛИЯНИЕ ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА НА ИММУННЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПСОРИАЗА** **314**
Курбанов Шахбоз Ильхомович, Толибов Мансур Махмудович
51. **КАЧЕСТВО ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ С ВИТИЛИГО И ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ТЕРАПИИ** **321**
Насридинов Фариджон Абдураимович, Толибов Мансур Махмудович
52. **РАННЯЯ МЕДИЦИНСКАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ ПОСЛЕ НЕЙРОХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ОПУХОЛЕЙ ГОЛОВНОГО МОЗГА В УЗБЕКИСТАНЕ** **327**
Равшанов Даврон Мавлонович
53. **МЕТАБОЛИЧЕСКИЙ СИНДРОМ КАК СИСТЕМНЫЙ ФАКТОР ТЯЖЁЛОГО ТЕЧЕНИЯ ЭКЗЕМЫ** **336**
Эшонкулов Содик Холикович, Толибов Мансур Махмудович

16.00.00 – Veterinariya fanlari

54. **XIKOL ZOTLI QUYONLAR EYMERIOZIDA QONNING GEMATOLOGIK KO‘RSATKICHLARI (Bo‘riboy Mustayev zamin nur f/x misolida)** 344
A.X.Xushnazarov, R.B.Davlatov

55. **FARMAKOPEYADAGI EFIR MOYLI O‘SIMLIKLAR, ULARNING KIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI** 349
Botirova Marguba Sadullayevna, Farmanov Nizom

56. **QON CHO‘PI (CHELIDONIUM MAJUS) O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA CHISTOTEL PREPARATINING QUYONLAR TERISIGA FARMAKOTOKSIKOLOGIK TA’SIRI** 354
D.A.Ernazarov, H.B.Niyozov

57. **RESPUBLIKAMIZ YAYLOVLARIDA TARQALGAN ZAHARLI O‘SIMLIKLARNI O‘RGANISH** 359
H.R.Zarifov, M.A.Aslonova, A.A.Xoliqov, A.A.Azamatov

58. **SINBOVIL PASHSHALARGA QARSHI BIOINSEKTITSID PREPARATINING SAMARASI** 368
Ismoilov Adxam Shuxratovich

59. **VETERINARIYA AMALIYOTIDA QORAMOLLAR TEYLERIOZINI ANIQLASHDA GEMATOLOGIK TAHLILNING O‘RNI** 372
N.U.Karimova, Q.X.G‘oyibnazarov, A.G.Gafurov

60. **QISHLOQ XO’JALIK HAYVONLARINING PASTERELLYOZ, KOLIBAKTERIOZ VA SALMONELLYOZ KASALLIKLARIGA QARSHI POLIVALENT GOA FORMOL VAKSINANING BUZOQLAR ORGANIZMIGA TA’SIRI HAMDA KASALLIKLARGA QARSHI KURASH CHORALARI** 377
Navruzov N.I.

61. **SIGIRLARDA GINEKOLOGIK KASALLIKLARNI DAVOLAShDA REGOSTENOL PREPARATINI SAMARASI** 389
O.U.Kuldoshev, J.N.Ochilov, B.B.Tursinaliyev, S.A.Suvanov, N.S.Salohiddinova

62. **SIGIRLARDA HOMILA YO‘LDOSHNING USHLANIB QOLISHINI OLDINI OLISHDA GONADIN VA FERTADIN PREPARATLARINING SAMARASI** 393
Ochilov Jamshid Nasirdinovich

63. **SAMARQAND VILOYATIDA QO‘YLAR OSHQOZON-ICHAK STRANGILYATOZLARINING TARQALISHI** 397
Uluqov Behzod Karamat o‘g‘li, Jabborov Shuxrat Abdumajidovich

64. **NAVOIY VILOYATIDA QO‘YLAR OSHQOZON-ICHAK STRANGILYATOZLARINING TARQALISHI** 402
Uluqov Behzod Karamat o‘g‘li, Jabborov Shuxrat Abdumajidovich

65. **SAMARQAND VILOYATIDA BALIQLAR LIGULYOZINING TARQALISHI VA ZARARLANGAN BALIQLAR GO‘SHTINI VETERINARIYA-SANITARIYA JIHATIDAN BAHOLASH** 407
Xamrayev Asqar Xasanovich
66. **ҚОРАМОЛЛАРГА МУЛТИВИТ+МИНЕРАЛЛАР ВА БОДИФОРС ПРЕПАРАТИ ҚЎЛЛАГАНДА УЛАР ҚОНИНИНГ МОРФОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ.** 412
В.У.Рузимов, Ниёзов Ҳ. Б., Д.А.Эрназаров
67. **ЎЗБЕКИСТОНДА ВЕТЕРИНАРИЯ ПАРАЗИТОЛОГИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ (адабиёт маълумотлари)** 419
Т.Н.Ачилов, Ш.М.Аминжонов, А.Х.Хушназаров

Academy of Sciences and Innovations
International Scientific Journal
Research Focus
Volume 4 Issue 11

Ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasi
Research Focus
xalqaro ilmiy jurnali
2025 yil 11-soni

ISSN: 2181-3833

"**Ilm-fan va innovatsiyalar akademiyasi**" MCHJ
Refocus.uz , admin@refocus.uz, + 998 94 516 05 50